




# POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASIDAN AMALIY MASHG'ULOTLAR





541.6  
A-90


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

M.A.ASQAROV, I.I.ISMOILOV

POLIMERLAR KIMYOSI  
VA FIZIKASIDAN AMALIY  
MASHG'ULOTLAR

*Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan (B 523100 — Sintetik  
va tabiiy yuqori molekulali birikmalarning kimyoviy texnologiyasi va  
B 522400 — yuqori molekulali birikmalar, plastmassa va  
elastomerlarning kimyoviy texnologiyasi) — bakalavriat ta'lif  
yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*

Toshkent  
«Yangi asr avlod»  
2006



*Ushbu darslik talabalarning «Polimerlar kimyosi va fizikasi» nazariy kursini chuqur bolib olishlariga va amaliy vazifalarni bajarishlariga yordam beradi; qo'llanmada sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan usullar, tajribalar va tekshirish qoidalariga alohida e'tibor berilgan, shuningdek, darslik ilmiy tekshirish muassasalari va kimyoviy korxona laboratoriyalari xodimlari, texnika va pedagogika institutlarining kimyo fakulteti talabalari va o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.*

*Taqrizchilar:*

**Yu.T. TOSHPO'LATOV,**  
O'z FA akademigi, kimyo fanlari doktori, professor

**A.S. RAFIQOV,**  
kimyo fanlari doktori, professor


POLIMERLAR KIMYOSI  
VA FIZIKASIDAN AMALIY  
MASHG'ULOTLAR

... — 1993-yilda o'sishdi. 1995-yilning 18-iyuldan 2005-yilning 18-iyuliga qadiriyligida o'sishdi. ... — 1993-yilning 18-iyulidan 2005-yilning 18-iyuliga qadiriyligida o'sishdi. ... — 1993-yilning 18-iyulidan 2005-yilning 18-iyuliga qadiriyligida o'sishdi. ... — 1993-yilning 18-iyulidan 2005-yilning 18-iyuliga qadiriyligida o'sishdi.

ISBN 5-63301944-X

© M.ASQAROV, I.ISMOILOV

«Polimerlar kimyosi va fizikasidan amaliy mashg'ulotlar»,  
«Yangi asr avlodи», 2006-yil.



## **SO'Z BOSHI**

*Polimerlar kimyosi va sanoati tobora yuksalib borayotgan xalq xo'jaligining sohalariga yangidan-yangi kimyoviy mahsulot — tola, plasmassa, sintetik kauchuk, lok va bo'yoqlar yetkazib beradi.*

*Shuning uchun ham behisob kimyoviy xom ashyo, ko'mir, nest, tabiiy gazlar va boshqa tabiiy qazilmalarga boy bo'lgan mamlakatimizda polimerlar sanoatini rivojlantirish ishi ustivor vazifaga aylandi. O'zbekiston ham o'zining tabiiy polimerlar va sintetik mahsulotlar asosi bo'lgan nest va gaz konlari jihatidan dunyoning asosiy va ko'p tarmoqli kimyo sanoati markaziga aylandi.*

*O'zbekistonning aksariyat joylarida, xususan, Toshkent, Buxoro, Samarqand, Navoiy, Qashqadaryo va Farg'ona viloyatlarida polimerlar ishlab chiqarish korxonalari barpo etildi. Bunday katta vazifalarni amalga oshirishda polimerlar kimyosi mutaxassislarining o'rni kattadir. Hozirning o'zida bunday mutaxassislar tayyorlash Respublikamizning bir qator oliy o'quv yurtlarida, jumladan, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, Toshkent Davlat Texnika universiteti, Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi instituti, shuningdek, boshqa ilmiy tekshirish muassasalarida yo'lga qo'yilmoqda. Biroq o'zbek tilida shu vaqtga qadar polimerlar kimyosi va polimerlar sanoatiga oid bor-yo'g'i bitta qo'llanma yozilgan.*

*Bundan tashqari, to'rti-besh yil muqaddam xorijiy tillarda nashr etilgan qo'llanmalar tez rivojlanayotgan polimerlar kimyosi va fizikasi fanining hozirgi talablariga javob bera olmaydi.*

*Yuqorida keltirilgan sabablarga ko'ra, oliy o'quv yurtlarining kimyo, kimyo-texnologiya fakultetlaridagi hamda yondosh ixtisosliklardagi talabalarning polimerlar kimyosini mukammal o'rganishini osonlashtirish maqsadida mualliflar ushbu kitobni yozishga ahd qildilar.*

*Mualliflar ushbu darslik ilk bora o'zbek tilida chop etilayotganligi uchun ayrim kamchilik va qusurlardan xoli emasligini bildiradilar hamda darslik bo'yicha fikr va mulohazalarini Toshkent shahri, Shohjahon ko'chasi 5, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti manziliga yozib yuborishlariningizni so'raydilar.*

**Mualliflar**

## KIRISH

Polimerlar so'zi «polimeros» so'zidan olingan bo'lib (poli-ko'p; meros-uzunlik). — molekulasi juda uzun kimyoviy moddalar demakdir. Har xil kimyoviy moddalarning o'ziga xos molekular massasi bo'ladi. Kimyoviy birikmalar molekular massasiga qarab, past molekular va yuqori molekular moddalarga bo'linadi.

Polimerlar kelib chiqishiga qarab, tabiiy, sun'iy va sintetik polimerlarga bo'linadi. Tabiiy kauchuk va ipak, paxta sellulozasi, hayvonlar terisi, junlar — bularning hammasi tabiatda o'simlik va hayvonot organlarida vujudga keladi. Shuning uchun ham ular tabiiy polimerlar guruhiga kiradi. Sintetik kauchuklar, kimyoviy tolalar, plastmassalar, jumladan, polietilen, polistirol, polivinilxlorid, naylon, kapron va boshqalar oddiy moddalarning biriktirilishi natijasida hosil qilinadi, shuning uchun ham ular sintetik polimerlar guruhini tashkil etadi.

Kundalik turmushda tabiiy polimerlarning ahamiyati juda katta. O'simliklarning asosiy qismini tashkil etuvchi modda — selluloza tabiiy polimerlarning eng ko'p tarqalgan turidir. Paxtada selluloza moddasi 97 % ga boradi. Mamlakatimizda selluloza ishlab chiqarish uchun yiliga 4 mln tonna paxtadan tashqari, daraxt va somondan ham foydalaniлади.

Pilla ipagi ham tabiiy polimerlar bo'lib, unda ajoyib xossalari — yengillik, yaltiroqlik va puxtalik xususiyatlari mavjud. Oqsillar tirik organizmlarning asosiy tuzilish mahsulotidir. Tuxum, muskul, soch, jun — bularning hammasi oqsillardan tuzilgan. Odamzod oqsil moddalaridan ham unumli foydalangan. Masalan, mol terisini dub ekstrakti va xrom tuzlari yordamida oshlab, ko'nga aylantirish azaldan ma'lum. Demak, o'simlik va hayvonlar — biologik usulda yuqori molekular moddalar sintez qilishning eng qudratli manbaidir.

Olimlarning ko'p yillik izlanishlari natijasida tabiiy polimerlarni juda ko'p bir xil atom yoki molekulalardan tuzilganligi aniqlandi. Tabiiy polimerlardan ba'zilarini yoki ularning analoglarini sintetik usulda hosil qilish ishlari avj oldirib yuborildi. Natijada, tabiiy kauchuk o'rniغا sintetik kauchuklar, selluloza va ipak o'rniغا sintetik tolalar,

yog'och va metall o'rniغا puxta plastmassalar, yangidan-yangi laklar, bo'yoqlar ishlab chiqarilayapti.

Hozirgi ko'p tarmoqli texnologiyalarning barcha sohalarida sintetik polimerlar ishlatish shu qadar ko'payib ketdiki, bunday mahsulotlar oldindan ishlatilib kelinayotgan aksariyat tabiiy polimerlarning o'rni bosmoqda. Haqiqatan ham, tovushdan tez uchuvchi reaktiv samolyotlar, odamni ~~kosmospa~~ eltuvchi yo'ldosh kemalar, ajoyib televizor va radiopriyonniklar, avtomobillar va kemalar, chiroyli uyro'zg'or jihozlarini tayyorlashda va to'qimachilik sanoatida sintetik polimerlardan foydalanish yuksak samaralar beryapti. Hozirgi vaqtda sanoatning polimerlar ishlatilmaydigan birorta ham sohasi yo'q desa bo'ladi. Texnikaning yanada taraqqiy etishi yangidan-yangi xossalarga ega bo'lган polimerlarning hosil qilinishi va ishlatilishi bilan chambarchas bog'liqidir.

Ikkinci tomondan, yuqori molekular moddalar past molekular moddalardan hosil qilinadi, bu ikki xil moddalardagi atomlarning o'zarobog'lanishi ham bir-biriga o'xshaydi. Ammo molekulalarning kattalashuvi natijasida hosil bo'lган makromolekulalar mexanik, fizik va kimyoviy xossalari jihatidan past molekular moddalardan farq qiladi. Polimerlarga xos asosiy xususiyat ularning molekular massasi ma'lum qiymatiga yetgandan so'nggina paydo bo'la boshlaydi.

Tabiiy polimerlar o'simlik va tirik organizmlarda vujudga keladi, ularga ba'zi yangi xossalalar berish maqsadida kimyoviy qayta ishlanib, sun'iy polimerlarga aylantiriladi. Sellulozadan oddiy va murakkab efirlar hosil qilish, xom terini oshlab ko'nga aylantirish, kazein oqsilidan yelimlar tayyorlash su'niy polimerlar hosil qilishga misol bo'la oladi.

Hozirda kimyo sanoati, asosan ko'mir, neft-gaz, xom ashylardan xilma-xil sintetik polimerlar ishlab chiqarmoqda. Sintetik mahsulotlar rivojlanib borayotgan texnikaning ehtiyojlarini qondiribgina qolmasdan, balki ularning muhim xossalalarini yaxshilash va ishlab chiqarish manbalarini kengaytirish imkoniyatini beradi. Shuning uchun bu qo'llanmada sintetik polimerlar hosil qilish, ularning fizik va kimyoviy xossalarni o'rganish, sun'iy polimerlardan sellulozaning oddiy va murakkab efirlarini hosil qilish kabi masalalarni yoritishga e'tibor berildi.

Sintetik polimerlar past molekular birikmalarni, ya'ni monomerlarni polimerlanish va polikondensatlanish reaksiyalariga kiritish yo'li bilan olinadi. Bir qancha molekulalarning kimyoviy bog'lar bilan o'zarobog'lanishi.

bog'lanib, yuqori molekular modda hosil qilish reaksiyasi polimerlanish deyiladi. Polimerlanish natijasida qo'shimcha modda ajralib chiqmaydi, ya'ni monomerning boshlang'ich tarkibi o'zgarmay qoladi. Polimerlanish reaksiyasiga tarkibida bir, ikki va undan ortiq qo'sh bog' bo'lgan poliyenlar, atsetilen va uning vinilli hosilalari, sikl tuzilishdagi birikmalar kirishi mumkin. Polimerlanish reaksiyasi o'z tezligiga qarab, zanjirsimon va bosqichli reaksiyalarga bo'linadi. Bosqichli polimerlanishda monomer molekulalarining birikishi va uzayishi sekin-asta — bir necha soat davomida amalga oshadi. Zanjirsimon polimerlanishda esa monomer molekulalarining polimer molekulalariga aylanishi uchun sekundning milliondan bir ulushi kifoya. Zanjirsimon polimerlanish, o'suvchi molekula uchida sodir bo'layotgan reaksiyalarga qarab, radikalli va ionli bo'ladi. Radikalli polimerlanishda faol markaz juftlanmagan elektron, ya'ni erkin radikal ta'sirida vujudga kelib, boshqa monomerlar bilan shiddatli ravishda reaksiyaga kirisha boshlaydi. Polimerlanishning bu turi issiqlik, ultrabinafsha nurlar, rentgen va radioaktiv nurlar ta'sirida boshlanadi. Ba'zi hollarda esa radikalli polimerlanishni boshlab yuborish uchun maxsus initsiator moddalar ishlataladi. Initsiator moddalarning ahamiyati past haroratda oson parchalanishi va erkin radikallar hosil qilishidadir. Bu turdag'i polimerlanish issiqlik chiqarish bilan tobora tezlashib boradi. Shuning uchun, ba'zi reaksiyalarda sekinlashtiruvchi maxsus moddalar — ingibatorlar qo'shiladi.

Ionli yoki katalitik polimerlanish reaksiyasi shu reaksiyada ishtirot etib, pirovardida, ajralib chiquvchi moddalar — katalizatorlar ishtirokida boradi. Ionli polimerlanishda zanjir uchida kation yoki anion mavjud bo'lib, ular o'z zaryadlarini zanjir bo'ylab uzatishi orqali molekulaning uzayishiga imkoniyat tug'diradi. Demak, katalizatorlarning hosil qiladigan ionga qarab, katalitik polimerlanish kationli yoki anionli bo'ladi. Hozirgi vaqtida katalitik polimerlanish reaksiyasi qonunlarini ko'pgina olimlar qunt bilan o'rganmoqdalar, chunki bu reaksiya odatdag'i sharoitda va ba'zi hollarda, juda past haroratda ham izotaktik yoki stereoregulyar tuzilishdagi ajoyib xossal polimerlar olish imkoniyatini beradi.

Amalda ikki va undan ortiq xil monomerlarni qo'shma polimerlanish yo'li bilan yuqori molekular moddalar olinadi, bu moddalar sopolimer deb, reaksiya esa sopolimerlanish deb ataladi. Bunday reaksiyada monomerlarning xillarini va o'zaro nisbatlarini o'zgartirish yo'li bilan sopolimer xossalalarini cheksiz ravishda turlash mumkin bo'ladi.

Shuning uchun ham sopolimerlar ishlab chiqarish keng ko'lamda amalga oshirilmoqda.

Polimerlar olishning eng muhim reaksiyalaridan biri polikondensatlanish reaksiyasidir. Bir necha molekula birikib, suv, spirt, ammiak va shunga o'xshash moddalar ajralib chiqishi natijasida yuqori molekular birikmalar hosil bo'lish reaksiyasi polikondensatlanish deyiladi. Polikondensatlanish, polimerlanishning aksi, uncha tez bormaydi va tashqaridan issiqlik ta'sir ettirishni talab qiladi. Polikondensatlanish reaksiyasining to'la borishi uchun ikkita muhim shart bajarilishi, birinchidan, reaksiyada ikki monomer son jihatidan teng, ya'ni ekvimolekular bo'lishi va har xil funksional guruhlar ishtirok etishi, ikkinchidan, muvozanat xarakteridagi bu reaksiyada ajralib chiquvchi suv yoki past molekular boshqa moddalar o'z vaqtida muhitdan chiqarib yuborilishi kerak. Bifunktional birikmalarning polikondensatlanishi natijasida faqat chiziqsimon polimerlar hosil bo'ladi. Reaksiyaga kirishyotgan monomerlarning birida uch va undan ortiq funksional guruh mavjudligi polikondensatlanish reaksiyasini murakkablashtirib, to'rsimon hamda uch o'lchamli tuzilishga ega bo'lgan polimerlar hosil qiladi. Agar reaksiyada qatnashuvchi moddalarning ekvimolekular miqdori teng bo'lmasa, u holda yuqori molekular polimerlar hosil bo'lmaydi, chunki sistemada biror funksional guruh ikkinchisidan ko'plik qilib, zanjirlarning uzilishiga sabab bo'ladigan — destruktiv jarayonlar vujudga keladi va reaksiya barvaqt to'xtab qoladi. Hozirgi vaqtida bir qator organik va ko'pchilik kremniy — organik polimerlar faqat polikondensatlanish reaksiyasi asosida ishlab chiqariladi.

Umuman, polimerlar o'z zanjir asoslarini tuzishda ishtirok etgan elementlarga qarab, geterozanjirli va karbonzanjurli sinflarga bo'linadi. Karbozanjurli polimerlarning zanjir negizlari faqat uglerod-uglerod bog'laridan tuzilgan bo'ladi. Geterozanjirli polimerlarda esa makromolekula negizada uglerod-uglerod bog'laridan tashqari, uglerod-azot, uglerod-kislород, uglerod-fosfor va boshqa bog'larni ham uchratish mumkin.

Barcha polimerlar issiqlikka bo'lgan munosabatiga qarab, termoplastik polimerlar guruhi bilan termoreaktiv polimerlar guruhiga bo'linadi.

Termoplastik polimerlar haroratni oshirish bilan plastik va oquvchan holatga o'tib, sovutilganda yana qattiq holatga qaytadi. Bu jarayonlar vaqtida polimerlarning kimyoviy tarkibi o'zgarmaydi.

Bunday moddalarga chiziqsimon tuzilishdagi ko'p polimerlar misol bo'la oladi. Chiziqsimon polimerlarning asosiy xususiyati shundan iboratki, ularda har bir uglerod atomi qo'shni atomga nisbatan cheklangan maydonda aylanadi. Barcha atomlarning shu yo'sinda aylanishi natijasida polimer molekulalari to'g'ri chiziq shaklida bo'lmay, turlicha chalkash (g'ujanak) shakllar hosil qiladi. Ammo tashqaridan kuch ta'sir ettirib, molekulalarning joylashish shaklini o'zgartirish mumkin. Masalan, ilgari chalkashgan makromolekulalarni cho'zganda ular to'g'rilanadi, cho'zish to'xtatilganda esa yana avvalgi holiga keladi. Bu hodisa faqat polimer moddalari uchun xos bo'lib, yuqori elastik deformatsiya deyiladi.

Termoplastik polimerlarning ishlatalish sifatlarini aniqlovchi uch harorat intervali va ikki harorat qiymati topilgan. Birinchi harorat qiymati shishalanish harorati bo'lib, bu haroratdan pastda polimer shishasimon va mo'rt holatda, undagi makromolekulalar esa tartibsiz ravishda qotib qolgan bo'ladi. Ikkinci harorat qiymati oquvchanlik harorati bo'lib, bunda polimer oqish holatiga o'tadi, chunki issiqlik ta'sirida polimer zanjirlari juda chaqqon harakat qilib, molekulalararo ta'sir kuchlar juda kamayib ketadi yoki yo'qoladi. Termoplastik polimerlarning yuqori elastik deformatsiya intervali shishalanishi harorati bilan oquvchanlik harorati orasida bo'ladi. Bu intervalda polimer zanjirlarining ayrim bo'g'lnlari issiqlikdan harakatlanadi-yu, lekin makromolekulalar o'z o'midan siljimaydi.

Termoplastik polimerlar organik erituvchilarda eriy oladi va shuning uchun ularning molekular massasini topish qiyin bo'lmaydi. Biroq polimerlarning molekular massasi haqidagi tushuncha past molekular birikmalarning molekular massasi haqidagi tushunchadan farq qiladi.

Past molekular birikmalarning molekular massasi shu birikmalarni hosil qilgan elementlar atom massalarining arifmetik yig'indisidan iborat aniq sondir. Masalan, etil spirtining molekular massasi 46 ga teng. Ammo polimerlanish va polikondensatlanishda faol markazlarning birin-ketin paydo bo'lishi, ularning har xil sharoitda o'sishi va uzilishi natijasida turli uzunlikdagi makromolekulalar hosil bo'ladi. Demak, polimer zanjirlari tartib va tuzilishi bir xil, ammo molekular massasi har xil bo'lgan makromolekulalardir, ular polimerlar gomologik qatori deyiladi. Ba'zi makromolekulalarda monomerning minglab qoldiqlari bo'lsa, ba'zilarida bu qoldiqlar kamroq, boshqa ba'zilarida esa monomer molekulalari yanada kamroq bo'ladi. Odatda,

makromolekulani tashkil qiluvchi monomerlar soni polimerlanish darajasi deyiladi va *n* harfi bilan belgilanadi. Polimerlanish darajasi har xil bo'lgan makromolekulalar aralashmasini, ya'ni polidispers polimerni ayrim va teng qiymatli molekulalarga ajratib bo'lmaydi. Shu sababli har bir zanjirning molekular massasini alohida-alohida aniqlab bo'lmaslik ham tabiiydir. Bunday ahvoldan chiqish uchun kimyogarlar polimerlarni o'rtacha molekular massasi qiymati bilan xarakterlaydilar. Makromolekulalar massasi yig'indisining shu molekulalar soniga nisbatan polimerning o'rtacha molekular massasini ifodalaydi. Masalan, polistrolning o'rtacha molekular massasini 200000 deyilsa, bu polimerda ko'pchilik zanjirlarning massasi shu qiymat chamasida ekanligi tushuniladi. Haqiqatan ham, ayni namunaning o'zida molekular massasi 200000 dan ortiq va undan kam molekulalar borligini aniqlash mumkin.

Polimerlarning polidisperslik xususiyatini o'rganish ularning mexanik xossalari yaxshilash nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga egadir; polimerlarning bu xususiyati fraksiyalash usuli bilan o'rganiladi. Fraksiyalash natijasida polimer bir necha qismga ajralib, bu qismlardagi polidisperslik darajasi ancha kamayadi.

Termoreaktiv polimerlar issiqlik ta'sirida suyuqlanmay, tobora qattiqlashib boradi. Bunday polimerlar to'rsimon yoki uch o'lchamli holatlarga o'tib, organik erituvchilarda ham mutlaqo erimaydi. Shu sababli, termoreaktiv polimerlarning polimerlanish darajasini va molekular massasini aniqlash deyarli mumkin bo'lmaydi.

Biz yuqorida polimerlar kimyoning asosiy qonunlari bilan qisqacha tanishib o'tdik. Ushbu kitobda yuqori molekular moddalarining eng muhim nazarini va amaliy masalalari ko'rib chiqildi.

Kitobda keltirilgan amaliy topshiriqlarni tanlashda polimerlar kimyosidan ma'lum bo'lgan behisob misollardan faqat sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan, ayniqsa, yaqin kelajakda ishlataladigan polimerlarga alohida ahamiyat berildi. Qo'llanmada topshiriqlarni bajarishda zarur bo'lgan moddalar fizik-kimyoviy xossalarning jadvallari ham aks ettirildi.

Bo'lajak mutaxassislarining xorijda nashr etilayotgan kimyoviy kitoblardan foydalanishlariga qulaylik yaratish maqsadida referativ jurnallardan foydalanish usullari ham berildi.

### POLIMERLARNING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI

Yuqori molekular moddalar bir qancha xossalari jihatidan past molekular moddalardan mutlaqo farqlanadi. Bu farqlardan biri polimer molekulalarining juda kattaligi va polidispersligidir. Polimer moddalar kimyoviy tarkibi va molekular tuzilishi bir xil, lekin uzunligi har xil bo'lgan polimergomologlardan tuzilgan. Bu polimergomologlar o'zlarining kimyoviy va fizik-kimyoviy xossalari jihatidan bir-biridan juda kam farq qiladi. Shuning uchun ularni alohida-alohida makromolekulalarga ajratib bo'lmaydi. Polimerlar fraksiyalarga ajratilganda ham ular polidispers holatda bo'lganligi bois, makromolekulalar uchun o'rtacha statistik molekular massa degan tushuncha qabul qilingan. O'rtacha molekular massa polimerlarning hosil qilinish yo'llariga va molekular massaning aniqlanish usullariga bog'liqidir.

Polimerlarga xos xususiyatlarni nolga tengligi, ya'ni harorat ko'tarilishi bilan bug' holatiga o'tmasligidir. Shu sabab yuqori molekular moddalar faqat ikki agregat holatda — qattiq va suyuq holatlardagina bo'ladi. Harorat juda yuqori bo'lganda yuqori molekular moddalar kimyoviy bog'larning uzilishi hisobiga parchalanib, past molekular moddalarga aylanadi.

Polimerlarning past molekular moddalardan yana bir farqi shuki, polimerlarda makromolekula xossalari molekula zanjirini hosil qiluvchi elementlar bo'g'in tabiatiga bog'liqidir. Amalda polimer molekulasining barcha elementar bo'g'lnlari bir xil kimyoviy xossalarga ega bo'ladi va reaksiyalarga mustaqil ravishda kirishadi. Polimerning kimyoviy xossalari elementlar bo'g'iniga bog'liq bo'lsa, ularning fizik-kimyoviy xossalari makromolekulalarning ma'lum bo'laklari yoki segmentining uzunligi, egiluvchanligiga bog'liq bo'lib, egiluvchanlik ortgan sari kamayib boradi. Makromolekulalar juda uzun bo'lganligidan ularning ba'zi bo'laklari bir-biridan uzoq masofada turadi va ularning o'zaro ta'sir kuchi juda oz bo'ladi. Makromolekuladagi segmentlar erish yoki deformatsiya jarayonlarida kinetik mustaqil holda harakat qiladi. Polimer molekulasi segmentining uzunligi harorat, tashqi kuch, erituvchi modda va boshqalarga ham bog'liqidir. Asosan polimerning

makromolekulalari chiziqsimon, tarmoqlangan yoki to'rsimon tuzilishda bo'ladi (1-rasm).


Chiziqsimon polimerlarning hammasi ma'lum erituvchilarda eriydi, ularning past konsentratsiyali eritmalar ham juda katta qovushoqlikka ega bo'lib, uning qiymati past molekular moddalarникдан bir necha o'n va hatto bir necha yuz marta ortiqdir.

Chiziqsimon polimerlarning bu xossalari makromolekulalarining o'zaro ta'sir kuchiga bog'liqdir, molekula uzunlashgan sari u kuchning qiymati ortib boradi.

Makromolekulalarning ikkinchi xili tarmoqlangan shaklda bo'ladi, bunday polimerlar chiziqsimon polimerlardan katta farq qiladi. Tarmoqlangan polimerlar ham yaxshi eriydi. Ular bir xil o'rtacha molekular massaga ega bo'lgan taqdirda chiziqsimon polimerlardan ko'ra ko'proq eriydi va eritmalarining qovushoqligi kamroq bo'ladi. Makromolekulalarning tarmoqlanishi ular mustahkamligining kamayishiga sabab bo'ladi, chunki bunday molekulalar zich joylashmaydi, ularning o'zaro ta'sir kuchi ham chiziqsimon molekulalarnikidan kamroq bo'ladi.

To'rsimon makromolekulalar chiziqsimon va tarmoqlangan polimerlarga butunlay o'xshamaydi. Bunday polimerlar hech qachon erimaydi va harorat ko'tarilishi bilan suyuqlanmaydi. To'rsimon molekulalar kimyoviy bog'lar bilan o'zaro bog'langan bo'lib, bunday polimerlarda molekular massa degan tushunchaning fizik ma'nosi yo'qoladi. Ularni eritmaga o'tkazish yoki suyuqlantirish uchun makromolekulalar o'rtasidagi kimyoviy bog'larni uzish, ya'ni polimerni parchalash kerak bo'ladi. To'rsimon polimerlarning barcha xossalari makromolekulalar o'rtasidagi ko'ndalang kimyoviy bog'larning qanday joylashganligi va tabiatiga bog'liq. Bu bog'lar sonining ortishi bilan polimerning qattiqligi va issiqqa chidamliligi ortib, deformatsiyaga uchrash qobiliyati pasayadi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgandani tashqari, polimerlar harorat, ta'sir etuvchi kuch va boshqalarga qarab, quyidagi uch holatda bo'lishi mumkin:

**1. Qattiq holatdagi polimerlar.** Bular o'z xossalari jihatidan past molekular shishasimon moddalarga o'xshaydi, chunki bunday



1-rasm. Chiziqsimon polimerlar  
(a) tarmoqlangan, (b) to'rsimon,  
(c) polimerlar sxemasi


polimerlarning shaklini bir qadar o'zgartirish uchun juda katta kuch sarf qilish kerak, bu kuch olib tashlanishi bilan polimerlar boshlang'ich shakllariga qaytadi. Shuning uchun polimerlarning bunday holat shishasimon deyiladi.

**2. Elastik holatdagi polimerlar.** Bunday holatdagi polimerlar kuch ta'siri ostida o'z shaklini bir necha xil o'zgartirib, kuch ta'siri yo'qolishi bilan boshlang'ich shakliga qaytadi. Elastik xossalari past molekular birikmalarnikidan bir necha o'n va hatto, bir necha yuz marta ortiq bo'lgan bunday moddalar yuqori elastik holatdagi polimerlar deyiladi.

**3. Oqish xususiyati mavjud holatdagi polimerlar.** Polimerlar bu holatda ozgina kuch ta'sirida o'z shaklini tez o'zgartira oladi va kuch ta'siri yo'qolganda ham boshlang'ich shakliga qayta olmaydi. Lekin polimer bunday holatda ham o'z qovushoqligining kattaligi jihatidan past molekular moddalardan farq qiladi: shuning uchun, bunday holat qovushoq — oquvchan holat deyiladi. Shunday qilib, polimerlar shishasimon yuqori elastik va qovushoq — oquvchan holatlari uchraydi. Aytib o'tilgan barcha holatlarda polimer amorf bo'ladi; bu polimerni faqat amorf holatdagi past molekular moddalar bilan solishtirish mumkin. Lekin polimerlar ham ma'lum sharoitda kristall holga o'ta oladi. Kristall polimerlar ham o'ziga xos bir qancha xususiyatlari jihatidan, bir tomonidan, amorf holdagi polimerlardan keskin farq qilsa, ikkinchi tomonidan, ularning kristallari past molekular moddalarning kristallariga mutlaqo o'xshamaydi. Demak, polimerlar bir tomondan past molekular moddalardan mutlaqo farq qilsa, ikkinchi tomonidan, o'z tabiatni, molekulalarining shakli, fazoviy holatlari jihatidan ham bir-biridan anchagini farq qiladi.

### AMORF POLIMERLARNING UCH FIZIK HOLATI

Polimerlarning mexanik xossalari ularning eng asosiy va ahamiyatli xossalardandir. Shuning uchun har xil sharoitda mexanik xossalarni o'rGANIB, polimerlarning qanday holatda ekanligini va sanoatning qaysi tarmog'ida ishlatalishi mumkinligini aytsa bo'ladi. Agar uy haroratida shishasimon holatdagi amorf polimer namunasini olib, uning har xil haroratda deformatsiyaga uchrashini ko'zdan kechirsak, qariyb hamma polimerlarning shishasimon yuqori elastik va qovushoq — oquvchan holatlarda bo'la olishini ko'ramiz. Polimerning bu xossasi termomexanik xossa deb, olingan grafik esa termomexanik grafik deb ataladi.



2-rasm. Polimerning termomexanik grafigi:

1 - shishasimon holat; 2 - yuqori elastik holat;

3 - qovushoq-oquvchan holat.

Odatda, past haroratda barcha polimerlar shishasimon holatda bo'ladi. Polimerlarning bunday holatda bo'lish harorati ularning tabiatiga (kimyoviy tarkibi, molekular massasi va molekulasingning shakli, funksional guruhlarining xossalariiga) bog'liq bo'lib, bu harorat har xil polimerlar uchun keng ko'lamma o'zgaradi. Bunday shishasimon polimer sekin-asta isitilganda o'zining boshlang'ich holatini saqlaydi va kuch ta'sirida juda kam darajada deformatsiyalanadi. Ta'sir etuvchi kuch olinganda bu deformatsiya tez yo'qoladi va polimer o'zining boshlang'ich shakliga qaytib keladi. Lekin harorat ortishi bilan polimerning deformatsiyalanishi osonlashib boradi va ma'lum haroratda u yumshoq holatga o'tib, juda katta darajada deformatsiyalana oladi. Polimerde shishasimon holatning yo'qolish harorati polimerning shishalanish harorati deyiladi va  $T_{sh}$  bilan belgilanadi. Polimerning shishasimon holati 2-rasmdagi grafikning 1-qismiga to'g'ri keladi. Polimer shishalanish haroratidan yuqorida elastik holatda bo'ladi. Bu vaqtida u katta darajada deformatsiyalanadi va bu xossani ma'lum haroratgacha saqlab turadi. Ta'sir etuvchi kuch olib tashlanganda, deformatsiya sekin-asta yo'qoladi va ma'lum vaqt ichida polimer o'zining boshlang'ich shakliga keladi. Bu holat grafikning 2-qismida tasvirlangan. Harorat yanada oshirilsa, polimer qovushoq — oquvchan holatga o'tadi;  $T_o$  bilan belgilanadi. Polimerning oquvchan holati grafikning 3-qismida ko'rsatilgan. Barcha uch holatdagi polimerning o'ziga xos mexanik xossalari bo'ladi.

## POLIMER ERITMALARI VA PLASTIFIKATSIYA


Polimerlar past molekular moddalar har xil erituvchilarda eriydi. Termodinamika nuqtai nazaridan olganda, muvozanatdagi polimer

eritmalar erituvchi modda molekulalari bilan yaxshi aralashgan bo'ladi. Lekin polimer molekulalarining juda kattaligi va polidispersligi, erish jarayonini ancha o'zgartiradi, hosil bo'lgan eritmalar ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Makromolekulalar sust harakatlanganligi tufayli erituvchiga solinganda juda sekin diffuziyalanadi. Shu sababli eritmaning barqaror muvozanat holatiga o'tishi, ya'ni polimer va erituvchi molekulalarining bir jinsli eritma hosil qilishi uchun uzoq vaqt ketadi. Erish jarayonining birinchi bosqichida erituvchi molekulalari polimer makromolekulalari orasiga kira boshlaydi. Bu bosqichda namunaning hajmi bir necha marta ortsa ham, ammo namuna o'zining boshlang'ich shaklini saqlab qoladi.

Polimerning erishdan avvalgi holati bo'kish deb ataladi; bo'kishni erituvchining polimerdag'i eritmasi deb qarash mumkin. Agar erituvchi modda polimerda chegarali erisa, u holda, bunday sistema termodinamika nuqtai nazaridan barqaror bo'ladi, ya'ni bo'kkan polimer bilan eritma o'rtasida muvozanat vujudga keladi. Agar erituvchi modda polimerda chegarali erisa, u holda, bunday sistema termodinamika nuqtai nazaridan barqaror bo'ladi, ya'ni bo'kkan polimer bilan eritma o'rtasida muvozanat vujudga keladi. Agar erituvchi polimerda cheksiz eriy olsa, uning molekulalari makromolekulalar orasiga kirib, ularni bir-biridan ajrata boshlaydi. Natijada makromolekulalar butunlay ajralib, eritmada diffuziyalanadi va polimerning bir jinsli haqiqiy eritmasini hosil qiladi. Shuning uchun polimerlarning eruvchanligi ularning molekular massasiga bog'liqidir, chunki molekulalarni kattalashgan sari ularning o'zaroti kuchi ortib, molekulalarning eritmaga o'tishi qiyinlashadi. Polimerlarning polidispersligi ularning erish jarayoniga yana bir yangilik beradi. Past molekular moddalar erituvchilarda cheklangan darajada eriydi va ularning erish darajasi erituvchining tabiatiga va haroratga bog'liq bo'ladi. Polimerlarda esa namunadagi makromolekulalar orasida kichikroq molekulalarni ortishi bilan eruvchanlik ortadi, chunki molekulalarni kichiklashgan sari ularning o'zaroti kuchi kamayadi va eritmaga o'tishi osonlashadi. Natijada polimer tarkibidagi juda katta molekulalarni cho'kma holida qolib, kichikroq molekulalarni eritmaga o'tadi.

Molekulalarning kuchli tarmoqlanishi, ayniqsa, to'rsimon holatga o'tishi ularning eruvchanligini juda kamaytirib yuboradi. To'rsimon polimerlar mutlaqo erituvchida erimaydi. Lekin makromolekulalar orasidagi ko'ndalang kimyoviy bog'lar u qadar ko'p bo'lmasa, to'rsimon polimerlarda bo'kish xossasi paydo bo'ladi. Ular erituvchilarda yaxshi bo'kadi va erituvchi molekulalari bilan muvozanatga kirishadi.

chunki, polimer molekulalar o'zaro kimyoviy bog'lar bilan ulangan bo'lib, eritmaga o'ta olmaydi. To'rsimon polimer bo'kkan vaqtida uning ichiga erituvchi molekulalari kirib, makromolekulalarni cho'za boshlaydi. To'rsimon makromolekulalarning cho'zilish natijasida taranglik hosil bo'lib, erituvchi molekulalarining polimer ichiga kirishiga qarshilik ko'rsatadi. Bu taranglik erituvchi molekulalarining diffuziyalanishini chegaralab qo'yadi. To'rsimon polimerda ko'ndalang bog'lar soni ortgan sari ularning bo'kish darajasi kamayadi va hajmi uncha o'zgarmaydi. Agar polimerning barcha bo'g'lnlari ko'ndalang kimyoviy bog'lar bilan ulangan bo'lsa (masalan, ebonit), bu polimer butunlay bo'kmaydi va erituvchilarda o'z shaklini o'zgartirmaydi. Polimer eritmalarida «suyultirilgan» termini ham yangi ma'noni anglatadi. Polimerlarning makromolekulalari o'zaro to'qnashmaydigan eritma shartli ravishda, suyultirilgan eritma deb ataladi. Lekin polimer molekulasi massasining ortishi bilan makromolekulalarning eritmada uchrashish chtimolli ortadi. Amalda suyultirilgan eritmalar konsentratsiyasi foizning o'ndan va hatto yuzdan bir ulushlariga teng bo'ladi. Polimerlarning suyultirilgan eritmalarini o'rganib, ularning molekular massasini aniqlash mumkin. Polimerlarning xossalarni suyultirilgan eritmalarini asosida o'rganish imkoniyati tug'ilsa, ularning quyuq eritmalarini sanoatda juda katta ahamiyat kasb etadi. Biroq bunday polimerlar boshlang'ich holatidagidan ancha yumshoq va plastik bo'ladi, ularga qo'shilganda moddalar plastifikatorlar deb, hodisaning o'zi esa plastifikatsiya deb ataladi. Agar plastifikator modda polimerlarida kam erisa, uning ortiqchasi vaqt o'tishi bilan ajrab chiqadi va polimerning muhim xossalarni pasaytirib yuboradi. Polimerlar tarkibida plastifikatorning miqdori qancha ko'p bo'lsa, polimerlarning shishalanish va qovushoq — oquvchanlik harorati shuncha kamayadi. Plastifikatsiya hodisasidan foydalaniib, egiluvchanligi juda kichik bo'lган polimerlar ishlatalishga yaqqol holga keltiriladi. Agar polimer molekulalari egiluvchan bo'lsa, plastifikator molekulalari ularning makromolekulalarini harakatchan qiladi. Bu hol shishalanish va oquvchanlik haroratini pasaytirib, bu haroratlar orasidagi farqni kamaytiradi (3-rasm). Polimer tarkibida plastifikator miqdori ortgan sari polimerning yuqori elastiklik xossasi kamayib boradi va eritma hosil bo'ladi, deguncha elastiklik butunlay yo'qoladi (3-rasm.). Agar makromolekulalar egiluvchan bo'lmay, qattiq bo'lsa, lekin plastifikator molekulalari bilan o'zaro kuchli darajada ta'sirlansa, polimer molekulalari egiluvchan holatga o'tadi. Bunda



3-rasm. Plastifikatorning polimer termomexanik xossalariiga ta'siri:

2 - boshlang'ich polimer; 2,3 - plastifikatsiyalangan polimer  
(plastifikator 3 - namunada 2 - namunadagidan ko'proq); 4 - polimerning  
plastifikatordagi eritmasi

egiluvchanlikning ortishi tufayli, polimerning shishalanish harorati pasayib ketadi. Polimerning oqish harorati esa odatdagidek ko'p pasaymaydi va natijada, plastifikatsiyalangan polimerning yuqori elastiklik harorati intervali kengayadi. Lekin plastifikator miqdori yanada ortsas, egiluvchanlikning oshuvi to'xtaydi va polimer eritma holiga o'tadi-da, uning yuqori elastiklik xossasi yo'qoladi. Polimerni yuqori elastiklik holatga o'tkazishdan amalda juda ko'p foydalaniladi, chunki bu usulda shishasimon, juda qattiq polimerlardan har xil buyumlar tayyorlash imkoniyati tug'iladi. Agar shishasimon holatdagi polimerning makromolekulalari plastifikator bilan o'zaro kuchli ta'sirlashmasa, polimerni plastifikatsiyalab ham uni yuqori elastik holatga o'tkazib bo'lmaydi. Bu holda shishasimon polimerni to'g'ridan-to'g'ri oquvchan holatga o'tkazib bo'lmaydi. Bu holda shishasimon polimer to'g'ridan-to'g'ri oquvchan holatga o'tib ketadi. Demak, plastifikatsiyalangan polimer juda quyuq eritmalar qatoriga kiradi va ularning xossalari plastifikatorning tabiatini va miqdoriga bog'liq bo'ladi.

### POLIMERLARNI TEKSHIRISH USULLARI

Polimerlarni tekshirish makromolekulaning tuzilishini o'rganish, ularning kimyoviy va fizik xossalariini aniqlashdan iboratdir. Birinchi navbatda, polimerning kimyoviy tarkibini, molekulasida tarmoqlanish va funksional guruuhlar bor-yo'qligini aniqlash oxirgi guruhlarning tabiatini o'rganish va polimerning molekular hajmini topish zarur. Buning uchun moddalarni o'rganishning hozirgacha ma'lum bo'lgan barcha fizik va kimyoviy usullardan foydalanish kerak bo'ladi.

Polimerlar tarkibida har xil qo'shimchalar, jumladan, monomer qoldiqlari, katalizator va hokazolar bo'lgani uchun, tekshirishdan oldin ularni yaxshilab tozalash muhim rol o'yaydi. Polimerni toza holda ajratib olish uchun fraksion eritish yoki fraksion cho'ktirish usullaridan foydalaniladi. Tozalangan polimerning eruvchanligini, o'rtacha molekular massasini, molekulasing shakli va polidispersligi aniqlash bu polimer xossalarini o'rganishda katta ahamiyatga ega, chunki polimerning molekular massasi, geometrik shakli va kimyoviy tuzilishi uning eruvchanligiga, fizik va mexanik xossalariga katta ta'sir etadi. Agar polimer tuzilishi jihatidan chiziqsimon bo'lmay, juda tarmoqlangan yoki to'rsimon bo'lsa, uning erituvchilarda erishi qiyinlashadi va hatto butunlay erimaydigan bo'lib qoladi. Erimaydigan bunday polimerlarni tozalash juda qiyin bo'lgani bois, ularni o'rganish usullari ham ko'p emas.

Quyidagi polimerni tekshirishning aytib o'tilgan barcha usullarini alohida tarzda ko'rib chiqamiz.

### POLIMERLARNI TEKSHIRISHNING FIZIK-KIMYOVIY USULLARI


Bu usullar yordamida polimer molekulasing kimyoviy tarkibini va hajmini o'zgartirmay turib, uni eritmada yoki qattiq holda tekshirish mumkin. Past molekular moddalarning eruvchanligi ma'lum haroratda o'zgarmas bo'lib, modda miqdoriga bog'liq emas. Polimerlar esa erishdan oldin chegaralangan miqdorda bo'kib, so'ngra cheklangan miqdorda eriydi yoki butunlay erimaydi. Buning ustiga, polimerlar polidispers bo'lganligi uchun ulardag'i kichikroq molekkulalar tez va ko'p miqdorda eriydi. Katta makromolekulalar kam eriydi yoki butunlay erimay, bo'kish bilan chegaralanadi. Polimerning bu xossasidan foydalanib, ularni fraksion eritish va cho'ktirish natijasida bir necha fraksiyaga ajratish mumkin.

Polimerlarning erish jarayonini asosan to'rt bosqichga bo'lish mumkin:

1. Polimerning erituvchi bilan aralashmasi. Bu holda, sistemada polimer va erituvchi fazalari bo'ladi.

2. Polimerning erituvchida qisman bo'kishi. Sistema bo'kkan polimer va erituvchi fazalaridan iborat bo'ladi.

3. Polimerning eritmaga o'ta boshlashi. Sistemada polimerning eritmasi va erituvchining polimerdagi eritmasi bor.



4. Polimer butunlay erib ketadi va ikkala fazada konsentratsiya tenglashadi. Agar polimerlar to'rsimon tuzilishda bo'lsa, ular to'rtinchisini bosqichga o'tmaydi. Demak, bu yo'l bilan polimerning chiziqsimon yoki to'rsimon tuzilishi haqida ma'lumot olish mumkin.

Polimer eritmasining xossalarini o'rganishda to'rtinchisini bosqich ko'zda tutiladi. Lekin shuni ham aytib o'tish kerakki, polimerlarning bir qancha xossalarini (qovushoqlik, osmotik bosim va hokazolarni) o'rganish uchun ularning o'ta suyultirilgan eritmalarini tayyorlash kerak, chunki polimer molekulalari katta va uzun bo'lganligidan eritmada juda kuchli ta'sirlanib, assotsiyalangan holda bo'ladi. Natijada polimerning alohida molekulasing emas, balki assotsialangan molekulalarining xossasi o'rganiladi.

### POLIMER XOSSALARINI ERITMA HOLDA O'RGANISH

**Ervchanlikni aniqlash.** Og'zi mahkam yopiladigan probirkaga maydalangan polimer namunasidan 1 g va erituvchidan 10 ml solinib, uy haroratida 2 soat saqlanadi. Bu vaqt ichida ba'zan probirkani chayqatib turish kerak. Oradan 2 soat o'tgach, probirkadagi o'zgarishga qarab polimerning erigan yoki bo'kkaligi aniqlanadi. Agar polimer qisman erigan yoki bo'kkaligi bo'lsa, uning ervchanligini yuqoriq haroratda tekshirish kerak. Buning uchun probirkaning og'ziga qaytarma sovtgich o'rnatib, probirka 30 minut davomida suv hammomida isitiladi-da, namunaning eriganligi yoki bo'kkaligi kuzatib turiladi.

Ko'pincha erituvchilarning eritish xususiyatini bilish kifoya qilmay, balki polimerni qancha miqdorda erita olishini ham bilish zarur bo'ladi. Bunday hollarda polimer eritmasini loyqatish uchun sarflangan cho'ktiruvchi miqdori aniqlanadi. So'ngra cho'ktiruvchi moddaning erituvchi hajmiga nisbatli hisoblab topiladi va bu nisbat polimerning erish miqdorini xarakterlaydi. Demak, eritmani loyqatish uchun cho'ktiruvchi qancha ko'p kerak bo'lsa, erituvchining eritish xususiyati shuncha yaxshi deb hisoblanadi.

Tajriba o'tkazish tartibi: konussimon kolbaga maydalangan polimerdan 1 g solinib, 10 ml erituvchida eritiladi, eritma ustiga buretkadan cho'ktiruvchi tomiziladi (kolbani doimo chayqatib turish zarur). Kolbadagi tiniq eritma loyqalangandan so'ng, cho'ktiruvchi modda tomizish to'xtatiladi va 1 ml erituvchiga to'g'ri keladigan

cho'ktiruvchi miqdori (ml) hisoblab topiladi. Quyidagi jadvaldan ba'zi polimerlar uchun erituvchi va cho'ktiruvchilar ko'rsatilgan.

### 1 - jadval

#### Ba'zi polimerlar uchun tavsija etilgan erituvchi va cho'ktiruvchilar

Polimer	Erituvchi	Cho'ktiruvchi
Polizobutilen	Benzol	Metil yoki etil spirt
Polivinilklorid	Dixloretan	Etil spirt
Perxlorvinil smolasasi	Aseton, ammiak eritmasi	Suv, etil va metil spirtlar
Polistirol	Benzol	Metil spirt, benzin
Polivinil spirt	Suv, formamid	Metil va etil spirtlar
Polimetilmekatrifiklat	Benzol	Benzin
Polibutilmekatrifiklat	Aseton	Metil spirt
Polivinil asetat	Metil va etil spirtlar	Suv, efir
Polivinilbutiral	Etil spirt	Suv, efir
Poluretanlar	Tsiklogeksanon	Suv
Poliefirlar	Aseton	Suv, metil va etil spirtlar
Poliamicidlar	Krezol	Metil va etil spirtlar
Fenol-formaldegid smolasasi	Aseton, etil spirt	Suv
Mochevina-formaldegid smolasasi	Suv	Xlorid kislota eritmasi

**Polimerlarni tozalash.** Odatda, yangi olingen polimerlarda har xil qo'shimchalar (ko'pincha, reaksiyaga kirishmay qolgan monomer) bo'ladi. Polimerning xossalariini o'rganishdan oldin, uni qo'shimchalardan tozalash zarur, chunki qo'shimchalar juda oz miqdorda bo'lsa ham polimerning xossalariiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Polimer bu qo'shimchalardan qayta cho'ktirish yo'li bilan tozalanadi.

3-5 g og'irlidagi namuna 50 ml erituvchida eritiladi. Hosil bo'lgan eritma boshqa kolbadagi 100 ml cho'ktiruvchi ustiga qo'yiladi. Polimerning to'la cho'kkanligini aniqlash uchun tingan eritma va cho'ktiruvchi aralashmasiga cho'ktiruvchidan yana bir necha ml quyiladi. Bu vaqtda loyqa hosil bo'lmasa, polimer to'la cho'kkan bo'ladi. Cho'ktirilganda polimer ajaratib olingach, u erituvchi va cho'ktiruvchi moddalar aralashmasi bilan bir necha marta yuviladi, vakuum ostida og'irlik o'zgarmay qolguncha quritiladi.

**Polimerlarning polidispersligini aniqlash.** Polimerlar uzunligi har xil, lekin kimyoviy tuzilishi va tarkibi bir xil bo'lgan polimergomologik makromolekulalar aralashmasidan iboratdir. Demak, polimerning barcha molekulalari bir xil bo'g' inlardan tuzilgan bo'lib, ularning polimerlanish darajasi har xildir.

Masalan, (-SN<sub>2</sub>-SNR-)<sub>n</sub> formula bilan ifodalanadigan polimerni olaylik, bu formuladagi n-molekulalarining o'rtacha polimerlanish darajasini ko'rsatadi.

Polimerlarning polidispersligini aniqlash uchun, ular alohida-alohida fraksiyalarga bo'linadi. So'ngra, ularning molekular massasi topilib olingan natijalar asosida polimerning differentsiyal va intergal taqsimlanish grafigi chiziladi.

**Polimerlarni fraksiyalarga ajratish.** Polimerlarni fraksiyalarga ajratish eruvchanligini molekular massasiga bog'liq ekaniga asoslangan, chunki molekular massasi katta bo'lgan gomologlar oz, kichik bo'lganlari esa ko'p eriydi. Demak, polimerning molekular massasi ortgan sari bu polimerni eritmaga o'tkazish uchun zarur erituvchi miqdori ham ortib boradi. Polimer eritmasiga cho'ktiruvchi qo'shilganda ham kattaroq molekulalar oldin cho'kadi.

Lekin polimerlarni fraksiyalarga ajratishda ham massasi bir xil bo'lgan molekulalarni ajratib bo'lmaydi, chunki erituvchilarda og'irligi jihatidan bir-biridan kam farq qiladigan moddalarni alohida-alohida eritish xususiyati aralashmadan iborat bo'lib, uning polidisperslik darjasni avvalgiga qaraganda ancha kamaygan bo'ladi.

a) **fraksion eritish usuli.** Sig'imi 250 ml bo'lgan konussimon kolbaga yaxshi maydalangan polimerdan 10 g, erituvchidan esa 25 ml quyib, aralashma uy haroratida 3 soat saqlanadi. Kolba ichidagilar, ba'zan, aralashtirib qo'yiladi. So'ngra eritma cho'kkani polimerdan dekantatsiya usulida ajratib olinadi. Qolgan polimer ustiga yana 25-30 ml erituvchi quyiladi va 3-4 soatdan so'ng polimerning ikkinchi fraksiyasi birinchi galdeg'i kabi ajratib olinadi. Bu fraksiyaning molekular massasi birinchi fraksiyanikidan kattaroq bo'ladi. Shu tariqa polimer bir necha fraksiyaga ajratiladi. Bu fraksiyalar konussimon kolbalarga alohida-alohida solinib, og'irligi o'zgarmay qolguncha quriladi. So'ngra fraksiyalarning molekular massasi miqdorining necha foizini tashkil etishi hisoblanadi.

b) **fraksion cho'ktirish usuli.** Sig'imi 1 l bo'lgan tomchilatish voronkasi va qorishtirgich o'rnatilganda, kolbaga 200 ml erituvchi va 10 g polimer solinadi. Namuna erigandan keyin kolbaga tomchilatish

voronkasidan cho'ktiruvchi modda tomiziladi va aralashma o'zgarmas haroratda qorishtirib turiladi. Eritma loyqalangandan keyin, undan cho'kkан polimer ajratib olinadi. Buning uchun eritma dekantatsiya usulida boshqa kolbaga quyilib, kolbadagi cho'kma ajratiladi. So'ngra qolgan eritma aralashtirilib, uning ustiga yana cho'ktiruvchi quyiladi. Eritma loyqalangach, u birinchi galdeg'i kabi ajratib olinadi. Natijada, polimerning molekular massasi kichikroq bo'lgan ikkinchi fraksiysi ajralib chiqadi. Fraksiyalarga ajratish polimer batamom cho'kkuncha davom ettiriladi. Fraksiyalar erituvchi va cho'ktiruvchining aralashmasi bilan yuvilib, yuvindi eritmaga qo'shiladi. Ajratilgan fraksiyalar stakanlarga solinib, qayta eritiladi va cho'ktiruvchi vositasida to'la cho'ktiriladi. Fraksiyalar stakanlar tagiga cho'kkandan keyin suyuqliklar to'kib tashlanadi va cho'kmalar ostida og'irligi o'zgarmay qolguncha quritiladi.

Olingen natijalar asosida polimerning molekular massasiga ko'ra, integral taqsimlanish grafigi chiziladi. Buning uchun abssissalar o'qiga o'rtacha molekular massasining qiymati ordinatalar o'qiga esa fraksiyalarning og'irlilik hissasi


$$\frac{m}{\Sigma m} \quad qo'yiladi \quad (4\text{-rasm}).$$

Grafik polimerda og'irligi  $M$  dan to  $M+dM$  gacha bo'lgan molekulalarning taqsimlanishini ko'rsatadi. Integral taqsimlanish grafigi asosida, abssissalar o'qiga molekular massanining qiymati, ordinatalar o'qiga esa fraksiyaning og'irligi  $dm$  ga o'zgarganda, molekular massanining  $dM$  ga o'zgarishini  $(\frac{dm}{dM})$  ni qo'yib, differenttsial taqsimlanish grafigi chiziladi (5-rasm).


### POLIMERLARNING MOLEKULAR MASSASINI ANIQLASH

Polimerlarda uzilishga mustahkamlik, cho'ziluvchanlik, elastiklik, plastiklik va boshqa xossalalar borligini asosiy sabablaridan biri, makromolekula uzunligini diametriga qaraganda bir necha yuz va hatto bir necha ming marta ortiqligidir.

Shuning uchun polimerning molekular massasini aniqlash katta ahamiyatga ega. Lekin polimer molekulalarining polidispersligi va



4-rasm. Polimerlarning integral taqsimlanish grafigi



5-rasm. Polimerlarning differentesial taqsimlanish grafigi

molekular massasi ularni aniqlash usuliga bog'liq bo'ladi. Shu sababli, polimerlar molekular massasining o'rtacha adad va o'rtacha vazn qiymatlari, degan tushunchalar kiritilgan.

Molekular massalar yig'in-sining molekulalar soniga nisbati molekular massaning o'rtacha adad qiymati deb ataladi va quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$M_a = \frac{\sum M_x \cdot N_x}{\sum N_x}$$

bu formulada,  $M_x$  — x bo'g'indan iborat molekulalarning molekular massasi;

$N_x$  — x bo'g'indan iborat molekulalarning soni.

Polimerlar eritmasining osmotik bosimini o'lchash, krioskopik, ebulioskopiya va kimyoviy usullar qo'llanilganda polimerlar molekular massasining o'rtacha adad qiymati aniqlanadi.

Agar viskozometriya, difuziya, ultratsentrifuga usullaridan foydalansilsa, molekular massaning o'rtacha vazn qiymati topiladi. Makromolekulalar og'irligining ular o'rtacha og'irligiga nisbati molekular massaning o'rtacha vazn qiymati deb ataladi va quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$M_b = \frac{\sum M_x^2 \cdot N_x}{\sum M_x \cdot N_x}$$

Odatda, molekular massaning o'rtacha vazn qiymati o'rtacha adad qiyatidan ortiq bo'ladi. Ularning o'zaro nisbati quyidagicha ifodalanadi:

$$\frac{M_s}{M_b} = \frac{1}{1 + P}$$

bu formulada, R — polimerning polidisperslik darajasiga qarab, 0 dan 1 gacha o'zgarishi mumkin. Molekular massa, asosan ikki xil usulda — kimyoviy va fizik-kimyoviy usullarda aniqlanishi mumkin.

**Kimyoviy usullar.** Makromolekulalar massasini aniqlashning kimyoviy usullari ularning uchlaridagi guruuhlar sonini topishga asoslangan, chunki makromolekulalarning bir yoki ikki uchida o'ziga xos funksional guruuhlar bo'ladi. Kimyoviy usullar vositasida polimer molekular massasining adad qiymati aniqlanadi. Molekular massani topishning fizik-kimyoviy usullari yordamida esa molekular massaning adad qiymatini aniqlab bo'lmaydi.

**Fizik-kimyoviy usullar.** Bu usullar molekular massaning ortishi bilan polimer eritmalari fizik-kimyoviy xossalaringin (qovushoqligi, eritmasining osmotik bosimi, qaynash va muzlash harorati, shishalanish va qovushoq — oquvchan harakatga o'tish haroratining) keskin o'zgarishini aniqlashga asoslangan. Bu usullarning bir nechtasini tatbiq etish asosida molekulaning shaklini va polimerning polidispersligini ham topish mumkin.

**Qovushoqlikni o'lchash usuli.** Hozirgi vaqtida bu usul eng ko'p tarqalgan bo'lib, chiziqli polimerlarning molekular massasini o'lchashda yaxshi natijalar beradi.

Shtaudinger polimerning molekular massasi bilan eritmasining qovushoqligi orasida bog'lanish borligini topdi:

$$M = \frac{1}{K_m} \cdot \frac{h_{sol}}{C}$$

bu tenglamada: M — molekular massa.

K<sub>m</sub> — polimer va erituvchi tabiatiga bog'liq konstanta.

h<sub>sol</sub> — eritmaning solishtirma qovushoqligi.

C — eritmaning konsentratsiyasi

So'nggi vaqtarda, Shtaudinger tenglamasiga yangiliklar kiritilib, xarakteristik qovushoqlik bilan molekular massa orasidagi bog'lanishni ifodalovchi quyidagi ikkita tenglama topildi:

a) chiziqli tenglama:  $[h] = K_m M + y$

b) darajali tenglama:  $[h] = K_m \cdot M^a$


bu tenglamalarda:  $[h]$  — xarakteristik qovushoqlik.

$y$  — empirik konstanta.

$a$  — makromolekula va erituvchining xossalariiga hamda ularning o'zaro ta'siriga bog'liq son

2-jadvalda ba'zi polimerlar uchun  $K_m$  va  $a$  ning qiymatlari va ishlatalidigan erituvchilar keltirilgan. Polimer eritmasining absolut qovushoqligi critma konsentratsiyasiga bog'liq bo'lganligidan, molekular massasini hisoblashda solishtirma va xarakteristik qovushoqliklardan foydalilaniladi. Shuning uchun polimerning nisbiy qovushoqligini o'lchab, undan solishtirma va xarakteristik qovushoqlikning qiymatlari hisoblab topiladi.

Polimer eritmasining nisbiy qovushoqligi viskozometr yordamida o'lchanadi (6-rasm). Viskozometr U shaklidagi shisha naydan iborat bo'lib, uning bir tirsagi kengroq bo'ladi. Ingichka tirsagiga diametri 0,7-1,0 mm li kapillyar ulangan bo'lib, kapillyarning usti 2-3 ml sig'imli shardan iboratdir. Sharning ustki qismi ham tor bo'ladi. Sharning ustki va ostki qismlariga A va V belgilari qo'yilgan. Sharning uchiga rezina nay kiydiriladi-da, viskozometr termostatga joylashtiriladi.



6-rasm. Viskozimetrlar:

a — Ostwald viskozimetri;

b — Ostwald Pinkevich viskozimetri

chi rezina nay orqali so'rilib, sharning ustki belgisi (A) dan oshguncha ko'tariladi. So'rish to'xtatilgandan so'ng, erituvchi kapillyar orqali oqib tusha boshlaydi. U sharning ustki (A) belgisiga kelganda, sekundomer yurgizib yuboriladi-da, erituvchi sharning ostki (V) belgisidan o'tib ketguncha kutiladi. Erituvchi ostki belgidan o'tganda sekundomer to'xtatiladi va erituvchining ustki belgidan ostki belgigacha tushish vaqtini yozib qo'yiladi.

Bu jarayon 3-4 marta takrorlanadi-da, natijaning o'rtacha qiymati olinadi. Shu usulda polimerning har xil (0,5 foizdan 0,1 foizgacha) bo'lgan konsentratsiyali eritmasining oqish vaqtini aniqlanadi. Nisbiy qovushoqlik quyidagi tenglamadan hisoblab topiladi:

$$\eta_{nis} = \frac{t_1}{t_0}$$

bu tenglamada:

$\eta_{nis}$  — eritmaning nisbiy qovushoqligi.

$t_1$  va  $t_0$  — eritma va erituvchining oqish vaqtini, sekund hisobida

Polimer erigandan keyin erituvchi qovushoqligining ortishi eritmaning solishtirma qovushoqligi deb ataladi va quyidagi tenglamadan topiladi:

$$\eta_{sol} = \eta_{nis} - 1 = \frac{t_1 - t_0}{t_0}$$

Polimerning molekular massasi esa quyidagi tenglamadan topiladi:

$$M = \frac{I}{K_m} \cdot \frac{\eta_{sol}}{C}$$

bu tenglamada:

C — eritmaning molar konsentratsiyasi.

$K_m$  — konstanta (uning qiymati jadvallardan olinadi)

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, molekular massani bu usul bilan aniqlashda eritmaning konsentratsiyasi juda kichik bo'lishi kerak. Bu holda nisbiy qovushoqlikning eritma konsentratsiyasiga nisbati o'zgarmas kattalik bo'lishi lozim.


Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, molekular massa xarakteristik qovushoqlikni aniqlash yo'li bilan ham topilishi mumkin. Xarakteristik qovushoqlikni aniqlash uchun polimerning 0,05; 0,1; 0,2; 0,5; 0,08 % konsentratsiyali eritmalari tayyorlanib, ularning nisbiy va solishtirma qovushoqligi aniqlanadi.

2-jadval

*Ba'zi polimerlar uchun  $K_m$  bilan  $\alpha$  ning son qiymatlari va erituvchilar*

Polimerlarning nomi	Formulasi	Erituvchi	Harorat ( $^{\circ}$ S)	$K_m$	$\alpha$
Poliakrilonitril	$-\text{CH}_2-\underset{\text{CN}}{\text{CH}-}$	dimetil-formamid	20	$1,75 \cdot 10^{-4}$	0,66
Polibutadien	$-\text{CH}_2-\text{CH}=\text{CH}-\text{CH}_2-$	toluol	25	$1,1 \cdot 10^{-4}$	0,62
Polivinilasetat	$-\text{CH}_2-\underset{\text{O}-\text{COCH}_3}{\text{CH}-}$	aseton	50	$2,8 \cdot 10^{-4}$	0,67
Polivinil spirt	$-\text{CH}_2-\underset{\text{OH}}{\text{CH}-}$	suv	50	$5,9 \cdot 10^{-4}$	0,67
Polivinilxlorid	$-\text{CH}_2-\underset{\text{Cl}}{\text{CH}-}$	tetragidro-furan	20	$0,26 \cdot 10^{-3}$	0,92
Poligeksametenadi pinamid	$-\text{NH}(\text{CH}_2)_6\text{NHCO}-(\text{CH}_2)_4\text{CO}-$	90% li chumoli kislota	25	$1,05 \cdot 10^{-4}$	1,0
Poliizopren	$-\text{CH}_2-\text{CH}=\underset{\text{CH}_3}{\text{C}-}\text{CH}_2-$	toluol	25	$3,6 \cdot 10^{-4}$	0,64
Polikaprolaktam	$-\text{NH}(\text{CH}_2)_5\text{CO}-$	40% li sulfat kislota	20	$5,02 \cdot 10^{-4}$	0,67
Polimetilmetakrilat	$\begin{matrix} \text{CH}_3 \\   \\ -\text{CH}_2-\text{C}- \\   \\ \text{COOCH}_3 \end{matrix}$	benzol xloroform toluol	20 20 85	$2,4 \cdot 10^{-4}$ $0,94 \cdot 10^{-4}$ $0,49 \cdot 10^{-3}$	0,54 0,76 0,82
Polipropilen	$-\text{CH}_2-\underset{\text{CH}_3}{\text{CH}-}$	toluol	20	$9,6 \cdot 10^{-4}$	0,63
Polistirol	$-\text{CH}_2-\underset{\text{C}_6\text{H}_5}{\text{CH}-}$	toluol	30 30	$1,28 \cdot 10^{-4}$ $3,7 \cdot 10^{-4}$	0,70 0,621
Polietilen	$-\text{CH}_2-\text{CH}_2-$	dekalin	70	$0,39 \cdot 10^{-4}$	0,74
Diassetatselluloza	$-\text{C}_6\text{H}_8\text{O}_3(\text{OCOCH}_3)_2$	aseton	25	$1,49 \cdot 10^{-4}$	0,82
Nitroselluloza	$-(\text{C}_6\text{H}_7\text{O}_2)(\text{ONO}_2)_3-$	aseton	27	$0,82 \cdot 10^{-4}$	1,0
Etilselluloza	$-\text{C}_6\text{N}_3\text{O}_2(\text{OC}_2\text{H}_5)_3-$	aseton	20	$6,9 \cdot 10^{-4}$	0,71

Olingan natijalar asosida solishtirma qovushoqlikning eritma konsentratsiyasiga nisbatli bilan konsentratsiya orasidagi bog'lanish grafigi tuziladi (7-rasm). Grafik to ordinata o'qini kesib o'tguncha davom ettiriladi.



**7-rasm.** Xarakteristik qovushoqlikni aniqlash grafigi.

Xarakteristik qovushoqlikning qiymati grafik bilan ordinatalar o'qining koordinatalar boshigacha bo'lgan oraliqqa teng; u quyidagi tenglama asosida hisoblab topiladi:

$$[\eta] = K_m \cdot M^a$$

bu tenglamadagi  $K_m$  va  $a$  ning son qiymatlari jadvallarda berilgan bo'ladi. Ba'zi polimer va erituvchilar uchun  $K_m$  va  $a$  ning son qiymatlari 2-jadvalda keltirilgan.

**Osmometriya usuli.** Bu usul polimer eritmasining osmotik o'lchanishga asoslangan bo'lib, unda molekular massaning o'rtacha adad qiymati topiladi. Eritmaning osmotik bosimi shu eritmada erigan zarrachalarning soniga proporsional bo'lgani uchun, osmotik bosimi o'lchanishi lozim bo'lgan eritma past konsentratsiyali bo'lishi zarur.

Molekular massani topishning bu usuli suyultirilgan eritmalar osmotik bosimi bilan konsentratsiyasi orasidagi nisbatga (Vant-Goff nisbatiga) asoslanib, quyidagi tenglamadan topiladi:

$$Pv = nPT$$

bu tenglamada:  $P$  — eritmaning osmotik bosimi;

$v$  — eritmaning hajmi.

$n$  — erigan moddaning miqdori, asosiy hisobda.

$R$  — 0,02 atm/grad.

$T$  — absolut harorat

Agar,  $n = \frac{Cv}{M}$  ekanligi hisobga olinsa, yuqoridagi tenglama quyidagi shaklga keladi:

$$M = RT - \frac{1}{P/C}$$


Osmotik bosimni o'lishash uchun osmometrlardan foydalaniлади. Eng oddiy osmometr B.A. Dogadkining shishadan yasalgan osmometridir (8-rasm). Osmotik bosimni o'lishash uchun oldin yarim o'tkazgich membrana tayyorlanadi. Membrananing teshiklaridan erituvchi molekulasi bermalol o'ta olishi va erigan modda molekulasi o'ta olmasligi kerak.

Odatda, bunday membrana sellofandan tayyorlanadi. Buning uchun sellofan rux xloridning 60-65 foizli eritmasida 20-40°C da 20 minut saqlanadi. So'ngra, dastlab xlorid kislotaning suyuq eritmasi,

so'ngra suv bilan va oxirida spirit bilan yuviladi. Membranadagi spirit esa osmotik bosimi o'chanishi lozim bo'lgan erituvchi bilan chayib tashlanadi va tayyor bo'lgan membranalar shu erituvchida saqlanadi. Ularni ishlatish olididan havoda 15 - 20 minut quritish zarur.

Osmometr tayyorlash va unda eritmaning osmotik bosimini o'lishash tartibi quyidagichadir.

Taxminan 15 ml suyuqlik sig'adigan bo'linma (1) ostiga sililiqlangan shisha halqa (7) yordamida membrana yopishtiriladi (8-rasm). Buning uchun, membrana spirit bilan ozroq ho'llanib, polivinil spirit eritmasi vositasida bo'linmaning osti (2) va pastki halqa (7) ga yopishtiriladi. So'ngra membrana yopishtirilgan bo'linma 70 - 80°C da 20 - 30 min quritiladi. 0,05 g polimer namunasi 50 ml erituvchida erilib, harorat 20°C bo'lgan termostatda 15



8-rasm. B. A. Dogadkin  
osmometri

- 1 - yacheyska, 2 - yacheyska osti,
- 3 - tarmoq, nay, 4 - qopqoq,
- 5, 6 - kapillyarlar, 7 - halqa,
- 8 - idish

minut saqlanadi. So'ngra osmometrning tirsak nayi (3) ochilib, yachekaza shu eritmadan quyiladi. Eritma tirsak nay (3) ning silliqlangan yuzasigacha yetkazilib, nay qopqoq (4) bilan berkitiladi, probirka atrofiga simob quyiladi. So'ngra osmometr ichida erituvchi bo'lgan stakan (8) ga solinadi-da, stakanning qopqog'i yopilib, harorat 20°C bo'lgan termostatga qo'yiladi. Osmometr bo'linmasining ustki qismiga diametri 0,7 mm, uzunligi esa 120-150 mm bo'lgan va darajalarga bo'lingan kapillyar (5) ulangan. Bu kapillyar yoniga esa erituvchining kapillyarda ko'tarilishini hisobga olish uchun nazorat kapillyari (6) o'rnatilgan. Osmometr solingan stakanni termostatga qo'yish oldidan ikkala kapillyardagi suyuqlikning balandligi yozib olinadi.

Stakandagi erituvchi bilan bo'linmadagi eritmaning konsentratsiyasi har xil bo'lganligidan, erituvchi molekulalari membrana teshiklaridan bo'linmaga o'ta boshlaydi. Makromolekulalarning hajmi katta bo'lGANI uchun ular membrana teshiklariga sig'maydi. 3-4 soatdan keyin bo'linmaga ulangan kapillyar (5) dagi suyuqlikning balandligi o'lchanadi. Kapillyardagi suyuqlikning balandligi har 0,5 soatda o'lchab turiladi. Suyuqlikning ko'tarilishi to'xtagandan so'ng, asosiy va nazorat kapillyardagi suyuqlikning balandligi o'lchanadi. Ikkala kapillyardagi suyuqliklar balandligining ayirmasi eritmaning osmotik bosimi ( $R$ ) ga teng bo'ladi.

Shundan keyin bo'linma quriladi va qopqoq atrofidagi simob to'kib tashlanadi. Tirsak nay filtr qog'oz bilan artilib, qopqoq ochiladi va bo'linmadagi eritma to'kib tashlanadi. Membrana erituvchi bilan bir necha marta chayiladi va tajriba shu eritma bilan takrorlanadi.

Olingen natijalarning o'rtacha qiymati hisoblab chiqariladi-da, eritmaning osmotik bosimi topiladi. Osmotik bosim qiymati simob ustuni bosimiga aylantiriladi:

$$P' = \frac{hd_2}{d_1};$$


bu tenglamada:  $P'$  — simob ustuni bosimi, mm hisobida.

$h$  — erituvchining kapillyardagi balandligi, mm hisobida.

$d_2$  — erituvchining solishtirma og'irligi, g/sm<sup>3</sup> hisobida.

$d_1$  — simobning solishtirma og'irligi, g/sm<sup>3</sup> hisobida

Osmotik bosimni atmosfera bosimiga aylantirish uchun uni 760 ga bo'lish kerak:



9-rasm. R/S ning S ga bog'liqlik grafigi:  
1 – past molekular fraksiya; 2 – yuqori molekular  
fraksiya

bilan konsentratsiya qiymatlari orasidagi bog'lanishni ifodalaydigan grafik chiziladi. Grafikdagi to'g'ri chiziq ordinatalar o'qini kesguncha davom ettirilib, R/S qiymati topiladi (9-rasm) va quyidagi tenglamadan molekular og'irlikning o'rtacha miqdori hisoblab chiqariladi:

$$M = RT \frac{1}{P/C}$$

**Nur yoyishni o'lchash usuli.** Bu usul yordamida polimer molekular massasining o'rtacha qiymati, shakli va polidispersligini ham aniqlash mumkin. Nur yoyishni o'lchash usuli polimer eritmasining sindirish ko'rsatkichini aniqlashga asoslangan.

Odatda, suyultirilgan eritmalar konsentratsiya fluktuatsiyasi natijasida nuring yoyilishi molekulalarning hajmiga ham bog'liq bo'lib, quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$\frac{HC}{\tau} = \frac{1}{M} + \frac{2b}{RT} C \quad H = \frac{32\pi^3}{3} \cdot \frac{n^2}{n_0 \lambda^4} \left( \frac{n - n_0}{C} \right)^2$$

Bu tenglamada:

n — eritmaning sindirish ko'rsatkichi.

$n_0$  — erituvchining sindirish ko'rsatkichi.

b — tushgan nuring to'lqin uzunligi,  $\text{sm}^{-1}$  hisobida.

$\tau$  — eritmaning loyqaligi.

$$P' = P / 760 \text{ atm}$$

Xuddi shu usulda 0,075; 0,100 va 0,125 g polimer va 50 ml erituvchidan iborat eritmalarning ham osmotik bosimi o'lchanadi.

Olingen natijalar asosida osmotik bosimning konsentratsiyaga nisbati

C — eritmaning konsentratsiyasi.  
 b — polimerning eritma bilan o'zaro ta'sirini ko'rsatuvchi son.  
 M — erigan moddaning molekular massasi  
 Amalda har xil konsentratsiyadagi eritmaning loyqaligi, sindirish ko'rsatkichi va erituvchining sindirish ko'rsatkichi aniqlanadi. So'ngra olingan natijalar asosida, ordinatalar o'qiga  $\frac{NS}{t}$  ning qiymati, abssissalar o'qiga esa


S ning qiymati qo'yilib, grafik chiziladi.

Grafikdagi hosil qilingan to'g'ri chiziqlarning ordinatalar bilan kesishuv nuqtasidan koordinatalar boshigacha bo'lgan oraliq  $1/M$  ga tengdir (10-rasm).

Polimer molekular massasining o'rtacha adad qiymatini shu polimer eritmasining qaynash haroratini aniqlash (ebulioskopiya) va muzlash haroratining o'zgarishini aniqlash (krioskopiya) usuli bilan ham topish mumkin. Ammo bu usullar polimerning molekular massa 20000-30000 dan ortiq bo'lsa, yaxshi natija bermaydi, chunki eritmalarning qaynash va muzlash haroratlari erigan moddaning molar miqdoriga to'g'ri proportional bo'lib, polimer molekular massasining o'sishi bilan shu polimer eritmasining bu xossalari juda kam o'zgaradi. Molekular massani bu usullarda topish to'g'ri natija bermaydi.

Bundan tashqari, polimer molekulasining o'rtacha vazniy og'irligini turbodimetrik titrlash usulida, diffuziyalanish xususiyatini aniqlash yo'li bilan topish mumkin. Bu usullarda polimerning polidispersligini aniqlasa ham bo'ladi.

Molekulaning o'rtacha vazniy massasini ultratsentrifuga yordamida ham aniqlash mumkin. Bu usul polimer molekulalarining o'z og'irligiga qarab, ultratsentrifuga probirkasida har xil qavatdan o'rinn olishiga asoslangan bo'lib, bu usulda molekulaning shakli va polimerning polidispersligi haqida ham ma'lumot olinadi.




10-rasm. Molekular og'irlikni nur yoyishni o'lchash yo'li bilan aniqlash grafigi

**Kimyoviy usullar.** Makromolekula hosil bo'lishi uchun, albatta, boshlang'ich moddalarning ikki yoki undan ko'p funksional guruhni bo'lib, reaksiyadan keyin bu guruhlarning soni kamayib ketadi. Natijada, makromolekulaning uchidagi guruhlar boshlang'ich moddalarning funksional guruhlari bilan bir xil bo'ladi. Bunday vaqtarda polimerning molekular massasi shu polimer molekulasi uchidagi guruhlar yig'indisini aniqlash yo'li bilan hisoblanadi.

Polimerlanish reaksiyasi yordamida hosil qilingan polimerlarda ham makromolekulaning bir tomonidan initsiator modda, ya'ni ingibitor qoldiqlari bo'lishi shart. Bunday guruhlarni miqdoriy jihatidan aniqlash yo'li bilan polimer molekular massasining o'rtacha adad qiymati topiladi. Makromolekula tarmoqlangan bo'lib, har bir tarmoqning uchida funksional guruhlar bo'lsa, bu usulda molekulaning qanchalik tarmoqlanganligi haqida ma'lumot olinadi, polimerning molekular massasi esa boshqa usulda aniqlanadi. Molekula uchlaridagi guruhlar o'ziga xos xususiyatli biror atom (azot, galloid va boshqalar) yoki atomlar guruhni (-ON; - SOON; - SNO; - NH<sub>2</sub>; - OCH<sub>3</sub>; -OCOCH<sub>3</sub>; va boshqalar) dan iborat bo'lgandagina aniqlash mumkin.

Bu usul polimer molekular massasining ortishi bilan yomon natijalar bera boshlaydi, chunki molekular massa ortishi bilan molekula uchlaridagi atom yoki atomlar guruhining soni kamayib boradi. Shuning uchun amalda bu usullar yordami bilan molekular massasi 50000 dan oshmagan polimerlarnigina o'rGANISH mumkin.

**Chiziqli poliefirlarning molekular massasini topish.** Chiziqli poliefirlar yuqori molekular kislotalar deb qabul qilinsa, ularning molekular massasi karboksil guruhlar sonini aniqlash yo'li bilan topilishi mumkin:



Bunday polimerlarni kaliy gidroksid bilan titrlab, kislota soni (k.s.) aniqlanadi. Molekular massani quyidagi formuladan hisoblab topish mumkin:

$$M = \frac{56 \cdot 100}{k.s.};$$

bu formulada: 56 - kaliy gidroksidning molekular massasi;

k.s. — kislota soni, ya'ni kaliy gidroksidning 1 g polimerni titplash uchun sarflangan miqdori, mg hisobida.

Lekin poliefir molekulalarining ikkala uchida gidroksil guruh yoki karboksil guruhlar bo'lishi mumkin. Shuning uchun, bu gidroksil guruhni va karboksil guruhlar yig'indisini aniqlab, ularning molekular massasini topish ishonchliroq usuldir:

$$M = \frac{56 \cdot 2 \cdot 1000}{k.s. + g.s.};$$

bu formulada: k.s. — kislota soni.

g.s. — gidroksil soni.

**Gidroksil sonini aniqlash.** Qaytarma sovutgich o'rnatilgan ikkita kolbaning har biriga polimerdan 1 g va asetillovchi aralashmadan (12 hissa suvsiz sirka angidrid bilan 88 hissa pridin aralashmasidan) 25 ml solinadi. Uchinchi kolbaga esa tajriba uchun atsetillovchi aralashmadan 25 ml solinadi (polimer namunasi solinmaydi). Kolbalar suv hammomida 60°C da 2 soat isitiladi. Sovutgichlarning ustiga kalsiy xloridli shisha naylor qo'yish kerak.

Kolbalar sovugach, ularning har biriga disstillangan suvdan 25 ml quyilib, eritmalar kaliy gidroksidning 0,1 n li eritmasi bilan titrlanadi. Indikator sifatida esa fenolftalein ishlataladi. Kaliyning 1 g polimerga to'g'ri keladigan miqdori (mg hisobida) gidroksidlar soni (g.s) deyiladi va quyidagi formuladan topiladi:

$$k.s. = \frac{(a-b) \cdot T \cdot 1000}{g};$$

bu formulada:

a — kaliy gidroksid 0,1 n li eritmasining birlamchi tajribada sarf bo'lgan miqdori, ml hisobida.

b — kaliy gidroksid 0,1 n li eritmasining asosiy tajribada sarf bo'lgan miqdorini ml hisobida.

g — namuna og'irligi, g hisobida.

T — kaliy gidroksid eritmasining titri.

**Poliamidlarning molekular massasini aniqlash.** Poliamidlar tuzilishi jihatidan yuqori molekular aminokislotalar deb qaralishi mumkin. Karboksil yoki aminoguruhlarning 1 g polimerga to'g'ri

keladigan miqdori ularning molekular og'irligiga bog'liq. Shu sababli ularning molekular massasi kislotalar soni (k.s) va aminlar soni (a.s) ni aniqlash yo'li bilan topilishi mumkin.

Spirtdagi erimaydigan poliamid namunasi hovonchada tuyiladi va krezolda eritiladi. Eritma aralashtirib turilgani holda spirtga quyiladi. Ajralib chiqqan poliamid kukuni Byuxner voronkasida filtrlanadi, spirt bilan yuviladi va havoda quritiladi. Agar poliamid spirtda erisa, u spirtdagi eritmasidan suv qo'shib cho'ktiriladi, cho'kma Byuxner voronkasida filtrlanadi, issiq suv bilan yuvilib, vakuum eksikatorda quritiladi. Natijada, poliamid namunasi analizga tayyor bo'ladi.

Poliamidning kislotalar soni xuddi poliefsirlarniki kabi aniqlanadi.

**Amin sonini aniqlash.** 250 ml sig'imli konussimon ikkita kolbaning har biriga poliamiddan 1 g va xlorid kislotaning 0,1 n li eritmasidan 25 ml quyiladi. 3 soat o'tgach, aralashma kaliy gidroksidning spirtdagi 0,1 n li eritmasi bilan (metiloranj ishtrokida) titrlanadi. Xlorid kislotaning 1 g poliamidga to'g'ri kelgan miqdori (mg hisobida) amin soni (a.s) deyiladi va quyidagi formulaga ko'ra hisoblanadi.

$$a.s. = \frac{(aT - bT_1) \cdot 1000}{g};$$

bu formulada:

a — xlorid kislota 0,1 n li eritmasining namunaga qo'yilgan miqdori, ml hisobida.

b — kaliy gidroksidning spirtdagi 0,1 n li eritmasining titrlashga surf bo'lgan miqdori ml hisobida.

T — xlorid kislota eritmasining titri g/ml hisobida.

T<sub>1</sub> — kaliy gidroksid eritmasining titri g/ml hisobida.

g — namunaning og'irligi, g hisobida.

Polimerning molekular massasi quyidagicha hisoblab topiladi:

$$M = \frac{56 \cdot 2 \cdot 1000}{a.s. + k.s.};$$

### QATTIQ HOLATDAGI POLIMERNI O'RGANISH

**Polimerning solishtirma og'irligini aniqlash.** Polimerning solishtirma og'irligi 20°C da piknometr bilan o'chanadi. Tajriba quyidagicha bajariladi.

25 ml sig'imli piknometr yaxshilab yuviladi-da, distillangan suv bilan bir necha marta chayilib. So'ngra u harorat 100°C bo'lgan termostatda quritilib, sulfat kislota solingan eksikatorda sovutiladi va analitik tarozida tortiladi. Piknometrga maydalangan polimerdan 1 g solinib, u yana tortiladi. Natijada piknometr ichidagi polimerning og'irligi aniqlanadi. So'ngra piknometrning 3/4 qismiga yetkazib suyuqlik quyiladi va 20°C li termostatda 120 minut davomida saqlanadi. Piknometr ichida qolgan havoni chiqarib yuborish uchun piknometrni yog'och tayoqcha bilan bir necha marta chertib turish zarur. Shundan keyin, piknometrning belgisigacha suyuqlik quyiladi-da, yana tortib ko'rilib. Shu usulda, 20°C li piknometr suyuqlik bilan suv bilan to'ldirilib, alohida-alohida tortiladi.

Polimerning solishtirma og'irligi quyidagi formuladan hisoblab topiladi:

$$d = \frac{g}{g - (a - a_1)} \cdot \frac{\frac{a_1 - a_3}{a_2 - a_3}}{;}$$

bu formulada:

d — polimerning solishtirma og'irligi g/sm<sup>3</sup> hisobida.

a — suyuqlik va polimer namunasi solingan piknometrning og'irligi, g hisobida.

$a_1$  — suyuqlik solingan piknometrning og'irligi, g hisobida.

$a_2$  — suv solingan piknometrning og'irligi, g hisobida.


$a_3$  — bo'sh piknometrning og'irligi, g hisobida.

g — polimerning og'irligi, g hisobida.

**Polimer pardasi hosil qilish.** Polimerning mexanik xossalari o'rganish uchun ulardan har xil usullarda parda hosil qilinadi. Bu pardalar, odatda, polimer eritmalarini tekis yuzaga qo'yib, erituvchilarни bug'latib yuborish orqali hosil qilinadi.

200 ml sig'imli kolbaga 5-10 g polimer va 100 ml erituvchi solinadi. Polimer erib ketgandan so'ng, eritma filtr qo'yilgan shisha voronkada filtrlanib, tekis yuzaga qo'yiladi.

Tekis yuza quyidagi usullarda hosil qilinishi mumkin: ikkala asosi tekis ochiq, diametri esa 5-10 sm shisha silindrning tubiga sellofan polietilen parda (erituvchining xossalariqa qarab) tarang qilib tortiladi. Pardaning chetlari silindrga rezina halqa yordamida mahkamlanadi (11-rasm). So'ngra silindrning parda tortilgan tomoni shisha plastina



11-rasm. Parda hosil qilinadigan shisha silindr:  
1 - rezina halqa; 2-silindr tubiga tortilgan parda

ustiga gorizontal qilib quyiladi-da, unga filtrlab olingan polimer eritmasi quyilib, ustiga yopiladi. Erituvchi uchib ketgach, polimer pardasi silindr dan ko'chirib olinadi.

Ba'zan polimer eritmasi tekis shisha silindr ustiga quyiladi va erituvchi bug'lanib ketguncha shu holda saqlanadi. Bunda polimer pardasi shishaga yopishgan holda bo'ladi va u bir chetidan pichoq bilan ko'chirib olinadi.

Polimer eritmasini simob sathiga quyib ham parda hosil qilish mumkin. Lekin parda hosil qilishning bu usulida juda ko'p simob ishlatish kerak bo'ladi, shu sababli bu usuldan laboratoriyalarda kam foydalaniлади.


### POLIMERLARNING MEXANIK XOSSALARINI O'RGANISH

Polimerlarning mexanik xossalari o'rghanish uchun ularning pardalaridan maxsus press-pichoqlar yordamida namuna tayyorlanadi. Namunalar ikki uchi belcha shaklida bo'lib, cho'ziladigan qismining kengligi 5 mm, uzunligi esa 10 mm ga teng. Bu namunalar mashinasini (dinamometr) yordamida tekshiriladi (12-rasm).

Namunaning bir uchi uzish mashinasining ustki qisqichi (3) ga o'rmatiladi, so'ngra elastik prujina (2) yordamida indikator (1) ning strelkasi nolga keltiriladi. Shundan keyin namunaning ikkinchi uchi ostki qisqich (4) ga o'rnatilib, mashina dvigatel (7) vositasida ishga solinadi. Mashina ishga tushgach, har 5 sekundda indikatorning ko'rsatishi yozib boriladi. Ostki qisqichning har sekundda necha sm pastga tushishi avvalroq aniqlangan bo'ladi.

Har 5 sekundda indikator ko'rsatgan quvvat cho'zilishning qaysi darajasiga to'g'ri kelishini hisoblab topsa bo'ladi. Namunaning umumiy cho'zilishini lineyka (5) va disk (6) dan ko'rish mumkin.

Elastik purjina (2) kalibrangan bo'lib, indikatorning har qaysi bo'linmasining qancha quvvatga to'g'ri kelishi o'zgarmasdir. Namuna uzilgandan so'ng mashina o'z-o'zidan to'xtaydi.



12-rasm. Dinamometr:


1 – indikator; 2 – elastik prujina; 3 va 4 – ustki va ostki qisqichlar;

5 va 6 – cho'zilishni ko'rsatuvchi shkalalar; 7 – motor

### *Polimerning mexanik xossalari o'lchash natijalari*

Tartib raqami	Namuna- ning keng- ligi, sm	Namuna- ning qalinligi, sm	Namuna- ning uzunli- gi, sm	O'lchash vaqtisi, sek	Namuna- ning cho'zi- lishi, sm	Indika- toring ko'rsa- tishi	Quvvat, kg	Tekshi- rish harorati, °C
1	0,5	0,01	1,0	5	a	n,	p,	20°
2	0,5	0,01	1,0	1,0	v	n,	p,	20°

Olingen natijalar asosida polimerlarning cho'zilish grafigi tuziladi. Buning uchun ordinatalar o'qiga namunani cho'zish uchun sarflangan quvvat, abssissalar o'qiga esa namunaning har bir quvvatiga to'g'ri



13-rasm. Polimerning cho'zilish grafigi

keluvchi umumiyligi cho'zilishi qo'yiladi. Natijada 13-rasmdagi grafik hosil bo'ladi. Kristall holatdagi polimerlarda grafikning I qismidan II qismiga o'tish keskin bo'lib, qismining balandligi rekristallanish qvvatini ko'rsatadi. Olingan natijalar va chizilgan grafiklar asosida polimerning mexanik xossalari aniqlanadi.

a) Polimerni uzish uchun sarf qilingan qvvat polimerning mustahkamligi deb ataladi va quyidagi formulaga ko'ra hisoblanadi:

$$R = \frac{r}{n \cdot d};$$

bu formulada:

R — polimerning uzilishga mustahkamligi, kg/sm<sup>2</sup> hisobida.

r — namunani uzishga sarflangan kuch kg hisobida.

n — namunaning kengligi, sm hisobida.

d — namunaning qalinligi, sm hisobida.

b) Polimer namunasining uzilgunga qadar cho'zilishining dastlabki uzunligiga nisbati polimerning nisbiy cho'zilishi deb ataladi va quyidagi formulada aniqlanadi:

$$l = \frac{l_1 - l_0}{l_0} \cdot 100;$$

bu formulada:

l — polimerning nisbiy cho'zilishi, % hisobida.

$l_1$  — namunaning uzulish oldidagi uzunligi, sm hisobida.

$l_0$  — namunaning dastlabki uzunligi, sm hisobida.

v) Polimer namunasi uzilgandan keyingi cho'zilishning dastlabki uzunligiga nisbati polimerning plastik cho'zilishi deb ataladi va quyidagi formuladan hisoblab topiladi:

$$\theta = \frac{\Delta l}{l_0} \cdot 100;$$

bu formulada:

0— polimerning plastik cho'zilishi, % hisobida.

Dl— namunaning dastlabki va uzilgandan keyingi uzunliklari orasidagi farq, sm hisobida.

l<sub>0</sub>— namunaning dastlabki uzunligi, sm hisobida.

g) Polimer namunasiga ta'sir kuchining shu kuchni berish vaqtida namunaning cho'zilishiغا nisbati polimerning elastiklik moduli deb ataladi va quyidagi formuladan topiladi:

$$E = \frac{R}{l};$$

bu formulada:

E - polimerning elastiklik moduli, kg/sm<sup>3</sup> hisobida.

R - namunaga berilgan kuch, kg/sm<sup>2</sup> hisobida.

l - namunaga R kuch berilgan vaqtida nisbiy cho'zilish.

Elastiklik moduli polimerning cho'zilish grafigidagi l bo'linmada hisoblanadi, bu vaqtagi cho'zilish Guk qonuniga bo'ysunadi.

d) Polimer namunasining cho'zilish vaqtida rekristallanishi uchun sarflangan kuch polimerning rekristallanish kuchi deb ataladi va quyidagi formuladan topiladi:

$$\sigma = \frac{r}{n \cdot d};$$

bu formulada:

σ - polimerning rekristallanish kuchi, kg/sm<sup>2</sup> hisobida.

r - namunaning rekristallanishi uchun sarflangan kuch, kg hisobida.


n - namunaning kengligi, sm hisobida.

d - namunaning qalinligi, sm hisobida.

### **POLIMERNING SHISHALANISH VA QOVUSHOQ-OQUVCHANLIK HARORATLARINI KARGIN TAROZISIDA TEKSHIRISH**

Bu usul haroratning ko'tarilishi bilan polimerning deformatsiyalanish xususiyati ortishini o'rganishga asoslangan.

V.A. Kargin tarozisi yelkalarining nisbati 1:10 bo'lgan analitik tarozidir (14-rasm, a). Tarozining bir pallasi o'rniiga issiqda juda kam



14-rasm. V. A. Kargin tarozisi:

a - asbobning sxemasi:  
 1 - tosh; 2 - buraluvchi stolcha;  
 3 - termostat; 4 - polimer  
 namunasi; b-optik qismining  
 sxemasi: 1 - kuzgu; 2 - prizma;  
 3- qaytargich; 4 - shkala;  
 5 - yoritgich; 6- qurish trubkasi

cho'ziladigan ingichka sim qo'yilgan bo'lib, uning uchiga tosh (1) bog'langan. Torozining ikkinchi pallasiga ham toshlar qo'yilib, tarozi muvozanatga keltirilgan. Polimerning tugmacha shaklida qilib olingan namunasi (4) vint bilan xarakterlanuvchi stolcha (2) ga o'rnatilib, uning ustiga tosh (1) tushiriladi. So'ngra tarozining yelkalari muvozanatga keltiriladi. Stolcha (2) namuna (4) bilan birga termostat (3) ga o'rnatiladi va termostat minutiga  $1^{\circ}\text{C}$  tezlik bilan qizdiriladi.

Namunaning qaliligi  $2,8 \pm 0,02$  mm, diametri esa 10 mm bo'ladi. Namunaning deformatsiyalanish xususiyati tarozi yoniga qo'yilgan optik konstruktsiya (14-rasm, b) yordamida aniqlanadi. Konstruktsiya tarozi yelkasiga o'rnatilgan ko'zgu (1), optik prizma (2), qaytargich (3), shkala (4), yoritgich (5) va ko'rish trubasi (6) dan iborat. Deformatsiya quyidagicha o'chanadi.


Elkalari muvozanatda turgan tarozidagi tosh (1), stolcha (2) ustiga tushiriladi va shkalaning ko'rsatishi truba orqali aniqlanadi. So'ngra tarozining ikkinchi pallasidan 5 g tosh olib qo'yiladi. Natijada — tarozi yelkasidagi ko'zgu o'z holatini ma'lum burchakka o'zgartiradi

va trubada shkalaning boshqa qismi ko'rindi. Namuna deformatsiyasining qiymatiga qarab, trubada shkalaning surilishi har xil bo'ladi. Tosh namuna ustiga tushirilgandan 10 sek o'tgach, truba orqali shkalaning ko'rsatishi aniqlanadi. Shkalaning palladan 5 g tosh olinguncha va olingandan keyingi ko'rsatishlari farqi namunaning deformatsiyasi proporsional bo'ladi.

Harorat 2-5°C o'zgartirilib, deformatsiyani o'lchash yana takrorlanadi. Har qaysi haroratga to'g'ri kelgan deformatsiyalar hisoblanib, natijada polimerning termomexanik grafigi chiziladi. Grafik 2-rasmda ko'rsatilgan shaklda bo'ladi, bu grafikdan foydalanimlib, polimerning shishalanish va qovushoq-quvvchan holatga o'tish harorati topiladi.

### KONSISTOMETR YORDAMIDA TERMOMEXANIK GRAFIKNI CHIZISH

Konsistometr (15-rasm) termostatdan iborat bo'lib, uning ichida namuna (2), solinadigan stakan (1), og'ir tosh (5), posangi (6), osib qo'yiladigan dasta (4) va indikator (7) joylashgan. Indikator konsistometrning qarhisiga o'rnatilgan.



**15-rasm.** Konsistometr:  
 1 - stakan; 2 - namuna;  
 3 - idishcha; 4 - dasta;  
 5 - tosh; 6 - posangi;  
 7 - indikator; 8 - qalpoqcha;  
 9 - tutgich; 10 - sterjen;  
 11 - vint; 12 - yo'naltiruvchi  
 nay; 13 - plynokha;  
 14 - indikator arretiri

Polimer namunasi silindr shaklida bo'lib, uning diametri 11,28 mm, balandligi esa 10 mm dir. Bu namuna yuqori temperaturada maxsus qolip yordamida presslash yoki polimer blokidan arralab olish yo'li bilan tayyorlanishi mumkin. Namuna stakan (1) ichiga o'rnatilgan maxsus idish (3) ga joylashtiriladi.

Konsistometrda hosil bo'ladigan og'irlik 0,075 dan 75 kg/sm<sup>2</sup> gacha o'zgaradi. Og'irlik namunaga qalpoqcha (8), tutqich (9) va uchi tekis yuzali sterjen (10) orqali beriladi. Ular vint (11) bilan o'zaro biriktirilgan.

Sterjen (10) stakanning o'rtasiga nay (12) vositasida to'g'rilanadi. O'lhash oldidan namuna termostatda 15 minut saqlanadi. Shundan keyin tutqich plyonka (13) surilib, dasta toshsiz qalpoqcha (8) ustiga tushiriladi. So'ngra arretir (14) ochilib, sterjen (10) namuna ustiga ohistolik bilan qo'yiladi. 10 sek o'tgach, indikator (7) dan nol nuqta ( $I_0$ ) aniqlanadi. Shundan keyin dasta yordamida sterjen ko'tarib qo'yiladi va kerakli tosh osib qo'yiladi-da, yuqorida ko'rsatilgan ish takrorlanib, ikkinchi nuqta (I) aniqlanadi. Indikator ko'rsatishlarining farqi ( $I - I_0$ ) deformatsiyani bildiradi. Termomexanik grafik chizish uchun temperatura 5°C oshirilib, o'lhash bir necha marta takrorlanadi (haroratning oshirilish tezligi minutiga 1°C bo'lishi kerak). Odatda, namunaga ta'sir etuvchi kuch 5 kg/sm<sup>2</sup> bo'лади. Lekin polimer qattiqroq bo'lsa, kuchni oshirish kerak. Olingan natijalar asosida DI ning haroratga bog'liqlik grafigi chiziladi. Grafikdag'i burilishlar polimerning shishalanish va oqish haroratini ko'rsatadi.

### **YUMSHASH HARORATINI ANIQLASH**


Yumshash haroratini aniqlashning juda ko'p qo'llaniladigan ikkita usuli bor. Bu usullardan biri halqa va shar usuli, ikkinchisi esa Kremer - Sarnov usulidir. Ikkala usulda ham ma'lum shakldagi idishlardagi polimer namunasi termostatda sekin-asta qizdiriladi. Namunani qizdirish vaqtida unga ma'lum qiymatdagi kuch ta'sir ettiriladi. Namuna ko'zga ko'rinarli darajada deformatsiyalangan harorat polimerning yumshash harorati deb olinadi. Lekin amalda topilgan bu harorat nisbiy bo'lib, uning qiymati tajriba olib borish yo'llariga bog'liqdir. Odatda, halqa va shar usulida topilgan yumshash harorati Kremer-Sarnov usulidagidan 10°C chamasini ortiq chiqadi.

Shuni ham eslatib o'tish kerakki, bu usullarda molekular massasi uncha katta bo'limgan chiziqli va tarmoqlangan polimerlarning yumshash harorati aniqlanadi, chunki polimer molekular massasining ortishi bilan

uning suyuq holga o'tish imkoniyati kamayadi. To'rsimon polimerlar esa suyuqlanmaydi va shuning uchun ularning yumshash haroratini bu usullarda aniqlab bo'lmaydi.


**«Halqa va shar» usuli.** Bu usulda ishlataladigan asbob biri ikkinchisining ichiga tushadigan ikkita stakan dan iboratdir. Tashqi stakan termostat rolini o'ynaydi. Uning balandligi 15 sm, diametri 12 sm bo'lib, ichiga 5 sm balandlikda glitserin solinadi. Ikkinch stakanning diametri 9 sm bo'lib, ichiga latun shtativ o'rnatilgan (16-rasm). Uning osti va ustiga plastinalar yopishtirilgan. Ustki plastinka (1) da uchta teshikcha bor, bu teshik-chalarning ikkitasiga halqalar (4) va bittasiga termometr o'rnatiladi. «Halqalar» ustida esa «shar» lar (3) turadi. Ostki plastinka (2) shar tushganda stakan sinib ketmasligi uchun qo'yilgan. Sharlarning og'irligi 3,45-3,55 g va diametri 9,53 mm. Halqaning ichki diametri 15,875 mm, balandligi 6,35 mm va yo'g'onligi 2,25 mm. Plastinkalar qo'ndirilgan shtativ latun qopqoqqa biriktirilgan. Plastinkadagi halqalarning orasi 2,54 sm.

Namuna tayyorlash uchun halqalar tekis yuza ustiga qo'yilib, ichiga suyuqlantirilgan polimer quyiladi. Agar polimer toshib ketsa, ortiqchasi isitilgan pichoq bilan kesib tashlanadi. So'ngra sovigan polimer ustiga shar qo'yilib, halqa ustki plastinka (1) ga joylashtiriladi. Shtativ glitserin hammomi vazifasini o'taydi. Ichki stakanda 6 mm diametrli ikkita nay (3) va termometr (5) bor, ular metall disk (4) ga o'rnatilgan. Polimer chinni tovoqchada suyuqlantirilib, diametri 8 mm, uzunligi esa 5 mm shisha nayga quyiladi. Buning uchun nayning bir



16-rasm. Yumshash temperaturasini aniqlash uchun ishlataladigan «halqa va shar» asbobi:

1 -ustki plastinka; 2 - ostki plastinka; 3 - sharlar;  
4 - halqalar



**17-rasm.** Yumshash temperaturasini aniqlash uchun ishlatalidigan Kremer – Sarnov asbobi:  
1 - tashqi stakan; 2 - ichki stakan;  
3 - naylar; 4 - disk; 5 - termometr.

qizdiriladi. Plitaga maxsus teshik qilingan bo‘lib, bu teshikdan termometr o‘tkazib, plitaning haroratini o‘lchash mumkin.

Polimer ohistik bilan qizdirilib, shisha tayoqcha bilan aralashtirilib turiladi-da, yumshash harorati aniqlanadi. Lekin bu usulda aniqlangan yumshash harorati juda taxminiy bo‘lganligi uchun bu usuldan hozir kam foydalilanildi.

**Polimerning tomchilanish haroratini Ubellode usulida aniqlash.** Qizdirilgan polimer namunasining o‘z og‘irligi ta’sirida tomchi holida tushish harorati tomchilanish harorati, deb ataladi.

Tomchilanish harorati Ubellode asbobida aniqlanadi (18-rasm). Bu asbob osti teshik shisha probirka bilan termometrdan iborat. Probirka termometrga metall gilza vositasida biriktirilgan. Shisha probirka (3) va termometri kattaroq diametrli ikkinchi probirkaga joylashtirishda bu probirka tubida ozgina bo‘sh joy qoldirish kerak. Ikkinchi probirka gliserin hammomida qizdiriladi.

tomoni tekis yuzaga qo‘yilib, ikkinchi tomonidan suyuq polimer quyiladi. Polimer sovutilib, uzunligi 10 sm bo‘lgan ikkinchi shisha nayga rezina vositasida ulanadi. So‘ngra polimer ustiga 5 g simob solinib, stakandagi termometr yoniga joylashtiriladi. Asbob asbestos qog‘ozи ustiga qo‘yilib, minutiga 1-2°C tezlik bilan qizdiriladi. Harorat ma’lum darajaga borganda, polimer yumshaydi va uning ustiga simob o‘z og‘irligi ta’sirida stakan tubiga tushadi. Bu harorat polimerning yumshash haroratini bo‘ladi.

Polimerning yumshash harorati, yuqorida aytib o‘tilgan usullardan tashqari, metall qoplangan elektr plitada ham aniqlanishi mumkin. Bu usulda, maydalangan polimerdan 1 g olinib, plita ustiga qo‘yiladi-da,

olinishi mumkin. Bu usulda, maydalangan polimerdan 1 g olinib, plita ustiga qo‘yiladi-da,

Ish boshlashdan oldin, suyuqlantirilgan polimerni birinchi probirkaga quyib, uning ichiga termometr joylashtiriladi. Namuna qotgandan keyin asbob yig'iladi va gliserin hammomida qizdiriladi. Ma'lum haroratda polimer suyuqlanib, probirka ostidagi teshikdan tomchi holda tusha boshlaydi, ana shu harorat polimerning tomchilanish harorati bo'ladi.


**Polimerning issiqqa chidamliliginini aniqlash.** Polimerning ma'lum kuch ta'sirida ko'rinarli darajada egilish harorati uning issiqqa chidamliligi deb ataladi. Issiqqa chidamlilik Martens asbobida aniqlanadi (19-rasm).

Stol ustiga biriktirilgan plitaga o'matilgan uchta qisqich (1) ga prizma shaklidagi polimer (2) qisib qo'yiladi.


Namunaning uzunligi 120 mm, kengligi 15 mm va qalinligi 10 mm bo'lishi kerak. Ustki qisqich uzun sterjenga o'matilgan bo'lib, bu sterjenga suriluvchi tosh (4) kiydirilgan, shu sterjenning ikkinchi uchiga yaqin joyga ko'rsatuvchi ikkinchi sterjen (5) o'matilgan.

Ko'rsatkich sterjen (5) ning uchi shkala bo'ylab harakatlanib, namunaning qancha bukilganini ko'rsatadi. Namunani qisqichlarga o'matishda ular vertikal holda, sterjen esa gorizontal holda bo'lishi zarur. Ish boshlash oldidan ko'rsatkich sterjen (5) ning uchi shkalaning boshlanish nuqtasiga keltiriladi. Asbob termostatga joylashtiriladi, bunda ko'rsatkich sterjenning uchi termostatdan chiqib, shkalaning boshlanish nuqtasida turishi kerak. Haroratni ko'rsatuvchi termometr namunadan 25 mm uzoqlikda turishi lozim.

Termostatni bir me'yorda, soatiga 60°C tezlik bilan isitish kerak. Suriluvchi toshni sterjenning shunday joyiga keltirish kerakki, bunda namuna ko'ndalang kesimining 1 sm<sup>2</sup> yuzaga 50 kg eguvchi kuch to'g'ri keladigan bo'lsin. Termostat sekin-asta qizdirilib, ko'rsatkich uchining shkalada surilishiga qarab turiladi. Ko'rsatkichning uchi shkalada 6 mm pastga tushgandagi harorat polimerning issiqqa chidamlilik harorati bo'ladi.



**18-rasm. Tomchilash**  
temperaturasini  
aniqlash asbobi:  
1-probirka; 2-gilza;  
3-idishcha



**19-rasm.** Issiqqa chidamlilikni o'chash uchun ishlataladigan martens asbobi:

1-ostki qisqich; 2-namuna;  
3-ustki qisqich; 4-suriluvchitosh;  
5-ko'rsatkich sterjen;  
6-shkala

Agar namuna 6 mm dan kam deformatsiyada sinib ketsa, issiqqa chidamlilik temperaturasi sifatida uning sinish oldidagi harorati olinadi.

**Polimerning suv shimuvchanligini aniqlash.** Uzunligi 120 mm, kengligi 15 mm va qalnligi 10 mm dan bo'lgan uch dona namuna olinib, bu namunalar 50°C da 1 sutka quritiladi (ba'zi polimerlar 105-110°C da quritiladi). So'ngra tarozida tortilgan namunalar 20° haroratlari termo-statdagi distillangan suvgaga solinadi. Oradan 24 soat o'tgach, namunalar suvdan olinib, sirti filtr qog'oz bilan artiladi-da, yana tortib ko'rildi. Polimerning suv shimuvchanligi quyidagi tenglamadan topiladi:

$$V = \frac{R_2 - R_1}{F};$$

bu tenglamada:

V — polimerning suv shimuvchanligi, g/dm<sup>2</sup> hisobida.

R<sub>1</sub> — namunaning dastlabki og'irligi, g hisobida.

R<sub>2</sub> — namunaning 24 soat suvda turgandan keyingi og'irligi, g hisobida.

F — namunaning umumiy yuzi, dm<sup>2</sup> hisobida

Odatda uchta namuna tekshirilib, ularning o'rtacha qiymati olinadi.

### POLIMERNING KIMYOVIY ANALIZ USULLARI

**Polimerning sifat analizi.** Kimyoviy usullardan foydalaniib, polimerning tarkibi, funksional guruhi, tabiatini va tarmoqlanishi aniqlanadi. Buning uchun birinchi galda, polimer tarkibidagi o'ziga xos xususiyatli atom va atomlar guruhi aniqlanadi. Polimerni kimyoviy analiz qilish uchun, dastlab, ular chet modda va qo'shimchalardan tozalanishi zarur.

## POLIMERLARNING MIQDORIY ANALIZI

**Polimerdagи suv miqdorini aniqlash.** Ko'pgina polimerlar sintez qilish jarayonida va ochiq havoda saqlanganda suv shimb oladi. Bu suv miqdorini aniqlashning bir necha usullari bor. Ulardan eng oddisi — polimer namunasini buksga solib, og'irligi o'zgarmay qolguncha quritishdir.

2 g polimer o'zgarmas og'irlikdagi buksga solinib, termostatga qo'yiladi va 105°C da 2 soat quritiladi. So'ngra buksning qopqog'i yopilib, eksikatorda sovutiladi va analitik tarozida tortiladi. Buks yana termostatga qo'yiladi va 1 soat o'tgach yana tortiladi. Bu jarayon polimer namunasining og'irligi o'zgarmay qolguncha takrorlanadi. Polimer namunasining og'irligi o'zgarmay qolgandan so'ng, undagi suv miqdori quyidagi formulaga ko'ra hisoblanadi:

$$x = \frac{g - b}{g} \cdot 100 ;$$

bu formulada:

x — polimerdagи suv miqdori, % hisobida.

g — namunaning quritilishdan oldingi og'irligi, g hisobida.

b — namunaning qurigandan keyingi og'irligi, g hisobida.

Polimerdagи suvning miqdori organik moddalar yordamida haydash yo'li bilan ham aniqilanadi (20-rasm).

Rasmda ko'rsatilgan 500 ml hajmli kolba (1) ga maydalangan polimerdan 20 g, bir necha bo'lakcha pemza va quritilgan ksilol yoki toluoldan 100 ml solinadi. Kolba suv yig'gich (3), nay (2) orqali ulanib, uning ustiga qaytarma sovtugich (4) o'rnatiladi va kolba sekin-asta qizdiriladi. Kolba qizdirilayotgan vaqtida suv yig'gichga har sekundda 2-4 tomchi suyuqlik tushishi kerak. Prosess idish (3) dagi suvning miqdori o'zgarmay qolguncha va suv ustidagi organik suyuqlik tinguncha davom ettiriladi. So'ngra idishdagi suv uy haroratigacha sovitilib, uning hajmi o'lchanadi.



**20-rasm.** Polimerlarning namligini aniqlash asbobi

Polimerdagi suvning miqdori quyidagi formuladan hisoblab topiladi:

$$x = \frac{u}{g} \cdot 100;$$

bu formulada:

x— polimerdagi suv miqdori, % hisobida.

g— namunaning og'irligi, g hisobida.

u— idishga yig'ilgan suvning hajmi, ml hisobida.

**Polimerdagi kul miqdorini aniqlash.** O'zgarmas og'irlikdagi tigela 1-2 g polimer solinib, tigel asbest qog'ozi teshigiga o'rnatiladi va sekin-asta qizdiriladi. Bu vaqtda polimer o't olib ketmasligi kerak. Tigeldan uchuvchan moddalar chiqib bo'lgach, tigel mufel pechiga qo'yilib, ichidagi kul oqarguncha quritiladi. So'ngra tigel sovutilib, tortiladi va og'irligi o'zgarmay qolguncha bir necha bor qizdiriladi. Polimerdagi kulning miqdori quyidagi formuladan hisoblab topiladi:

$$x = \frac{a_1 - a}{g} \cdot 100;$$

bu formulada:

x— polimerdagi kulning miqdori, % hisobida.

a— bo'sh tigelning og'irligi, g hisobida.

a<sub>1</sub>— tigelning kul bilan birgalikdagi og'irligi, g hisobida.

g— namunaning og'irligi, g hisobida.

**Polimerdagi qo'sh bog'larni aniqlash.** Polimer tarkibidagi qo'sh bog'larni aniqlashning kimyoviy usullari brom va yod sonlarini aniqlashdan iborat. 100 g polimerga birikkan galloidning gramm hisobidagi miqdori yod yoki brom soni deb ataladi.

**Yod sonini Ganus usulida aniqlash.** Bu usul polimer bilan brom yodid orasida bo'ladigan reaksiyaga asoslangan. Ganus eritmasi tayyorlash uchun hajmi 1 l bo'lgan kislotadan ozgina va 8 g brom solinib, kolbadagi belgigacha suvsiz sirkal kislotasi quyilib, aralashma suyultiriladi.

Bu eritmada tashqari, kaliy yodidning 10 % li natriy giposulfiting 0,1 n li va kraxmalning 1,0 % li eritmalarini ham tayyorlanadi.

Og'zi zich bekiladigan ikkita kolbaga 0,3-0,5 g dan polimer solinib, 10 ml xloroformda eritiladi. So'ngra kolbalarning har biriga 30 ml dan Ganus eritmasi quyiladi. Uchinchi kolbaga polimer solinmay, faqat xloroform va Ganus eritmasi solinadi. Uchala kolba yaxshi chayqatilish,

15 min saqlanadi va unga kaliy yodidning 10 % li eritmasidan 20 ml va 100 ml suv solinib, yana chayqatiladi. Keyin reaksiyaga kirmay qolgan yod natriy giposulfitning 0,1 n li eritmasi bilan titrlanadi. Yod soni quyidagi formuladan hisoblab topiladi:

$$y.s. = \frac{(a - b) \cdot 0,01269 \cdot 100}{g}$$

bu formulada:

y.s. — yod soni, g hisobida.

a — 0,1 n li natriy giposulfitning kontrol tajribada titplash uchun sarflangan miqdori, ml hisobida.

b — 0,1 n li natriy giposulfitning asosiy tajribada titplash uchun sarflangan miqori, ml hisobida.

0,01269 — natriy giposulfitning 0,1 n li eritmasidan 1 millilitriga ekvivalent yod miqdori.

g — namunaning og'irligi, g hisobida.

**Yod sonini Viys usulida aniqlash.** Viys eritmasi tayyorlash uchun 13 g yod 1 l sirka kislotada eritilib, filtrlanadi va undan ohistalik bilan xlor o'tkaziladi. Eritma to'q rangga kirishi bilan xlorlash to'xtatiladi. Og'zi zinch berkiladigan va hajmi 0,5-0,8 l bo'lgan ikkita kolbaga 1 g dan polimer solinib, ularning har biri 10 ml xloroform yoki tetroxlor metandan eritiladi. So'ngra kolbalarga yuqorida tayyorlangan Viys eritmasidan 25 ml dan qo'shiladi.

Viys eritmasi barcha kolbalarga bir xil tezlikda quyilishi kerak. Shu bilan bir vaqtida polimer solinmagan uchinchi kolbada tajriba ham o'tkaziladi. Agar chayqatilganda kolbadagi suyuqlik rangsizlanmasa, u qorong'ida 10 min saqlanadi va kaliy yodidning 10 % li eritmasidan 20 ml va 300-500 ml suv qo'shiladi. Kolbalardagi aralashma kraxmal ishtirokida natriy tiosulfatning 0,1 n li eritmasi bilan titrlanadi. Titplash eritmaning rangi o'chguncha davom ettiriladi. Hisoblash yuqorida ko'rsatilgan Ganus usulida olib boriladi. Bu usul tarkibida allil guruhi bo'lgan polimerlarning qo'sh bog'ini aniqlashda yaxshi natijalar beradi.

**Brom sonini Knopp usulida aniqlash.** Bromid-bromat eritmasiga quyuq xlorid kislota ta'sir ettirilsa, erkin brom ajralib chiqib, qo'sh bog'lar bilan reaksiyaga kirishadi.

Knopp eritmasi tayyorlash uchun 5,568 g kaliy bromat va 40 g kaliy bromid 1 l suvda eritiladi. Bundan tashqari, xlorid kislota va

kaliy yodidning 10 % li eritmasi, natriy tiosulfatning 0,1 eritmasi ham tayyorlanadi.

Konussimon ikita kolbaga 0,1-0,2 g dan polimer solinib, uning ustiga 10 ml xloroform qo'yiladi. Polimer solinmagan uchinchiligi kolbada kontrol tajriba o'tkaziladi. Polimer erigandan so'ng kolbaga buretka yoki pipetka vositasida Knopp eritmasidan 25 ml va xlorid kislotanining 10 % li eritmasidan 10 ml qo'shib, qorong'ida 4 soat saqlanadi. So'ngra kolbalarga kaliy yodid eritmasidan 15 ml va 150 ml suv quyib, natriy tiosulfatning 0,1 n li eritmasi bilan titrlanadi, indikator sifatida kraxmal ishlataladi.

Brom soni quyidagi formuladan hisoblab topiladi:

$$b.s. = \frac{(a - b) \cdot 0,008 \cdot 100}{g};$$

bu formulada:

b.s. — brom soni, g hisobida.

a — natriy tiosulfat eritmasining kontrol tajribada titrlashga sarflangan miqdori, ml hisobida.

b — natriy tiosulfat eritmasining asosiy tajribada titrlashga sarflangan miqdori, ml hisobida.


0,008 — natriy tiosulfatning 0,1 n li eritmasidan 1 millilitriga ekvivalent brom miqdori, g hisobida.

g — namunaning og'irligi, g hisobida.

**Polimerdag'i azot miqdorini aniqlash.** Keldal kolbasiga yaxshi maydalangan polimerdan 1 g, mis sulfatdan 0,2 g, kaliy sulfatdan 5 g va sulfat kislotadan 20 ml quyiladi.

Kolbaning og'ziga voronka o'rnatilib, shtativga mahkamlanadi va oldin ohistolik bilan, so'ngra aralashmadagi organik moddalar kuyib tamom bo'lguncha ochiq alangada qizdiriladi. Eritma sovutlib, 500 ml hajmli kolba (1) ga quyiladi (21-rasm). Keldal kolbasi chayilib, chayindi ham kolba (1) dagi eritmaga quyiladi. Kolbaning og'zi ikkita teshikli qopqoq bilan mahkam berkitiladi. Teshikning biriga tomchilatma voronka (2), ikkinchisiga esa Keldal asbobi (3) o'rnatilib, bu asbobning bir uchiga sovutgich (4) ulanadi. Sovutgichning ikkinchi uchida shisha nay (6) bo'lib, bu nay konussimon kolba (5) ga tushirilgan. Konussimon kolbaga sulfat kislotanining 0,1 n li eritmasidan 30 ml quyiladi.

Tomchilatma voronka (2) vositasida kolba (1) ga ishqorning 30 % li eritmasi quyiladi. Natijada eritma ishqoriy bo'lib qoladi va och ko'k



21-rasm.  
Azotning  
miqdorini o'lchash  
asbobi:  
1-reaksion kolba;  
2-tomchilatma  
voronka;  
3-Keldal asbobi;  
4-sovutgich;  
5-kislotali kolba;  
6-shisha nay

tusga kiradi. Kolba (1) dagi eritma qaynatiladi. Eritmaning qaynashi natijasida kolbadagi suyuqlik bug'lanib, sulfat kislota solingen konussimon kolbag'a o'ta boshlaydi. Eritmaning taxminan yarmi konussimon kolbag'a o'tganda, uni qaynatish to'xtatiladi. Sovutgich (4) va shisha nay (6) suv bilan chayilib, chayindi konussimon kolbag'a quyiladi. So'ngra konussimon kolbadagi sulfat kislota kaliy gidroksidning 0,1 n l eritmasi bilan titrlanadi. Indikator sifatida metil qizili ishlataladi.

Polimer tarkibidagi azotni aniqlashning bu usuli azotni ammiak holiga keltirib, kislota neytrallashga asoslangan. Polimerdagi azot miqdori quyidagi tenglamadan hisoblab topiladi:

$$x = \frac{u - u_1}{g} \cdot 0,0014 \cdot 100;$$

bu tenglamada:

$x$  — azot miqdori, % hisobida.

u — sulfat kislota 0,1 n li eritmasining reaksiyadan oldingi hajmi, ml hisobida.

u<sub>1</sub> — sulfat kislota 0,1 n li eritmasini titrlashga sarf bo'lgan kалий гидроксид hajmi, ml hisobida.

g — polimer namunasining og'irligi, g hisobida.

0,0014 — sulfat kislotaning 0,1 n li eritmasidan 1 millilitriga ekvivalent azot miqdori, g hisobida.

**Polimerdagi galogenlar miqdonini aniqlash.** Polimerdagi gallogenlarni aniqlashda, asosan, Schiff va Karius usullaridan foydalilanadi.

a) **Shiff usuli.** Nikel tigelga 4-5 hissa so'ndirilmagan ohak bilan 1 hissa suvsiz soda aralashmasi, 01-0,5 g polimer solib, shisha tayyoqcha bilan yaxshilab aralashtiriladi va tigel to'lguncha yana ohak va soda qo'shiladi. Tigelning usti kichikroq boshqa bir nikel tigel bilan yopiladi. Ikkinchi tigel tubining diametri birinchi tigel og'zining diametriga teng bo'lishi kerak. Tigellar bir-biriga to'nkariilib, ular orasi soda va ohak aralashmasi bilan to'ldiriladi-da, qopqoq bilan berkitilib, kichik alangada sekin-asta qizdiriladi. Bu vaqtida gaz gorelkasinining alangasini tigel yuzasi bo'ylab yuritish orqali tigelning hamma joyini bir tekisda qizdirish kerak.

So'ngra alanga kuchaytirilib, tigeldagi organik moddalar parchalanguncha qizdiriladi, so'ngra tigelsovutilib, aralashma suvda eritiladi. Ohakni suvda batamom eritish uchun unga ozgina nitrat kislota qo'shiladi. Galogenid kislota uchib ketmasligi uchun eritmani muz bilan sovutish kerak. Sovutilgan kislota eritma filtrlanib, cho'kma suv bilan yuviladi. Filtrat va yuvindi yig'ib olinib, unga kumush nitratning 10 % li eritmasi quyiladi. So'ngra cho'kkan kumush galogenid filtrlab olinib, quritiladi-da, tortib ko'rilib. Galogenlarning miqdonini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalilanadi:

$$x = \frac{R \cdot A}{g (107,9 + A)} \cdot 100 ;$$

bu formulada:

x — galogenning miqdori, % hisobida.

R — cho'kmaning og'irligi, g hisobida.

g — namunaning og'irligi, g hisobida.

A — galogenning atom og'irligi.

b) **Karius usuli.** Uzunligi 500 mm, ichki diametri 13 mm va devorining qaliligi 2 mm bo'lgan issiqqa chidamli probirkaga 0,5 g kumush nitrat

va 20-30 tomchi konsentrlangan nitrat kislota solinadi. Shundan keyin ichki diametri 6-8 mm va uzunligi 50 mm bo'lgan yupqa devorli ampulaga 0,1-0,2 g polimer solinib, ampulaga probirkaga tushiriladi va uning ochiq tomoniga shisha kapillyar ulanadi-da, kavsharlab berkitiladi. Probirkaga asbestos qog'oz bilan o'ralib, kapillyarning uchi bir oz ko'tarilgan holda Karius pechiga joylashtiriladi. Probirkaga 320-340°C temperaturada 2-3 soat ushlanib, so'ngra sovutiladi-da, probirkaga ochilib, ichidagi aralashma distillangan suvda eritiladi, so'ngra bu eritma chinni kosachaga solinadi. Probirkaga devorlariga yopishib qolgan moddalar ozgina ammiak eritmasida eritib olinadi. Chinni kosachadagi eritma suv hammomida bug'latiladi, so'ngra sovutilib, uning ustiga kumush nitrat eritmasi quyiladi. Natijada kumush galogenid hosil bo'lib, cho'kmaga tushadi. Bu tuz filtrlab olinadi-da, quritib tortiladi. Galloidlar miqdori yuqorida ko'rsatilgan formula asosida hisoblab topiladi.

**Polimerdagagi kislota sonini aniqlash.** Polimer tarkibidagi karboksil guruhlar kislota sonini bildiradi, kislota soni ishqor bilan titrlash usulida aniqlanadi.

Karboksil guruhlar polimer molekulasining oxirida (poliamidlar, poliefirlar) yoki yonaki tarmoqlarida (poliakril, polimetakril kislotalar va boshqalar) bo'lishi mumkin. Neytrallash reaksiyasi quyidagicha bo'ladi.

250 ml hajmli ikkita konussimon kolbag'a polimerning 1 % li eritmasidan 1000 ml dan olinib, kaliy gidroksidning spirtdagi 0,5 n li eritmasi bilan (fenolftalein ishtirokida) titrlanadi. Kaliy gidroksidning 1 g polimerdagagi karboksil guruhni neytrallash uchun sarflangan miqdori (mg hisobida) kislota soni deb ataladi va quyidagi formuladan hisoblab chiqariladi:

$$k.s. = \frac{aT \cdot 100}{g};$$

bu formulada:

k.s.— kislota soni, mg hisobida.

a — kaliy gidroksid 0,5 n li eritmasining polimer eritmasini titrlash uchun sarflangan miqdori, ml hisobida.


T — kaliy gidroksid 0,5 n li eritmasining titri, g/ml hisobida.

g — namunaning og'irligi.


**Polimerlarning gidroliz darajasi va efir sonini aniqlash.** Kaliy gidroksidning 1 g polimerdagagi karboksil guruhlarni neytrallashga va murakkab efir guruhlarni gidrolizlashga sarflangan miqdori gidroliz darajasi (soni) deb ataladi va mg bilan ifodalanadi.

Kaliy gidroksidning 1 g murakkab efirni gidrolizlashga sarflangan miqdori efir soni deb ataladi va mg bilan ifodalanadi. Erkin karboksil guruhi bo'lmagan efirlarda gidroliz soni efir soniga teng bo'ladi.

Efir sonining qiymati elementar bo'g'inning molekular massasiga bog'liqdir. Poliefirlarning efir sonini aniqlashda makromolekula destruktsiyalanib, ikki negizli dastlabki kislota va spirt hosil bo'ladi:



Makromolekulaning yonaki zanjiridagi murakkab efir guruhi gidrolizlanganda esa polikislota tuzi va past molekular spirt hosil bo'ladi:



Efir soni quydagicha aniqlanadi. Qaytarma sovitgich bilan jihozlangan va har birining hajmi 250 ml bo'lgan konussimon ikkita kolbaning har qaysisiga 0,5-1,0 g polimer va kaliy gidroksidning spirtdag'i 0,5 n li eritmasidan 25 ml quyiladi. Polimer solinmagan boshqa bir kolbaga kaliy gidroksid eritmasidan 25 ml quyiladi (kontrol tajriba). Kolbalar suv hammomida 3 soat isitiladi. Ba'zi polimerlar ishqor eritmasida juda sekin eriganligidan bu reaksiya hatto 24 soat davom etadi. Kolbadagi issiq eritma 0,5 n li xlorid kislota bilan titrlanadi. Titrlash fenoltalein eritmasi pushti tusga kirduncha, davom ettiriladi. Efir soni quydagi tenglamadan hisoblab topiladi:

$$e.s. = \frac{(a-b)T \cdot 100}{g};$$

bu tenglamada:

e.s. — efir soni, mg hisobida.


a — kontrol tajribada kaliy gidroksid eritmasini titrlashga sarflangan 0,5 n li xlorid kislota miqdori, ml hisobida.

b — asosiy tajribada kaliy gidroksid eritmasini titrlashga sarflangan 0,5 n li xlorid kislota miqdori, ml hisobida.

T — kaliy gidroksidning 1 milligramiga ekvivalent xlorid kislotaning titri, g/sm<sup>3</sup> hisobida.

g — namunaning og'irligi, g hisobida.

**Polimerdagи asetil guruhni aniqlash.** Polivinil asetallardagi asetal guruhlarning sonini aniqlash, xlorid kislotali gidroksilaminning asetallar bilan reaksiyaga kirishiga asoslangan:



Natijada polivinil spirt, oksim va xlorid kislota hosil bo'ladi. Xlorid kislotaning miqdori titrlab aniqlanadi.

Qaytarma sovitgich bilan jihozlangan ikkita kolbaga 2 g dan polimer va 50 ml dan etil spirt solinib, namunalar erib ketguncha, qizdiriladi. So'ngra eritmalar ustiga xlorid kislotali gidroksilaminning spirtdagi 7% li eritmasidan 50 ml dan quyiladi. Aralashma 3 soat qizdiriladi va kolbaga 50 ml suv quyiladi. Polimer solinmagan uchinchi kolbada gidroksilamin eritmasi bilan kontrol tajriba o'tkaziladi. Kolbalar sovitilib, uchala eritma kaliy gidroksidning 0,5 n li eritmasi bilan titrlanadi. Indikator sifatida fenolftalein ishlataladi. Ba'zan polimerning o'zida ham kislota xossalari bo'ladi. Shuning uchun, dastlab namunaning o'zini spirt eritmasida 0,5 n li kaliy gidroksid bilan titrlash kerak.

Quruq namunani titrlashga sarf qilingan ishqor eritmasining miqdoriga polimerda kislota xossalari borligi tufayli tuzatma kiritiladi. Asetil guruhning % hisobidagi miqdori quyidagi tenglamadan topiladi:

$$x = \frac{(b-a-d) k k_1}{g} \cdot 100$$

x — asetil guruh miqdori, % hisobida.

b — kaliy gidroksid 0,5 n li eritmasining kontrol tajribada titrlashga sarflangan miqdori, ml hisobida.

a — kaliy gidroksid 0,5 n li eritmasining asosiy tajribada titrlashga ketgan miqdori, ml hisobida.



d — polimerda kislota xossalari borligi tufayli kiritilgan tuzatma;

k — ishqor eritmasining titriga kiritilgan tuzatma.

$k_1$  — polimerdagi asetal guruhni hisoblash uchun koeffitsient (bu son guruhdagi radikalning hajmiga bog'liq).

$g$  — namunaning og'irligi,  $g$  hisobida.

**Polimerdagi nitril guruhni aniqlash.** Bu usul polimerdagi nitril guruhlarning ishqor eritmasida parchalanib, ammiak hosil qilishiga asoslangan. Reaksiya sxemasi quyidagicha bo'ladi:



22-rasm. Serevitinov asbobi:

- 1-reaksiyon idish;
- 2-shar;
- 3-stakan;
- 4-ikki yo'lli jo'mrak;
- 5-huretka;
- 6-muf'ta;
- 7-simobli baravarlashtirgich

Har birining hajmi 250 ml bo'lgan yumaloq tubli ikkita kolbaga maydalangan polimerdan 2 g dan solinadi. Har bir kolba Keldal asbobiga (22-rasmga qarang) ulanib, uning ostidagi kolbaga (ammiakni tutib qoluvchi kolbaga) xlorid kislotaning ishqorning 10 foizli eritmasidan 100 ml quyilib, 2 soat isitiladi. Bu vaqtida ajralib chiqayotgan ammiak konussimon kolbadagi xlorid kislota bilan reaksiyaga kirishadi. So'ngra kolbadagi xlorid kislota eritmasi ishqor eritmasi bilan titrlanadi. Polimerdagi nitril guruhning miqdori quyidagicha hisoblab topiladi:

$$x = \frac{(T_0 - T_f) \cdot 50 \cdot 0,075}{100} \text{ g}$$

bu formulada:

$x$  — nitril guruhning miqdori, % hisobida.

$T_0$  — xlorid kislota eritmasining boshlang'ich titri  $\text{g/sm}^3$  hisobida.

$T_1$  — xlorid kislota eritmasining reaksiyadan keyingi titri, g/sm<sup>3</sup> hisobida.


g — namunaning og'irligi, g hisobida.

0,0715 — azotni nitril guruhga aylantirish koefitsienti.

Nitril guruhning bu usulda topilgan miqdori uncha aniq bo'lmaydi. Shuning uchun polimerdag'i nitril guruh tarkibidagi azotni Keldal usulida aniqlash yo'li bilan topish ishonchliroq bo'ladi.

**Polimerdag'i gidroksil guruhning aniqlash.** Polimerda gidroksil guruhni aniqlashning bir necha usullari bo'lib, ulardan biri Chugayev va serevitinov usulidir. Bu usul gidroksil guruhning magniy-organik moddalar bilan reaksiyaga kirishuviga asoslangan bo'lib, undan molekular og'irligi uncha katta bo'lмаган polimerlar uchun foydalaniлади. Molekular og'irligi katta bo'lган polimerlar uchun esa gidroksil guruhlarning organik kislotalar angidrid va xlorangidridi bilan reaksiyaga kirishib, efir hosil qilishiga asoslangan usuldan foydalaniлади. Buning uchun, odatda sirkə angidrid va ftal angidrid ishlataladi. Bu usullarda polivinil spirt, polivinil asetallari, selluloza efirlari va boshqa polimerlardagi gidroksil guruhlar miqdori aniqlanadi.


**Chugayev va serevitinov usuli.** Bu usul magniy yodometilning gidroksil guruh bilan quyidagi tarzda reaksiyaga kirishuvchiga asoslangan:



Hosil bo'lган metanning hajmi o'lchanadi: shu metaning molar miqdori polimerdag'i gidroksil guruhlarning molar miqdoriga teng bo'ladi.

Reaksiya uchun ishlataligan barcha reaktivlar suvsiz bo'lishi kerak, chunki magniy yodmetil suv ishtirokida darhol parchalanadi. Tajriba 23-rasmda tasvirlangan asbobda olib boriladi.

0,02 - 0,03 g chamasi polimer reaksiyon idish (1) ga solinib, 15 ml pridinida eritiladi. Idishning



23-rasm. Initsiatorsiz polimerlanishning kinetik egri chizig'i

yonidagi shisha shar (2) ga uchi qayrilgan voronka yordamida 5 ml magniy yod metil quyib, bu idish stakan (3) ga joylashtiriladi. Hozircha ikki suyuqlik bir-biri bilan aralashmasligi kerak. So'ngra idish (1) probirkaga bilan mahkam berkitilib, buretka (5) ga rezina nay vositasida ulanadi. Stakan (3) va buretka (5) joylashgan mufta (6) dagi suvning harorati tenglashgach, ikki yo'lli jo'mrak (4) ni bir sekund ochib, u yana yopib quyiladi. Shundan keyin voronka (7) ni ko'tarib, jo'mrak (4) ning teshigigacha simob to'ldiriladi. Natijada buretka (5) havodan tozalanadi. So'ngra voronka (1) va buretka (5) dagi simoblar tenglashtirilib, buretkadagi simob sathining balandligi aniqlanadi.

Jo'mrak (4) ochilib, reaksiyon idish (1) bilan buretka (5) o'zarbo'lgan ularadi va reaksiyon idish (1) dagi ikki suyuqlik aralashtiriladi. Stakan tashlanib, reaksiyon idish (1) qattiq chayqatiladi. Bu vaqtda buretkadagi simob pastga tusha boshlaydi, bu jarayon sekinlashganda idish (1) ni chayqatish to'xtatiladi. So'ngra idish (1) stakandagi suvda sovutiladi. Idish sovuganda buretkadagi gazning hajmi kamayadi va keyin sekin-asta osha boshlaydi. Gazning kamaygan hajmi belgilab olinadi va normal sharoitga keltirib hisoblanadi. Gidroksil guruhning miqdori quyidagicha hisoblab topiladi:

$$x = \frac{0,00719 \cdot u \cdot 17 \cdot 100}{16 \cdot g};$$

bu tenglamada:

x — gidroksil guruhning miqdori, % hisobida.

0,000719 - 760 mm simob ustuni bosimi va 0°C haroratda 1 ml metaning og'irligi, g hisobida.

u — metanning 760 mm simob ustuni bosimi va 0°C haroratga keltirilgan hajmi, ml hisobida.

17 — gidroksil guruhning molekular massasi.


16 — metanning molekular massasi.

g — namunaning og'irligi, g hisobida.

Metanning normal sharoitdagi hajmini hisoblashda pridiinning bug' bosimi (16 mm) ni chiqarib tashlash kerak. Agar polimer molekulasida aminoguruhan va iminoguruhan bo'lsa, bu usulda gidroksil guruh miqdorini aniqlab bo'lmaydi.

**Verley usuli.** Konussimon ikkita kolbaga 0,2 dan polimer, 12 % sirka angidrid bilan 88 % suvsiz pridiin aralashmasidan 10-15 ml quyiladi. Uchinchi kolbada namunasiz nazorat tajriba o'tkaziladi.

Kolbalarning og'zi yopilib, 60°C li suv hammomida polimer erib ketguncha isitiladi. So'ngra kolbalar sovutilib, bir xil hajmda suv quyiladi va eritmalar fenolftalein ishtirokida kaliy gidroksidning 0,5 n li eritmasi bilan titrlanadi. Sirka angidrid gidroksil guruhlar bilan quyidagicha reaksiyaga kirishadi:



Ajralib chiqqan sirka kislota esa piridin bilan reaksiyaga kirishib, tuz hosil qiladi:



Bu tuz suvsiz sharoitda juda barqaror bo'lib, suv ishqor ishtirokida parchalanadi.

Polimer tarkibidagi gidroksil guruh miqdori quyidagicha topiladi:

$$x = \frac{(a-b) \cdot 0,0085}{g} \cdot 100;$$

bu tenglamada:

x — polimer tarkibidagi gidroksil guruh miqdori, % hisobida.


a — kaliy gidroksid 0,5 n li eritmasining nazorat tajribada titrlashga sarflangan miqdori, ml hisobida.

b — kaliy gidroksid 0,5 n li eritmasining asosiy tajribada titrlashga sarflangan miqdori, ml hisobida.

g — namunaning og'irligi, g hisobida.

0,0085 — gidroksil guruhning kaliy gidroksid 0,5 n li eritmasidan 1 millilitriga ekvivalent miqdori, g hisobida.

**Asetil sonini aniqlash usuli.** Bu usulda gidroksil guruh polimerni sirka angidrid bilan asetillash vositasida topiladi. Reaksiya sxemasi quyidagicha bo'ladi:



Polimerning hosil qilingan efiri tozalanib, u qayta gidroliz qilinadi va tarkibidagi sirka kislotaning miqdori aniqlanadi. Polimerdag'i gidroksil guruuhlar miqdori undan ajrab chiqqan sirka kislota miqdoriga teng bo'ladi.

Hajmi 100 ml bo'lib, qaytarmas sovutgich bilan jihozlangan kolbaga 2-3 g polimer va 15 ml sirka angidrid solinib, 3-5 soat qaynatiladi. So'ngra aralashma hajmi 1 l li stakanga ag'darilib, uning ustiga 500-600 ml qaynoq suv quyiladi va 0,5 soat isitiladi. Aralashma tingandan keyin suv qatlami rezina nay vositasida to'kib tashlanib, yana yuqoridagicha miqdorda suv quyiladi-da, birinchi galadagi kabi yuviladi. Suv bilan yuvish yuvindi neytral holga kelguncha davom ettiriladi. Olingan modda og'irligi o'zgarmay qolguncha quritiladi.

Agar polimerga aralashgan sirka kislotsani yuvib tozalab bo'limasa, namunaning kislota soni va asetil soni aniqlanadi. Buning uchun, og'zi zich berkiladigan ikkita kolbaga asetillangan polimerdan ikkita namuna solinib, spirt, spirt bilan efir yoki spirt bilan benzol aralashmasida eritiladi va fenolftalein ishtriokida 0,5 n li ishqor bilan titrlanadi. So'ngra titrlangan eritmalarga kaliy gidroksidning 0,5 n li eritmasidan 25 ml quyiladi-da, suv hammomida ikki soat isitiladi. Shu bilan bir vaqtda nazorat tajriba ham o'tkaziladi. Polimerning gidrolizlanishidan qolgan ishqor miqdori 0,5 n li kislota bilan qayta titrlanadi. Shunday qilib asetil guruuni gidrolizlashga sarf bo'lgan ishqor miqdori aniqlanadi. Asetil soni (a.s.) quyidagicha topiladi:

$$a.c. = \frac{(a-b) \cdot T \cdot 0,028}{g} \cdot 100$$

bu tenglamada;

a.s.— asetil soni, % hisobida.

a — 0,5 n li miqdori kontrol tajribada titrlashga sarflangan miqdori, ml hisobida.

T — 0,5 n li kislotsaning titri, g/sm<sup>3</sup> hisobida.


g — namunaning og'irligi, g hisobida.

0,028 — kaliy gidroksidning 0,5 n li kislotsaning 1 millilitriga ekvivalent miqdori, g hisobida.

Agar polimera gidroksil guruuhlar bilan bir qatorda efir guruuhlar ham bo'lsa, oldin efir sonini topib, uni asetil sonidan ayirish kerak. Bu usulda yumshoq va yarim suyuq polimerlarning gidroksil sonini

aniqlash yaxshi natija beradi. Polivinil spirtdagi gidroksil sonini Verley usulida aniqlash tavsija etiladi.

**Polimerdagi izosianat sonini aniqlash.** Izosianat sonini aniqlash usuli izosianatning ikkilamchi aminlar bilan reaksiyaga kirishib mochevinasimon modda hosil qilishiga asoslangan. Bu reaksiyaning sxemasi quyidagicha:



Bu reaksiya izosianat tamom bo'lguncha juda tez davom etadi. Har birining hajmi 250 ml li konussimon ikkita kolbaga 1,0 g dan polimer va 100 ml dan quritilgan xlorbenzol solinadi. So'ngra har qaysi kolbadagi polimer eritmasi ustiga 20 ml dan dietilaminning suvdagi 0,2 n li eritmasi quyiladi. Kolbadagi aralashma chayqatib turiladi: 30 minutdan so'ng ikkala kolbaga 100 ml dan izopropil spirt quyiladi. Uchinchi kolbaga dietilaminning 0,2 n li critmasidan 20 ml va izopropil spirtdan ko'k bromfenol ishlataladi. Izosianat soni (i.s.) quyidagi tenglamadan hisoblab topiladi:

$$i.c. = \frac{(a-b) \cdot d \cdot 1000}{g},$$

bu tenglamada:

i.s. — izosianat soni, g hisobida.

a — xlorid kislota eritmasining nazorat tajribada titrlashga sarflangan miqdori, ml hisobida.

b — xlorid kislota eritmasining asosiy tajribada titrlashga sarflangan miqdori, ml hisobida.


d — izosianat guruhining xlorid kislota 0,1 n li eritmasining 1 millilitriga ekvivalent miqdori.

g — namunaning og'irligi, g hisobida.


### **POLIMERLANISH**

Bir qancha molekulalarning o'zaro kovalent bog'lar bilan birikib, yuqori molekular modda hosil qilish reaksiyasi polimerlanish deb ataladi.

Polimerlanish natijasida polimerdan boshqa modda ajralib chiqmaydi, ya'ni monomerning boshlang'ich tarkibi o'zgarmay qoladi. Polimerlanish reaksiyasini umumiy holda quyidagicha yozish mumkin:



Tarkibida qo'sh bog'lari bo'lgan yoki siklik tuzilishga ega bo'lgan moddalar polimerlanish reaksiyasiga kirisha oladi va monomerlar deb ataladi. Tarkibida bitta qo'sh bog' bo'lgan olefinlarning va ular hosilalarining polimerlanishi bu reaksiyaga misol bo'la oladi:



Ikki va undan ortiq qo'sh bog'li polienlar, asetilen va uning vinil hosilalari ham polimerlanish reaksiyasiga kirisha oladi. Polimerlanish natijasida to'yinmagan bog'lar kamayib, ular to'yangan polimer hosil qiladi. Agar monomerda to'yinmagan ikkita qo'sh bog' bo'lsa, bunda ham qo'sh bog'lari soni kamayib boradi.

Butadiyendan olinadigan sintetik kauchuk — polibutadiyenning hosil bo'lishini ko'rib chiqaylik:





To'yinmagan uglevodorodlarni polimerlab, karbozanjirli polimerlar olinadi. Polimerlarning sanoat ahamiyatiga ega bo'lganlaridan: polietilen, polipropilen, polibutilen, polivinilklorid, poliviniliden xlorid, polistrol, poliakrilatlar, polivinilasetat, poliizobutilen, polibutadiyen, polixloropren, poliizopren va ularning qo'shma polimerlari ko'p ishlab chiqariladi. Sintetik tola va plastmassalar ishlab chiqarishda asosan etilen va uning hosilalari polimerlaridan foydalaniлади, kauchuklar

sifatida tarkibida ikkita qo'sh bog'i bo'lgan divinil moddalar polimerlari ko'proq ishlataladi.


Polimerlanish reaksiyasiga karbonil, oksim va qo'sh bog'lari bo'lgan boshqa xil moddalar ham kirisha oladi va natijada, geterozanjirli polimerlar hosil bo'ladi; poliformaldegid ana shular jumlasidandir:




To'yingan birikmalar faqat ba'zi sikel moddalar yordamida polimerlanishi mumkin; kislород, azot, oltingugurt atomlari orqali tutashgan sikel birikmalar geterozanjirli polimerlarga aylanadi. Etilen oksididan polietilonoksidning, kaprolaktamdan esa polikaprolaktamning hosil qilinishini ko'rib chiqaylik:



Polimerlanish reaksiyasi o'z tezligiga qarab, zanjirsimon va bosqichli bo'ladi. Bosqichli polimerlanish natijasida monomer molekulalarining o'zaro birikishi va uzayishi sekin-asta davom etadi. Bunday reaksiyani istalgan vaqtida to'xtatish va hosil bo'lgan dimer, trimer va tetromer kabi oraliq birikmalarni sof holatda ajratib olish mumkin. Boshlang'ich monomer va oraliq moddalarining reaksiyaga kirish xususiyati deyarli teng bo'lib, ularni yangi birikish reaksiyasiga kiritish uchun talaygina faollash energiyasi kerak bo'ladi. Monomer molekulalarining bir-biri va oraliq moddalar bilan birikishi biror atomning boshqa molekulaga tez ko'chib o'tishi, ya'ni migratsion harakati natijasida amalga oshadi. Polimerlanishning bu turiga izobutilen yoki stirolning sulfat kislota ta'sirida polimerlanishi misol bo'la oladi:






Ammo shuni ham aytish kerakki, bu usul bilan olingan polimerlarning o'rtacha molekular massalari qiymati ham kam bo'ladi. Demak, bosqichli yoki migration polimerlanishning borishi uchun monomer tarkibida yengil harakatlanuvchi vodorod atomlari bo'lishi lozim. Polimerlanishning bu turidan sanoatda kam foydalaniлади. Hozirgi vaqtida sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan polimerlarning qariyb hammasi zanjirsimon polimerlanish asosida polimer molekulalari juda uzun, ularning molekular massasi bir necha ming va hatto bir necha millionga teng bo'ladi.

Bunday uzun molekulalar juda oz vaqtida — sekundning milliondan bir ulushlarida hosil bo'ladi. Zanjirsimon polimerlanish uchta elementar reaksiyadan: faol markazning paydo bo'lishi, zanjirning o'sishi va zanjirning uzilishidan iborat.

1. Faol markazning hosil bo'lishi anchagina energiya talab qiladi va sekin boradi. Tashqi energiya yordamida faollashtirilgan monomerlarning bir qismi o'sib, bir qismi boshlang'ich holatga qaytadi:




Zanjirsimon polimerlanishda faol markazni erkin radikallar yoki musbat va mansiy zaryadlangan zarrachalar — ionlar hosil qila olishi mumkin. Shuning uchun ham faol markazning kelib chiqishiga qarab, polimerlanish reaksiyalari radikalli va ionli reaksiyalarga bo'linadi. Demak, bunday reaksiyaning boshlanishi va borishi ham har xildir. Issiqlik nurlari, jumladan, yorug'lik, ultrabinafsha nurlar, rentgen nurlari va radiatsion nurlar, peroksid moddalar hamda azo-diazo birikmalar ta'sirida boshlangan reaksiyalar erkin radikalli polimerlanish jumlasiga kiradi. Tuzlar va asos xossalariга ega bo'lgan metallar va ularning amidlari hamda organik birikmalar



katalizatorligida boradigan reaksiyalar ionli polimerlanishga kiradi. Shuning uchun bunday reaksiyalar katalitik polimerlanish deb ham ataladi.

2. Polimer zanjirining o'sishi juda ham oz faollanish energiyasini talab qiladi va juda tezlik bilan boradi:




bu yerda:  $A_i$  — monomer molekulasi.

$A_i^{\bullet}$  — monomerning faol markazi.

$A_2^{\bullet}, A_3^{\bullet}, \dots A_n^{\bullet}$  — o'sayotgan radikallar.


$A_n^{\bullet}$  — polimer molekulasi.

3. Polimer zanjirning uzilishi katta faollanish energiyasini talab qilmaydi va anchagina tez boradi:




Shuni ham aytish kerakki, polimer zanjirining o'sish tezligi polimer zanjirining uzilish tezligidan qanchalik yuqori bo'lsa, vujudga kelgan polimer molekulasi ham shunchalik uzun bo'ladi. Demak, polimer molekulasining uzunligi, binobarin, molekular og'irligi ham ikkala reaksiyaning tezlik nisbatlariga chambarchas bog'liq.

**Radikalli polimerlanish.** Radikalli polimerlanishda faol markaz juftlanmagan bir yoki ikki elektron, ya'ni erkin radikal ta'sirida vujudga keladi. Erkin radikallar juftlanmagan elektron mavjudligi tufayli har xil monomerlar bilan shiddatli ravishda reaksiyaga kirishadi va natijada o'sa oladigan faol markaz hosil bo'ladi:




Polimer zanjiri bir qancha erkin radikalli zanjirining monomer molekulalari bilan to'qnashuvi va birikishi tufayli o'sadi. Hosil bo'layotgan va uzunligi ortib borayotgan molekulalarda erkin radikal borligi tufayli ular yana o'sa oladi. Polimer zanjirining o'sishi vaqtida monomer tarkibidagi  $\pi$  bog'lar  $\delta$  bog'larga aylanadi. Har bir p bog'ning d bog'ga aylanish vaqtida taxminan 22,5 kkal issiqlik chiqadi, shuning

uchun ham zanjirsimon polimerlanish vaqtida doimo issiqlik energiyasi chiqib turadi:





Polimer zanjiri erkin radikalning yo'qolishi oqibatida uziladi. Masalan,

polimerlarning o'sayotgan ikki zanjiri o'zidagi erkin radikallar bilan uchrashib, o'sishdan to'xtaydi:




Issiqlik ta'sirida polimerlanishning boshlanishi juda sekin boradi; bu jarayon haroratga bog'liq bo'ladi. Ba'zi monomerlar, jumladan, vinilasetat, akrilonitril, vinilxlorid, vinilidenxlorid va boshqalar qattiq qizdirilganda ham polimerlanmaydi. Shuning uchun ham ko'pincha bunday monomerlar maxsus moddalar (initsiatorlar) ta'sirida polimerlanadi. Initsiatorlarning ahamiyati shundaki, ular oson parchalanib, erkin radikallar hosil qiladi. Initsiatorlarning parchalanishi energiyani kam talab etadi va polimerlanish reaksiyasining faol markazlarini hosil qilishda va tezlashtirishda muhim rol o'ynaydi (24-rasm). Initsiator moddalarning zarrachalari esa polimer molekulalarning tarkibidagi kimyoviy bog'lar bilan ulanib qoladi. Shunday initsiatorlar moddalarga misol qilib, benzol peroksid, vodorod peroksid, bisazo-izobutirodinitril, anorganik birikmalardan; natriy, kaliy, ammoniy, persulfatlarni ko'rsatish mumkin. Bu polimerlanishni boshlash uchun, monomer og'irligiga nisbatan olganda 0,1-1 % initsiator qo'shilishi kifoya.

Masalan, benzoil peroksid 60°C va undan yuqori haroratgacha qizdirilganda ikkita erkin radikalli benzoat guruh hosil bo'ladi:




**24-rasm.** Initsiator ishtirokida polimerlanishning kinetik egri chichig'i


Benzoat radikallari esa parchalanishda davom etib, erkin radikalli fenil guruhlar hosil qiladi:



Bu ikkala benzoat va fenil radikallar ham ko'pchilik monomer molekulalari bilan birikib, polimerlanishning faol markazlarini yaratadi. Masalan, metilmekatrilat va stirol molekulalari quyidagi faol markazlarni hosil qiladi:





2-azo-bis-izobutirodinitril ham bir molekula azot ajratib chiqarib, ikkita erkin radikal hosil qiladi va vinil monomerlarning polimerlanish reaksiyasini boshlab beradi:






Ba'zan, polimerlanish reaksiyası temperaturasini pasaytirishning muhim ahamiyati bor, chunki temperatura qanchalik past bo'lsa, polimer moddaning sifatini pasaytiruvchi qo'shimcha reaksiyalarga o'rın qolmaydi. Bu maqsadda oksidlanish — qaytarilish initsiatorlardan foydalaniлади, chunki ularning faollashtirish energiyasi juda kam bo'lib, 10-15 kkal/mol ga tengdir. Oksidlanish

maqsadida vodorod, peroksid va persulfatlar olinsa, qaytarish moddalari sifatida ikki valentli temir tuzlari va tiosulfatlar ishlataladi. Bu sistemalarda reaksiyani boshlab beruvchi agent sifatida, hosil bo'layotgan erkin radikal gidroksil guruhining ahamiyati kattadir:





yoki





Zanjirsimon radikalli polimerlanishning muhim xossalardan biri faol markazlarning yoki o'sayotgan polimer radikallarining ba'zi birikmalar bilan uchrashib, o'sish markazini uzatib yuborishidan iboratdir.

Agar polimer radikali to'yigan modda molekulasi (AV) bilan to'qnashsa, uni parchalab yuborishi mumkin. Natijada o'sayotgan polimer radikali to'yigan moddaning bir qismini biriktirib olib, passiv holatga o'tadi. To'yigan moddaning bir qismi esa radikal holatiga o'tib, monomerni qayta o'sish markaziga aylantiriladi:




Bu holda polimerlarning o'sayotgan molekulasi bir necha polimer zanjiriga bo'linadi va molekular massasi pasayadi. Haroratga ko'tarilgan sari kuchayadigan bunday jarayon ko'p uchrab turadi. Bunga misol qilib, etilenning tetroaxlormetan ta'sirida polimerlanishni ko'rsatish mumkin:




Shunday qilib, monomer va uglerod tetraxloridning o'zaro nisbatini o'zgartirish yo'li bilan polimerning molekular massasini oshirish yoki kamaytirish mumkin. Bunday moddalarda, odatda, reguliyorlar deb ham ataladi. Ba'zan to'yigan AV molekuladan hosil

bo'lgan V erkin radikal initsiator rolini bajara olmaydi, ya'ni yana o'sish markazi hosil qila olmaydi. Bu hol polimerlanishning sekinlashuviga yoki butunlay to'xtab qolishiga sabab bo'ladi.

Polimerlanish reaksiyasini butunlay to'xtatuvchi moddalar ingibitorlar deb ataladi. Masalan, bunday moddalardan biri — xinonni olaylik. Xinon o'sib borayotgan polimer zanjiridan vodorodni tortib olib, semixinonga aylanadi, zanjirda esa qo'sh bog' hosil bo'ladi:




Hosil bo'lgan semixinon guruh esa o'sayotgan yana bir makroradikal yoki faol markaz bilan birikib, ularni o'stirmay qo'yadi, ya'ni zanjirni uzadi.




O'sayotgan zanjirlarning uzilishi reaksiyani sekinlashtiradi va molekulaning uzunligi kamaytiradi. Ba'zi ingibitorlar reaksiyaning boshlanish davrida barcha faol markazlarni passiv radikallarga aylantirishi mumkin. Bu holda polimerlanish reaksiyasini ingibitor tugaguncha boshlanmaydi. Reaksiya vaqtida ingibitor tamom bo'lgandan so'nggina zanjirlarning normal o'sishi boshlanadi. Amalda ingibitor moddalar sifatida organik birikmalardan ko'p atomli fenollar, ayniqsa, gidroxinon, pirokatexin, pirogalol, aromatik aminlar, nitrobirikmalar, jumladan, trinitrobenzol, pikrin kislota; anorganik moddalardan -oltingugurt, yod, mis, temir va xrom elementlarning oksidlari, asetat tuzlar ko'proq ishlataladi. Havo kislorodi polimerlanish reaksiyasini ba'zan tezlashtiradi, ba'zan esa sekinlashtiradi. Vinilasetat va akrilatlarining ultrabinafsha nur ta'sirida polimerlanishda kislorod ingibitorlik rolini o'ynaydi.

Stirol va ba'zi monomerlarning nurlari ta'sirida polimerlanishda kislorod initsiator ham bo'la oladi. Polimerlanish muhitdag'i erkin radikalning kislorod bilan birikib, peroksid radikallarini hosil qilishi aniqlangan:




Agar bunday radikal faol bo'lsa, polimerlanish prosessida kislorod initsiator rolini o'ynaydi. Hosil bo'lgan peroksid radikal passiv bo'lsa,



25-rasm. Stirol polimerlanishining turli temperaturalardagi kinetik egrilari chiziqlari

polimerlanishning borishi haroratga bog'liqdir. Haroratning ko'tarilishi faol markazlarni ko'paytiradi va reaksiyaning o'sish tezligini oshira boradi (25-rasm). Demak, bir tomonidan, reaksiyaning o'sish tezligi va molekulalarining uzunligi oshib borsa, ikkinchi tomondan, reaksiyaning uzilish tezligi oshib, molekulalarning qisqarishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham yuqori haroratda olib borilgan polimerlanish jarayoni natijasida faol markazlarning ko'payishi polimer molekular massasining kamayishiga sabab bo'ladi, chunki sistemada faol markaz qanchalik ko'p bo'lsa, makromolekulalar uzunligi kam va aksincha, faol markazlar qanchalik kam bo'lsa, makromolekulalar soni shunchalik kam va ularning uzunligi ortiq bo'ladi. Ultrabinafsha va radiatsion nurlar ta'sirida boruvchi polimerlanish reaksiya tezligi haroratga uncha bog'liq emas, u asosan nurlarning intensivlik darajasiga bog'liq bo'lib, quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:



26-rasm. Polimerlanish tezligining va molekulular og'irlikning initiator miqdoriga bog'liqlik grafigi

$$u = k\sqrt{J}$$

bu tenglamada:

$u$  — polimerlanish tezligi.

$J$  — nurning intensivlik darajasi.

Radikalli polimerlanishda initiator miqdorini muhim ahamiyati bor. Initiator miqdorini ortib borishi va uning parchalanishi natijasida faol markazlar soni ko'payib, polimerlanish

tezlashadi (26-rasm). Bunda polimerning molekular og'irligi kamayadi. Shunday qilib, polimerlanish tezligi initsiator konetratsiyasining ildiziga to'g'ri proporsionaldir.

$$u = k \sqrt{i}$$

bu tenglikda:

$u$  — polimerlanish tezligi.

$k$  — konstanta.

$i$  — initsiatorning konsentratsiyasi.

Polimerlanish darajasi esa initsiator konsentratsiyasining ildiziga teskariproportionaldir:


$$P = k' \frac{1}{\sqrt{i}}$$

bu tenglikda:

$R$  — polimerlanish darajasi:

$k'$  — konstanta.

Eritmada polimerlanish reaksiyasining borish tezligi monomerning konsentratsiyasiga bog'liqdir (27-rasm). Eritmada monomerning konsentratsiyasi qancha ortiq bo'lsa, polimerlanish tezligi shuncha oshiq bo'ladi, ammo ko'pchilik erituvchilar polimerlanish jarayonda zanjirni uzaytiruvchi agent sifatida ishtirok etib, bu jarayonni ancha murakkablashtiradi. Polimerlanish idishida bosimning ortishi ham polimerlanish tezligiga monomerning konsentratsiyasini oshirgani kabi ta'sir etadi, ya'ni yuqori bosimdan foydalanib, polimerlanish vaqtini qisqartirish mumkin.




**27-rasm.** Polimerlanish tezligining, molekular og'irlikning monomer konsentratsiyasiga bog'liqlik grafigi


## IONLI VA KATALITIK POLIMERLANISH

Ionli polimerlanish katalizatorlar ishtirokida boradi. Ionli polimerlanishda zanjir uchida kation yoki anionlar bo'lib, ular musbat yoki manfiy zaryadlarini zanjir bo'ylab uzatish orqali molekulaning o'sishiga imkoniyat tug'diradi. Demak, katalizatorlar qanday ion hosil qilishiga qarab, katalistik polimerlanish kationli va anionli polimerlanishga bo'linadi.


Kationli polimerlanish. Bu jarayon kislotalar va ularning elektron-akseptor xossali tuzlari ta'sirida boradi:





Hosil bo'lgan monomer molekulasi bilan birikib, zanjirni uzaytiradi va o'zining musbat zaryadini keyin birikkan monomer molekulasisiga beradi:




Bu reaksiyada zanjirlar katalizatorlarning ajralib chiqishi bilan uzlaldi:



Demak, ionli polimerlanish zanjirning uzilishi radikalli polimerlanish zanjirning uzilishiga o'xshamaydi va biror vodorod atomiga ajralishi tufayli amalga oshadi. Kationli polimerlanishni past temperaturada amalga oshirish uchun, ba'zan monomerning faollanish energiyasini kamaytiruvchi moddalar — sokatalizatorlar ishlatalidi. Sokatalizatorlar sifatida suv va mineral kislotalar ishlatilsa, yaxshi natijalar beradi. Bu holda katalizatorlar va sokatalizator o'zaro reaksiyaga kirishib, vodorod protoni ajratib chiqaradi. Vodorod protoni esa monomer molekulasi bilan birikib, kationli polimerlanish faol markazini, ya'ni karboniy ionini hosil qiladi. Bunga quyidagini misol qilib ko'rsatish mumkin:




Bu holda reaksiya zanjiri undagi kationning anion bilan to'qnashuvi oqibatida uziladi, natijada quyidagi reaksiya asosida katalizatorlar ajralib chiqadi:




Bunday reaksiyada polimerlanish tezligi katalizator konsentratsiyasiga, polimerlanish darajasi esa monomer konsentratsiyasiga to'g'ri proporsional bo'lib, katalizator miqdoriga bog'liq emas.

**Anionli polimerlanish.** Anionli polimerlanish katalizatorlari sifatida ishqoriy metallar va ularning amidlari, metall-organik birikmalar, ko'p valentli metall oksidlari va elektron-donor xossalariiga ega bo'lgan boshqa moddalar ishlatalidi. Katalizator bilan monomer o'zarlo ta'sirlashib, manfiy zaryadli anion hosil qiladi:




Hosil bo'lgan anion monomerning yangi molekulasi bilan birikadi va manfiy zaryadini monomerning keyingi birikkan molekulasiga beradi:




Bu reaksiyada zanjir biror vodorod atomining yutilishi tufayli uziladi. Anionli polimerlanishning xarakterli xususiyati shundaki, u past haroratda ham katta tezlik bilan davom etadi. Harorat qanchalik pasayib borsa, anionli polimerlanish reaksiyasining tezligi shunchalik ortadi. Shuning uchun ham reaksiya, ba'zan, - 50°C va 190°C da olib boriladi. Anionli polimerlanish reaksiyasining misoli tariqasida

akrilonitrilning natriy amid ta'sirida va suyuq ammiak muhitida polimerlanishini ko'rib chiqaylik:


katalizator:




faol markazning hosil bo'lishi:



reaksiya zanjirining o'sishi:




reaksiya zanjirining uzilishi:




Monomer va katalizator konsentratsiyalarining oshib borishi bilan polimerlanish tezligi ham ortib boradi. So'nggi vaqtarda katta ilmiy sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan metall — organik katalizator  $\text{Al}(\text{S}_2\text{N}_5)_3$  ni nemis olimi Sigler topdi. Sigler etilennini trietilaluminiiy va tetraxlortitan ta'sirida, odatdagisi bosim va temperaturada polimerlab, yaxshi sifatli polietilen hosil qilishga muvaffaq bo'ldi. Anionli polimerlanish prosessidan, ayniqsa, italyan olimi J.Natta sigler katalizatorlarini ishlatib, izotaktik, ya'ni stereoregulyar tuzilishdagi

polimerni hosil qilgandan so'ng keng ko'lamda foydalaniladigan bo'ldi. Propilen va diolefinlardan metall-organik katalizatorlar ishtirokida sintez qilingan polimerlar to'g'ri chiziqli shakli va yuqori simmetrik tuzilishi tufayli kristall holatiga ko'proq o'tadi va ularning fizik hamda mexanik xossalari ataktik polimerlarnikiga qaraganda anchagina yaxshi bo'ladi. Ularning solishtirma og'irligi, suyuqlanish temperaturasi va mustahkamligi boshqa polimerlarnikidan yuqoriroq bo'ladi. Polipropilen, polibutilen va ba'zi polimerlar o'z fazoviy tuzilishiga qarab, izotaktik, sindiotaktik va ataktik polimer turlariga bo'linadi. Quyidagi bu uch polimerlarning fazoviy joylanishi tasvirlangan:


1. Izotaktik polipropilen:



2. Sindiotaktik polipropilen:




3. Ataktik polipropilen:






Izotaktik va sindiotaktik polimerlarda uchlamchi uglerod atomi yonidagi metil guruh hamma vaqt ma'lum masofada turadi va aniq fazoviy tuzilishda bo'ladi. Ataktik polimerda esa metil guruhlar tasodifiy, ya'ni fazoda ma'lum qoidalarga bo'y sunmagan holda joylashgan bo'ladi. Shuni ham aytish kerakki, alyuminiy-organik birikmalarining titan xloridlar bilan hosil qilgan kompleks birikmalardagina stereospetsifik



katalizatorlik xossalari bo'ladi. Hozirgi nazariyalarga ko'ra, bu kompleksning tuzilishi va barcha xossalari ma'lum emas. U quyidagicha tasavvur etiladi:



Qutblangan bu kompleks sirtiga monomer molekulalari kelib joylashadi, natijada, anionli polimerlanishning faol markazi hosil bo'ladi. Polimer molekulasi monomer molekulasining katalizator bilan zanjir orasiga kirishi orqali o'sadi:




Polimer zanjiri monomer molekulasiga bir atom vodorod ioni o'tishi tufayli uziladi:



Bu holda polimerning uzilgan zanjiri uchida qo'sh bog' hosil bo'ladi. Katalizator sathida hosil bo'lgan yangi faol markaz polimer zanjirini yana o'stirib yubora oladi.

## SOPOLIMERLANISH

Ikki va undan ortiq xil monomerning birgalikda polimerlanishi sopolimerlanish, hosil bo'lgan yuqori molekular modda esa sopolimer deb ataladi. Ikki xil monomerning sopolimerlanishini umumiy holda quyidagicha ifodalash mumkin:



Bu reaksiya monomer turlarini va ularning o'zaro nisbatini o'zgartirish yo'li bilan har qanday talablarga javob beradigan sopolimerlar sintez qilishga imkon beradi. Shuning uchun sopolimerlar ishlab chiqarish keng ko'lamda yo'lga qo'yilgan. Masalan, poliakrilonitril dimetilformamiddan boshqa narsada erimaydi va shuning uchun, undan sintetik tolalar tayyorlash ancha og'ir bo'ladi. Akrilonitrilning vinilxlorid bilan sopolimeri asetonda eriydi, akrilonitrilning itakon kislota bilan sopolimerida esa yaxshi bo'yali shususiyati bor, shuning uchun sanoatda bu sopolimerlardan sintetik tola ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan.

Sopolimerlanishda bir necha monomerning ishtirok etishi polimer zanjirining o'sish va uzilish jarayonlarini murakkablashtirib yuboradi. Bu holda asosan zanjirning to'rt xil o'sish reaksiyasi va uch xil uzilish reaksiyasi davom etishi mumkin. Shu reaksiyalarning hammasi har xil tezlik bilan boradi. Natijada, reaksiya vaqtida monomerlarning konsentratsiyalari ham o'zgaradi, bu o'zgarishlar esa hosil bo'layotgan sopolimerlarning tarkibiga ta'sir etadi, ya'ni sopolimer tarkibiga kirgan monomerlar nisbati polimerlanish oldidan tayyorlangan monomerlar nisbatidan farq qiladi. Odadta sopolimerlarning tarkibini aniqlash uchun bir necha usullardan foydalaniladi. Shu maqsadda dastlabki A va  $\zeta$  monomerlar o'zaro har xil nisbatda va turli temperaturada sopolimerlarga aylantiriladi. Bu tajribalar natijasida reaksiyaning eng muhim ko'rsatkichlari  $r_1$  va  $r_2$  ya'ni sopolimerlanish konstantalari aniqlanadi. O'sayotgan A radikalning «o'z» monomeri A bilan birikishi «begona» monomer  $\zeta$  bilan birikishiga qaraganda qanchalik sost bo'lsa, sopolimerlanish konstantasi  $\rho_1$  ning qiymati ham shunchalik kam bo'ladi.  $\rho_1$  va  $\rho_2$  qiymatlarini aniqlash uchun quyidagi tenglamadan foydalaniladi:

$$\frac{a}{b} = \frac{[A]}{[B]} = \frac{r_1[A] + [B]}{r_2[B] + [A]}$$


bu yerda:

A va V — monomerning dastlabki qiymatlari.

a va b monomerlarning polimer tarkibidagi qiymatlari.

$r_1$  va  $r_2$  sopolimerlanish konstantalari yoki monomerlarning nisbiy faolligi.

Amalda ma'lum tarkibli sopolimerlar hosil qilish uchun monomerlarning o'zaro aniq nisbatlaridan —  $r_1$  va  $r_2$  koeffitsientlaridan foydalaniladi; ularning tajribada topilgan qiymatlarini hisobga olib, yuqoridagi tenglamani tadbiq etish ma'lum xossalarga ega bo'lgan sopolimerlar sintez qilish imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham monomerlarning turini o'zgartirish yo'lli bilan har qanday talabga javob bera oladigan polimer mahsulotlar hosil qilinishi mumkin. Sopolimerlanish reaksiyasining ajoyib xususiyatlaridan biri shuki, ba'zan yakka o'zi polimerlanmaydigan monomerlar ham bu reaksiyaga kirishib, yuqori molekular moddaga oson aylanadi. Malein angidrid bilan stirolning birga polimerlanishi bunga misol bo'la oladi:




Ma'lumki, malein angidridning tarkibida qo'sh bog' bo'lishiga qaramay, u yakka holda polimerlanmaydi. Shuni ham aytish kerakki. ko'pgina monomerlar o'zaro sopolimerlar hosil qilmay, ayrim holda polimerlanib, polimerlar aralashmasi hosil qilishi mumkin. Bunday aralash polimerlarni haqiqiy sopolimerdan farq qila bilish muhim ahamiyatga egadir. Polimerlar aralashmasini sopolimerdan farq qilish usullaridan biri, sopolimerni erituvchi moddalarda tekshirib ko'rishdan iborat. Agar sopolimer erituvchilarda polimerlarga qaraganda ko'proq erisa yoki yangi erituvchilarda erisa, demak, sopolimerlanish reaksiyasi to'g'ri amalga oshgan bo'ladi. Ammo sopolimerlanishning isbotlangan usuli sopolimerni eritmada fraksion tarzda cho'ktirishdir. Bu usulda ikki xil polimer toza holatda ajratib olinishi mumkin. Umuman sopolimerni oddiy polimerlar aralashmasidan farq qilishning yana bir

qancha usullari bor. Masalan, stirol va butadiyen sopolimerlanganda to'rsimon tuzilishdagi makromolekulalarning hosil bo'lishi sopolimer hosil bo'lganligini ko'rsatadi, chunki stirol va butadiyen ayrim-ayrim polimerlanib, to'rsimon makromolekulalar hosil qila olmaydi.

### POLIMERLASH USULLARI

Hozirgi vaqtida polimerlanishning asosan uch xil texnologik usulidan foydalilanadi. Ular blok va emulsion polimerlash usullaridir. Blok polimerlashda tozalangan monomerlar maxsus idishlarda yaxlit holda polimerlanadi. Hosil bo'lgan polimer idish shakliga kiradi. Bu usulning asosiy kamchiligi shuki, reaksiya natijasida chiqqan (ekzotermik) issiqlikni yo'qotish ancha qiyindir. Polimer issiqlikni yaxshi o'tkazmasligidan, ayniqsa, polimerning o'rtasidagi issiqlik polimer zanjirini parchalab yuboradi va fizik-mexanik xossalarni pasaytiradi. Shuning uchun ham blok polimerlash usulidan stirol va metilmekrirlatdan tiniq organik shisha va ba'zi optik vositalar tayyorlashda foydalilanadi.

Lok polimerlash usuli, asosan, ikkiga bo'linadi. Ularning birida ham monomerni, ham polimerni erituvchi suyuqliklar ishlataladi. Hosil bo'lgan polimer eritmasini lok sifatida ishlatalish mumkin. Shuning uchun ham bu usul lok usuli deyiladi. Ikkinchisida muhit sifatida olingan erituvchi monomerni eritsa ham hosil bo'lgan polimerni erita olmaydi. Lok usulining asosiy kamchiligi hosil bo'lgan polimer molekular og'irligining kichikligi va ayniqsa, erituvchi moddalarning o'tga o'chligidir. Bundan tashqari, bu usul ishlab chiqarish texnologiyasini ancha qiyinlashtiradi. Lok usulidan, asosan, katalitik polimerlashda foydalilanadi. Emulsion polimerlash usuli istiqboli porloq usuldir. Bu usulda, birinchidan, reaksiya ortidagi temperaturada katta tezlik bilan boradi, ikkinchidan, hosil bo'lgan polimer yuqori sifatlari bo'ladi; shu sababli, bu usul polimerlar olishning eng asosiy usulidir. Emulsion polimerlashda dispersion muhit, asosan suvdan iborat bo'lib, undan monomerning 7-50 foizgacha emulsiya tayyorlanishi mumkin. Ammo bunday emulsiyalar barqaror bo'lmaydi, emulsiyanı barqaror qilish uchun esa emulgatorlar qo'shiladi. Emulgatorlar sifatida oleat, palmitat, laurat kislotalarning ishqorisi tuzlari ishlataladi (28-rasm). Emulsion polimerlashda initiatorlar sifatida suvda eruvchan persulfat,



28-rasm. Og'zi kavsharlanmavannampula.

29-rasm. Qaytarma sovitgich, qorgich va tomchilatma voronka bilan jihozlangan kolba

perboratlar, vodorod, peroksidlar ko'p ishlataladi. Polimerlanish jarayonining regulyatorlari sifatida, ya'ni muhitning vodorod ko'rsatkichi ( $rN$ ) emulsianing barqarorligini oshiruvchi moddalar — bikarbonatlar, fosfatlar va asetat tuzlar ham qo'shiladi. Bunday polimerlanish natijasida polimerning suvdagi dispersiyasi, ya'ni lateks hosil bo'ladi. Emulsion usulining ikkinchi turi suspenzion usuli yoki «marvardsimon» polimerlash usuli deyiladi. Bunday reaksiyalarning initsiatorlari sifatida monomerda eritilgan benzoil peroksid yoki diazobirikmalar ishlataladi. Suspenziyaning barqarorligini oshirish uchun unga suvda eruvchi stabilizator — polivinil spirt yoki jelatina qo'shiladi. Hosil bo'lgan tomchi yoki «marvard» larning o'lchami qorishtirgichning aylanish tezligiga bog'liqdir. Initsiator modda monomer tomchilari ichida bo'lGANI uchun bunday polimerlanish deb qarash mumkin. Emulsion polimerlanishning reaksiyasi vaqtida chiqqan issiqlikni suv vositasida tortib olish mumkin. Ikkinchidan, tolqon yoki donalar tarzida hosil bo'lgan polimer sanoatda qayta ishslash uchun ko'p yengillik tug'diradi.

## VAZIFALAR

### 1-vazifa. Metilmekratrilatning fotopolimerlanishi

Reaktiv va asboblar: haydalgan metilmekratrilat (30 g); 25 ml sig'imli ampulalar (6 dona), 150 wattli simobli elektr lampasi (1-dona).

6 ta ampulaga (29-rasm) 5 g dan metilmekratrilat solinadi. Ampulalarning og'zi kavsharlanib, shtativlarga o'rnatiladi va ularga

simobli lampaning nuri tushiriladi. Nurlantirish boshlangandan so'ng 2 soat o'tgach, 1-ampulaga, 4 soat o'tgach, 6-ampula ochiladi. Ampulani ochish uchun u sochiqqa o'ralib, kavsharlangan og'zi ohistalik bilan egovlanadi. Ampulalar ichidagi narsa oldin tortib qo'yilgan kosalarga solinib vakuum — quritgich shkafda 30°C da quritiladi-da, chiqqan polimer miqdori tortib ko'rildi.

1-topshiriq. Metilmekrilit fotopolimerlanish reaksiyasining optimal vaqtini aniqlansin.

2-topshiriq. Chiqqan polimer miqdori aniqlansin va polimerlanish prosessining kinetik egri chizig'i chizilsin.

### **2-vazifa. Polimerlarning xossalari bilan monomerlarning tuzilishi orasidagi bog'lanishni aniqlash**

Reaktiv va asboblar: haydalgan metilmekrilit (10 g), haydalgan butilmekrilit (10 g), benzoil peroksid (0,1 g); 25 ml sig'imli ampulalar (2 dona), suv termostati (1 dona)

Ampulalarning biriga 10 g metilmekrilit va 0,05 g benzoil peroksid, ikkinchisiga 10 g butilmekrilit va 0,05 g benzoil peroksid solinadi. Ampulalarning og'zi kavsharlanib, suv termostatiga qo'yiladi-da, 80°C da 6 soat qizdiriladi. Ampulalar termostatidan vaqt-vaqt bilan olinib, reaksiyon massanining oqish nuqtasi belgilanadi-da, monomerning polimerlanish tezligi kuzatiladi.

1-topshiriq. Butilmekrilitning va metilmekrilitning polimerlanish tezliklari bir-biriga solishirilsin va ular orasidagi farqning sabablari tushuntirilsin.

2-topshiriq. Polimerlanishning shishalanish yoki yumshash temperaturasi aniqlansin va ularning hosil bo'lish reaksiyalarining tenglamasi yozilsin.

### **3-vazifa. Polibutilmekrilitning molekular massasini initisiator miqdoriga bog'liqligini aniqlash**

Reaktiv va asboblar: haydalgan butilmekrilit (50 g), benzoil peroksid (0,95 g); 50 ml sig'imli ampulalar (5 dona), suv hammomi (1 dona).

Beshta ampulaga 10 g butilmekrilit solinadi va ularning ustiga har xil miqdorda (birinchi ampulaga 0,05 g, ikkinchisiga — 0,75 g, uchunchisiga — 0,125 g, to'rtinchisiga — 0,2 g, besinchisiga — 0,5 g) benzoil peroksid qo'shiladi. Ampulalarning og'zi kavsharlanib, ular suv hammomiga qo'yiladi-da, 80°C da 2 soat qizdiriladi. Hosil bo'lgan polibutilmekrilitning o'z monomeridagi eritmasi biror modda vositasida cho'ktiriladi va qancha miqdor polimer chiqishi aniqlanadi.

1-topshiriq. Polibutilmetakrilatning polimerlanish reaksiyasining tenglamasi yozilsin.

2-topshiriq. Barcha polimer namunalari 0,2% li eritmalarining solishtirma qovushoqligi aniqlansin va solishtirma qovushoqligi bilan initiator miqdori orasidagi bog'lanishni ko'rsatuvchi grafik chizilsin.

#### **4-vazifa. Stirolning initiator ishtirotkida polimerlanishini tekshirish**

Reaktiv va asboblar: haydalgan stirol (30 g), benzoil peroksid (0,6 g), benzol (250 ml), benzin (250 ml), 50 ml sig'imli, yassi tubli kolba (1 dona), 25 ml sig'imli ampulalar (6 dona), termoregulyatorli suv termostati (1 dona), 100-120 ml sig'imli stakanlar (6 dona), shisha tayyoqchalar (6 dona).

50 ml sig'imli kolbaga 30 g stirol 0,6 g benzoil peroksid solinadi. Hosil bo'lgan eritma 6 ta ampulaga bab-baravar qilib solinadi. Ampulalarning og'zi kavsharlanib, ular 80°C gacha qizdirilgan suv termostatga qo'yiladi. Ampulalar shu temperaturada tutib turilib, 30 minut o'tgach, 1-ampula 50, 80, 100, 120 va 180 minut o'tgach, tegishli 2, 3, 4, 5 va 6-ampulalar ochiladi. Ampulalarda hosil bo'lgan polimerlar namunasi 15-30 ml benzolda eritilib, unga cho'ktiruvchi modda — benzindan 30 ml solinadi-da, polimer qayta cho'ktiriladi. Cho'ktirilgan polimer suyuqlikdan silqitib ajratilgandan so'ng, bir necha marta benzin bilan yana chayiladi va 30-40°C da vakuum — quritgich shkafda og'irligi o'zgarmay qolguncha quriladi.

1-topshiriq. Har qaysi ampuladan chiqqan polimerning miqdori aniqlansin.

2-topshiriq. Chiqqan polimerning benzoldagi 0,2% li eritmasining solishtirma qovushoqligi va har qaysi polimerning molekular massasi aniqlansin.

3-topshiriq. Chiqqan polimerning molekular massasi va miqdori bilan polimerlanish vaqtি orasidagi bog'lanishni ko'rsatuvchi grafik chizilsin.

#### **5-vazifa. Stirolning initiator va erituvchi ishtirotkida polimerlanishini tekshirish**

Reaktiv va asboblar: haydalgan stirol (30 g), benzoil peroksid (1,2 g), benzol (120 g), benzin (500 ml), 25 ml sig'imli ampulalar (6 dona), suv termostati (1 dona), 150-200 ml sig'imli stakan (6 dona), chinni kosacha (6 dona), 100 ml sig'imli yassi tubli kolba (1 dona).

Kolbaga 30 g stirol va 120 g benzol solinib, unda 1,2 g benzoil peroksid eritiladi. Hosil bo'lgan eritma 6 ta ampulaga teng qilib solinadi. Ampulalarning og'zi kavsharlanadi va 60°C gacha qizdirilgan suv termostatga qo'yiladi. Ampulalar shu temperaturada qizdirilib, 40 minut o'tgach, 1-ampulaga 60, 90, 150, 240 minut o'tgach, 2, 3, 4, 5 va 6-ampulalar ochiladi. Qulaylik uchun ampulalarning og'zi kesib ochiladi va hosil bo'lgan polimer eritmasi shisha tayyoqcha bilan qorishtirilib, 80 ml benzinli stakanga quyiladi. Bunda benzinda erimaydigan polistirol cho'kmasi hosil bo'ladi. Polimer eritmadan silqitish yo'li bilan ajratiladi-da, benzin bilan birga necha marta yuvilib, tortilgan kosachaga olinadi va 60 - 80°C da vakuum — quritgich shkafida og'irligi o'zgarmay qolguncha quritiladi.

1-topshiriq. Har bir ampuladan chiqqan polimerning og'irligi aniqlansin.


2-topshiriq. Polimer namunalarining molekular massasi osmotik usul bilan aniqlansin.

3-topshiriq. Polimerning molekular massasi va unumini polimerlanish vaqtiga bog'liqligini ko'rsatuvchi grafik chizilsin.

#### **6-vazifa. Akrilonitrilning oksidlanish — qaytarilishi polimerlanishi**

Reaktiv va asboblar: haydalgan akrilonitril (10 g), ammoniy persulfat (0,3 g), natriy — tiosulfat (0,2 g), 500 ml sig'imli, uch og'izli, qaytarma sovtigich va tomchilatma voronka bilan jihozlangan reaksiyon kolba (1 dona), suv hammomi (1 dona), Bunzen kolbasi bor Byuxner voronkasi (1 dona).

Kolbada 40 ml suv, 0,3 g ammoniy persulfat va 0,2 g natriy tiosulfatdan iborat eritma tayyorlanadi. Eritmaga 10 g akrilonitril qo'shiladi va mexanik qorgich bilan qorishtirib turilgani holda 60°C li suv hammomida 4 soat qizdiriladi (30-rasm). Hosil bo'lgan polimer kukuni cho'ktiriladi, Byuxner voronkasida filtrlanib, sulfid ioniga nisbatan salbiy



**30-rasm.** Qaytarma sovtigich va qorgich bilan jihozlangan reaksiyon probirkasi

reaksiya berguncha iliq suv bilan chayiladi. Poliakrilonitril 60°C li quritish shkafida og'irligi o'zgarmay qolguncha saqlanadi.

1-topshiriq. Polimerning miqdori aniqlansin.

2-topshiriq. Polimer tarkibidagi nitril guruuhlar miqdori gidrolizlash yo'li bilan topilsin.

3- topshiriq. Ammoniy persulfat bilan natriy tiosulfat orasida bo'ladigan reaksiyalarning va polimerlanish reaksiyasining tenglamalari yozilsin.

### **7- vazifa. Stirolning oksidlanish — qaytarilishi polimerlanishi**

Reaktiv asboblar: stirol (20 g), benzoil peroksid (0,1 g), temir ammoniyli tuz (0,1 g), glyukoza (0,1 g), natriy steafat (1 g), natriy pirofosfat (0,1 g), 500 ml sig'imli, uch og'izli, qaytarma sovutgich, qorgich tomchilatma voronka bilan jihozlangan reaksiyon kolba (1 dona) suv hammomi (1 dona), 100°C li termometr (1 dona).

Reaksiyon kolbagacha 40-50°C gacha isitilgan suvdan 40 ml, temir-ammoniyli tuzdan 0,1 g, 0,1 g glukoza, 0,1 natriy pirofosfat va 1 g natriy stearat solinadi-da, to'la aralashtirilib, emulsiyaga aylantiriladi.

0,1 g benzoil peroksid 20 g stirolda eritilib, hosil bo'lgan eritma kolbadagi emulsiya ustiga quyiladi va 40°C da to'xtovsiz aralashtirib turilgan holda, 4-5 soat davomida polimerlanadi. Hosil bo'lgan polimer lateksi xlorid kislota vositasida parchalanadi, cho'kkani polimer esa Byuxner voronkasida filtrlanib, disstillangan suv bilan birga necha marta chayiladi.

1-topshiriq. Chiqqan polimerning miqdori aniqlansin.

2-topshiriq. Oksidlanish — qaytarilish polimerlanishi jarayonida stirolning polistirolga aylanish reaksiyasining tenglamasi yozilsin.

3-topshiriq. Polistirolning benzoldagi 0,5% li eritmasining solishtirma qovushoqligi aniqlansin va molekular massasi hisoblab topilsin.

### **8-vazifa. Vinilasetatning emulsion polimerlanishi**

Reaktiv va asboblar: haydalgan vinilasetat (10 g), natriy oleinat (1,5 g), kaliy persulfat (0,2 g), natriy metabolisulfat 0,06 g, distillangan suv (60 ml); 250 ml sig'imli, uch og'izli, qaytarma sovutgich, qorgich, tomchilatma voronka bilan jihozlangan reaksiyon kolba (1 dona), suv hammomi (1 dona).

Reaksiyon kolbaga distillangan suvdan 60 ml, 1,5 g natriy oleinat solinib, obdon aralashtiriladi va unga 0,2 g kaliy persulfat, 0,06 g natriy metabisulfat qo'shilib, suv hammomida 60-65°C gacha istiladi. Shundan so'ng, reaksiyon kolbaga haydalgan vinilasetatdan tomchilatma voronka vositasida 10 g tushiriladi va reaksiya yana 4-5 soat davom ettiriladi. Reaksiya oxirida kolbaga natriy xlorid eritmasi solinadi va uning yordamli bilan emulsiya parchalanib, hosil bo'lgan polivinilasetat ajratib olinadi. Bu polimer issiq suv bilan uch-to'rt marta chayiladi va 50°C li quritgich shkafda 4-5 soat davomida quritiladi.

1- topshiriq. Vinilasetatning polimerlanib, polivinilasetatga aylanish reaksiyasining tenglamasi yozilsin.

2- topshiriq. Polimerning asetonidagi 0,5 % li eritmasining solishtirma qovushoqligi va molekular massasi topilsin.

#### **9- vazifa. Metilmekrakrilatning suspenzion polimerlanishi**

Reaktiv va asboblar: haydalgan metilmekrakrilat (10 g), ammoniy persulfat (1 g), distillangan suv (100 ml); 200 ml sig'imli, uch og'izli, qaytarma sovtgich, qorgich va tomchilatma voronka bilan jihozlangan reaksiyon kolba (1 dona), Bunzen kolbasi va Byuxner voronkasi (1 donadan), 100°C li termometr (1 dona), suv hammomi (1 dona).

Reaksiyon kolbaga distillangan suvdan 100 ml quyilib, unda 1 g ammoniy persulfat eritiladi. Reaksiyon kolba 80°C li suv termostatiga joylashtirilgach, unga tomchilatma voronkadan 10 g metilmekrakrilat tomiziladi-da, qizdirish 5-6 soat davom ettiriladi. Kolba ichida hosil bo'lgan polimer-polimetekrakrilat emulsiya holida bo'lgani uchun unga natriy xloridning 10% li eritmasidan solib parchalanadi va Byuxner voronkasida filtrlanadi, distillangan suv bilan bir necha marta chayilib, so'ngra 40-60°C da quritiladi.


1-topshiriq. Ammoniy persulfatning ahamiyati tushuntirilsin va metilmekrakrilatning polimerlanish reaksiyasining hamma bosqichlaridagi tenglamalari yozilsin.

2-topshiriq. Chiqqan polimerning miqdori aniqlansin.

3-topshiriq. Har xil organik erituvchilarda polimerning eruvchanligi aniqlansin.

#### **10 - vazifa. Butilmekrakrilatning munchoqsimon polimerlanishi**

Reaktiv asboblar: haydalgan butilmekrakrilat (10 g), benzoil peroksid (0,2 g), polivinil spirt (0,2 g), distillangan suv (60 ml); ikki



**31-rasm.** Polimer molekular ogirligining polimerlanish vaqtiga bog'liqlik grafigi

bo'layotgan polimerning solishtirma og'irligidan ko'proq bo'lgani uchun, polimer probirkaga tubida, munchoqlar tarzida yig'iladi, ana shundan so'ng reaksiya tugagan bo'ladi; qorgich ham to'xtatiladi. Biroq reaksiya davomida qorgichni ko'p vaqt to'xtatib qo'yish yaramaydi, aks holda, munchoqsimon polimer bo'laklari qorgichga yopishib qolishi mumkin. Reaksiya davomida qorgichni bir me'yordagi tezlik bilan aylantirish katta ahamiyatga ega.

Qorgichning tezligi pasaysa, polimer bo'lakchalari yiriklashadi va aksincha, qorgichning tezligi ortsa, polimer bo'lakchalari maydalashadi. Olingan munchoqsimon polibutilmetakrilat Byuxner voronkasida filtrlanadi, sovuq suv bilan yuviladi va havoda quritiladi.

**1- topshiriq.** Reaksiyon aralashmaning hamma komponentlarining formulalari yozilsin.

**2- topshiriq.** Chiqqan polimerning miqdori aniqlansin.

**3- topshiriq.** Polimerning bir necha moddalarda eruvchanligi o'rGANILSIN.

### **11- vazifa. Butadiyenning natriy metali ishtirokida polimerlanishi**

Reaktiv va asboblar: butadiyen (ballon), natriy metali (sim), etil spirt (100 ml); 100 ml sig'imli ampula (1 dona), chinni kosacha (1 dona), suv termostati (1 dona), Dyuar idishi (1 dona).

Quruq muz bilan aseton aralashmasi to'ldirilgan Dyuar idishida 100 ml sig'imli ampula — 20°C gacha sovutilib, butadiyenni kondensatlash reaksiyasi amalga oshiriladi, so'ngra ampulaga 3-4 sm

og'izli, uzunligi 300 mm, diametri esa 40 mm bo'lgan qorgich va qaytarma sovutgich bilan jihozlangan reaksiyon probirkaga (1 dona), suv hammomi (1 dona).

Reaksiyon probirkaga 10 g butilmekrilat, 0,2 g benzoil peroksid, 0,2 g polivinil spirt va 60 ml distillangan suv solinib, ular aralashtira boshlanadi (31-rasm). Qorgich parragi monomer tomchilari butun suyuqlik hajmiga bir tekis taqsimlanadigan darajada tezlik bilan aylantiriladi. Reaksiyon probirkadagi moddalar suv hammomida 80°C da 4 soat qizdiriladi. Hosil

bo'layotgan polimerning solishtirma og'irligi suvning solishtirma

og'irligidan ko'proq bo'lgani uchun, polimer probirkaga tubida,

munchoqlar tarzida yig'iladi, ana shundan so'ng reaksiya tugagan

bo'ladi; qorgich ham to'xtatiladi. Biroq reaksiya davomida qorgichni

ko'p vaqt to'xtatib qo'yish yaramaydi, aks holda, munchoqsimon

polimer bo'laklari qorgichga yopishib qolishi mumkin. Reaksiya

davomida qorgichni bir me'yordagi tezlik bilan aylantirish katta

ahamiyatga ega.

uzunlikdagi yupqa metall — natriy simi tushiriladi-da, ampulaning og'zi kavsharlab qo'yiladi. Og'zi kavsharlangan ampula suv termostatiga joylashtirilib, 40°C da 10 soat qizdiriladi. Ampula sindirilib, hosil bo'lgan polibutadiyen olinadi va natriy metalidan tozalash uchun etil spirit bilan bir necha marta yuviladi.

1-topshiriq. Butadiyenning polimerlanish reaksiyasining tenglamasi yozilsin.

2-topshiriq. Polimerning benzoldagi 2% li eritmasiga etil yoki metil spirit qo'shib, polimer cho'ktirilsin va 50°C da vakuum — quritgich shkafda quritilib, undagi qo'sh bog'lar soni aniqlansin.

## 12- vazifa. Akrilonitrilning natriyamid ishtirokida polimerlanishi

Reaktiv va asboblar: haydalgan akrilonitril (5 g), suyuq ammiak (ballonda), natriy (0,03 g), ammoniy xlorid (0,5 g), ikki og'izli, uzunligi 33 mm, diametri esa 40 mm bo'lgan qorgich va qaytarma sovutgich bilan jihozlangan reaksiyon probirkaga (1 dona), Bunzen kolbasi va Byuxner voronkasi (1 dona), chinni kosacha (1 dona).

Reaksiyon probirkaga quruq muz bilan aseton aralashmasida - 70°C gacha sovutilgan Dyuar idishiga tushiriladi va unga ballondan 40-45 ml ammiak quyiladi. Qorgich aylanib turgani holda, probirkaga ichiga yangi qirqilgan natriyidan 0,03 g tashlanadi va natriyamid hosil bo'lguncha, qorgich to'xtatilmaydi. Oradan 20-25 minut o'tgach, reaksiyon probirkaga yangi haydalgan akrilonitrildan 5 g quyiladi va polimerlanish reaksiyasining tugallanishi 30 minut davomida kuzatib boriladi. Reaksiyon probirkada hosil bo'lgan poliakrilonitrilni ajratib olish uchun, suyuq ammiak bug'latiladi. Probirkadagi ammiak kamaygan sari, eritma holatidagi polimer cho'ka boshlaydi. Shundan so'ng polimerga ammoniy xloridning eritmasidan 0,5 g solinib, natriyamid parchalanadi va polimer distillangan suv bilan bir necha marta yuvilgandan so'ng, Byuxner voronkasida filtrlanib, chinni kosachaga solinadi-da, 40-50°C li shkafda quritiladi.

1- topshiriq. Poliakrilonitrilning dimetilformamiddagi 0,5% li eritmasining solishtirma qovushoqligi aniqlansin va uning molekular massasi hisoblab topilsin.

2- topshiriq. Chiqqan polimerning miqdori topilsin va anionli polimerlanishda sodir bo'lgan hamma reaksiyalarning tenglamalari yozilsin.

### **13-vazifa. Butadiyenning akrilonitril bilan emulsion sopolimerlanishi**

Reaktiv va asboblar: butadiyen (ballonda) (15 g), haydalgan akrilonitril (15 g), polivinil spirt (1 g), natriy asetat (1 g), ammoniy persulfat (0,5 g), natriy metabisulfat (0,2 g), distillangan suv (120ml); uch og'izli, 300 ml sig'imli, qaytarma sovutgich, qorgich va termometr bilan jihozlangan reaksiyon kolba (1 dona), Bunzen kolbasi va Byuxner voronkasi (1 donadan).

Reaksiyon kolbaga 120 ml suv, 1 g polivinil spirt, 1 g natriy asetat, 0,5 g ammoniy persulfat va 0,2 g natriy metabisulfat solinib, to'liq aralashtiriladi-da, emulsiyaga aylantiriladi. Aralashma suv va muz bilan sovutilgandan so'ng, kolbaga 15 g akrilonitril va 15 g butadiyen solinib, kolba berkitiladi va 50°C li suv hammomida isitiladi. Bunday reaksiyaning tezligi qorgich harakatiga bog'liq bo'lib, 10-11 soat davom etadi. Polimerizatsiya tamom bo'lgandan so'ng, kolba sovutilishi va so'ngra ochilishi lozim. Ochiq kolba asta-sekin isitilib, reaksiyaga kirishmagan butadiyen uchirib yuboriladi va hosil bo'lgan sopolimer lateksi 10-15 ml sirkva kislota quyib cho'ktiriladi, so'ngra Byuxner voronkasida filtrlanadi, distillangan suv bilan bir necha marta yuviladi-da, 50°C li vakuum — quritgich shkafda quritiladi.

1- topshiriq. Hosil bo'lgan sopolimerning miqdori aniqlansin.

2- topshiriq. Sopolimerdag'i azot miqdori Keldal usulida aniqlanib, sopolimerlangan monomerlar miqdori topilsin.

3- topshiriq. Sopolimerning organik eritmalarida eruvchanligi tekshirilsin va polibutadiyen hamda poliakrilonitrilning eruvchanliklari bilan taqqoslansin.

### **14- vazifa. Metilmekratilatning stirol bilan sopolimerlanishi**

Reaktiv va asboblar: haydalgan metilmekratilat (5 g), haydalgan stirol (20 g), ammoniy persulfat (0,75 g), distillangan suv (100 ml), polivinil spirt (1 g), natriy xlording 10% li eritmasi (50 ml); uch og'izli, 300 ml sig'imli, qorgich, qaytarma sovutgich, tomchilatma voronka bilan jihozlangan kolba (1 dona) 100°C li termometr (1 dona), suv hammomi (1 dona), Byuxner voronkasi va Bunzen kolbasi (1 dona).

Kolbaga 1 g polivinil spirt bilan 100 ml distillangan suv solib aralashtiriladi. Hosil bo'lgan eritmaga 0,75 g ammoniy persulfat qo'shib, 80°C gacha qizdiriladi va kolbaga tomchilatma voronkada tayyorlangan 5 g metilmekratilat bilan 20 g stirol aralashmasi asta-sekin quyiladi. Boshlangan reaksiya 5 soat davom ettiriladi va hosil bo'lgan emulsiya sopolimer to'la cho'kkuncha natriy xlording 10% li eritmasi bilan

parchalanadi. Sopolimer Byuxner voronkasida filtrlanib, distillangan suv bilan bir necha marta yuviladi va 40-50°C shkafda quritiladi.

1-topshiriq. Sopolimer benzolda eritilib, metil spirit bilan fraksion cho'ktirilsin. Fraksiyalarning tarkibidagi murakkab efir guruhlari gidrolizlash yo'li bilan aniqlansin.

2-topshiriq. Tekshirish natijalari asosida polimerning egri chizig'i chizilsin (ordinatalar o'qiga cho'ktiruvchi moddaning ml hisobidagi miqdori, abssissalar o'qida esa cho'kkан polimerning foiz hisobidagi miqdori qo'yiladi).

### **15-vazifa. Kaprolaktamning tuz ishtirokida polimerlanishi**

Reaktiv va asboblar: kaprolaktam (25 g), tuz (geksametilendiaminadipat) (0,5 g), inert gaz (azot yoki karbonat angidrid) (ballonda); uch og'izli, 100 ml hajmli termometr, qorgich, qaytarma sovutgich bilan jihozlangan kolba (1 dona), chinni idish (1 dona).

Kolbaga 25 g e-kaprolaktam, 0,5 AG tuzi va 2,5 ml distillangan suv solinadi. Qorgich vaqtı-vaqtı bilan ishga solinib, reaksiyon massa 100-110°C li qum yoki moy hammomida isitiladi. Reaksiya boshlangandan 1,5 soat o'tgach, taxminan 2 g namuna olinadi. So'ngra harorat 2 soat davomida 260°C gacha ko'tariladi va har 0,5 soatda namuna (taxminan 2 g dan) olib turiladi, olingen namunalardan krezolda 0,5% li eritmalar tayyorlanib, ularning qovushoqligi aniqlanadi. Bu reaksiyada yuqori haroratda oksidlanuvchi moddalar ishtirok etganligidan, reaksiyon kolbag'a inert gaz, ya'ni azot yoki korbonat angidrid yuborib turilishi lozim.

1-topshiriq. Kaprolaktamning AG tuzi ishtirokida polimerlanish reaksiyasining tenglamasi yozilsin.

2-topshiriq. Namuna uchun olingen polimerlarning krezoldagi 0,5% li eritmalarining solishtirma qovushoqligi aniqlansin va ularning vaqtga qarab o'zgarishi grafik tarzda ifodalansin.

### **16-vazifa. Alifatik poliuretanlar sintezi**

Reaktiv va asboblar: haydalgan geksametilendiizotsianat (20 g), dietilenglikol (11 g), xlorbenzol (240 g); uch og'izli, 500 ml sig'imli, qorgich va qaytarma sovutgich bilan jihozlangan reaksiyon kolba (1 dona), suv bug'i vositasida haydash uchun kolba (1 dona), kondensatni yig'ish uchun kolba (1 dona), bug' hosil qilish kolbasi (1 dona), chinni idish (1 dona).

Qorgich ishlab turgan reaksiyon kolbaga 20 g geksametildiizotsianat, 240 g xlorbenzol va 11 g dietilenglikol solinib, 6 soat to'xtovsiz-

qaynatiladi. So'ngra reaksiyon massa bug' vositasida haydash idishiga solinib, ortiqcha xlorbenzol haydaladi. Hosil bo'lgan poliuretan chinni idishga solinib, suvdan dekantatsiya yo'li bilan ajratiladi va 80°C li vakuum — quritgich shkafda quritiladi.

1- topshiriq. Poliuretan hosil bo'lish reaksiyasining tenglamalari yozilsin va uning miqdori aniqlansin.

2- topshiriq. Polimerning shishalanish va oquvchanlik haroratlari konsistometr yordami bilan aniqlansin.

3- topshiriq. Poliuretanning bir necha erituvchilarda eruvchanligi o'rGANILSIN.

*3-jadval*

*Polimerlanuvchi ba'zi monomerlarning  
fizik-kimyoviy xossalari*

Nomi	Formulasi	Molekular massasi	Solish-tirma og'irligi, g/sm <sup>3</sup>	Suyuqlanish harorati, T <sub>c</sub> , °C	Qaynash harorati, T <sub>C</sub>	Sindirish ko'rsatkichi, n <sup>20</sup>	Suvda eruvchanligi
1	2	3	4	5	6	7	8
Akril kislota	$\text{CH}=\text{CH}_2$ , COOH	72,06	1,0487	13	141	1,4210	er
Akrilonitril	$\text{CH}=\text{CH}_2$ , CN	53,06	0,8060	-84	77,3	1,3911	ke
Butadien-1,3	$\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CH}=\text{CH}_2$	54,09	0,6274 <sup>15</sup>	-108,9	-4,41	1,4293 <sup>25</sup>	em
n-Butil metakrilat	$\text{COOC}_2\text{N}_2$ , $\begin{array}{c}   \\ \text{C}=\text{CH}_2 \\   \\ \text{CH}_3 \end{array}$	142,19	0,894	-76	163	1,421	em
Vinil-acetat	$\text{CH}=\text{CH}_2$ , $\begin{array}{c}   \\ \text{OCOCH}_3 \end{array}$	86,05	0,9342	-100,2	72,32	1,3953	ke
Vinilbutil efir	$\text{CH}=\text{CH}_2$ , $\begin{array}{c}   \\ \text{OC}_2\text{H}_5 \end{array}$	100,10	0,7795	-92	93,8	1,4022	ke
Vinilide-nxlorid	$\text{CH}_2=\text{CCl}_2$	96,95	1,2129	-122,5	31,8	1,4246	em
Vinilide-nftorid	$\text{CH}_2=\text{CF}_2$	64,04	1,030 <sup>26</sup>	-117	84		em
Vinilxlorid	$\text{CH}=\text{CH}_2$ , Cl	62,50	0,908	-160,5	13,8	1,380 <sup>(15)</sup>	ke

1	2	3	4	5	6	7	8
Vinil-florid	$\text{CH}_2=\text{CHF}$	46,04			-72,2		em
Vinil-etyl efir	$\text{CH}=\text{CH}_2$ $\text{OC}_2\text{H}_5$	72,10	0,7533	-115	35,72	1,3768	ke
Izopren	$\text{CH}=\text{CH}_2$ $\text{CH}=\text{CH}_2$ $\text{CH}_3$	69,11	0,6805	-146,7	32,6	1,4216	cm
Metakril-kislota	$\text{CH}_2=\text{CH}_2$ COOH	86,09	1,0153	16	161,0	1,4314	er
Metil-akrilat	$\text{CH}=\text{CH}_2$ COOCH <sub>3</sub>	86,09	0,9735°		80,2	1,4117	em
Metilmetakrilat	$\text{CH}_3$ $\text{C}=\text{CH}_2$ COOCH <sub>3</sub>	100,11	0,945	-48	101	1,4162	ke
α-Metilstirol	$\text{Cl}_2-\text{C}-\text{CH}_2$ $\text{C}_6\text{H}_5$	118,17	0,908	-22	162	1,5330	em
Etilen oksidi	$\text{CH}_2-\text{CH}_2$ O	44,05	0,887 <sup>(7)</sup>	-111,3	13,5 <sup>(747)</sup>	1,3596	er
Propilen	$\text{CH}=\text{CH}_2$ CH <sub>3</sub>	42,04	0,610 <sup>(47)</sup>		-47,7	1,3623	ke
Stirol	$\text{CH}=\text{CH}_2$ $\text{C}_6\text{H}_5$	104,14	0,9060	-30,63	145,2	1,5469	em
Tetraftoretilen	$\text{CF}_2=\text{CF}_2$	100,02	1,519 <sup>(76)</sup>	-142,5	-76,3		er
Xloropren	$\text{CH}_2=\overset{\text{Cl}}{\text{CH}}-\text{CH}=\text{CH}_2$	88,54	0,9583		59,4	1,4583	em
Etilen	$\text{CH}_2=\text{CH}_2$	28,05	0,5699 <sup>(103,9)</sup>	-169,4	103,7	1,363 <sup>(100)</sup>	ke
Etilmetakrilat	$\text{C}_2\text{H}_5$ $\text{C}=\text{CH}_2$ COOCH <sub>3</sub>	114,14	0,9106	-75	118,2= 118,9	1,4147	em


4-jadval

## Ba'zi monomerlarning sopolimerlanish konstantalari

Birinchi monomer	Ikkinci monomer	$r_1$	$r_2$
Akrilonitril	Butadiyen	0,25	0,33
Akrilonitril	Vinilidenxlorid	0,91	0,37
Akrilonitril	Vinilxlorid	3,28	0,02
Akrilonitril	Metilakrilat	0,67	1,26
Akrilonitril	Metilmetakrilat	0,15	1,20
Vinilasetat	Akrilonitril	0,061	4,05
Vinilasetat	Vinilbromid	0,35	4,5
Vinilasetat	Vinilxlorid	0,23	1,68
Vinilasetat	Vinilidenxlorid	0,0	3,6
Vinilasetat	Metilakrilat	0,1	9
Vinilasetat	Metilmetakrilat	0,015	20
Vinilxlorid	Vinilidenxlorid	0,31	3
Metilmetakrilat	Akrilonitril	1,2	0,15
Metilmetakrilat	Butadiyen	0,25	0,75
Metilmetakrilat	Vinilidenxlorid	1	1
Metilmetakrilat	Metakrilonitril	0,67	0,65
Metilmetakrilat	Stirol	0,46	0,52
Stirol	Akrilonitril	0,40	0,04
Stirol	Akril kislota	0,15	0,25
Stirol	Butadiyen	0,78	1,39
Stirol	Vinilxlorid	17	0,02
Stirol	Vinilidenxlorid	2,00	0,14
Stirol	Vinilpiridin	0,55	1,135
Stirol	Metakrilonitril	0,30	0,16
Stirol	Metilakrilat	0,747	0,182
Stirol	Metilmetakrilat	0,520	0,460
Stirol	Metakril kislota	0,15	0,7

## Kondensatlanuvchi ba'zi monomerlarning fizik-klimyoiy xossalari


Nomi	Formulasi	Molekulal og'irligi	Collish- tirma og'irligi, g/sm <sup>2</sup>	Suyug- lanish harorati, T <sub>g</sub> °C	Qaynash harorati, T <sub>f</sub> °C	Sindirish ko'rsatki- chi	Suda eruvchan- ligi
1	2	3	4	5	6	7	8
Glutar kislota	HOOC-(CH <sub>2</sub> ) <sub>2</sub> -COOH	132	-	97,5	302	-	er
Adipin kislota	HOOC-(CH <sub>2</sub> ) <sub>4</sub> -COOH	146	-	153	256/100 min	-	er
Pimelin kislota	HOOC-(CH <sub>2</sub> ) <sub>6</sub> -COOH	160	-	15,5	212/10 min	-	ke
Prokta kislota	HOOC-(CH <sub>2</sub> ) <sub>7</sub> -COOH	174	-	140	-	-	er
Azelain kislota	HOOC-(CH <sub>2</sub> ) <sub>9</sub> -COOH	188	-	106,5	287/100 min	-	er
Sebastin kislota	HOOC-(CH <sub>2</sub> ) <sub>11</sub> -COOH	202	-	134,5	294/100 min	-	er
Ftal kislota	HOOC-C <sub>6</sub> H <sub>4</sub> -COOH	166,4	-	191	-	-	er
Izofial kislota	HOOC-C <sub>6</sub> H <sub>5</sub> -COOH	166,14	-	348,5	-	-	ke
Tereftal kislota	HOOC-C <sub>6</sub> H <sub>3</sub> -COOH	166,14	-	-	-	-	er
Fthal angidrid	O-CO-C <sub>6</sub> H <sub>4</sub> -CO	148	-	130,8	284,5	-	ke
Etilenglikol	HOCH <sub>2</sub> CH <sub>2</sub> OH	62,07	1,1088	-12,3	197,2	1,4318	er
Trimetilenglikol	HO(CH <sub>2</sub> ) <sub>3</sub> OH	76,09	1,032	-	214	1,4377	er
Tetrametilenglikol	HO(CH <sub>2</sub> ) <sub>6</sub> OH	90,12	1,020	16	235	1,4398	er
Geksametilenglikol	HO(CH <sub>2</sub> ) <sub>9</sub> OH	118,16	0,967	42	250	-	er
Glisern	HO-CH <sub>2</sub> -CH-CH <sub>2</sub> -OH OH	92,09	1,2600	18,6	290	1,4729	er

	1	2	3	4	5	6	7	8
Dietilenglikol	(HOCH <sub>2</sub> CH <sub>2</sub> ) <sub>2</sub> O	106,12	1,1177	-6,5	244,5	1,4472	er	
Penayeritrit	C(CH <sub>2</sub> OH) <sub>4</sub>	136,15	-	253	726/30 mm	-	ke	
Etilendiamin	NH <sub>2</sub> CH <sub>2</sub> CH <sub>2</sub> NH <sub>2</sub>	60,11	0,962	8,5	116,5	1,4473	er	
Trimetilendiamin	NH <sub>2</sub> (CH <sub>2</sub> ) <sub>2</sub> NH <sub>2</sub>	74,13	0,884	-23,5	135/138 mm	-	-	
Tetrametilendiamin	NH <sub>2</sub> (CH <sub>2</sub> ) <sub>3</sub> NH <sub>2</sub>	88,15	0,877 <sup>23)</sup>	-	160	1,4499	er	
Pentametilendiamin	NH <sub>2</sub> (CH <sub>2</sub> ) <sub>4</sub> NH <sub>2</sub>	102,18	0,916 <sup>20)</sup>	27	179	-	-	
Geksametilendiamin	NH <sub>2</sub> (CH <sub>2</sub> ) <sub>5</sub> NH <sub>2</sub>	116,20	-	9	204	-	er	
Aminokapron kislotा	NH <sub>2</sub> (CH <sub>2</sub> ) <sub>5</sub> COOH	131	-	202	laktam	-	er	
Kaproliktam	NH <sub>2</sub> (CH <sub>2</sub> ) <sub>5</sub> CO	113	-	68	139/12 mm	-	er	
Fenol	C <sub>6</sub> N <sub>5</sub> -OH	94	1,071 <sup>23)</sup>	42	181	1,5425	ke	
o-Krezoł	CH <sub>3</sub> -C <sub>6</sub> H <sub>4</sub> -OH	108	1,0415 <sup>23)</sup>	30,8	191	1,5443	em	
m-Krezoł	CH <sub>3</sub> -C <sub>6</sub> H <sub>4</sub> -OH	108	1,0341	11,9	202,2	1,5432 <sup>23)</sup>	em	
p-Krezoł	CH <sub>3</sub> -C <sub>6</sub> H <sub>4</sub> -OH	108	1,034 <sup>17)</sup>	34,8	202,1	1,536 <sup>17)</sup>	em	
Mochevina	H <sub>2</sub> N-CO-NH <sub>2</sub>	60	1,335	132,7	-	-	er	
Tiomochevina	H <sub>2</sub> N-CS-NH <sub>2</sub>	76	1,405	180	-	-	er	
Melamin	NH <sub>2</sub> 	126	1,573	250	-	-	em	

#### POLIKONDENSATLANISH

Bir necha molekulaning suv, spirt, ammiak, xlorid kislota va shunga o'xshash moddalar ajralib chiqishi tufayli birikib, yuqori molekular birikmalar hosil qilish reaksiyasi polikondensatlanish, deb ataladi.

Polikondensatlanish natijasida olingan polimerlarning elementar tarkibi (past molekular moddalar ajralib chiqqanidan) reaksiya uchun olingan monomerlar tarkibidan farq qiladi. Bunday reaksiyaga kirisha oladigan monomerlar tarkibidagi ikki xil funksional guruhlar o'zaro reaksiyaga kirishadi va molekula qoldiqlarini bir-biriga ulaydi. Polikondensatlanish reaksiyasi tarkibida ikki xil funksional guruh bo'lgan moddalar yoki ikkita funksional guruhli bir necha moddalar kira olishi mumkin. Agar bir moddaning ikki xil funksional guruh o'zaro reaksiyaga kirishib, polimer hosil qilsa, bunday reaksiya gomopolikondensatlanish deyiladi. Bu jarayon quyidagi umumiy tenglama bilan ifodalanishi mumkin:




bu tenglamada:

A — monomer modda.


a va b — monomer moddaning funksional guruhlari.

ab — hosil bo'lgan kondensat.


Bunday reaksiyaga aminokislotalar, aminospirtlar, oksikislotalarning polikondensatlanishi misol bo'la oladi. Masalan, aminokapron kislotadan polikaprolaktamning hosil bo'lishini ko'rib chiqaylik:




Bu umumiy tarzda quyidagicha yoziladi:




**32-rasm.** Glitserin bilan ftal angidridning polikondensatlanish kinetik egri chizig'i




Har qaysi elementlar reaksiya natijasida ikki xil funksional guruh barqaror oraliq moddalar hosil qiladi. Bu oraliq moddalarni reaksiya sferasidan ajratib olish mumkin. Polimer molekulasing o'sishi esa, yuqorida ko'rsatilganidek, faqat yangi molekulalar biriktilishi natijasidagina sodir bo'lib qolmay, balki trimer, tetromer va polimer molekulalarining birikishi natijasida ham sodir bo'lishi mumkin (32-rasm). Agar reaksiyada bifunksional guruhli ikkita modda ishtirok etsa, bu reaksiya geteropolikondensatlanish deyiladi:




Geksametilendiamin va adipin kislotadan poligeksametilenadipamid hosil qilish bunday reaksiyaga misol bo'la oladi:





Bifunksional birikmalarining polikondensatlanishi natijasida faqat chiziqli polimerlar hosil bo'ladi. Reaksiyaga kirishayotgan monomerlarning birida uch va undan ortiq funksional guruh bo'lishi polikondensatlanish reaksiyasini murakkablashtiradi va oqibatda, to'rsimon hamda fazoviy tuzilishdagi polimerlar hosil bo'ladi. Bu jarayonga misol qilib, gliserin va ftal kislotaning reaksiyasini keltirish mumkin (33-rasm). Bu reaksiyada gliserin dastlab, bifunksional modda sifatida ishtirok etib, chiziqli tuzilishdagi polimergliftal smolalarini hosil qiladi:




**33-rasm.** Chiziqli polikondensatlanishda polimerlanish darajasining temperaturaga bog'liqlilik grafigi ( $T_g > T_a$ )



Pirovardida yuqoriroq haroratda, gliserinning uchinchi gidroksil guruhi ham reaksiyaga kirishib, fazoviy tuzilishdagi polimerni hosil qiladi:




Demak, bu holda gliserin uch funksionalli monomer sifatida reaksiyaga kirishadi. Polikondensatlanish reaksiyasining sanoatdag'i ahamiyati tobora oshib, a'lo sifatli bir necha xil polimerni sintez qilishga imkon berdi. Hozirgi vaqtida polimer mahsulotlarining ko'pi polikondensatlanish usuli bilan olinmoqda. Jumladan, poliamidlar, poliefirlar, mochevina, formaldegid, fenol-formaldegid smolalar faqat polikondensatlanish yo'li bilan hosil qilinishi mumkin. Masalan, alifatik va aromatik diaminlar ikki negizli kislotalar bilan polikondensatlanib, sintetik tola va plastmassalar — muhim ahamiyatga ega bo'lgan poliamidlar sintez qilinadi. Quyidagi geksametilendiamin hamda sebatsin kislotadan poligeksamtilensebatsinamid, aminoenant kislotadan esa enant smolalari hosil qilish ko'rib o'tiladi:



Bu ikkala polimer ham ajoyib sifatli tolalar ishlab chiqarishda asosiy xom ashyodir. Chiziqli polikondensatlanishning ikkinchi va muhim sinfiga kiruvchi poliefirlar sanoatda keng ko'lamda ishlatiladi. Bunday polimerlar ikki negizli kislotalarni ikki, uch va to'rt atomli spirtlar bilan birga polikondensatlanish natijasida hosil qilinadi.

Poliefirlarning ba'zilari, jumladan, polietilenterftalat junga o'xshash juda puxta sintetik tola — lavsan ishlab chiqarishda asosiy xom ashyodir. Polietilenterftalat tereftal kislota va etilenglikoldan olinadi:




Ko'p atomli spirt va ikki negizli kislotalardan hosil qilingan ba'zi poliefirlardan reaksiyaga kirishuvchi moddalarning o'zar o'sishiga qarab, chiziqli tuzilishdagi polimerlar sintez qilinadi. Ammo bunday jarayonlar natijasida funksional guruhlarning bir qismigina sarflanmay qoladi. Shuning uchun ham chiziqli bunday polimerlar ishlatilish davrida maxsus usul va reagentlar yordamida fazoviy tuzilishdagi polimerlarga aylantirilishi mumkin. Polikondensatlanishning bu turiga yuqorida keltirilgan gliserin — ftal polimerlari misol bo'la oladi.

Shuni ham aytish kerakki, reaksiyaga kirishuvchi moddalarning tuzilishiga qarab, siki tuzilishdagi past molekular moddalar hosil bo'lishi mumkin. Demak, bu reaksiyalarda sikllanish va chiziqli polimerlar hosil qilish bir vaqtida davom eta oladi. Ko'p funksionalli moddalarda bu ikki reaksiyaning o'zaro tezligi asosan, monomerning tuzilishiga ularning konsentratsiyasi va haroratiga bog'liqdir.


Sikllanish reaksiyasi aminokislolar va oksikislotalarning polikondensatlanishida bo'ladi. Agar w — aminokislotaning aminoguruhlari bilan karboksil guruhlari o'rtasidagi metilen guruhlarning soni besdan kam bo'lsa, u vaqtida reaksiya natijasida siklik tuzilishdagi past molekular moddalar hosil bo'ladi. Metilen guruhlari soni beshta bo'lganda esa (masalan, e — aminokapron kislota) polikondensatlanish vaqtida yetti burchakli sikllar va polikaprolaktam molekulalari hosil bo'lishi kuzatilgan. Agar metilen guruhlarning soni olti va undan ko'p bo'lsa, u holda faqat yuqori molekular moddalar hosil bo'ladi. Moddalarning sikllanish xususiyati, ulardagagi valentlik burchagini tuzilishiga bog'liqdir.

Ma'lumki uglerod atomining valentlik burchagi  $109^{\circ}28'$  ga tengdir. Ammo uch, to'rt tomonli sikllarda burchaklar  $109^{\circ}28'$  dan anchagina kam bo'ladi va shu tufayli ular uzilishga hamda normal qiymatlarga intiladi. Besh, olti tomonli sikllardagi burchaklar uglerod atomining valentlik burchagi qiyamatiga juda yaqin turganligi uchun, bunday sikllar barqaror bo'ladi. Darhaqiqat, bunday siklik moddalar yuqori haroratda ham chiziqli molekulalarga aylanmaydi. Sikillarning yetti, sakkiz va undan ko'p tomonlari, valentlik burchaklari  $109^{\circ}28'$  dan ortiq bo'lgani uchun beqarordir: bunga kaprolaktamdan polikaprolaktam, enantlaktamdan esa polienantlaktamning olinishi misol bo'la oladi. Shunday qilib, bifunksional monomerlarning sikllanish xususiyati, funksional guruhlari orasidagi masofaga va kuchlanishga bog'liqdir.


Chiziqli polikondensatlanishning eng muhim xususiyatidan biri, uning muvozanatda ckanligidir. Masalan, naylon smolasi olinishini ko'rib chiqaylik: reaksiya boshida adipin kislottedagi karboksil guruhlari soni geksametillendiamiddagi aminguruhlari soniga teng bo'ladi, ya'ni polikondensatlanishning asosiy shartlaridan biri bo'lgan ekvimolekularlik bajariladi. Bu reaksiyaning boshlanishida bir molekula adipin kislota bir molekula geksametilendiamin bilan birikadi va natijada dimer hamda suv ajralib chiqadi:



Hosil bo'lgan dimerda ham ikkita funksional guruh bor, ular o'zaro reaksiyaga kirishib, tetramerga aylanadi:




Hosil bo'lgan tetramerda ham ikkita funksional guruh bor, u o'ziga o'xshash molekula bilan birikib, oktamerga aylana oladi. Oktamer ham shu yo'sinda o'sib, molekular og'irligini oshira oladi. Agar reaksiya shu tariqa boraversa, polikondensatlanishning oxirida faqat bitta gigant makromolekula hosil bo'lib, unda ham ikkita funksional guruh bo'ladi. Biroq polikondensatlanish reaksiyasi natijasida bunday gigant molekulalar hosil bo'lmaydi; ularning molekular og'irligi 30000-50000 atrofida bo'ladi, chunki bunday reaksiyada o'sish bilan bir qatorda uzilish ham bo'lib turadi. O'sish va uzilish reaksiyalarining tezliklari qiymati bir-biriga yaqin bo'lib, tezda muvozanat qaror topadi.





34-rasm.

Geksametilendiamin bilan adipinkislotanining polikondensatlanish kinetik egri chizig'i:  
1-ajralib chiqqan suv, haydalmanagan; 2-ajralib chiqqan suv, haydalgan

Uzilish reaksiyasi, ko'pincha, suv yoki ajralib chiquvchi boshqa modda ta'sirida kechadi va makromolekulalarni kichiklashtiradi. Polikondensatlanish jarayoni haroratga bog'liq bo'ladi va muvozanat holatida polimerning molekular og'irligi deyarli o'zgarmaydi (34-rasm), chunki ma'lum vaqt ichida kechgan o'sish reaksiyasining tezligi o'sha vaqt ichida borayotgan uzilish reaksiyasining tezligiga teng bo'ladi. Shuning uchun ham muvozanat reaksiyalari qarama-qarshi tomonga qaratilgan strelkalalar bilan ko'rsatiladi:



Demak, polikondensatlanish natijasida molekular og'irligi uncha yuqori bo'limgan polimerlarning hosil bo'lishi reaksiyaning muvozanatiga bog'liqdir. Umuman, polikondensatlanish — ko'p bosqichli reaksiya bo'lib, har qaysi bosqichda hosil bo'lgan moddani so'f holda ajratib olish mumkin; bu reaksiyalarning borishi muvozanat konstantasining o'zgarishiga bog'liq. Muvozanat konstantasi yuqoridagi reaksiyada haroratning ko'tarilishi bilan o'ng tomonga, haroratning pasayishi bilan esa chap tomonga suriladi. Muvozanat konstantasini o'ng tomonga surish uchun harorat ko'proq oshiriladi, shuning uchun ham ko'pchilik polikondensatlanish reaksiyalari polimerlanishga qaraganda yuqoriroq haroratda olib boriladi. Masalan, poliamidlar 260-275°C da, poliefirlar esa 180-240°C da sintez qilinadi, chunki shunday sharoitdagina yuqori molekular moddalar hosil qilinishi mumkin. Kimyoviy muvozanat holatida ajralib chiquvchi suv yoki ko'p molekulali boshqa moddaning miqdori o'zgarmay qoladi. Amalda reaksiya muhitidan suvni tortib olish va buning natijasida polimerning molekular og'irligini oshirish usulidan ko'p foydalaniлади (35 - rasm). Bu maqsadda polikondensatlanishning so'nggi bosqichi 1-5 mm simob ustuniga teng bosimda olib boriladi, ya'ni oz miqdordagi suv bug'i ham reaksiyadan tortib olinadi, natijada, muvozanat konstantasi o'ngga suriladi. Aks holda, polikondensatlanish vaqtida ajralib chiqqan suv gidrolizlanish reaksiyasiga kirishib, polimer molckulasini kichiklashtirib, og'irligini kamaytiradi:




**35-rasm.** Biror komponentning ekvimolar miqdoridan ortiqligining polimer molekular og'irligiga ta'siri


Polikondensatlanish jarayonida haroratni ko'tarish yoki katalizatorlar ishlatish reaksiyani tezlatadi va kimyoviy muvozanatga tezroq keltiradi. Katalizatorlar sifatida mineral kislotalar, tuzlar, metall oksidlari, aromatik sulfokislotalar ishlatiladi. Fenol va formaldegid, mochevina va formaldegidning polikondensatlanishida ishqor va kislotalar katalizatorlik vazifasini o'taydi.

### POLIKONDENSATLANISH REAKSIYASIDA DESTRUKTIV JARAYONLAR

Polikondensatlanishning asosiy sharti shuki, bunda reaksiyaga kirishuvchi funksional guruhlarning ekvimolekular miqdorlari teng bo'lishi kerak. Bunda reaksiyaga kirishuvchi moddalarning molekular polimerlar hosil bo'lmaydi, chunki sistemada biror funksional guruh ikkinchisiga qaraganda ko'plik qilib, reaksiyani erta to'xtatib qo'yadi. Masalan, 2 mol adipin kislota 1 mol geksametilendiamin bilan reaksiyaga kirishdi, deylik:




Hosil bo'lgan dimerning ikkala uchida ham karboksil guruhlari turadi. Bunday molekulalar o'z-o'zi bilan reaksiyaga kirisha olmaydi va o'smaydi. Ayni holda, 2 mol geksametilendiaminga 1 mol adipin kislota qo'shib qizdirilsa, yana past molekular modda hosil bo'ladi, ammo uning ikkala uchida aminoguruylar turadi:




Demak, bu reaksiyada yuqori molekular polimerning hosil bo'lishi uchun ekvimolekularlik qoidasi bajarilishi kerak. Polikondensatlanishda biror komponentning ekvimolekular qiymatidan ortiq yoki kam bo'lishi destruktiv prosesslarni amalda ko'rsatdi.

Sistemada bifunksional monomerlar bilan birga monofunksional moddalar bo'lishi destruktiv reaksiyalarni kuchaytirib yuboradi. Monofunksional moddalardan bir negizli kislotalar, bir atomli spirtlar va bir negizli aminlarning reaksiyada hatto oz miqdorda ishtirok etishi ham polimerlarni sintez qilishga imkon bermaydi.

Masalan, o'sayotgan poliefir yoki poliamid molekulasiga kislota ta'sir ettirilsa, u makromolekulani ikkiga bo'lib yuboradi; bu destruktiv jarayon asedoliz reaksiyasi deyiladi:



Poliefir makromolekulasiga spirt ta'sir ettirilsa, u makromolekulani ikkiga bo'ladı, bunday jarayon alkogoliz reaksiyasi deb ataladi:





Bunday reaksiyalar natijasida polimerning molekular og'irligi kamayadi. Ammo shuni ham aytish kerakki, destruktiv reaksiyalar faqat polimer molekulalari va past molekular modda orasidagina emas, polimer molekulalari orasida ham borishi mumkin; bunday reaksiyalarning turiga qarab, qayta aminlanish va qayta efirlanish jarayoni deb ataladi.



Bunday reaksiyalar natijasida polimerdagи funksional guruhlar soni kamayadi va polimerning o'rtacha molekular og'irligi o'zgarmaydi. Ammo eng uzun makromolekula o'zidan qisqaroq molekula bilan reaksiyaga kirishib, teng uzunlikdagi ikkita molekula hosil qiladi, ya'ni uzun va qisqa molekulalar reaksiyaga kirishib, polidispers (polimolekular) xossalarga ega bo'lgan mahsulot olish imkonini beradi.

### O'ZARO ARALASHMAYDIGAN SUYUQLIKLAR CHEGARASIDA BORADIGAN POLIKONDENSATLANISHI


Yaqinda, poliamidlar, poliefirlar va boshqa polikondensatsion polimerlar sintez qilishning yangi va muhim usuli, ya'ni o'zaro aralashmaydigan suyuqliklar chegarasida polikondensatlash usuli topildi. Bu usulga ko'ra, poliamid yoki poliefirlar sintez qilish uchun zarur bo'lgan kislotalar dastavval dixlorangidridga aylantiriladi. Ikki negizli organik kislotalarni dixlorangidridga aylantirish uchun ularga besh xlorli fosfor yoki tionilxlorid ta'sir ettiriladi:



Hosil bo‘lgan xlorangidridlar shu qadar faolki; ular diamin va ikki atomli spirtlar bilan odatdagи haroratda hamda normal bosimdayoq shiddatli ravishda reaksiyaga kirishadi. Ammo bu holda ham polikondensatlanishning asosiy qonunlaridan bo‘lgan ekvimolarlik qonuni muhim rol o‘ynaydi; reaksiyada ajralib chiqqan xlorid kislota makromolekulalarni parchalab yuboradi. Polikondensatlanish reaksiyasi quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:



Bunday reaksiya o‘zaro aralashmaydigan ikki suyuqlik chegarasida olib borilsa, yuqoridaqidek kamchiliklarga barham berilgan bo‘ladi. Buning uchun ikki negizli kislotalarning dixlorangidridi suv bilan aralashmaydigan suyuqliklarda, ya’ni benzol toluol va shunga o‘xshash moddalarda eritiladi. Polikondensatlanishning ikkinchi komponenti, ya’ni diamin va ko‘p atomli spirtlar suvda eritiladi. Bu ikki eritma asta-sekin bir-biriga quyilganda, o‘zaro aralashmaydigan ikkita qatlama hosil bo‘ladi. Bu ikki qatlama chegarasida dixlorangidrid bilan diamin molekulalari uchrashib, polikondensatlanish reaksiyasiga kirishadi va xlorid kislotani ajratib chiqaradi. Natijada, o‘zaro aralashmaydigan suyuqliklar chegarasida poliamid pardasi hosil bo‘ladi va muvozanatli reaksiya boshlanadi. Agar chegaradagi poliamid parda reaksiya muhitidan chiqarib yuborilsa, bu parda o‘rnida yangidan-yangi pardalar hosil bo‘lib, reaksiyaning muvozanati o‘ngga suriladi. Demak, suyuqliklar chegarasida hosil bo‘lgan polimer pardasini to‘xtovsiz ravishda olib turish qayta-qayta reaksiya bo‘lishiga imkoniyat tug‘diradi va reaksiya biror komponent tamom bo‘lguncha davom etadi. Misol uchun geksametilendiamin va adipin kislotaning dixlorangidrididan naylon smolasi olinishini ko‘rsatib o‘tish mumkin:




Amalda hosil bo'lgan xlorid kislotani yuttiresh va reaksiya muvozanatini o'ngga surish uchun diaminning suvdagi eritmasiga natriy gidroksid yoki kaliy gidroksid ham qo'shiladi. Bu reaksiyaning ajoyib xususiyati shundaki, birinchidan, reaksiya odatdagi haroratda va normal bosimda kechadi, ikkinchidan, bunday reaksiyada yuqori molekular polimerlar olish mumkin, uchinchidan komponentlar o'zaro aniq ekvimolekular miqdorda bo'lishi shart emas, chunki polikondensatlanish suyuqliklar chegarasidagi molekular sathdagina boradi va bu sath ekvimolekularlik shartini saqlaydi. Shuning uchun ham bu usul ilgari olinishi qiyin yoki mumkin bo'limgan bir qancha yangi polimerlarni sintez qilishda juda muhim ahamiyatga egadir.

### FAZOVIY POLIKONDENSATLANISH

Polikondensatlanish reaksiyasida uch va undan ko'p funksional moddalarning ishtirok etishi natijasida fazoviy polimerlar hosil bo'ladi, bunday reaksiyalar fazoviy polikondensatlanish deb ham ataladi. Bu holda chiziqli molekulalarni bir-biriga ko'ndalang bo'g'inlar bilan bog'lovchi bog'lar paydo bo'ladi ya'ni makromolekula uch o'lcham bilan ifodalanadi. Uch o'lchamli polimerning chiziqsimon polimerlardan asosiy farq shuki, ular yuqori haroratda yumshamaydi va suyuqliklarda erimaydi. Uch o'lchamli polimerlarda erimaslik va issiqlidan yumshamaslik xossalari bor. Shuning uchun ham bu polimerlarni tekshirishda katta qiyinchiliklar tug'iladi, ba'zan ularni tekshirish mutlaqo mumkin bo'lmaydi. Ammo bu polimerlar sanoatda muhim rol o'yaydi va ko'p ishlab chiqariladi. Ulardan fenol-formaldegid, anilin-formaldegid, melamin-formaldegid va gliftal smolalari xo'jalikning hamma tarmoqlarida ko'pdan beri ishlatilib kelinmoqda. Bu polimerlarda ikkita komponentdan biri uch yoki to'rt funksiyalidir; chunonchi, fenol anilin, gliserin uch funksiyali, mochevina esa to'rt funksiyali moddalardir. Uch o'chlamlchi polikondensatlanishga fenol va aldegidlar reaksiyasi misol bo'la oladi. O'rinn olish reaksiyalarida fenolning gidroksil guruhida yangi guruhlarni orto va para holatlarga keltirish xususiyati bor. Ekvimolar




miqdordagi fenol bilan formaldegid kislota muhitida o'zaro ta'sirlanganda uning orto va para holatlarida reaksiya yuz berib, oksibenzil spirtlar hosil bo'ladi:



Ishqoriy muhitda oksibenzil spirtlar bilan bir qatorda, dioksibenzil spirtlar ham hosil bo'ladi. Reaksiyaga kirishadigan formaldegid miqdorini oshirish yo'li bilan fenolning dimetilol va trimetilol hosilalarini olish qiyin emas:



Hosil bo'lgan oksibenzil spirtlar va dimetilol hamda trimetilol hosilalar barqaror bo'lib, kislotali va neytral muhitlarda polikondensatlanish reaksiyasiga oson kirisha oladi va suv molekulalarini ajratib chiqaradi:




Bunday reaksiyaning har qanday bosqichida molekula tarkibiga gidroksil guruh kiradi va shuning uchun ham qayta-qayta reaksiyaga kirishib, oxirida polimerga aylanadi. Reaksiya jarayonidagi haroratning


o'zgartirish natijasida polikondensatlanish tezligini oshirish yoki pasaytirish mumkin. Fenol va formaldegid polimerlari, dastlabki moddalarning nisbiy miqdoriga qarab, rezol va novolak smolalarga bo'linadi. Agar formaldegidning ekvimolar miqdori fenolnikiga qaraganda ortiq bo'lsa, u holda, rezol smolasi hosil bo'ladi, uning molekular og'irligi 700-1000 atrofidadir; rezol smolasi qattiq va mo'rt shishasimon modda bo'lib, 60-90°C larda oquvchanlik holatiga o'ta oladi, spirt, aseton va benzolda eriydi. Bunday polimerlar, asosan, pressporoshoklar, yelim va loklar tayyorlashda ishlataladi.

Rezol smolalarining asosiy xususiyatlardan eng muhim shuki, ulardan yelim, lok va har xil buyumlar tayyorlab bo'lingandan keyin, ular yuqori haroratda yana qizdiriladi. Bu holda polimer tarkibidagi metilol guruuhlar yana polikondensatlanishni boshlab yuboradi va erimaydigan hamda bo'kmaydigan uch o'lchamli, ya'ni fazoviy polimerlarga aylanadi. Natijada, polimer 250-280°C haroratda ham o'z mustahkamligini saqlaydi va suyuqlanmaslik xossasiga ega bo'ladi; bu polimer rezit deb ataladi.

Agar polikondensatlanishda fenolning ekvimolar miqdori formaldegidnikiga qaraganda ortiq bo'lsa, u holda, past molekular polimerlar yoki novolak smolalari hosil bo'ladi:




Novolak smolalarining rezollardan asosiy farqi shundaki, ularda barcha metilol guruuhlar batamom reaksiyaga kirishgan va shuning uchun ham bunday smolalar qayta qizdirilganda uch o'lchamli holatga o'ta olmaydi. Ammo shuni ham aytib o'tish kerakki, novolak smolalariga formaldegid qo'shilib, qayta qizdirilsa, ular rezol va so'ngra rezit holatlariga o'ta oladi:




Amalda, novolak geksametilentetramin (urotropin) va paraform qo'shish yo'li bilan rezol va rezit holatiga o'tkaziladi. Fenol - aldegid smolalarining tarkibini o'zgartirish, ularga fenillarning gomologlarini ishlatish tufayli, xilma-xil xossalarga ega bo'lgan polimerlarning sintez qilish mumkin. Jumladan, krezollar, rezorsin, piragallol, pirokatexin, gidroxinon, naftol va aldegidlardan furfulol va boshqalarni polikondensatlash orqali ko'pincha ikki xil fenol va ikki xil aldegid ishlatib, sanoatning ko'pgina tarmoqlarida qo'llaniladigan polimerlar hosil qilish mumkin.


Uch o'lchamli kondensatlanishga misol qilib, mochevina, tiromochevina, melamin va anilinning formaldegid bilan bo'ladigan reaksiyasini ko'rsatish mumkin. Bu moddalarga formaldegidning suvdagi critmasi ta'sir ettiarsa, haroratga, ularning miqdori, nisbatlari va muhitning vodorod ko'rsatkichi ( $rN$ ) ga qarab, amorf va smolasimon birikmalar hosil bo'lishi aniqlangan, chunki bu moddalarning hammasi ko'p funksional birikmalar qatoriga kiradi. Neytral va ishqoriy muhitda  $40^{\circ}\text{C}$  da formaldegid va mochevina monometilolmochevina hamda dimetilolmochevinaga aylanadi:



Suvda eriydigan bu kristall moddalar ishqoriy muhitdagina barqarordir. Ular kislota muhitidan  $100^{\circ}\text{C}$  da qizdirilsa, chiziqli mochevina-formaldegid, ya'ni karbamid polimeri hosil bo'ladi:



Polimera metilol guruqlar borligidan bu polimer sunda eriydi. Biroq polimerning sunda eruvchan qismi ajratib olinmay, u polikondensatlanish reaksiyasiga kiritilib, uch o'lchamli mochevina-formaldegid smolasiga aylantiriladi. Bunda fazoviy polimer suyuqlanish va erish xossasini yo'qtsa-da, tarkibida oz miqdorda metilol guruqlar borligidan unda suvni tortish va yutish xossasi bo'ladi:



Karbamid polimerlari, fenol-formaldegid smolalari bilan bir qatorda, elektroteknika sanoatida va sanoatning boshqa tarmoqlarida ko'p ishlataladi. Ularga qipiqlik, qog'oz, asbest va boshqalar shimdirlilib, so'ngra yuqori bosimda presslansa, juda mustahkam konstruktsion plastmassalar hosil bo'ladi.

### VAZIFALAR


#### 1-vazifa. Adipin kislotaning etilenglikol bilan polikondensatlanshi

Reaktiv va asboblar: adipin kislota (26,2 g), etilenglikol (12,4 g); uch og'izli, 150 ml sig'imli Din va Stark tutgichi, qaytarmasovutgich va termometr bilan jihozlangan reaksiyon kolba (1 dona), chinni kosacha (1 dona).

Reaksiyon kolbagaga 26,2 g adipin kislota va 12,4 g etilen-glikol solinib, gorelka alangasida 175-185°C gacha qizdiriladi (36-rasm). Oradan 4 soat o'tgach, kolbada hosil bo'lgan qiyomsimon suyuqlik chinni kosachaga olinishi lozim. Hosil qilingan poliesfir-polietilenadipat sovutilgani sari mumsimon moddaga aylanadi.

1-topshiriq. Polimerning tomish harorati. Ubbelode usuli bilan aniqlansin.

2-topshiriq. Hosil qilingan polimerning kislota va efir sonlari topilsin.



36-rasm. Ftal «shgidrid bilan glicerinni polikondensatlash asbobi

3-topshiriq. Polietilendipatning hosil bo'lish reaksiyalarning tenglamalari yozilsin.

**2-vazifa. Poligeksametilenadipinat (polefir)ning o'zaro aralashmas ikki suyuqlik chegarasida polikondensatlash yo'li bilan olinishi**

Reaktiv va asboblar: adipin kislotaning dixlorangidridi (15 g) benzol (40 ml), 1,6-geksandiol (10 g), distillangan suv (50 ml), natriy gidroksid (5 g); 150 ml sig'imli stakan (2 dona).

Stakanlarning birida adipin kislotaning 15 g dixlorangidridi 40 ml benzolda eritiladi. Ikkinci stakanda 10 g 1,6-geksandiol va 5 g natriy gidroksidning 50 ml suvdagi eritmasi tayyorlanadi. Ikkala stakandagi eritmalarning harorati 20°C ga tushirilgandan so'ng, birinchi stakandagi eritma ikkinchi stakandagi eritma ustiga, ikkala suyuqlik aralashib ketmaydigan qilib qo'yiladi. Natijada ikkinchi stakanda aralashmas suyuqliklar chegarasi vujudga kelib, bu chegarada poliefir pardasi hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan polimer pardasini sim ilgak vositasida to'xtovsiz ravishda tortib olish yo'li bilan stakandagi polikondensatlanish oxirigacha yetkaziladi. Ajratib olingan poliefir poligeksametilenadipat yuvilgandan so'ng, vakuum-shkafda 50-60°C da qurililadi.

1-topshiriq. Hosil bo'lgan polimerning miqdori topilsin.

2-topshiriq. Poligeksametilenadipatning solishtirma qovushoqligi va molekular og'irligi aniqlansin.

3-topshiriq. Polimerning hosil bo'lishi reaksiyasi tenglamalari yozilsin.

**3-vazifa. Ftal angidridning gliserin bilan polikondensatlanishi**

Reaktiv va asboblar: ftal angidrid (33 g), gliserin (20 g); chinni stakan (1 dona), shisha voronka (1 dona), yog' hammomi (1 dona), tigelcha yoki kichkina chinni idish (7 dona).

Chinni stakanga 33,0 g ftal angidrid va 20 g gliterin solinib, uning ustiga shisha voronka to'ncariladi (37-rasm). Aralashma 180°C da 2 soat qizdirilgandan so'ng, reaksiyon massa 200-220°C da shishasimon gliftal smolasi hosil bo'lguncha qizdiriladi. Kislota sonini aniqlash uchun reaksiyon aralashmadan namuna olib turiladi. Birinchi namuna ftal angidridning erishi bilan olinadi, qolgan namunalar har 15, 30, 45 min, 1, 2, 3, 4, 5 soatda olinadi. Ftal angidrid qizdirish natijasida

sublimatlanadi va shisha voronka devorlariga kristall holida o'tirib qoladi. Namuna olishdan ilgari voronka devorlaridagi kristallar reaksiyon aralashmaga qirib tushiriladi.

1-topshiriq. Sodir bo'lgan reaksiyalarning tenglamalari yozilsin.

2-topshiriq. Kislotqa sonining vaqtga qarab o'zgarish grafigi chizilsin.

3-topshiriq. Olingan poliefirning eruvchanligi va 220-240°C da 15 minut qizdirishning poliefir eruvchanligiga ta'siri aniqlansin.

#### 4-vazifa. $\epsilon$ — Aminokaprone kislotaning polikondensatlanishi

Reaktiv va asboblar:  $\epsilon$  — aminokpron kislota (20 g), inert gaz (azot yoki karbonat angidrid); 125 ml li Klayzen kolbasi (1 dona), chinni idish (1 dona), Vud qotishmasi hammomi (1 dona), 360°C li termometr (1 dona).

Normal sharoitda Vud qotishmasi hammomida, Kleyzen kolbasiga 20 g  $\epsilon$ -aminokpron kislota solinib, inert gaz-azot ishtirokida 225-230°C da 30 minut qizdiriladi. So'ngra 2 mm simob ustuni bosimida (ya'ni vakuumda) 225-230°C da qizdirish 5 soat davom ettiriladi. Reaksiya tugagach, hosil bo'lgan polimer sovutilmay, chinni idishga solinadi.


1-topshiriq.  $\epsilon$  — aminokpron kislotaning polikondensatlanish reaksiyasining tenglamasi yozilsin.

2-topshiriq. Polikaprolaktamning suyuqlanish harorati kapilyar usuli bilan topilsin.

3-topshiriq. Polimerning molekular og'irligi molekula uchlaridagi funksional guruhlar orqali aniqlansin.

#### 5-vazifa. $\epsilon$ — Geksametilendiaminning adipin kislota bilan polikondensatlanishi

Reaktiv va asboblar: haydalgan geksametilendiamin (12 g), adipin kislota (14,6 g), inert gaz (azot yoki karbonat angidrid); uch og'izli,




37-rasm. Uch og'izli, qaytarma sovutgich, termometr, nay, Din va Stark tutgichi bilan jiohzlangan kolba

500 ml sig' imli qorgich sovutgich, Din va Stark tutgichi va azot kiritish nayi bilan jihozlangan reaksiyon kolba (1 dona), Vud qotishmasi hammomi (1 dona), 360°C li termometr (1 dona), Libix sovutgichi (1 dona), chinni idish (8 dona).

Polimer hosil qilish jarayon 2 bosqichdan iborat: Avval diamin bilan kislotaning tuzi — geksametilendiaminadipat AG tuzi tayyorlanadi, keyin tuz eritilgan holda yoki erituvchi muhitda polikondensatlanadi. AG tuzi hosil qilish uchun reaksiyon kolbag'a 14,6 g adipin kislota, 120 ml 95 % li etil spirt, 15 ml suv va 12 g geksametilendiamin solib aralashdiriladi va ozroq isitilib, eritmaga aylantiriladi. Eritma filtrlanib, asta-sekin sovutilganda, prizma shaklidagi rangsiz geksametilendiaminadipat tuzi kristallanadi. Bu kristallar Byuxner voronkasi yordamida filtrlanadi va eksikatorda quruq ishqor ustida quritiladi. Hosil qilingan mahsulotning miqdori, 10 % li eritmasining vodorod ko'rsatkichi

(rN) va erish harorati aniqlanadi. Olingan AG tuzining polimerini hosil qilish uchun 26 g geksametilendiaminadipat reaksiyon kolbag'a solinadi (38-rasm). Reaksiyon massa inert gaz ishtirokida, Vud qotishmasi hammomida 220°C gacha qizdiriladi. Polikondensatlanish natijasida ajralib chiqayotgan suv tutgichda yig'iladi. Analiz uchun har 30 minutda namuna olib turiladi. Reaksiyon massa 2 soat qizdirilgandan so'ng temperatura 250-260°C ga ko'tariladi va ajralib chiqayotgan suvni to'la haydash uchun, qaytarma sovutgich to'g'ri sovutgich bilan aralashdiriladi. Reaksiyon kolba normal bosimda va 250-260°C haroratda 4 soat qizdiriladi. Shu vaqt ichida 4 ta namuna

38-rasm. O'zaro aralashmas ikki suyuqlik chegarasida polikondensatlash



olinadi. So'ngra kolba vakuumda (2-3 mm simob ustunida) 1 soat qizdiriladi. Hosil qilingan polimer sovutilmay, chinni idishga quyilishi lozim.

1-topshiriq. Polimerning har xil organik moddalarda eruvchanligi aniqlansin.

2-topshiriq. Polimerning kislota va amin sonlari aniqlansin. Bu sonlarning vaqtga qarab o'zgarish grafigi chizilsin.

3-topshiriq. Polimerning suyuqlanish harorati kapilyar usuli bilan aniqlansin.

**6- vazifa. O'zaro aralashmas ikki suyuqlik chegarasida polikonden satlanish yo'li bilan poligeksametilensebatsamid hosil qilish**

Reaktiv va asboblar: sebatsin kislotaning dixlorangidridi (20 g), benzol (50 ml), geksametilendiamin (10 g), distillangan suv (50 ml), natriy gidroksid (5 g); 150 ml sig'imli kimyoviy stakan (2 dona).

Stakanlarning birida sebatsin kislotaning dixlorangidrididan 20 grami 50 ml benzolda eritiladi. Ikkinci stakanda esa 10 g geksametilendiamin va 5 g natriy hidroksidning 50 ml suvdagi eritmasi tayyorlanadi. Ikkala stakandagi eritmalar harorati 20°C ga tushirilgandan so'ng, birinchi stakandagi eritma ikkinchi stakandagi eritma ustiga ikkala suyuqlik aralashib ketmaydigan qilib qo'yiladi. Ikkinci stakanda o'zaro aralashmas suyuqliklarning chegarasi vujudga kelib, bu chegarada poliamid pardasi hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan polimer pardasini sim ilgak vositasida to'xtovsiz ravishda tortib olishi yo'li bilan polikondensatlanish reaksiyasi oxirigacha yetkaziladi. Ajratib olingen poligeksametilensebatsamid ilitilgan suv bilan bir necha marta yuvilgandan so'ng, 50-60°C da vakuum — shkafda quritiladi.

1-topshiriq. Hosil bo'lgan polimerning miqdori aniqlansin.

2-topshiriq. Poligeksametilensebatsamidning krezoldagi 0,5% li eritmasining qovushoqligi va uning molekular og'irligi aniqlansin.

3-topshiriq. Polimer hosil bo'lish reaksiyasining tenglamasi yozilsin.

**7-vazifa. Metatoluilendiamininning adipin kislota bilan polikondensatlanishi**

Reaktiv va asboblar: haydalgan m-toluilendiamin (13,5 g), adipin kislota (14,6 g), inert gaz (azot yoki karbonat angidrid); to'rt og'izli

Din va Stark tutgichi, azot kiritish nayi, qaytarma sovutgich va qorgich bilan jihozlangan reaksiyon kolba (1 dona), Vud qotishmasi hammomi (1 dona),  $360^{\circ}$  li termometr, (1 dona) Libix sovutgichi (1 dona).

13,5 m-toluilendiamin va 14,6 g adipin kislota reaksiyon kolbagaga solinib, ichidagi havo inert gaz azoti yordamida siqib chiqariladi va  $240^{\circ}\text{C}$  da 5 soat qizdiriladi. Azot o'tkazish to'xtatilmay, tekshirish uchun har 30 minutda namunalar olinishi lozim. Polimer namunalari issiq aseton bilan ikki marta chayiladi va og'irligi o'zgarmay qolguncha vakuum — eksikatorda quritiladi.

1-topshiriq. Polimer namunalarining kislota va amin sonlari aniqlansin. Reaksiya davom etish vaqtining molekular og'irlikka ta'sir etish grafigi chizilsin.

2-topshiriq. Bu reaksiyada ishtirok etgan monomerlarning polikondensatlanish reaksiyasining tenglamalari yozilsin.

### **8-vazifa. Fenolning formaldegid bilan polikondensatlanishi (novolak hosil bo'lishi)**

Reaktiv va asboblar: fenol (37,6 g), formalin (40% li) (15 ml), xlorid kislota (solishtirma og'irligi 1,19 g/sm<sup>3</sup>) (0,5 g), 500 ml sig'imli, yumaloq tubli kolba (1 dona), qaytarma sovutgich (1 dona), suv hammomi (1 dona),  $250^{\circ}\text{C}$  li termometr (1 dona), probirkalar (2 dona), chinni idish (1 dona).

37,6 g fenol va 15 g formalin eritmasi kolbagaga solinib, 5-10 minut chayqatiladi. So'ngra unga 0,5 g konsentrangan xlorid kislota qo'shilib, kolbagaga qaytarma sovutgich ulanadi va suv hammomida  $90\text{-}100^{\circ}\text{C}$  da qizdiriladi. Qizdirish bir-biriga aralashmaydigan smola bilan suv qatlamlari hosil bo'lguncha davom ettiriladi. Kolbadagi modda chinni idishga solib sovutiladi va suv qatlamanidan ajratiladi. Qolgan smola distillangan suv bilan neytrallanguncha yuviladi va  $150\text{-}160^{\circ}\text{C}$  gacha qizdirilgan shkafda quritiladi. Hosil bo'lgan chiziqli tuzilishdagagi polimetilen-fenolga ma'lum ximiyaviy agentlar qo'shish yo'li bilan uch o'lchamli, ya'ni fazoviy tuzilishdagagi fenol-formaldegid smollariga aylantiriladi. Bunday moddalar sifatida formaldegid polimerlari geksametilen tetraminlar ishlataladi.

1-topshiriq. Hosil bo'lgan polimerlarning eruvchanligi va yumshash temperaturasi Kremer-Sarnov usuli bilan aniqlansin. Buning uchun probirkadagi polimerga 10-15 % parafor yoki geksametilen titramin solinib,  $160^{\circ}\text{C}$  da maxsus plitada qotguncha qizdiriladi.

2-topshiriq. Polikondensatlanishning birinchi va ikkinchi bosqichlarda sodir bo'lgan reaksiyalarning tenglamalari yozilsin.

3-topshiriq. Olingan polimerning geksametilentetramin qo'shguncha va qo'shgandan keyingi eruvchanligi va yumshash harorati aniqlansin.

#### **9-vazifa. Fenolning formaldegid bilan polikondensatlanishi (rezit hosil bo'lishi)**

Reaktiv va asboblar: fenol (17,5 g), formalin (40 % li), (17,75 g), ammiak (25 % li), (1,5 g); 300 ml sig'imli, qaytarma sovutgichli, yumaloq tubli kolba (1 dona), suv hammomi (1 dona), 250°C li termometr (1 dona).

Fenol bilan formaldegidning kondensatlanishi natijasida, qizdirilganda suyuqlanmaydigan va erimaydigan polimer hosil qilish jarayoni ikki bosqichdan iborat bo'ladi. Avval chiziqli tuzilishdag'i polimetilenfenol olinadi, so'ngra u qotiriladi. Yumaloq tubli kolbag'a 17,5 g fenol, 17,75 g 40 % li formalin va 1,5 g 25 % li ammiak solinadi. Aralashma suv hammomida 90°C da qizdiriladi. Taxminan 30 minutdan keyin aralashma ikki qatlama ajraladi: yuqoridagi qatlama suv, pastdagisi esa smola bo'ladi. Hosil bo'lgan modda (chiziqli polimetilfenol) suvda neytral holga kelguncha yuviladi-da, 50-65°C da vakuum — quritgichda quritiladi. Polimerning chiziqli tuzilishini aniqlash uchun uning spirit, aseton, spirit va benzol aralashmasida eruvchanligi tekshiriladi. Quritilgan polimer (rezol) probirkaga solinib, termostatda 60° dan 120°C gacha qizdiriladi va erimaydigan hamda suyuqlanmaydigan uch o'lchamli holatga — rezitga aylantiriladi.

1-topshiriq. Polikondensatlanishning birinchi va ikkinchi bosqichlaridagi reaksiyalarning tenglamalari yozilsin.

2-topshiriq. Hosil qilingan polimerning miqdori va organik birkimalarida eruvchanligi aniqlansin.

#### **10- vazifa. Mochevinaning formaldegid bilan polikondensatlanishi**

Reaktiv va asboblar: mochevina (15 g), formalin (40 % li) (53 g), ammiak (25 %) (1,3 g), etil spirit (96 % li) (10 ml); 300 ml sig'imli, qaytarma sovutgich bilan jihozlangan yumaloq tubli kolba (1 dona), chinni idish (1 dona), chinni tigel (1 dona), termostat (1 dona), suv hammomi (1 dona), vodorod ionlari konsentratsiyasini aniqlash uchun potentsiometr yoki Mixayelis asbobi (1 dona), 100°C li termometr (1 dona).

Kolbaga formalining 40 % li eritmasidan 53 g va ammiakning 25% li eritmasidan 1,3 g solinib, suv hammomida 0,5 soat qizdiriladi. Issiq eritma filtrdan o'tkazilib, vodorod ionlarining vodorod ko'rsatkichi ( $rN$ ) o'lchanadi, agar  $rN$  7,6 -7,8 dan kam bo'lsa, unga yana ammiak qo'shiladi. Filtrga 7,5 g mochevina qo'shib, 0,5 soat qizdiriladi. So'ngra kolbaga yana 10 ml spirt va 7,5 g mochevina qo'shib, aralashma 80°C da vodorod ionlari ko'rsatkichi 5,0-4,6 yetguncha 2-3 soat qizdiriladi. Kondensatlanish mahsuloti — tiniq suyuqlik chinni idishga quyiladi-da, vakuum — quritgich shkafda 70-80°C atrofida quritiladi. Oradan 2-3 soat o'tgach, polimer 40°C li shkafga solinib, qattiq shishasimon holatga kelguncha saqlanadi.

1-topshiriq. Olingan smolaning suyuqlanish harorati va organik moddalarda eruvchanligi aniqlansin.

2-topshiriq. Mochevinaning formaldegid bilan polikondensatlanish reaksiyasining tenglamalari yozilsin.

#### **11-vazifa. Melaminning formaldegid bilan polikondensatlanishi**

Reaktiv va asboblar: melamin (25 g), formalin (37 % li) (48 g), natriy gidroksid (1 g), distillangan suv (10 ml); uch og'izli, 250 ml sig'imli, qaytarmasovutgich, qorgich va termometr bilan jihozlangan reaksiyon kolba (1 dona), chinni kosacha (1 dona).

Reaksiyon kolbaga 25 g melamin va formaldegidning 37 % li eritmasidan 48 g solinib, suv hammomida 60-70°C da qizdiriladi. Oradan 5-10 minut o'tgach, kolbaga natriy hidroksidning 10 % li eritmasidan 10 g qo'shiladi va 70°C da yana 20-25 minut qizdiriladi. Reaksiya tugagach, kolbada hosil bo'lgan qovushoq rangsiz va qotadigan polimer-melamin formaldegid smolasi chinni kosachaga olinadi-da, quritiladi.

1-topshiriq. Melaminning formaldegid bilan polikondensatlanish reaksiyasining tenglamalari yozilsin.

2- topshiriq. Hosil bo'lgan polimerning organik eritmalarda eruvchanligi aniqlansin.

3- topshiriq. Polimerning yuqori haroratda va formaldegid ishtirokida qotish reaksiyalari o'tkazilsin.

### **POLIMERLARDA BO'LADIGAN KIMYOVİY O'ZGARİSHLAR**

Barcha past molekular moddalar kabi, tabiiy va sintetik polimerlar ham o'z tarkibidagi funksional guruuhlar hisobiga xilma-xil reaksiyalarga kirisha oladi, ya'ni ular past molekular moddalar bilan birikib, yangi hosilalar beradi.

Ko'pchilik tabiiy polimerlar (selluloza, kraxmal) va ba'zi sintetik polimerlar (polivinil spirt va boshqalar) elementar bo'g'inlari tarkibidagi gidroksil guruuhlar hisobiga past molekular moddalar bilan reaksiyaga kirishadi. Natijada bu polimerlarning oddiy va murakkab esirlar bo'g'inidagi faol vodorod atomlari ham formaldegid va etilen oksidlari bilan oson birikib, poliamidning yangi xossalarini beradi.

Kauchuklar tarkibidagi qo'sh bog'lar oltingugurt bilan birikib, boshlang'ich kauchukdan butunlay farq qiluvchi to'rsimon molekulali rezina, ebonit kabi yangi polimerlar hosil qiladi. Keltirilgan misollar — organik kimyo reaksiyalaridan foydalanib, tabiiy va sintetik polimerlarning tarkib va xossalarini kerakli tomoniga o'zgartirish mumkinligini ko'rsatadi. Tayyor — yuqori molekular moddalardan foydalanib, yangi hosilalar olish usullari selluloza, tabiiy kauchuk oqsil kabi tabiiy polimerlarga nisbatan ilgaridan tatbiq qilinib kelinadi.

Masalan, selluloza va sirkə angidriddan foydalanib, sun'iy tola, plastmassa va asetillyuloza hosil qilish, selluloza va nitrat kislotadan esa nitratselluloza hosilalari olish usullari anchadan beri ma'lumdir. Tabiiy terini oshlash, tabiiy kauchukni vulkanlash natijasida makromolekulalarni to'rsimon shaklga keltirish usuli ham ko'pdan beri qo'llanilib kelinmoqda.

Kimyo fani va sanoatining taraqqiy etishi natijasida asrimizning 30-yillariga kelib, bir qator sintetik polimerlar olina boshlandi. Bu bilan bir qatorda, sintetik polimer makromolekulalaridagi kimyoviy o'zgarishlarga ham katta ahamiyat berilib, ularning yangi hosilalari olina boshladi. Masalan, kauchuklarni xlorlab: xlorolefinlar, polivinilxloridni xlorlab: perxlorvinil, polivinilasetatni gidrolizlab: polivinil spirt va boshqa polimerlar olish yo'lga qo'yiladi.

Keyinchalik esa makromolekula tarkibiga fitor atomlari, nitril, amin, karboksil, sulfat guruhlari kiritish usullari ham topildi.


Hozirgi vaqtida bunday reaksiyalarning soni tobora ko'payib bormoqda. Ayniqsa, payvand va blok sopolimerlar olish usullarining topilishi polimerlardagi kimyoviy o'zgarish — reaksiyalarning ahamiyatini yanada oshirib yubordi.

Polimerning kimyoviy o'zgarish reaksiyalari orasida polimerlarni kerakli darajada parchalash — destruksiya reaksiyasi alohida o'rinni tutadi.

Kimyoviy o'zgarishning bu xillari polimerlardan har xil buyumlar tayyorlashda muhim rol o'yndaydi, chunki polimer molekulalari haddan tashqari katta bo'lsa, ularning qovushoqligi va suyuqlanish harorati juda yuqori bo'ladi, bu esa polimerdan buyumlar tayyorlash imkoniyatining yo'qolishiga sabab bo'ladi. Bunday hollada har xil usullar (plastikatsiyalash, maydalash, qisman gidrolizlash va boshqalar) vositada polimerning molekular og'irligi ma'lum darajada kamaytiriladi va undan kerakli buyumlar tayyorlanadi. Polimerlarni destruktсиyalash vositasida ularning monomerlarini ham olish mumkin. Masalan, polistirolni yuqori haroratda destruksiyalab, stirol polimelitmetakrilatdan esa metilmekrilat; poliamidlarni gidrolizlab, diamin, amino kislotasi va ikki negizli kislotalar: poliozlardan esa monozlar olish usullari hammaga ma'lum. Bu usullardan texnikada va laboratoriya ishlarida ko'p foydalaniladi. Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinish turibdiki, barcha tabiiy va sintetik polimerlar ham past molekular moddalar kabi, organik kimyoda ishtirot eta oladi. Polimer makromolekulalaridagi barcha kimyoviy o'zgarishlarni asosan ikkita katta guruhga bo'lish mumkin:

1. Polimerlar elementar bo'g'inlarining reaksiyalari yoki polimeranologik o'zgarishlar. Bunday reaksiyalar natijasida polimerning kimyoviy tarkibi o'zgarib, polimerlanish darajasi o'zgarmaydi. Bu reaksiyalar makromolekuladagi funksional guruhlar va past molekular moddalar orasidagi birikish, o'rinni olish va parchalanish reaksiyalaridir.

Umuman olganda, bu guruhga kirgan reaksiyalarni sxematik ravishda mana bunday tasvirlash mumkin:



bu formulada:

R — makromolekulaning elementar bo'g'ini:

n — polimerlanish darajasi.

X — boshlang'ich polimerning funksional guruhi.

U — kimyoviy o'zgarishdan keyin hosil bo'lgan funksional guruhi.

2. Makromolekular reaksiyalar, ya'ni yiriklashish reaksiyalar.

Bu ikki guruh reaksiyalar o'zaro katta farq qilganligidan ularni alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

### POLIMERANALOGIK O'ZGARISHLAR


Polimer makromolekulalaridagi funksional guruhlar bilan past molekular moddalar orasida bo'ladigan reaksiyalar polimeranalogik o'zgarishlar deyliladi.

Polimerlardagi funksional guruhlar past molekular moddalarga qaraganda ancha sust reaksiyaga kirishadi, chunki polimerlarda sodir bo'ladigan reaksiya juda murakkab bo'lib, uning tezligiga makromolekularning o'zaro ta'sir kuchlari harakatchanligi, shakli, qovushoqligi kabi omillar ta'sir etadi.


Polimeranalogik reaksiyalaridan eng asosiysi, makromolekuladagi funksional guruhlarning gidrolizlanish reaksiyasidir.

Polivinil spirt, ikkilamchi asetilselyuloza kabi muhim polimerlar polivinilasetat va triasetatsellulozani gidrolizlash yo'li bilan olinadi.

Polivinilasetatning polivinil spirtga aylanish reaksiyasi:



Ishqoriy eritma ta'sirida makromolekula elementar bo'g'inlaridan sirka kislota qoldig'i ajralib chiqadi va polivinilasetat polivinil spirtga aylanadi. Xuddi shunga o'xshash, polivinil spirtni polivinilasetatga aylantirish ham mumkin — polivinil spirt katalizator ishtirokida sirka angidrid bilan reaksiyaga kirishsa, polivinilasetat hosil bo'ladi. Polivinilasetatning polimerlanish darajasi boshlang'ich polivinil spirtlarnikidan farq qilmaydi. Bu reaksiyani quyidagicha ifodalash mumkin:




Polivinil spirtdan polivinilasetat hosil qilish va uni gidrolizlab, qaytadan polivinil spirt hosil qilish polimernalogik o'zgarishlarning yaqqol misolidir. Sellulozadan asetilselluloza, nitroselluloza olish va ularni gidrolizlash ham ana shunday reaksiyalardandir.

Quyidagi karbozanjirli va geterozanjirli polimerlardagi ba'zi polimernalogik o'zgarishlarni ko'rib chiqamiz.


**Karbozanjirli polimerlar.** Karbozanjirli polimerlar qo'sh bog'li monomerlarni polimerlash yo'li bilan hosil qilinadi. Kauchuklar poliolefinlar, poliakril smolalari, polivinilxlorid va boshqalar karbozanjirli yuqori molekular moddalar qatoriga kiradi. Ularni polimernalogik tarzda o'zgartirib, yangi xil polimerlar hosil qilish mumkin.

**Polietilen.** Polietilen makromolekulasining tarkibi jihatidan parafinga o'xshaydi. Hozirgi vaqtida polietilendagi vodorod atomlarini golloidlar xlorsulfokislota qoldiqlari kabi gurnhlarga almashtirish usullari topilgan. Polietilenning polimernalogik reaksiyalarini mana bunday tasvirlash mumkin:




Bunday polietilendagi 45 ta elementar bo'g'inning birida sulfoxlor guruh 4 ta elementar bo'g'inning birida xlor atomlari bo'ladi, bu polietilen odatdagisi sharoitda toluolda yaxshi eriydi.

Sulfoxlorlangan polietilenning toluoldagi eritmasi alkilaminlar bilan reaksiyaga kiritilsa, polietilenning sulfamid guruqli hosilasi olinadi. Reaksiya sxemasi quyidagicha ifodalanadi:




bu formulada : R — etil, butil va boshqa radikallar.

**Polistirol.** Polistirol ham to'yingan polimerlar jumlasidandir. Aromatik birikmalarga xos barcha kimyoviy reaksiyalar polistirolning benzol yadrosida ham kechishi mumkin. Polistirol nikel katalizatori ishtirokida  $200^{\circ}\text{C}$  va 140 atm bosimida gidrogenlanib, yana vodorodga to'yingan polimerga aylanadi:




Polistirol sulfoguruhni oson biriktirib olib, sulfopolistirol hosil qiladi:




Polisulfostirolo suvda eriydi va turli jarayonlarda emulgator sifatida ishlatalidi.

**Polivinilxlorid.** Bu polimerlarda juda ko'p polimeranalogik o'zgarishlar qilish mumkin. Ulardan eng ahamiyatlisi, polivinilxloridni xlorlash va hosil bo'lgan perxlorvinil smolasini sintetik tola — xlorining aylantirishdir:




Natijada polimer tarkibidagi xlorning miqdori 62-65 % ga yetadi, ya'ni polivinilxloridning har uch elementar bo'g'iniga yana bir xlor atomi qo'shiladi. Polivinilxloriddan kumush asetat ta'sirida polivinil asetat hosil qilish usuli diqqatga sazovordir:




Agar olingan polivinilasetat gidrolizlansa, polivinil spirit hosil bo'ladi.

Polivinil spirit past molekular spirtlarga xos barcha kimyoviy reaksiyalarga kirisha oladi. Natriyning suyuq ammiakdagi eritmasi ta'sirida polivinilalkogolyat hosil bo'ladi. Polivinilalkogolyat galloid alkillar ta'sirida polivinil spiritning oddiy efirlarini hosil qiladi. Bu reaksiyaning sxemasini quyidagicha ifodalash mumkin:




Akrilonitril va polivinil spirit orasidagi bo'ladigan reaksiya natijasida polivinil spiritning sianetil efiri hosil bo'lishi aniqlangan:




Polivinil spirit kislota angidridlari ta'sirida murakkab efirlar hosil qiladi. Shu usulda polivinil spirtining formiati hosil qilingan.

Bu reaksiyalar umumiy tarzda quyidagicha yoziladi:




bu tenglamada : R — kislota tarkibidagi radikal.

Polivinil spirit hidroksil guruhlari bilan alifatik va aromatik aldegidlar orasidagi reaksiya natijasida asetallar hosil bo'ladi:




Hosil bo'lgan polivinilasetatallardan yelmlar, lok va har xil bo'yoqlar tayyorlanadi.


Polivinil spirit izotsianitlar bilan reaksiyaga kirishib, uretan hosilalarini beradi:



**Polimer kislotalar.** Bunday polimerlarda bo'ladigan o'zgarishlar yaxshi tekshirilgan. Polimer kislotalar jumlasidan bo'lgan poliakril kislotaning polimeranalogik o'zgarishlarini ko'rib chiqamiz. Poliakril kislota spirtlar bilan reaksiyaga kirishib, murakkab efirlar hosil qiladi:




Polimerdag'i karboksil guruhlar ishqor eritmali bilan reaksiyaga kirishib, tuz hosil qiladi:




Poliakrilonitril tarkibidagi nitril guruhlar hisobiga ham reaksiyalar yuzaga keltirish mumkin.

Agar polimerning gidrolizlanish reaksiyasi oxirigacha olib borilsa, poliakril kislota hosil bo'ladi.

**To‘yinmagan polimerlar.** Makromolckulari tarkibida qo’sh bog‘ bo‘lgan polimerlar, jumladan, barcha kauchuklar har xil reaksiyalarga oson kirishadi. Polimerdagи qo’sh bog‘lar kimyoviy bog‘lardan farq qilmaydi. Brom ta’sirida esa kauchukning bromli hosilalari olinadi:




Poliizopren xlorlansa, politetroxlorizopren (xlorkauchuk) hosil bo‘ladi:




Xlorkauchuk kislota ishqor va tuzlar ta’siriga chidamli bo‘lgani uchun undan loklar va bo‘yoqlar tayyorlanadi.

**Geterozanjirli polimerlar.** Geterozanjirli polimerlar orasida poliamidlar poliuretanlar va polimochevnialarning polimeranaloyik reaksiyalariga to’xtalib o’tamiz. Bu tipdagi polimerlar qatoriga barcha poliozlar, shu jumladan, selluloza va oqsillar ham kiradi. Poliamidlarda reaksiyalar asosan amid guruhidagi vodorod atomlari hisobiga boradi. Bu vodorod atomlari harakatchan bo‘lib, kimyoviy reaksiyalarga tez kirishadi. Poliamidlар etilen zanjiridan iborat yon zanjirlar hosil qiladi:




Oksetillangan poliamidlar spirtda yaxshi eriydi, ular o‘z xossalari jihatidan kauchuklarga o‘xshaydi.

Poliamidlар bilan formaldegid orasidagi reaksiya natijasida spirlarda eriydigan N — metilol hosilalari olish mumkin:



Poliamidlarning bunday hosilalarida elastiklik va gigroskopiklik xossalari bor. Poliuretanlar element bo'g'inlarining reaksiyalarga moyilligi jihatidan poliamidlarga o'xshab ketadi.

Etilen oksid bilan poliuretanning reaksiyaga kirishuvidan polioksietilen zanjirlari hosil bo'ladi:



Bunday poliuretanlarda kauchuk xossalari bo'ladi.

## MAKROMOLEKULAR REAKSIYALAR

Polimerlarda bo'ladigan bu xil o'zgarishlar quyidagi reaksiyalarni o'z ichiga oladi:


- makromolekulalarning polimerlanish darajasini oshiruvchi o'zgarishlar; bular jumlasiga: molekulalarni to'rsimon shaklga keltirish, payvand va blok sopolimerlar hosil qilish reaksiyalari kiradi;
- makromolekulalarning polimerlanish darajasini kamaytiruvchi o'zgarishlar; bu o'zgarishlar, asosan, polimerning parchalanish destruktiviyasi reaksiyalaridir.

Makromolekulalarni to'rsimon shaklga keltirish reaksiyalarini kauchuklar misolida ko'rib o'tamiz. Bu jarayon rezina sanoatida muhim rol o'ynaydi, chunki kauchuklar faqat to'rsimon shaklga o'tgandan keyingina kerakli mexanik xossalari ega bo'ladi.


Kauchuk makromolekulalari tarkibida to'yinmagan bog'lar bo'lgandan, ularni ikki yoki undan ortiq funksional guruhli moddalar vositasida to'rsimon holatga keltirish mumkin. Bu maqsad uchun odatda makromolekulalar o'rtasida ko'ndalang sulfid bog'lari hosil

qiluvchi oltingugurt ishlataladi. Bu jarayon sanoatda vulkanlash deb ataladi va yuqori haroratda faol hamda reaksiyani tezlatuvchi moddalar (merkaptanlar va boshqalar) ishtirokida olib boriladi.


Kauchuk makromolekulalarini to'rsimon holatga keltirish reaksiyasining sxemasi quyidagicha ifodalanadi:



yoki, to'yinmagan bog'lar saqlanib, vodorod sulfid ajralib chiqishi natijasida ham molekulalar to'rsimon holatga kelishi mumkin:



Bundan tashqari, makromolekulalar ikki yoki undan ortiq molekulalarning o'zaro kimyoiy reaksiyasi hisobiga ham to'rsimon holatga kelishi mumkin:



Hozirgi vaqtida kauchuk bilan oltingugurt reaksiyasi natijasida makromolekulalar orasida asosan sulfid shaklidagi ko'ndalang bog'lar hosil bo'lishi aniqlangan. Kauchukni to'rsimon shaklga keltirish uchun uning tarkibiga 0,16% oltingugurt kiritish kifoya.


Agar kauchuk tarkibida oltingugurt miqdori ko'paysa, polimerning qattiqligi va solishtirma og'irligi ortib, elastikligi va cho'ziluvchanligi kamayadi.

Kauchuk tarkibiga hammasi bo'lib 32% kimyoviy bog'langan oltingugurt kiritish mumkin. Bunda kauchuk qattiq material — ebonitga aylanadi.


Boshqa polimer makromolekulalarini ham har xil usularda to'rsimon holatga keltirish mumkin. Ular to'rsimon holatga keltirilsa, polimerning mustahkamligi, issiqqa chidamliligi ortib, eruvchanlik va plastiklik xossalari kamayadi.

Tola holdagi polivinil spiritni to'rsimon holatga keltirmay, ishlatib bo'lmaydi, chunki u suvd a yaxshi eriydi. Bu reaksiya natijasida polimer makromolekulalari o'zaro ko'ndalang kimyoviy bog'lar bilan ulanadi va suvda erimaydigan bo'lib qoladi.


Ikki negizli kislotalar va ularning xlorangidridlari bilan polivinil spirit quyidagicha reaksiyaga kirishadi va murakkab efir bog'larini hosil qiladi:




Tarkibida gidrosil guruhi bo'lgan polimerlarni izosianatlar vositasida ham to'rsimon holatga keltirish mumkin:




Polivinil spirit makromolekulalarini to'rsimon holatga keltirishning eng oddiy usuli uni degidratlash usulidir:





Polimer kislotalarni to'rsimon shaklga keltirishning ham ko'pgina usullari bor. Ulardan biri poliakril kislotasining ikki atomli spirtlar bilan bo'ladigan reaksiyasidir:



Bunday polimerlarga ko'p valentlik metallarning tuzlari bilan ishlov berilib, ularni to'rsimon shaklga keltirish mumkin:



Polivinil spirit poliuretan va polimochevina molekulalarini formaldegid vositasida to'rsimon shaklga keltirishi mumkin. Jumladan, polimochevinani formaldegid vositasida to'rsimon shaklga keltirish quyidagicha ifodalanadi:



Makromolekulalarning polimerlanish darajasini oshirish usullaridan yana bir — payvand va blok sopolimerlar hosil qilish usulidir.

Bundan tashqari, polimer va monomer aralashmasi g — nurlar bilan yoritilgan ham payvand sopolimerlar hosil bo'ladi.

Blok sopolimerlar hosil qilish usullari ham xuddi payvand sopolimerlar hosil qilish usuli kabitdir. Lekin bu tip reaksiyalarda faol nuqtalar makromolekulalarning boshi va oxirida bo'lishi kerak. Blok sopolimerlari formulasini mana shunday ifodalash mumkin:

... AAAAA ... ABBBBBB .... BAAAAA .... AAABBBB ... B ...

Payvand sopolimerlardagi kabi bu yerda ham:


A — birinchi polimerlarning elementar bo'g'ini;

B — ikkinchi polimerning elementar bo'g'ini.

Blok sopolimerlarning formulasidan ko'rinish turibdiki, makromolekulalar ikki xil polimerning bloklaridan tuzilgan va o'zaro kimyoviy bog'lar bilan ulangan bo'ladi.

Odatda, blok sopolimerlar ikki polimerning plastikatsiyasi vaqtida makromolekulalarning uzilib, qaytadan bir-biri bilan birikishi natijasida ham hosil bo'ladi.

Agar boshlang'ich polimerning uchlarida faol markazlar bo'lsa, monomerning polimerlanishi yoki polikondensatlanishi natijasida blok sopolimer hosil bo'ladi. Bu reaksiya umumiy tarzda quyidagicha yoziladi:



Payvand va blok sopolimerlar o'z xossalari jihatidan ularni tashkil qiluvchi polimerlarning birortasiga ham o'xshamaydi, ularning tamomila yangi xossalari bo'ladi. Masalan, suvda eruvchi polimerga suvda erimaydigan polimerlar payvandlansa, hosil qilingan sopolimerlarda yaxshi emulgatorlik xossalari bo'ladi.

## POLIMERLAR DESTRUKSIYASI

Makromolekulalar reaksiyalarning ikkinchi turi ularning destruktsiyasidir. Makromolekulalarning asosiy zanjiridagi kimyoviy bog'larning uzilish reaksiyasini polimerning destruktsiyasi deb ataladi. Bu holda polimerlarning kimyoviy tarkibi o'zgarmaydi, faqat polimerlanish darajasigina kamayadi.

Polimerlarni qayta va ulardan foydalanish vaqtidagi destruktsiya reaksiyalarini o'rganishning ahamiyati katta. Destruktsiya kimyoviy moddalar (suv, kislotalar, ishqorlar, tuzlar, spirtlar, kislorod va boshqalar) ishtirokida yoki fizik ta'sirlar (issiqlik, quyosh nuri, yadro nurlari, mexanik energiya, ultratovush va boshqalar) natijasida sodir bo'lishi mumkin.

Kimyoviy destruktsiya reaksiyasiga ko'proq geterozanjirli polimerlanish kirishadi. Geterozanjirli polimerlar uglerod atomi va geteroatom bog'i hisobiga parchalanadi. Agar destruktsiya oxirigacha borsa, boshlang'ich monomer moddalar hosil bo'ladi.


Masalan, suv bilan bo'ladigan destruktsiya natijasida polikaprolaktamdan aminokapron kislota, naylondan adipin kislota va geksametilendiamin, polietilenterfalatdan etilenglikol va tereftal kislota hosil bo'ladi.

Karbozanjirli polimerlar kimyoviy destruktsiyaga nisbatan ancha chidamli bo'ladi va ma'lum sharoitdagina destruksiya reaksiyasiga kirishadi. Ular har xil fizik ta'sirlar (plastikatsiya, maydalash, qizdirish yoritish va boshqalar) natijasida destruktsiyalanadi.


Polimerlardan buyum tayyorlashda ularning destruktsiya reaksiyasiga kirishi, molekular og'irligi o'zgarishini bilish texnologiyada muhim rol o'ynaydi. Polimerlarning kimyoviy destruktsiyalaridan poliamid va poliefirlarning gidroliz va alkogoliz jarayonlariga to'xtalib o'tamiz. Bu jarayonlar kislota va ishqorlarning suvdagi va spirdagi eritmalarida sodir bo'ladi. Natijada polimerlarning molekulalari kichiklashib, kislota va amin sonlari ko'payadi. Bu kislota va amin sonlarini aniqlab, polimerning destruktsiyalanish darajasi topiladi.

Bu usuldan juda murakkab oqsillarning sintetik poliamid va poliefirlarning tarkibini o'rganishda va sanoat chiqindilaridan monomerlar olishda ko'p foydalaniladi.

Poliefirlarning gidrolizlanish sxemasi quyidagicha yoziladi:



Poliefirlarning alkogoliz jarayoni ham shu sxema bilan ifodalanadi:





Kimyoviy parchalanishning bu turi — polimerlarning oksidlanish destruktsiyasidir. Bu xildagi destruktivsiya, odatda, polimerdan texnika va foydalanish jarayonida sodir bo'ladi va polimerlarni eskitib, fizik-mekanik xossalarni pasaytirib yuboradi. Jarayon havo kislorodi ta'sirida boradi, nur, issiqlik va nam ishtirokida esa tezlashadi.


Polimer erkin radikallar mexanizmi asosida oksidlanadi, ya'ni u — bir-biriga uzviy bog'langan zanjirdir. Osonlik bilan radikal hosil qiluvchi moddalar hamda valentligi o'zgaruvchi metallar ishtirokida

oksidlanish tezligi ortadi. Oksidlanish destruktasiyasini to'xtatish yoki sekinlashtirish uchun ingibitor moddalar ishlataladi. Ingibitorlar polimerlarda hosil bo'lgan radikallar bilan birikib, zanjir reaksiyani to'xtatadi. Bunday moddalar kauchuklar uchun ko'p ishlataladi. Oksidlanish destruktasiyasini erkin radikalli uch bosqichdan: faol markazlar hosil bo'lishi, zanjirning o'sishi va zanjirning uzilishidan iborat. Oksidlanish vaqtida molekulada peroksid guruhlar hosil bo'ladi.





Quyida to'yinmagan ba'zi polimerlardagi oksidlanish destruktasiyasining sxemasi ko'rsatilgan. Agar kislorod polimerning to'yinmagan bog'iga biriksa, gidroperoksid hosil bo'ladi:




Oksidlovchi kislorod to'yinmagan bog'ga nisbatan a — vaziyatda turgan metilen guruhiga ham birikishi mumkin:




To'yinmagan polimerlarning oksidlanishida erkin radikal hosil bo'lish sxemasi quyidagicha ifodalanadi:




Agar polimer tarkibida harakatchan atomlar bo'lsa, peroksid guruhlar tez hosil bo'ladi. Masalan, polistirolorda oksidlanishning birinchi bosqichdayoq gidroperoksid guruhlar vujudga keladi:




Gidroperoksid esa parchalanib, radikallar hosil qiladi:



Bunday parchalanish natijasida makromolekula destruktsiyalanishi mumkin:



Oksidlanish destruktsiyasida reaksiya zanjiri radikallarning rekombinatsiyasi natijasida uziladi, bunda makromolekula boshlang'ich strukturasi o'zgaradi. Radikallar rekombinatsiyasi sxemasini quyidagicha ifodalash mumkin:



Oksidlanish destruktsiyasi vaqtida polimerning molekular og'irligi kamayishi bilan bir qatorda, kimyoviy tarkibi ham o'zgaradi, chunki uning tarkibida peroksid, karboksil, karbonil va boshqa funksional guruhlar paydo bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinish turibdiki, polimerlarning oksidlanish destruktsiyasi juda murakkab jarayondir. Shuning uchun

har xil karbozanjirli va geterozanjirli polimerlarning oksidlanish destruktsiyasi mexanizmi bir-biridan farqlanadi.

**Fizik ta'sir ostida destruktsiyalanish.** Bunda destruktsiyalar polimerlarga yorug'lik energiyasi, radioaktiv nurlar, issiqlik va mexanik energiyalar ta'sirida sodir bo'ladi. Lekin fizik ta'sirlar natijasida sodir bo'ladigan destruktsiyaning mexanizmi juda murakkab bo'lib, haligacha yaxshi o'rganilgan emas, chunki makromolekulalar o'zaro yoki boshqa molekulalar bilan tezda birika oladi, natijada moddada yangi bog'lar hosil bo'lib, moddaning kimyoviy tarkibi va strukturasi butunlay o'zgarib ketadi. Ba'zan, destruktsiya jarayoni yordamida polimerning faqat molekular og'irligini kamaytirish ham mumkin. Fizik ta'sirlar natijasida sodir bo'ladigan destruktsiyalar orasida fotokimyoviy destruktsiyani o'rganish ko'proq ahamiyatga ega, chunki polimerlar ishlatish vaqtida doimo destruktsiyalanib, ularda eskirish jarayoni boradi.

Fotokimyoviy destruktsiya polimerga ta'sir etuvchi nuring to'lqin uzunligi, initsiator va ingibitorlarning mavjudligi va makromolekulalarning tabiatiga bog'liq. Masalan, 150°C haroratda ultrabinafsha nurlar ta'sirida polizopren parchalanib, izoprenga aylanadi. Polietilen ochiq havoda 2-3 yil davomida eskiradi.

Destruksiya jarayoni radioktiv nurlar ta'sirida yorug'lik nurlari ta'sir etgandagiga qaraganda ancha shiddatli kechadi.

Radioktiv nurlar ta'sirida ba'zi polimerlar to'rsimon holatga o'tsa, ba'zilari destruktsiyalanadi. Bu hodisa polimerning tabiatiga bog'liqdir. Masalan, polietilen polipropilen, polistirol, poliakrilatlar, polivinilxlorid, polivinil spirt, kauchuklar, poliamidlar, polisilosan kabi polimerlar radioktiv nurlar ta'sirida to'rsimon holatga o'tadi. Poliizobutilen, polimetakrilat, polivinilidenxlorid va selluloza kabi polimerlar esa destruktsiyalanadi. Tarkibida benzol yadrolari bo'lgan polimerlar — nurlarga boshqa polimerlardan ko'ra chidamliroq bo'ladi. Radioktiv nurlar ta'sirida boradigan destruktsiya jarayoni havodagi nam, kislород, kislotalar, tuzlar, ishqorlar kabi radikal yoki ionlarga parchalanuvchi past molekular moddalar ta'sirida tezlashadi. So'nggi vaqlarda atom energiyasidan tinchlik maqsadida foydalanish sohasida ishlar olib borilmoqda. Shu maqsadda stirol va uning sopolimerlari radioktiv nurlardan himoya qiluvchi har xil qurilmalarda ishlatilmoqda. Sanoatda polimerlardan har xil buyumlar tayyorlash va ularni ishlatishda mexanik-kimyoviy jarayonlar ham muhim rol o'yaydi. Polimerlarni plastifikatsiyalash, maydalash, tez

aralashirish kabi hodisalar mexanik-kimyoviy jarayonlar jumlasidandir.

Polimerlardan foydalanish jarayonida ular ko'pgina qayta deformatsiyalarga uchraydi, bu vaqtdagi destruktsiya hodisasi ham mexanik-kimyoviy jarayonning bir turidir. Mexanik kuch ta'siri makromolekulalar parchalanib, radikallar hosil bo'ladi. Bunday makroradikallar zanjir reaksiyaning boshlanishiga sabab bo'ladi, ular boshqa makromolekulalar bilan reaksiyaga kirishadi. Endi polimerlarning issiqlik ta'sirida bo'ladiqan destruktsiyasini ko'rib chiqamiz. Barcha polimerlar ma'lum haroratgacha o'z xossalarini o'zgartirmaydi. Lekin juda yuqori haroratda polimerlar barqarorligini yo'qotadi, ya'ni parchalanib, makroradikallarga va past molekular moddalarga aylanadi.

Polimerlarning issiqlik ta'sirida destruktsiyalanish jarayoni ham erkin radikal mexanizm asosida boradi va zanjir reaksiyalar turiga kiradi. Masalan, azo va diazobirikmalar kauchuklarning issiqlik ta'sirida destruktsiyalanishni tezlatadi. Kauchuklarning suyultirilgan eritmalarini bunday moddalar ishtirokida isitilsa, faqat destruktsiya hodisasi bo'ladi. Agar eritmada kauchukning konsentratsiyasi oshsa, makromolekulalar to'rsimon holatga kelib, eritma gel holatiga o'tadi.

Ba'zi polimerlar issiqlik ta'sirida parchalanib, boshlang'ich monomer moddalarga aylanadi. Polimerlarning bu xossasi makromolekulaning strukturasi va tabiatiga bog'liqidir.

Masalan, polistirol 300°C gacha qizdirilsa, undan 65 % stirol, polimetilmetakrilatdan esa 95 % metilmekrilat olish mumkin. Geterozanjirli polimerlar qizdirilganda juda murakkab destruktsiya jarayonlari sodir bo'lishi mumkin.

Masalan, naylon 300°C dan yuqori haroratgacha qizdirilsa, uning molekular og'irligi tez kamayib, metan, etan, propan, butan, etilen, butilen va siklopantanon kabi moddalar ajralib chiqadi. Hozirda bunday destruktsiyalarni o'rghanishga katta ahamiyat berilmoqda, chunki ularning mexanizmini o'rghanish, polimerlardan sanoatda va turmushda foydalanish jarayonida ularning eskirishini oldini olish mumkin.

## POLIELEKTROLITLAR

Qutblangan muhitda elektr zaryadlari tashish xossasi bo'lgan polimerlar polielektrolitlar deyiladi. Ulardagi elektr zaryadi

makromolekula tarkibidagi funksional guruhlarning elektrolitik dissotsiyalanishi natijasida sodir bo'ladi.

Demak, polielektrolitlar molekular og'irligi katta bo'lganligidan, bir tomondan, polimer xossalari namoyon qilsa, ikkinchi tomondan, tarkibidagi funksional guruhlarning dissotsiyalanishi tufayli past molekular kislota — asos va tuzning xossalarni namoyon qiladi.

Polielektrolitlarni kelib chiqishiga ko'ra ikki katta guruh: tabiiy polielektrolitlar guruhi bilan sintetik polielektrolitlar guruhiga bo'lish mumkin.

Ikkala guruh polielektrolitlarda, o'z navbatida kislota va asos xossalari bo'lishi mumkin. Tabiiy va sintetik polielektrolitlar makromolekulalarning shakllariga qarab, chiziqli va to'rsimon holatda bo'ladi. Barcha tabiiy va sintetik polielektrolitlar orasida poliamfolitlar alohida o'rinn tutadi. Bunday polielektrolitlarning molekulalari tarkibida kislota va asos xossalari ega har xil funksional guruhlar bo'ladi.

Bunday makromolekulalarning ba'zi clementar bo'g'inalrida asos, ba'zilarida esa kislota xossalari bor guruhlar mavjuddir. Poliamfolitlar eritmadagi vodorod ko'rsatkichi ( $rN$ ) ning qiymatiga qarab, manfiy yoki musbat zaryadlangan bo'ladi. Ba'zan, makromolekuladagi manfiy zaryadlar miqdori musbat zaryadlar miqdoriga nisbatan ko'p bo'ladi.

Makromolekulasi tarkibidagi funksional guruhlarning dissotsiyalanish darajasiga qarab, polielektrolitlar kuchli va kuchsiz polimer kislota hamda kuchli va kuchsiz polimer ishqor xossalarni namoyon qiladi.

**Tabiiy polielektrolitlar.** Barcha o'simlik va hayvonlarda uchraydigan polielektrolitlar, ya'ni biologik polimerlar tarkibida makromolekulaga kislota yoki asos xossalari baxsh etuvchi funksional guruhlar bo'ladi.

Sanoat va turmushda ahamiyati katta bo'lgan oqsil nuklein kislotalar, fermentlar, pektinlar, xitin, geparin, selluloza, kraxmal, lignin kabi biologik polimerlarning hammasi tabiiy polielektrolit moddalarini jumlasidandir.

Bu moddalardan ko'plarining makromolekulalari tarkibida asos va kislota xossalari bor har xil funksional guruhlar bo'lganligidan organizm uchun ularning ahamiyati g'oyat kattadir.

Ularning ko'pchiligi o'simliklar tarkibida uchraydi va sanoatda juda ko'p ishlataladi. Hozir oqsil nuklein kislotalar kabi polielektrolitlar sohasida faqat ximiklar va bioximiklar emas, balki fiziklar, matematiklar va boshqa mutaxassislar ham ish olib bormoqdalar, chunki

polielektrolitlar organizmdagi har xil murakkab jarayonlarda faol ishtirok etadi. Shuning uchun ular organizmlarda sodir bo'ladigan tabiiy elektrolitlarning vakillarini alohida-alohida ko'rib chiqish zarurati bo'limganligidan, sintetik polielektrolitlar va ularning xossalari ustida to'xtalib o'tamiz.

**Sintetik polielektrolitlar.** Tarkibida kislota va ishqor xossalni funksional guruhlar bor monomerlarni polimerlash yo'li bilan sintetik polielektrolitlar olingan. Tarkibida kislota va ishqor xususiyatiga ega guruhlar ko'p bo'lgan polielektrolitlar muhim ahamiyatga egadir. Polielektrolit molekulalari chiziqli biologiyada, meditsinada, qishloq xo'jaligida rudani boyitish sanoatida va boshqa maqsadlarda ko'p ishlatiladi.

Chiziqli polielektrolitlarning asosiy xossalardan biri, ularning suvda eruvchanligidir. Bu hol chiziqli polielektrolitlarni suvli sharoitda ishlatishga imkon bermaydi. Odatda makromolekulalari to'rsimon bo'lgan polielektrolitlar yoki ionitlar texnikada katta ahamiyatga ega. Bunday polielektrolitlar tarkibida ion almashtiruvchi kislota yoki asos xossali guruhlar bo'ladi, bu polielektrolitlar hech qanday erituvchida erimaydi. Polielektrolit molekulalarini to'rsimon holatga o'tkazish uchun ularga ko'p funksiyali past molekular moddalar bilan ishlov berish kerak. Ba'zan polielektrolitlarni sintez qilishda ularga divinil benzol kabi polifunksional moddalar qo'shiladi, natijada, makromolekulalar to'rsimon holatga o'tadi. Makromolekulalar orasidagi ko'ndalang bog'lar soniga qarab, polielektrolitlar erituvchilarda bo'kish xususiyatiga ega bo'la oladi va selektiv adsorbentlar tarzida ishlatiladi. Bunday ionitlar zaryadlariga qarab anionit va kationitlarga bo'linadi.

Anionitlarda polimerlar makroaktion holatida bo'lib, past molekular anionlarni biriktirib oladi. Kationitlarda esa polimerlar makroanion holda bo'ladi va past molekular kationlarni biriktirib oladi.

Kationlarning sxemasini quyidagicha tasvirlash mumkin:

R-An-H<sup>+</sup> yoki tuz forma R-An-Kt<sup>+</sup>


bu sxemada: R — polielektrolitning elementar bo'g'ini.

Anionitlarning sxemasi quyidagicha yozish mumkin:

R-Kt<sup>+</sup>-OH va R-Kt<sup>+</sup>-An<sup>-</sup>

Ionitlar suvda bo'kadi, bunda ular tarkibidagi guruhlar dissotsiyalanadi.


Kation almashinish jarayoni quyidagicha ifodalanadi:  
sulfoguruhli kationitda:



H-formada

tuz formada

karboksil guruhli kationitda:




H-formada

tuz formada

Tuz formadagi kationitda ham bir kation ikkinchi kationga almashadi:



Anion almashinish jarayoni quyidagicha ifodalanadi:



OH-formada

Cl-formada



Cl-formada

OH-formada

Tarkibidagi ion almashtiruvchi guruhlarning dissotsiyalanish darajasiga qarab, polielektrolitlar kuchli va kuchsiz bo'ldi.

Masalan, tarkibidagi kationlarini ishqoriy neytral va kislotali muhitlarda almashtira oluvchi kationlar kuchli bo'ldi. Bunday kationlar jumlasiga tarkibida sulfat va fosfor kislotaning kislot qoldiglari bo'lgan polielektrolitlar kiradi.

Tarkibidagi vodorod ionlarini faqat ishqoriy muhitda boshqa ionlarga almashtira oluvchi kationlar kuchsiz bo'ldi. Bunday kationlarda karboksil va fenol guruhlar bo'lishi mumkin.

Kuchli ishqoriy anionitlar gidrosil guruhlarini har qanday muhitda boshqa anionga almashtira oladi. Bular jumlasiga tarkibida to'rtlamchi ammoniy guruhlari bo'lgan anionitlar kiradi. Tarkibida birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi amin guruhlar va pridin asoslari bo'lgan anionitlar kuchsiz ionitlardir. Ionitlarning kuchi ularning sig'imi, ya'ni qancha miqdorda ionlar almashtira olishiga qarab belgilanadi. Ularning sig'imi 1 g quruq ionit biriktira oluvchi ionlarning mg — ekvivalent miqdori bilan o'lchanadi.

Ion almashtirish so'nggi 10-15 yil mobaynida sanoatning ko'pgina sohalarida ishlatalmoqda. Masalan, ion almashtiruvchi smolalar yordamida eritma va rudalardagi qimmatbaho elementlarning (uran, oltin, kumush va boshqalarning) konsentratsiyasi oshiriladi.

Ion almashtiruvchi smolalar vositasida sho'r suvlarni mutlaqo tuzsiz holatga keltirish qishloq xo'jaligi oldida turgan birlamchi vazifalardandir.

Ion almashtiruvchi smolalar yordamida medisinada dori-darmonni ham tozalash mumkin. Har xil alkoloid va antibiotiklarni (pensillin, streptomzin va boshqalar) ko'plab ishlab chiqarilishi ham ana shu smolalar yordamida yo'lga qo'yiladi.

Gidroliz sanoatida ion almashtiruvchi smolalar yordamida gidrolizlarni organik qo'shimchalaridan tez tozalash mumkin.

## VAZIFALAR

### 1-vazifa. Polietilenni xlorlash

Reaktiv va asboblar: polietilen (mol. og'. 1600-2000) (20 g), xlor (ballonda), ksilol (200 ml); uzunligi 500 mm, diametri 60 mm, barbaterli shisha nay bilan jihozlangan reaktor (1 dona), areometr (1 dona), 150 vattli simob lampasi (1 dona), suv hammomi (1 dona).

Reaktorga (39-rasm) 20 g polietilen va 200 ml ksilol solinadi. So'ngra aralashma suv hammomida suspenziya hosil bo'lguncha isitiladi. Shundan keyin suv hammomida 60°C gacha isitilib, naydagi barbaterdan xlor o'tkaziladi. Xlorning tezligi minutiga 500  $\text{sm}^3$  bo'lishi kerak. Bu vaqtida nay simob lampasi orqali yoritiladi. 3-4 soat o'tgach naydagi eritmaning qancha og'irlashganligi aniqlanadi. Eritma solingan nayning og'irligi 15-20 % ortgandan keyin xlor o'tkazish to'xtatilib, eritmada birikmay qolgan xlor va xlorid kislotani chiqarib yuborish uchun undagi xlor o'mniga azot yoki havo o'tkaziladi. Tayyor bo'lgan polimer dekantatsiya usulida ajratib olinib, spirt bilan yuviladi va quritiladi.

1 - topshiriq. Xlorlangan polimerning miqdori hisoblab topilsin va undagi miqdori Karius usulida aniqlansin.

2 - topshiriq. Polietilen va uning xlorlangan hosilasining yumshash harorati aniqlansin.

3 - topshiriq. Polietilen va uning xlorlangan hosilalari pardalari hosil qilib, ularning uzilish mustahkamligi, nisbiy cho'zilishi va rekristallanish kuchi aniqlansin.

### 2-vazifa. Polivinilxloridni xlorlash

Reaktiv va asboblar: polivinilxlorid (20 g), xlor (ballonda), tetraxloretan yoki xlorbenzol (250 ml); uzunligi 600 mm, diametri 50



39-rasm.  
Polimerlarni  
xlorlash asbobi

mm, barbaterli shisha nay bilan jihozlangan reaktor (1 dona), reometr (1 dona), Byuxner voronkasi (1 dona), suv hammomi (1 dona), 150 vattli simobli lampasi (1 dona).

Reaktorga 20 g polivinilxlorid solinib, 250 ml tetraxloretan yoki xlorbenzolda eritiladi. Naydagi barbater orqali eritmadan 1 soat davomida xlor o'tkaziladi. So'ngra reaksiya ketayotgan aralashma harorati 80°C gacha chiqariladi-da, simob lampasi bilan yoritilib, xlor o'tkazish davom ettiriladi. Eritmaning og'irligi 10-15 % ortgandan keyin xlor o'tkazish to'xtatiladi va eritmadan havo o'tkazilib, u xlor va xlorid kislotadan tozalanadi. So'ngra hosil bo'lgan eritma spirit solingen idishga quyiladi, quyish vaqtida suyuqlik aralashtirilib turiladi. Hosil bo'lgan kukunsimon polimer Byuxner voronkasida filtrlab olinadi va metanol bilan yaxshilab yuviladi. Yuvilib bo'lganligini bilish uchun oxirgi yuvindi olinib, uning ustiga 3 hissa distillangan suv qo'shiladi. Shunda metanol loyqalanmasa, demak, polimer toza bo'ladi. Yuvilgan, xlorlangan polivinilxlorid vakuum ostida quritiladi.

1 - topshiriq. Xlorlangan polimerning miqdori hisoblab topilsin va undagi xlor miqdori Karius yoki Schiff usulida aniqlansin.

2 - topshiriq. Boshlang'ich va xlorlangan polimerning eruvchanligi aniqlansin.

3 - topshiriq. Xlorlangan polivinilxlorid taxminiy formulasi yozilsin.

4 - topshiriq. Boshlang'ich va xlorlangan polivinilxloridning 0,2 % li eritmasi qovushoqligi aniqlansin.

### **3-vazifa. Polivinilasetatdan gidrolizlash yo'li bilan polivinil spirit olish (ishqoriy usul)**

Reaktiv va asboblar: polivinilasetatning spirtdagi 30 % li eritmasi (50 g), etil yoki metil spirit (500 ml), ishqorning spirtdagi eritmasi (11,25 g kaliy gidroksid va 100 ml spirtdan iborat eritma); qorgich va tomchilatma voronka bilan jihozlangan, 500 ml sig'imli stakan (1 dona), Byuxner voronkasi (1 dona).

Stakanga 11,25 g kaliy gidroksidning 100 ml spirtdagi eritmasi quyiladi. Eritma yaxshilab aralashtirilib, unga tomchilatma voronkadagi polivinilasetatning 30% li eritmasidan 50 g qo'shiladi. Shu vaqtda polivinil spirit sekin-asta cho'ka boshlaydi. Reaksiya uzog'i bilan 2-3 soat davom etadi. Polivinil spirit cho'kmasi Byuxner voronkasida filtrlab olinadi va spirit bilan neytrallanguncha bir necha marta yuviladi. Hosil qilingan polimer vakuumda 30-40°C da quritiladi.

1-topshiriq. Hosil bo'lgan polivinil spirtning miqdori aniqlansin.

2-topshiriq. Polimerdag'i gidroksil guruhning soni Verley usulida aniqlansin.

3-topshiriq. Reaksiya tenglamasi yozilsin.

#### **4-vazifa. Polivinilasetatdan gidrolizlash yo'li bilan polivinil spirt olish (kislotali usul)**

Reaktiv va asboblar: polivinilasetat (15 g) yoki polivinilasetatning spirtdagi 15 % li eritmasi (100 g), etil spirt (85 ml), sulfat kislota eritmasi (5 g sulfat kislota va 20 ml spirtdan iborat eritma): uch og'izli, 250 ml sig'imli qorgich, qaytarma, sovtgich va termometr bilan jihozlangan reaksiyon kolba (1 dona), suv hammomi (1 dona), Byuxner voronkasi (1 dona).

Reaksiyon kolbag'a 15 g polivinilasetat va 85 ml spirt solinadi-da suv hammomida polimer eriguncha isitiladi. Eritmaning ustiga 5 g sulfat kislotaning 20 ml spirtdagi eritmasi quyiladi. So'ngra eritma doimo aralashtirilib turilib (qorgich minutiga 300 - 400 marta tezlik bilan aylanishi kerak), suv hammomida 60°C da quritiladi. Agar polimer cho'kmay gel holida bo'lib qolsa, u suvda eritilib, issiq holda etil spirt yordami bilan qayta cho'ktirilib olinadi.

1 - topshiriq. Reaksiya chizmasi yozilsin.

2 - topshiriq. Chiqqan polivinil spirtning miqdori aniqlansin.

3 - topshiriq. Polimerdag'i gidroksil soni Verley usulida aniqlansin.

#### **5-vazifa. Polivinil spirtni butilaldegid bilan asetallab polivinibutiral hosil qilish**

Reaktiv va asboblar: yangi tayyorlangan polivinil spirt (44 g), butilaldegid (22 g), oksalat kislota (3 g), geptan (yoki qaynash harorati 98-100°C bo'lgan benzin) 250ml; to'rt og'izli, 500 ml sig'imli, qorgich termometr, qaytarma sovtgich, Din va Stark tutgichi bilan jihozlangan reaksiyon kolba (1 dona), suv hammomi (1 dona), Byuxner voronkasi (1 dona).

Reaksiyon kolbag'a 44 g polivinil spirt, 22 g butilaldegid, 3 g oksalat kislota va 250 ml geptan (yoki aromatik birikmali bo'lmagan yengil benzin) solinadi. Aralashmani suv hammomida qaynaguncha astasekin isitiladi. Isitish tutgichga suv tushishi to'xtaguncha davom ettiriladi. So'ngra aralashma sovutiladi, cho'kma holida ajralib chiqqan polivinibutiral Byuxner voronkasida yuviladi. Tozalangan polimer 40°C da vakumda quritiladi.

- 1 - topshiriq. Reaksiyaning chizmasi yozilsin.
- 2 - topshiriq. Polimerning organik erituvchilarda eruvchanligi aniqlansin.
- 3 - topshiriq. Polimer tarkibidagi butiral guruuhlar soni aniqlansin.

**6-vazifa. Polivinil spirtni sirkal aldegid bilan formaldegid aralashmasi yordamida asetallab, polivinilasetalformal hosil qilish**

Reaktiv va asboblar: yangi tayyorlangan spirt (25 g), metanol (150 ml), sulfat kislota ( $d = 1,48 \text{ g/sm}^3$ ) (0,25 g), sirkal aldegid (10 g), formaldegid (10 g); uch og'izli, 500 ml sig'imli qorgich, qaytarma sovutgich va tomchilatma voronka bilan jihozlangan reaksiyon kolba (1 dona), suv hammomi (1 dona),  $100^\circ\text{C}$  li termometr (1 dona).

Reaksiyon kolbagacha 25 g polivinil spirt, 150 ml metanol, 0,25 g sulfat kislota, 10 g formaldegid va 10 g sirkal aldegid solinadi. Aralashma suv hammomida 7 soat davomida  $60^\circ\text{C}$  gacha isitiladi. Eritma tez aralashtirib turilib, hosil bo'lgan polimer suv qo'shish yo'li bilan cho'ktiriladi, so'ngra oldin suv bilan keyin sodaning 10 % li eritmasi va oxirida yana suv bilan neytrallanguncha yuviladi. Tozalangan polimer vakuum shkafda  $40^\circ\text{C}$  da quritiladi.

1-topshiriq. Polivinilasetalformalning organik erituvchilarda eruvchanligi aniqlansin.

2-topshiriq. Polimer tarkibidagi gidroksil guruuhlar soni aniqlansin.

3-topshiriq. Polimerning gidrolizlanish koeffitsiyenti aniqlansin.

**7 - vazifa. Sirkal angidrid yordamida polivinil spirtning esirini hosil qilish**

Reaktiv va asboblar: polivinil spirt (15 g), sirkal angidrid (90-115 g), natriy asetat (suvsiz) (15 g); 250 ml hajmli, qaytarma sovutgich bilan jihozlangan yumaloq tubli kolba (1 dona), suv hammomi (1 dona), sig'imi 500 ml stakan (1 dona).

Kolbagacha 15 g polivinil spirt, 90-115 g sirkal angidrid va 15 g suvsiz natriy asetat solinadi. Kolbadagi aralashma oldin suv hammomida 1-1,5 soat isitiladi. So'ngra asbest qog'oz ustiga quyilib, ochiq alangada polimer suyuqlanguncha qizdiriladi. Olingan polivinilasetat eritmasi aralashtirilib, issiq suv solingan stakanga quyiladi. Shundan keyin, hosil bo'lgan qovushoq massa issiq suvda yuviladi. Suv neytrallanguncha yuvish davom ettiriladi. Yuvib bo'lingan polimer vakuum — shkafda  $70^\circ\text{C}$  da, og'irligi o'zgarmay qolguncha quritiladi.

1-topshiriq. Hosil bo'lgan polimerdag'i asetat guruhlarning foizi aniqlansin.

2-topshiriq. Boshlang'ich polimer va hosil qilingan polivinilasetatning molekular og'irligi va polimerlanish darajasi osmotik bosimni o'chash yo'li bilan topilsin.

#### **8-vazifa. Kauchuklarning monoxloroltingugurt ta'sirida vulqonlanishi**

Reaktiv va asboblar: pylonka tarzidagi kauchuk (2 g), monoxloroltingugurtning efirdagi 5% li eritmasi (100 ml), efir (300 ml), 250 ml sig'imli, og'zi qopqoqli kolba (1 dona), Byuxner voronkasi (1 dona).

Kolbaga pylonka tarzidagi kauchukdan 2 g solinadi-da, uning ustiga monoxlooltingugurtning efiridagi 5 % li eritmasidan 100 ml quyiladi. So'ngra kolbaning og'zi yopilib, aralashma uy haroratida 1 soat saqlanadi. Eritmadagi pylonka Byuxner voronkasiga olinib, oldin efir, so'ngra esa suv bilan yaxshilab yuviladi. Olingan kauchuk pylonkasi vakuum shkafda 40-50°C da quritiladi.

1-topshiriq. Vulkanlanmagan va vulkanlangan kauchuk namunalarining nisbiy va plastik cho'zilishi aniqlansin.


2-topshiriq. Reaksiyaning sxemasi yozilsin.

#### **9-vazifa. Polistirolni parchalab, stirol hosil qilish**

Reaktiv va asboblar: polistirol (25 g), hidroxinon (0.2 g), 100 ml sig'imli sovutgich va termometr bilan jihozlangan vakuum distillatsion kolba (1 dona). Distillatsion kolbaga maydalangan polistirolдан 25 g solinadi-da, sovutgichdan suv o'tkazib qo'yiladi (40-rasm). So'ngra kolba gaz gorelkasi alangasida bir tekis qizdiriladi. Bu vaqtida kolbadagi polistirol yumshay boshlaydi. Taxminan 350°C atrofida polistirol parchalana boshlaydi. Kolbada hosil bo'lgan stirol bug'lanib, sovutgichning ikkinchi uchidagi yig'gich menzurkaga o'tadi. Stirolni haydab olish kolbada 3-4 g polistirol qolguncha davom ettiriladi. Stirol oldin 145-155°C da haydaladi. Odatda, reaksiya uchun olingan 25 g polistirolдан 20 g chamasi stirol hosil bo'ladi. So'ngra yig'gich menzurkadan 20 g chamasi stirol tozalangan distillatsion kolbaga solinib, vakuumda qaytadan haydaladi.

1-topshiriq. Hosil bo'lgan stirolning miqdori aniqlansin.

2-topshiriq. Polistirolning parchalanish reaksiyasining tenglamasi yozilsin.



**40-rasm. Sovutgich va termometr bilan jihozlangan distillatsion kolba**

#### **10-vazifa. Polimetilmekrilatni parchalab, metilmekrilat hosil qilish**

Reaktiv va asboblar: polimetilmekrilat (25 g), hidroxinon (0,1 g), 100 ml sig'imli sovutgich va termometr bilan jihozlangan vakuum, distillatsion kolba (1 dona).

Distillatsion kolbag'a 25 g polimetilmekrilat solinadi-da, sovutgichdan suv o'tkazib quyiladi. So'ngra kolba gaz gorelkasi alangasida bir tekisda qizdiriladi.

Taxminan 300°C atrofida kolbadagi polimer yumshaydi va parchalanib, metilmekrilat hosil qiladi, hosil bo'layotgan metilmekrilat esa sovutgichning ikkinchi uchidagi kolbag'a yig'iladi. Polimetilmekrilatni haydash to kolba ostida 3-4 g yuqori smola qolguncha davom ettiriladi. So'ngra u distillatsion kolbag'a solinib, 100-110°C da qaytadan haydar olinadi. Olingan 25 g polimerdan odatda 20 g atrofida monomer chiqadi.

- 1 - topshiriq. Hosil bo'lgan metilmekrilatning miqdori aniqlansin.
- 2 - topshiriq. Polimetekrilatning parchalanib metilmekrilat hosil qilish reaksiyasining tenglamasi yozilsin.

#### **11- vazifa. Novoloklardan foydalanib, kationit hosil qilish**

Reaktiv va asboblar: molekular og'irligi 300-500 bo'lgan novolak smolası (10 g), 95% li sulfat kislota (20 g), formalin (30 ml), natriy gidroksidning 1 n li eritmasi (100 ml), xlorid kislotaning 1 n li eritmasi

(100 ml); uch og'izli, 250 ml sig'imli, qaytarma sovutgich, tomchilatma voronka, qorgich bilan jihozlangan reaksiyon kolba (1 dona), yog' hammomi (1 dona), chinni tovoqcha (1 dona), chinni hovoncha (1 dona).

Reaksiyon kolbagi molekular og'irligi 300-500 bo'lgan novolak smolasidan 10 g solinadi. Novolak smolasi maydalangan bo'lishi kerak. Kolba sovutilib, unga tomchilatma voronka vositasida 95 % li sulfat kislotadan 20 g qo'shiladi-da, aralashtirilib turilib, yog' hammomida 130°C gacha isitiladi. Bu vaqtida smola kislotada batamom erib ketadi, hosil bo'lgan sulfosmola esa suvda eriydi. Kolbadagi eritma uy haroraticha sovutilib, unga distillangan suvdan 10 ml qo'shiladi va yaxshilab aralashtiriladi.

Kolba sovugandan keyin eritmaga 30 ml formalin qo'shiladi-da, u aralashtirilib turiladi. So'ngra kolbadagi aralashma chinni tovoqchaga solinib, termostatga joylashtiriladi. Termostat asta-sekin isitilib, harorat oldin 70°C ga keyin esa 100°C ga ko'tariladi. Eritma shu haroratda 2-3 soat saqlanadi. Natijada qattiq smola parchasi hosil bo'ladi. U tovoqchadan olinib, chinni hovonchada maydalanadi va suv bilan yuvilib, sulfat kislotadan tozalanadi. Shundan keyin smola natriy gidroksidning 1 n li eritmasidan 100 millilitriga solinib, 24 soat saqlanadi. Bu vaqtida kationit tarkibidagi eruvchan fenol eritmaga o'tib ketadi. 24 soatdan keyin kationit xlorid kislotaning 1 n li eritmasi bilan chayiladi va suv bilan neytrallanguncha yuviladi. Kukun holidagi kationit smola uy haroratida og'irligi o'zgarmay qolguncha qurililadi.

1 - topshiriq. Kationit smolaning hajmiy sig'imi aniqlansin.

2 - topshiriq. Hosil bo'lgan kationitning miqdori aniqlansin.

## 12 - vazifa. Polistioldan foydalanib, kationit hosil qilish

Reaktiv va asboblar: molekular og'irligi 50000 bo'lgan polistirol (10 g), 92 % li sulfat kislotasi (20 g), formalin (30 ml); uch og'izli, 250 ml sig'imli qaytarma sovutgich, qorgich va tomchilatma voronka bilan jihozlangan reaksiyon kolba (1 dona), yog' hammomi (1 dona), chinni tovoqcha (1 dona), chinni hovoncha (1 dona).

Reaksiyon kolbagi molekular og'irligi 50000 bo'lgan polistioldan 10 g solinadi. Kolba og'zidagi tomchilatma voronkaga 92 % li sulfat kislotadan 90 g quyiladi. So'ngra kolba sovutilib, unga tomchilatma voronkadagi sulfat kislotasi tomiziladi. Bu vaqtida kolbadagi moddalarni aralashtirib turish kerak. Kislotasi quyib bo'lgandan keyin aralashma yog' hammomida 210°C gacha qizdiriladi. Sulfostirol ko'pirib

ketmasligi uchun kolbani asta-sekin qizdirish kerak. Bu vaqtda polistirol butunlay erib ketadi. Shundan keyin aralashmani uy haroraticha sovutib, unga 30 ml formalin qo'shiladi. Aralashma chinni tovoqchaga solinib, 160°C li termostatda 4-6 soat saqlanadi. Natijada bir bo'lak qattiq smola hosil bo'ladi. Smola chinni hovonchada maydalanimi-da, sulfat kislota yo'qolguncha suv bilan yaxshilab yuviladi. So'ngra smola 100-110°C da og'irligi o'zgarmay qolguncha quritiladi va analiz qilinadi.

1-topshiriq. Hosil bo'lgan kationit smolaning miqdori aniqlansin.

2-topshiriq. Kationitning hajmiy sig'imi aniqlansin.

**Kationitlarning hajmiy sig'imi aniqlash.** 500 ml sig'imli stakanga natriy gidroksidning 0,1 n li eritmasidan 200 ml va ion almashtiruvchi smoladan 1 g solinadi. Aralashma uy haroratida 24 soat saqlanadi.

Bu vaqtda ba'zan aralashmani chayqatib qo'yish kerak. So'ngra stakandagi ishqor eritmasidan pipetka bilan 25 ml olinadi (smola stakan ostida qolishi kerak).

25 ml eritma konussimon kolbaga solinib, indikator ishtirokida xlorid kislotaning 0,1 n li eritmasi bilan neytrallanadi. Smolaning hajmiy sig'imi quyidagi formulada hisoblab topiladi:

$$(a-b) \cdot n \cdot V$$

$$x = \frac{a-b}{g} \cdot n \cdot V \cdot mg/ekv/g$$

bu formulada:

A — stakandan titrlash uchun olingan natriy gidroksid miqdori (bu tajribada 25 ml) ml hisobida.

b — natriy gidroksidni neytrallashga sarf bo'lgan xlorid kislota miqdori, ml hisobida.

n — stakandagi natriy gidroksidning konsentratsiyasi (bu tajribada 0,1 n li).

v — natriy gidroksid eritmasining umumiy hajmi, ml hisobida.

g — tajriba uchun olingan smola miqdori, g hisobida.

### SELLULOZA VA UNING HOSILALARI

Tabiiy yuqori molekular moddalar orasida glukozaning chiziqli polimeri bo'lgan selluloza alohida o'rın tutadi. Tabiiy organik moddalarning hammasi ichida miqdor jihatidan eng ko'pi sellulozadir, u yer yuzidagi barcha o'simlik hujayralarining asosiy qismini tashkil etadi. selluloza daraxt va boshqa o'simliklarda boshqa moddalar bilan birga uchraydi va ularning tarkibiini 60 foyizini tashkil etadi. Sellulozaning eng tozasi paxta tolasida bo'lib, tolaning 96 % va undan ortiq qismini tashkil etadi. Tarkibida ko'p miqdorda selluloza bo'lgan barcha o'simliklar xalq xo'jaligida katta ahamiyatga ega. Ulardan kanop, jut, zig'ir kabi o'simliklar ham texnikada ko'p ishlataladi. Texnikada sellulozaga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda, hozirgi vaqtida butun dunyoda yiliga 60 mln. tonnaga yaqin selluloza ishlab chiqarilmoqda. Asosan daraxtlarni, qisman esa qamish, poxol, somon va boshqalarni qaynatish usulida ajratib olinayotgan selluloza butun yer yuzida chiqarilayotgan sellulozaning qariyb 70 foizini tashkil etadi. Ishlab chiqarilgan sellulozaning asosiy qismi kimyoviy jihatdan o'zgartirilmay, qog'oz va tola ishlab chiqarishga sarflanadi. Lekin uning ozgina qismi kimyoviy usullarda har xil plastmassalar, bo'yoqlar, plyonkalar va su'niy tolalar tayyorlashda ishlatalidi.


Hozirgi vaqtida selluloza kimyoviy usullari o'zgartirilib, yangi polimer moddalar hosil qilish keng rivojlanmoqda.

**Sellulozaning kimyoviy tuzilishi.** Butun dunyo olimlari selluloza molekulasini 100 yil davomida tekshirib, uning tuzilishiga oid bir necha masalani hal qildilar. Uning tuzilishini aniqlash uchun quyidagilarni:

- a) sellulozani hosil qilgan monomerni (elementar) va selluloza makromolekulasingin tuzilishini;
- b) sellulozaning molekular og'irligi va polidispersligini;
- v) makromolekulalarning shaklini bilish kerak edi.

Bu masalalarni hal qilish uchun selluloza bir qator kimyoviy usullar (destruktsiya, efir olish, gidroliz qilish, eritish) va fizik-kimyoviy usullar (rentgen nurlari, elektron mikroskop, infraqizil nurlar va boshqalar) yordamida uzoq vaqt tekshirildi. Bu usullar yordamida

selluloza molekulasining kimyoviy tarkibi va tuzilishi aniqlanib, chiziqli bu murakkab makromolekulaning formulasi topildi. So'nggi vaqtarda selluloza laboratoriyalarda har xil biokatalizatorlar (fermentlar) ishtirokida juda murakkab biokimyoviy usullar bilan olinadi. Olingen barcha natijalarga asoslanib, selluloza makromolekulasining formulasini mana bunday ifodalash mumkin:



Formuladan ko'rinish turibdiki, selluloza molekulasi faqat glukozadan iborat. To'g'riroq qilib aytganda, u glukopiranoza angidrididir. sellulozaning tarkibi shu moddadan iborat ekanligini isbotlash qiyin emas. Agar selluloza mineral kislotalarning kuchli eritmalarida eritsila, critilgan selluloza miqdoriga nisbatan olganda 100 % miqdorda toza a — glukoza hosil bo'ladi. selluloza makromolekulasining har bir elementar bo'g'inidagi gidroksil guruhlarni har xil spirit va kislotalar hosil qilish mumkin. Makromolekuladagi hamma gidroksil guruhlari reaksiyaga kirishib, efir hosil qilganda, har bir elementar bo'g'inga uchta efir guruh to'g'ri keladi. Hozir bu guruhning birinchi, uchinchi va oltinchi uglerod atomlaridagi gidroksil guruhlari hisobiga hosil bo'lishi ham ma'lum (uglerod atomlarining nomerlari formulada ko'rsatilgan). Har bir elementar bo'g'inidagi uchta gidroksil guruhning bittasi oltinchi uglerod atomiga bog'langan bo'lib, birlamchi guruhni tashkil qiladi. Qolgan ikkita gidroksil guruh esa ikkinchi va uchunchi uglerod atomlarida joylashgan va shuning uchun ikkilamchi gidroksil guruhlardir. Glukoza angidridida uchta gidroksil guruh bo'lgani uchun, makromolekuladagi glukoza sikl holidadir, chunki glukoza angidridi chiziqli holda bo'lganda unda beshta gidroksil guruh bo'lishi kerak edi. Bundan tashqari, sellulozaning har xil efirlari olinganda, hamma vaqt glukoza qoldig'ida eng ko'pi bilan uchta efir guruhi hosil bo'ladi. Demak, selluloza molekulasidagi glukozada uchta gidroksil guruh bor va elementar bo'g'in holidagi qoldiq piran shaklni tashkil etadi. Glukoza birinchi va beshinchi uglerod atomlaridagi gidroksil guruhlarning o'zaro reaksiyaga kirishuvi va suv ajralib chiqishi

hisobiga sikel hosil qiladi. Natijada kislorod atomi ishtirokida amilen — oksid bog'i hosil bo'lib, u uglerod atomlariga nisbatan 1-5-holatda turadi. Formulaga qarasak, molekulada elementar bo'g'inlarning o'zaro asetal bog'lari vositasida birikkanligi va bu bog'larning glukoza angidridagi uglerod atomlariga nisbatan 1-4-holatdaligini ko'ramiz. Haqiqatan ham, sellulozani gidroliz qilish natijasida hosil bo'lgan mahsulotlarni o'rganish yuqoridagi faktni tasdiqlaydi. Sellulozaning formulasidan molekula oxiridagi a — glukoza qoldig'ida aldegid guruh borligini ham ko'rish mumkin. Bu guruhlarning sonini odatdagidagi aldegidlarga xos kimyoviy reaksiyalar yordami bilan aniqlasa bo'ladi. Masalan, ular ishqoriy muhitda yod bilan oksidlanib, karboksil guruhga aylantiriladi va sarflangan yod miqdoriga qarab, aldegid guruhlarining soni topiladi. Makromolekuladagi barcha elementar bo'g'inlar o'zaro b — glukozid bog'lari bilan birikkan. Sellulozani gidroliz qilish natijasida hosil bo'lgan va ikki glukoza molekulasi qoldig'idan tuzilgan modda tarkibida nisbatan b — glukozid bog'lari bo'lishi isbotlangan. Sellulozaning makromolekulasini hosil qiluvchi elementar bo'g'inlar orasidagi amilen-oksid bog'larining mustahkamligi taxminan bir xildir. Bu fakt ham sellulozani gomogen sharoitda gidroliz qilish usuli bilan aniqlangan. Organik moddalarning klassifikatsiyasi jihatidan olganda, selluloza uglevodlar qatoriga, to'g'rirog'i, polisaxaridlar deb ataluvchi yuqori molekular uglevodlar qatoriga kiradi. O'simlik va hayvonot dunyosida bunday polisaxaridlarning juda ko'pligi anchadan beri ma'lum. Masalan, glukoza tirik organizmlarda har xil fermentlar ishtirokida sellulozaga emas, balki kraxmalga aylanadi. Barcha polisaxaridlar glukoza qoldiqlaridan tarkib topgan bo'lib, molekulalaridagi elementar bo'g'inlarning har xil tarzda birikkanligi jihatidan bir-biridan katta farq qiladi. Bu hol ularning kimyoviy tarkibi bir xil bo'lishiga qaramay, xossalarning katta farq qilishiga sabab bo'ladi. Masalan, kraxmal va laminarin issiq suvda yaxshi eriydi. selluloza esa suvda aslo erimaydi. Bu xossalarning hammasi ko'rib o'tilgan polisaxaridlarning tuzilishi bilan chambarchas bog'liqidir.

**Sellulozaning molekular massasi.** Sellulozaning va selluloza efirlarining molekular og'irligini xuddi polimer kabi kimyoviy va fizik-kimyoviy usullar bilan aniqlash mumkin. Bu usullar barcha polimer moddalar uchun tatbiq etiladigan usullardan farq qilmaydi. Ammo selluloza o'zining bir qator xossalari (organik erituvchilarda erimay, har xil kompleks erituvchilarda erishi va molekular og'irligining tez

o'zgara olishi) jihatidan boshqa polimerdan farq qiladi; sellulozaning molekular og'irligi o'ziga xos usullar bilan aniqlanadi.

**Kimyoviy usullar.** Sellulozaning formulasiga nazar tashlasak, uning oxiridagi elementar bo'g'inlaridagi birinchi uglerod atomida bitta aldegid guruh borligini ko'ramiz. Makromolekula uzunlashgan sari, selluloza namunasidagi aldegidlarning soni kamayib boradi. Ana shu aldegidlarning sonini aniqlab, sellulozaning molekular og'irligini topish mumkin. Bu usullarda topilgan molekular og'irlilik o'rtacha adadiy molekular og'irlilik bo'ladi. Molekular og'irlilik aldegid guruhlar sonini asosan ikki usul bilan ya'ni yod soni va mis sonini aniqlash yo'li bilan topiladi.

**Fizik-kimyoviy usullar.** Selluloza ko'pchilik sintetik polimerlar va ba'zi poliozlarga o'xshash qutblangan yoki qutblanmagan erituvchilarda erish xususiyatiga ega emas. Molekular massani aniqlashning barcha fizik-kimyoviy usullari moddaning eruvchanlik xossasiga asoslanganidan, sellulozaning molekular og'irligini topishda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelinadi. sellulozani erituvchi eng ko'p tarqalgan moddalardan biri mis-ammiak reaktiv bo'lib, u mis amingidratning ammiakli eritmasidan iboratdir. Ba'zan sellulozani eritish uchun konsentrangan fosfat kislotadan ham foydalaniladi. So'nggi yillarda ba'zi birikmalarning ammoniyli to'rtlamchi tuzlari ham keng ko'lamda ishlataladigan bo'ldi. Masalan, tetraetildibenzilammoniy asoslari shular jumlasidandir. Ammo bu erituvchi moddalarning barchasi bilan (mis-ammiak reaktivdan boshqalari) yog'och va boshqa o'simliklar sellulozasini eritib bo'lmaydi, chunki paxta sellulozasi, ayniqsa, paxta tolasining molekular massasi katta. Sellulozaning organik kislotalar bilan hosil qilgan murakkab efirlari, spirtlar bilan hosil qilgan oddiy efirlari ko'pchilik organik birikmalarda eriydi va shu sababli ularning molekular massalarini aniqlash unchalik qiyin bo'lmaydi. Shuni ham aytish kerakki, bunday efirlar hosil qilishda reaksiyaga kirishuvchi mineral kislotalar va ishqorlar ta'sirida qisman destruktсиya sodir bo'lib, sellulozaning polimerlanish darajasi kamayishi mumkin. Shunga qaramasdan, sellulozani oldin efirga aylantirib, so'ngra uni oddiy erituvchida eritish va molekular og'irligini topish usuli fanda va texnologiyada keng ko'lamda tatbiq etilmoqda. Selluloza efirlari molekular og'irligining o'rtacha adad qiyamatini aniqlashda osmotik bosim usuli ko'proq qo'llaniladi. Buning uchun selluloza

efiri ayrim fraksiyalarga ajratilib, har bir fraksiya eritmasining osmotik bosimi aniqlanishi lozim.

**Viskozimetriya usuli.** Ilmiy laboratoriyalarda va kimyo zavodlarida selluloza hosilalarining molekular og'irligi odatda viskozimetriya usuli bilan aniqlanadi va shu usulda polimerning o'rtacha molekular massani hisoblash uchun polimerning past konsentratsiyali eritmalarining nisbiy va solishtirma qovushoqligini aniqlash kifoya.

Polimerning qovushoqligini aniqlashda tajribaning barcha shartlari o'zgarmasligi va ayniqsa, kislordan tozalash muhim ahamiyatga egadir, chunki polimerning erishida va uning qovushoqligini aniqlashda kislordan selluloza molekulalariga ta'sir qilib, uni parchalaydi va olingen natijalarni soxtalashtiradi. Shuni aytib o'tish kerakki, sellulozaning asetal bog'lari oksidlanish reaksiyasiga karbozanjirli va geterozanjirli polimerlar bog'lariqa qaraganda ancha tez kirishadi. Yuqorida aytigandek, sellulozani erituvchi modda sifatida mis-ammmiak reaktivi, konsentrangan fosfat kislota va to'rtlamchi ammoniyli asoslar ishlatalidi. Sellulozaning efirlarini eritish uchun obdan tozulangan va suvdan, boshqa erituvchilar, jumladan, metilen, xlorid, aseton, spirt va boshqalar ishlatalidi. Agar selluloza namunalarining polimerlanish darajasi 300 dan kam bo'lsa, u holda ular 8-10 % li ishqorda eriy oladi va shu tufayli solishtirma qovushoqlikni ishqoriy eritmada ham aniqlash mumkin bo'ladi. Polimerning molekular og'irligi quyidagi formuladan hisoblab topiladi:

$$[\eta] = K_m M^\alpha$$

bu formulada:

$[\eta]$  — keltirilgan qovushoqlik.

$K_m$  — Shtaudinger konstantasi (selluloza uchun  $K_m = 5 \cdot 10^{-4}$ ).

$M$  — o'rtacha molekular og'irlilik.

Selluloza va uning hosilalari konsentratsiyasi 0,2 % dan oshmasligi lozim.

**Sellulozaning strukturasi.** Odatda sellulozaning ikki xil strukturada bo'lishi aniqlangan: tabiiy selluloza va gidrat selluloza.

Gidrat selluloza tabiiy sellulozadan quyidagi usullar bilan olinishi mumkin:

1. Tabiiy sellulozani eritish, so'ngra eritma holida qayta cho'ktirilishi.

2. Tabiiy sellulozaga ishqorlarning konsentrangan eritmalarini ta'sir ettirib, hosil bo'lgan murakkab efirlarni gidrolizlash.

3. Tabiiy sellulozaning karbon kislotalari bilan efirini hosil qilib, hosil bo'lgan murakkab efirlarni gidrolizlash.

Tabiiy selluloza namunalarini mexanik usullarda yanchish.

Gidrat selluloza termini bundan bir necha yil ilgari noto'g'ri tushunilar, ya'ni uning gigroskopik xossasi tabiiy sellulozanikidan ko'ra ortiqroq bo'lganidan unda suv molekulalari bor, deb taxminan qilinar edi. So'nggi yillarda gidrat selluloza bilan tabiiy selluloza orasida kimyoviy tarkib jihatidan hech qanday farq yo'qligi va ularning strukturasigina har xil ekanligi aniqlanadi. Bunday ikki tur selluloza strukturalari orasidagi farq asosan quyidagilardan iborat. Birinchidan, tabiiy sellulozadan gidrat selluloza olish usullari makromolekulalararo ta'sir etuvchi vodorod bog'larining kamayishiga asoslangan. Demak, gidrat selluloza makromolekulalaridagi vodorod bog'lar tabiiy sellulozanikiga qaraganda anchagina kam bo'ladi. Shu sababli u g'ovakroq bo'lib, bu hol uning kimyoviy xossalariha ham ta'sir etadi. Gidrat selluloza va uning efirlari kimyoviy reaksiyalarga kirishish va eruvchanlik kabi xossalari jihatidan tabiiy sellulozadan ancha yuqori turadi. Shuni ham aytish kerakki, gidrat sellulozani har xil organik suyuqliklarda, jumladan, gliserinda qizdirish yo'li bilan uning strukturasini yana tabiiy selluloza strukturasiga keltirish mumkin.

Sanoatda, ayniqsa, puxta va o'ta puxta selluloza totalari ishlab chiqarishda polimerning strukturasini har xil usullar bilan o'zgartira olish muhim ahamiyatga egadir. Sellulozaning tuzilishi va strukturasi to'g'risidagi barcha ilmiy natijalardan quyidagicha umumiylar xulosha chiqarish mumkin:

1. Sellulozaning makromolekulasi sikllangan glukopiranoza qoldiqlaridan iborat bo'lib, 1 - 4 - uglerod atomlari o'zaro --- asetal bog'lar bilan birikkan. Sellulozaning makromolekulalarida yuqori darajali assimetriya xususiyati bo'lib, bu molekulalar chiziqli shaklda uchraydi. Ammo makromolekulalarning bunday shaklini tashqi kuchlarni ta'sir ettirib, o'zgartirish mumkin.

2. Tabiiy sellulozaning molekular og'irligi juda katta bo'lib, ayrim namunalarining, masalan, paxta sellulozasining molekular og'irligi 2 mln. kanop va ramiyniki 5 mln. ga yetadi. Barcha selluloza namunalarini kelib chiqishidan qat'i nazar, polidisperslik xususiyatiga ega, ya'ni har xil uzunlikdagi makromolekulalar aralashmasidan iborat.

3. Selluloza makromolekulalari orasidagi o'zaro ta'sir har xil bog'lanishlar natijasida vujudga keladi. Masalan, gidroksit guruhlarning o'zaro ta'siri, birinchidan, kam energiyalik ta'sir kuchlari natijasida amalga oshsa, ikkinchidan, vodorod bog'lari yordamida ham vujudga keladi. Bunday vodorod bog'larining ko'p yoki oz bo'lishi selluloza va uning hosilalarining eruvchanligiga reaksiyaga, kirisha olish xususiyatiga katta ta'sir etadi.

Sellulozani har qanday kimyoviy va fizik usullar bilan qayta ishslash undagi vodorod bog'larini kamaytirishdan iborat.

Tabiiy sellulozani gidrat sellulozaga va aksincha gidrat sellulozani tabiiy sellulozaga aylantirish mumkin.

### VAZIFALAR


#### 1-vazifa. Paxta momig'ini tozalash

Reaktiv va asbolar: paxta momig'i (50 g), natriy gidroksidning 1 % li eritmasi (500 ml), natriy gidroksidning 0,1 % li eritmasi (3000 ml), kanifol yoki OP-10 (7 g), 0,2 prosentli aktiv xlorli natriy gipoxlorit eritmasi (2000 ml), xlorid kislotaning 1 % li eritmasi (1000 ml), natriy biosulfatning 2 % li eritmasi (1000 ml), har xil teshikli elaklar (1 nabor), 3 l sig'imli sovutgich bilan jihozlangan yumaloq tubli kolba (1 dona), elektr plitkasi (1 dona), kalsiy xlorid solingan nay (1 dona).

Og'irligi 40-50 g bo'lgan paxta momig'i oldin sheluxa va boshqa mexanik aralashmalardan tozalanadi. Paxta momig'ida ko'p miqdorda chang, tuproq va qum bo'lgani uchun har xil elaklarda yaxshilab elanadi. Lekin tolalarga aralashgan tuproq va qum zarrachalarini bu usulda tozalab bo'lmaydi. Shuning uchun u qaynoq suv bilan ikki-uch marta yuviladi va shimilgan suv siqib tashlanadi. Shu yo'sinda tayyorlangan tola 3 l sig'imli yumaloq tubli kolbag'a solinadi va uning ustiga natriy gidroksidning 1 % li eritmasi (1 g paxta momig'iga 30 ml eritma) quyiladi. Momiqni yaxshiroq tozalash uchun eritmaga 5-7 g kanifol yoki sirt tarangligini kamaytiruvchi OP tipidagi modda qo'shiladi.

So'ngra kolba elektr plitkasi ustiga o'rnatilib, aralashma 4-5 soat davomida qaynatiladi. Havoqor kislorod ta'sirini kamaytirish uchun sovutgichning ikkinchi uchiga kalsiy xlorid solingan nay ulanadi. Aralashma qaynagan vaqtida ishqor eritmasi sekin-asta qorayib boradi va qaynatishning oxirida to'q qo'ng'ir tusga kiradi. Qaynatish tamom bo'lgach, kolbadan sovutgich olib qo'yilib, undagi qaynoq suyuqlik

to'kib tashlanadi. Shundan keyin kolbadagi qaynatilgan momiq natriy gidroksidning 0,1 % li eritmasi bilan 4-5 marta chayiladi. Momiqni tozalashdagi bundan keyingi jarayon uni oqartirishdan iborat bo'lib, buning uchun kolbadagi 50 g momiq ustiga tarkibida 0,2 foizli aktiv xlor bo'lgan natriy gipoxlorit eritmasidan 1 l quyiladi. Buning natijasida momiq tarkibidagi ba'zi qo'shimchalar oksidlanib, eritmaga o'tadi. Momiqni oqartirish jarayoni eritmadi natriy gipoxloritning parchalanishidan hosil bo'lgan kislorod ta'siri ostida boradi. Reaksiyaning sxemasini quyidagicha ifodalash mumkin:



Lekin bunday usulda tozalangan selluloza hali ham sarg'ish bo'ladi. Bu sarg'ish tusni yo'qotish uchun u suv bilan bir necha marta yuvilib, ustiga xlorid kislotaning 1 % li eritmasidan 1 l quyiladi va shisha tayoqcha bilan 15-20 minut aralashtirib turiladi. Bu vaqtida selluloza tarkibida qolgan organik moddalar, ayniqsa, kul hosil qiluvchi har xil tuzlar eritmaga o'tadi. So'ngra kislota eritmasi to'kib tashlanadi va selluloza suv bilan neytrallanguncha yuviladi. Lekin bunday sellulozaga hali anchagini xlor ionlari yutilgan bo'ladi, ularni yo'qotish uchun kolbadagi selyuloza natriy bisulfatning 2 % li eritmasi va distillangan suv bilan bir necha marta yuviladi. So'ngra qo'lg'a rezinka qo'lqop kiyib olinadi-da, sellulozadagi suv siqib tashlanadi, shundan keyin u oq qog'oz ustiga yoyilib, oldin 50-70°C da, oxirida esa 150°C da og'irligi o'zgarmay qolguncha quritiladi. Pirovardida hosil bo'lgan toza sellulozaning miqdori aniqlanadi.

- 1 - topshiriq. Olingen sellulozaning mis soni aniqlansin.
- 2 - topshiriq. Toza sellulozadagi  $\alpha$  — selluloza miqdori aniqlansin.
- 3 - topshiriq. Momiqdag'i va tozalangan sellulozadagi kul miqdori bir-biriga solishtirilsin.

## 2 - vazifa. Qipiordan selluloza olish

Reaktiv va asboblar: yog'och qipig'i (3 g), 3% li nitrat kislota (60 ml), natriy gidroksidning 3 % li eritmasi (60 ml); 200 ml sig'imli stakan (1 dona), Byuxner voronkasi (1 dona).

Stakanga 3 % li nitrat kislotadan 60 ml, 3 g chamasi yog'och qipig'i solinadi-da, aralashma 1 soat qaynatiladi. So'ngra stakandagi kislota eritmasi to'kib tashlanib, selluloza bor namuna Byuxner voronkasiga

solinadi va 50 ml chamasi qaynoq suv bilan 4-5 marta yuviladi, so'ngra 105°C da og'irligi o'zgarmay qolguncha quritiladi. Odatda, olingan selluloza miqdori boshlang'ich namuna miqdorining 40-43 foizini tashkil etadi.

1 - topshiriq. Olingan sellulozaning mis-ammiak eritmasida eruvchanligi aniqlansin.

2 - topshiriq. Olingan sellulozadagi lignin miqdori aniqlansin.

**a) sellulozada uchraydigan yog‘, mum va smolalar miqdorini aniqlash**

Ma'lum namlikdagi 5 g maydalangan selluloza yoki paxta tolasi dixloretan bilan yuvilgan filtr qog‘oziga o‘ralib, sokslet ekstraktoriga solinadi. Sokslet ekstratori ostidagi kolbaga ekstaktoring hajmidan 1,5-2 hissa ko‘proq hajmda dixloretan quyilib, suv hammomida isitiladi. Ekstraktsiya 5-6 soat davom ettirilib, selluloza tarkibidan erib tushgan yog‘, mum va smolalar eritmasi ma'lum og'irlidagi ikkinchi kolbaga quyilib. Sokslet kolbasi dixloretan bilan chayilib, chayindi ham eritmaga qo'shiladi. So'ngra kolbadagi erituvchi haydab olinadi va qolgan moddalar 100°C da og'irligi o'zgarmay qolguncha quritiladi. sellulozadagi yog‘, mum va smolalar miqdori quyidagi formuladan hisoblab topiladi:

$$x = \frac{a-b}{c} \cdot 100$$

bu formuladan:

a — kolbaning yog‘, mum va smola bilan birgalikdagi og'irligi, g hisobida.

v — bo'sh kolbaning og'irligi, g hisobida.

s — namunaning mutlaqo suvsiz og'irligi, g hisobida.

**b) Paxta momig‘ining tozalik darajasini aniqlash**

100 ml sig‘imli stakanga 3-5 g paxta momig‘i va 10 ml kimyoviy toza konsentrangan sulfat kislota quyiladi. Momiq shisha tayoqcha vositasida kislota bilan aralashtirilib, aralashma bir jinsli holga keltiriladi. Momiq kislotada erigach, unga 500 ml distillangan suv quyiladi va eritma yaxshilab aralashtirilib, erimagan moddalar stakan tagiga cho‘kkuncha shunday qoldiriladi. Cho‘kma o'zgarmas og'irlikka keltirilgan shisha voronkadan filtrlanib, neytrallanguncha suv bilan

yuviladi va  $100\text{-}105^{\circ}\text{C}$  chamasi haroratda og'irligi o'zgarmay qolguncha quritiladi. Momiqdag'i chet aralashmalar miqdori quyidagicha hisoblab topiladi:

$$x = \frac{a-v}{c} \cdot 100$$

Bu formulada:



a — voronkaning erimagan moddalar bilan birligida og'irligi, g hisobida.

v — bo'sh voronkaning og'irligi, g hisobida.



s — momiq namunasining og'irligi g hisobida.

#### d) sellulozadagi pentozanlar miqdorini aniqlash


Pentozanlarni aniqlash sellulozaning 12 % li xlorid kislota da gidrolizlanib, pentozarlar hosil qilishi, pentozalarning esa o'z tarkibidagi suvni ajratib chiqarib furfurolga aylanish jarayoniga asoslangan. Reaksiya sxemasini quyidagicha ifodalash mumkin:



Olingan forfurol miqdorini bromid-bromat eritmasi yordamida aniqlab, so'ngra pentozanlar miqdorini hisoblash mumkin. Furfurolni aniqlashning bromid-bromat usuli uning eritmadiagi brom bilan reaksiyaga kirishiga asoslangan. Eritmadagi bromid-bromat aralashmasida bo'lgan xlorid kislota vositasida ajratiladi:




Bromid-bromat eritmasining 1 litrida 13,9 g natriy bromid, 2,5 g natriy bromat bo'ldi. Eritmada reaksiyaga kirishmay qolgan brom esa kaliy yodid bilan quyidagi reaksiyaga kirishadi:



Ajralib chiqqan yod natriy gidrosulfit eritmasi bilan titrlanib aniqlanadi. Giposulfit eritmasining kontrol va asosiy tajribalardagi yodni titrashga sarflangan miqdorlari ayirmasidan eritmada furfurol miqdori aniqlanadi. Tajribaning borishi: 2 g chamasi selluloza namunasi maydalanib, maxsus haydash asbobining kolbasi (1 ga) solinadi (41-rasm). Kolbaga xlорid kislotaning 12 % li eritmasidan 30 ml va 20 g osh tuzi qo'shiladi. Kolba qum hammomiga quyilib, aralashma har 10 minutda silindr (2 ga) 30 ml suyuqlik oqib tushadigan tarzda qaynatiladi. Kolbaga esa har 10 minutda voronka (3) orqali xlорid kislotaning 12 % li eritmasidan 30 ml dan quyib turiladi. Shu yo'sinda silindr (2) ga 300 ml suyuqlik haydar olinadi. Forfurolning kolbadan to'la haydalgan-haydalmaganligi anilin va sirkal kislota shimdirlig qog'oz yordamida aniqlanadi. Buning uchun filtr qog'oz yangi haydalgan 1 ml anilin va sirkal kislota 10 % li 10 ml eritmasi bilan qo'llanadi. Bu filtr qog'oz asbobdagi sovutgich (4) dan tushayotgan suyuqlikka tekkanda qizg'ish tusga kirsa, kolbadagi barcha furfurol haydalib tamomlangan bo'ladi.

Silindrdagi suyuqlik 500 ml sig'imli o'lechov kolbasiga quyiladi va silindr 12 % li xlорid kislota bilan ikki marta chayilib, kolba belgisigacha to'ldiriladi. O'lechov kolbasidan 200 ml eritma konussimon kolbaga solinib, uning ustiga 20 ml bromid-bromat eritmasi quyiladi. Kolbaning og'zi yopilib, u



41-rasm. Furfurolni aniqlash asbobi.

qorong'i joyda 1 soat saqlanadi-da, eritma ustiga kaliy yodidning 10 % li eritmasidan 10 ml qo'shiladi. Kolbaning og'zi yana yopilib, qorong'i joyda 5 minut saqlanadi. So'ngra eritmadañ ajralib chiqqan yod natriy giposulfiting 0,1 n li eritmasi bilan titrlanadi. Indikator sifatida kraxmalning 0,5 % li eritmasidan 2-3 ml quyiladi. Odatda, kontrol tajriba sifatida xlorid kislotaning 12 % li eritmasidan 200 ml olinadi.

Sellulozadagi pentozanlarning miqdori quyidagicha hisoblab topiladi:

$$x = \frac{96,08(a-v) \cdot 500 \cdot 1,88}{4 \cdot 10 \cdot 1000 \cdot S \cdot 200} \cdot 100$$

bu formulada:

a — giposulfit, 0,1 n li eritmasining kontrol tajribada eritmani titrlashga sarflangan miqdori ml hisobida.

v — giposulfit, 0,1 n li eritmasining fufurolli eritmani titrlashga sarflangan miqdori, ml hisobida.

s — olingan sellulozaning mutlaqo suvsiz holdagi og'irligi, g hisobida.

1,88 — fufurolni pentozanlarga aylantirilib hisoblash koefitsienti (araban uchun 2,07 ga, ksilan uchun esa 1,68 ga teng).

#### e) $\alpha$ — selluloza miqdorini aniqlash

200 ml sig'imli stakanga 3 g chamasi selluloza solinib, unga 20°C da natriy gidroksidning 17,5 % li eritmasidan 45 ml quyiladi. Selluloga ishqor bilan bunday ishlov berish merserizatsiya deyiladi. Stakandagi selluloza shisha tayoqcha yordamida 3-4 minut aralashtiriladi-da, 20°C li termostatda 45 minut saqlanadi. So'ngra stakanga 20°C li distillangan suvdan 45 ml quyiladi va tayoqcha bilan 1-2 minut aralashtirilib, 1-raqamli shisha filtrdan o'tkaziladi. Shisha filtrni ishlatischdan oldin tortib ko'rish lozim. Bunday ishqoriy selluloza (25 ml) natriy gidroksidning 9,5 % li 25 ml eritmasi bilan 3 marta yuviladi va oxirida distillangan suv bilan neytrallanguncha (bu fenolftalein bilan aniqlanadi) chayiladi. Dastlabki 500 ml yuvindi gemiselluloza miqdorini aniqlash uchun saqlanadi. Chayilgan a — selluloza 100-105°C da og'irligi o'zgarmay qolguncha quritiladi va uning miqdori quyidagicha hisoblab topiladi:

$$x = \frac{a-v}{s} \cdot 100$$

bu formulada:

a — shisha filtr bilan a — sellulozaning og'irligi, g hisobida;  
 v — shisha filtrning og'irligi, g hisobida;  
 s — sellulozaning mutlaqo suvsiz holdagi og'irligi, g hisobida.


#### f) gemiselluloza miqdorini aniqlash

250 ml sig'imli konussimon kolbag'a — sellulozani aniqlashda ishlatalidigan ishqoriy filtratdan 50 ml, konsentrangan sulfat kislotadan 20 ml va kalij bixromat critmasidan 10 ml (1 l eritmada 20 g kalij bixromat bo'lishi kerak) quyiladi. Aralashma pufakchalar hosil bo'lgan paytdan boshlab, 5 minut qaynatib, sovutilgandan so'ng undagi ortiqcha kalij bixromat Mor tuzi eritmasi bilan titrlanadi. Mor tuzi eritmasining tarkibi bunday: 1 l eritmada 160 g  $\text{FeSO}_4(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$  va 10 % li 5 ml sulfat kislota. Mor tuzining eritmani titrlash uchun sarflangan 50 ml eritmasi 1 g kalij bixromatga yoki 0,1375 g gemisellulozaga ekvivalentdir.

Eritmani titrlashda indikator sifatida qizil qon tuzining 0,2 % li eritmasi ishlatalidi. Lekin u eritmaga qo'shilmaydi. Qizil qon tuzi Mor tuzi bilan qo'shib, ko'k rangli eritma hosil qiladi. Buning uchun qizil qon tuzi critmasidan chinni idishga tomizilib, uning ustiga titrlanayotgan eritmadan tomchilatib turiladi. Titrlanayotgan eritmadan tomizilganda qizil qon tusi ko'k tusga kirishi natijasida titrlash tamomlangan bo'ladi.

#### g) selluloza viskozasi va selluloza mis-ammiak eritmalarining qovushoqligini aniqlash

Qovushoqliknani aniqlash uchun tarkibida 1 % selluloza bo'lgan viskozali va mis-ammiakli eritmalar tayyorlanadi. Qovushoqlik 42-rasmda ko'rsatilgan pipetkasimon viskozimetrda  $20 + 0,2^\circ\text{C}$  da o'chanadi. Selluloza eritmasi solingen idish ichiga viskozimetr A nuqtasigacha tushiriladi va eritma viskozametrga rezina nay vositasida so'rib chiqariladi. Eritma viskozametr ustki sharining



42-rasm.  
Pipetkasimon  
viskozimetr,

yarmigacha chiqishi kerak. Eritmali viskozametr termostatda 5 minut saqlangach, uning kapillyaridan eritmaning oqib tushish vaqtini o'chanadi. Eritmaning har bir oqish vaqtini o'chanadi. Eritmaning har bir oqish vaqtini bir necha marta takrorlanadi. selluloza eritmasining qovushoqligini aniqlash uchun quyidagi tenglama ifodalanadi:

$$\eta = k \cdot t \cdot d$$

bu tenglamada:

$k$  — viskozometr konstantasi;

$t$  — eritmaning oqish vaqtini, sek hisobida;

$d$  — eritmaning solishtirma og'irligi,  $\text{g/sm}^3$  hisobida (mis-ammiakli eritma uchun  $d=0,97$ , viskozalni eritma uchun esa  $d=1,057$ ).

Viskozametr konstantasi qovushoqligi ma'lum bo'lgan suyuqliklarning oqish vaqtini o'chanash yo'li bilan topiladi, buning uchun ko'pincha kimyoviy toza sulfat kislota ishlataladi. Quyidagi har xil konsentratsiyali sulfat kislotaning qovushoqligini ko'rsatib o'tamiz:

20°C da sulfat kislotaning konsentratsiyasi, % hisobida	49,98	62,67	75,05	87,76
Qovushoqlik 20°C da, millipuaz hisobida	37,7	66,2	148,0	259,0

Viskozametr konstantasi quyidagi formuladan hisoblab topiladi:

$$k = \frac{\eta}{t \cdot d}$$

bu formulada:

$h$  — ishlatalilgan sulfat kislotaning qovushoqligi (jadvalda keltirilgan), millipuaz hisobida.

$t$  — sulfat kislotaning kapilyardan oqish vaqtini, sek hisobida;

$d$  — sulfat kislotaning solishtirma og'irligi,  $\text{g/sm}^3$  hisobida.

### Sellulozaning 1% li viskozalni eritmasini tayyorlash

100 ml sig'imli stakanga 1,5 g selluloza va natriy gidroksidning 18,5 % li eritmasidan 22,5 ml solinadi-da, stakan og'zi soat oynasi bilan yopilib,  $25 + 0,2^\circ\text{C}$  da 1 soat davomida suvsiz og'irligining 3,4 hissasi baravar og'irlikkacha siqilib, eritmadan ajratiladi. Ajratib olingan selluloza shisha plastinka ustida qisgichlar bilan yaxshilab tililadi-da.

250 ml sig'imli shisha idishga solinib, ustiga har 1 g sellulozaga 0,6 g hisobida uglerod sulfid solinadi. Bikitilgan idish  $25 + 2^{\circ}\text{C}$  li termostatga qo'yilib, 5 soat saqlanadi (har soatda idish 1 minut chayqatib turilishi lozim). Natijada sellulozaning ksantogenat efiri hosil bo'ladi. U natriy gidroksidning 4 % li eritmasida eritiladi (har 1 g suvsiz sellulozaga 100 ml ishqor eritmasi olinadi). Ksentogenatning ishqorda erishi 20 soat davom etadi. Erishning oxirgi davrida idish har 30 minutda 30 sekunddan chayqatib turilsa, jarayon ancha tezlashadi.

### **Sellulozaning mis-ammiak reaktividagi 1 % li eritmasini tayyorlash**

Eritma zich berkitiladigan probkali shisha silindrda tayyorlanadi. Sellulozaning erishini tezlatish uchun silindrga mis prujinalar solinadi (43-rasm). Silindrga solinadigan reaktivning hajmini bilish uchun oldin unga mis prujina va to'latib suv solinadi. Silindrga quyiladigan mis-ammiak reaktivining hajmi undagi suv hajmidan 1,5 ml bo'lishi lozim. Shundan keyin sellulozaning 1 % li eritmasi tayyorlash uchun zarur bo'lgan namuna miqdori hisoblab topiladi:

$$g = \frac{100 \cdot v}{(100-w)}$$

bu formulada:

g — sellulozaning og'irligi, g hisobida;

w — sellulozaning namligi, % hisobida;

v — namunani eritishga sarf qilingan mis ammiak reaktivining ml hisobida.

So'ngra quruq silindrga mis prujina va selluloza namunasi solinadi. Uning ustiga avtomatik buretka (44-rasm) vositasida mis-ammiak reaktivi quyiladi. Silindrning og'zi mahkam yopilib, qo'lda 1-2 minut chayqatiladi. So'ngra u chayqatish asbobiga o'rnatilib, batamom eriguncha aralashtiriladi. Sellulozani eritish uchun ishlataladigan mis-ammiak reaktivi tarkibida 1,3 % mis, 15 % ammiak, 0,2 % saxaroza va 0,7 % natriy gidroksid bo'lishi kerak (quyida mis-ammiak reaktivi tayyorlash usulini keltirib o'tamiz).

### **Mis-ammiak reaktivi tayyorlash**

Mis-ammiak reaktivi tayyorlash uchun tozalangan qizil mis ishlatalish kerak. Agar mis iflos bo'lsa, u og'zi mahkam yopiladigan shisha idishga solinib, ustiga nitrat kislotaning 30 % li eritmasi quyiladi.

Aralashma yaxshi chayqatilib, nitrat kislota to'kib tashlanadi va mis sovuq suv bilan uzoq vaqt yuviladi. Natijada misning usti tozalanadi. Mis-ammiak reaktivi 45-rasmida ko'rsatilgan asbobda tayyorlanadi. Kolonka (1) ning 2/3 qismigacha maydalangan toza mis solinib, ammiakning 25-27 % li eritmasidan misni ko'madigan miqdorda quyiladi. Ammiakning tarkibida 0,2 % saxaroza bo'lishi kerak. Kolonka bilan tutashgan idish (2) ga ammiakning konsentratsiyalangan eritmasi va ikkinchi idish (3) ga natriy gidroksidning 40 % li eritmasi solinadi. Kolonkaning yuqori uchi (4) nasosga ulanib, idishlarga sekin-asta havo o'tkaziladi. Misni tezroq eritish uchun kolonkani sovuq suv yoki muz bilansovutish ham mumkin.

Odatda mis va ammiak aralashmasidan 5-6 soat davomida havo o'tkazish kifoya qildi. So'ngra kolonka (1) dagi aralashma yaxshilab chayqatiladi-da, undagi mis va ammiak miqdori aniqlanadi.

**Reaktiv tarkibidagi misni aniqlash.** 250 ml sig'imli konussimon kolbag'a 3 ml mis-ammiak reaktivi va 2-3 tomchi metil qizili (indikator) solinadi va reaktiv sulfat kislotaning 5 % li eritmasi bilan neytrallanadi. So'ngra kolbadagi eritma ustiga sulfat kislotaning 5 % li eritmasidan qo'shimcha 15 ml solinib, 5 minut qaynatiladi. Bu vaqtida eritmada hosil bo'lgan azot oksidlari uchib ketadi. Shundan keyin eritma sovutilib, uning ustiga kaliy yodidning 10 % li eritmasidan 20 ml quyiladi. Eritmadan yod ajralib chiqadi. U natriy giposulfiting 0,1 n li eritmasi bilan titrlanadi. Titrlash oxiriga yaqinlashganda indikator sifatida kraxmalning 0,5 % li eritmasidan 2-3 ml qo'shiladi. Eritmadagi barcha yod titrlanib bo'lgandan keyin misning miqdori quyidagi formuladan hisoblab topiladi:

$$Cu = \frac{0,006357 \cdot a \cdot 1000}{b} \text{ g/l}$$

bu formulada:

a — natriy giposulfiting 0,1 n li eritmasining yodni titrlashga sarflagan miqdori, ml hisobida;

b — reaksiya uchun olingan mis-ammiak reaktivining miqdori, ml hisobida;

0,006357 — natriy giposulfiting 0,1 n li eritmasiga ekvivalent bo'lgan mis miqdori, g hisobida.

**Reaktiv tarkibidagi ammiak miqdorini aniqlash.** 250 ml sig' imli konussimon kolbag'a sulfat kislotaning 1 n li eritmasidan 50 ml va mis-ammiak reaktividan pipetka vositasida 3 ml solinadi. Mis-ammiak reaktivi quyilayotgan vaqtida pipetkaning uchi sulfat kislota, mis va ammiak bilan reaksiyaga kirishadi. Reaksiyadan ortib qolgan sulfat kislota natriy gidroksidning 1 n li eritmasi bilan titrlanadi. Indikator sifatida metil qizili ishlataladi. Mis-ammiak reaktividagi ammiakning miqdori mana bunday topiladi:

$$^{mNH_3} = \frac{(a-b-x \cdot 0,94) \cdot 0,017 \cdot 100}{C}$$

bu formulada:

a — reaktiv bilan aralashgan 1 n li sulfat kislotaning boshlang'ich miqdori, ml hisobida;

b — natriy gidroksid 1 n li eritmasining reaktivni titrlashga ketgan miqdori, ml hisobida;

x — reaktivdagi mis miqdorda ( bu miqdor ilgari aniqlangan edi), % hisobida.

s — mis-ammiak reaktivning reaksiya uchun olingan miqdori, ml hisobida.

0,94 — % hisobida olingan mis miqdorini sulfat kislotaning 1 n li eritmasiga aylantirish koefitsienti.

0,017 — ammiakning 1 n li 1 ml eritmaga ekvivalent miqdori, g hisobida.

Reaktiv tarkibidagi misning miqdori 1,3 % ga yetganda, unga 0,7 % miqdorida natriy gidroksid qo'shiladi. Shu yo'sinda tayyorlangan, reaktivni qorong'i joyda yoki qora rangli idishda ikki oy saqlash mumkin.

### SELLULOZANING GIDROLIZLANISH QONUNLARI

Sellulozaning gidrolizlanishi quyidagi asosiy qonunlarga bo'ysunadi. Agar sellulozaning gidrolizlanish jarayoni geterogen sharoitda, ya'ni selluloza eritilmagan holda va suyultirilgan kislotalar ishtirokida olib borilsa, reaksiya dastlab juda tez borib, keyin juda sustlashib qoladi, chunki selluloza makromolekulasing amorf, ya'ni tartibsiz qismlariga gidrolizlovchi reagentlar oson ta'sir

etadi va shu tufayli reaksiyaning dastlabki davri juda tez o'tadi. Reaksiyaning ikkinchi davri esa sellulozaning kristall qismlari borligidan sekinlashib qoladi. Demak, sellulozaning gidrolizlanish darajasiga qarab, uning amorf va kristall fraksiyalarni miqdorini aniqlash mumkin. Odatda, selluloza namunalarning polimerlanish darajasi gidroliz reaksiyasining dastlabki davrida 250 dan 150 ga tushadi. So'ngra namunalarning polimerlanish darajasi o'zgarmaydi. Demak, sellulozani suyultirilgan kislotalar ta'sirida gidrolizlanish va hatto reaksiyani bosim va yuqori haroratda olib borish yo'li bilan ham uni glukozagacha parchalab bo'lmaydi. Bunday sharoitda hammasi bo'lib, 10 % gacha glukoza chiqishi aniqlangan. Gidrolizlanishning bu usuli yordamida selluloza namunalarning polimerlanish darajasini ozroq kamaytirish mumkin. Sellulozaning gomogen sharoitda gidrolizlanishi geterogen sharoitdagiga qaraganda tezroq tugallanadi, chunki bu holda gidrolizlovchi reagentlar selluloza makromolekulalarining barcha qismlariga ta'sir eta oladi, shuningdek, sellulozaning kontsentratlangan mineral kislotalar bilan parchalanishni kuzatish mumkin. Sellulozani to'la parchalash uchun konsentrangan mineral kislotalardan foydalaniladi, bunda namuna avval eritiladi, so'ngra esa gomogen sharoitda gidrolizlanadi.

Bunday maqsadlarda laboratoriya va sanoat korxonalarida o'ta konsentrangan xlorid kislota ishlataladi. Sellulozaga kuchli gidrolistik katalizatorlar ta'sir ettirilganda, elementar bo'g'inlar orasidagi asetyl bog'lar uziladi va namunaning polimerlanish darajasi kamayib boradi.

Qisman gidrolizlangan selluloza namunalari gidroselluloza deb ataladi. Bunday namuna tarkibida hech parchalanmagan makromolekulalar, qisman parchalangan makromolekulalar va to'la parchanishdan hosil bo'lgan past molekular moddalarni uchratish mumkin. Polimerlanish darajasi 2 dan 6 gacha bo'lgan past molekular birikmalar oligosaxaridlар deb, polimerlanish darajasi 7 dan 60 gacha bo'lgan moddalар esa sellodekstrinlar deb ataladi.

Bu moddalар kimyoviy tarkibi jihatidan sellulozadan farq qilmay, faqat polimerlanish darajasining kamligi va eruvchanligi jihatidan ajralib turadi. Bundan ko'rindiki, sellulozadan tarkib topgan har qanday o'simlik xom ashyolardan fermentativ va kimyoviy qayta ishslash uchun yaroqli monoza eritmalari olish mumkin.

Sanoatda yog'och, qipiқ, somon, jo'xoripoya, paxta sheluxasi va boshqalardan monozalar olinib, ular achitish yo'li bilan etil spirt, vitaminli

xamirturishlarga aylatiriladi. Bir tonna yog' ochdan 350 ml etil spirt olish mumkin. Har qanday o'simlik xom ashyosi murakkab tarkibli bo'lib, u gidrolizlanganda a — mannoza, a — galaktoza a — ksiloza a, l — arabinoza va boshqa moddalar ham ajralib chiqadi. Bu monozalardan har birining sanoatda qayta ishlash katta ahamiyatga ega.

Masalan, pentozanlardan bo'lgan ksiloza bilan arabinoza degidratlanib, organik sintez sanoatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan furfurolga aylantiriladi. Gidroliz moddalaridan ksiloza, atomli spirlarga, jumladan, mannit, sorbit, ksilitlarga aylantirilishi mumkin. Ko'p atomli bunday spirtlar sanoatda ko'p ishlatiladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan misollardan ko'rinish turibdiki, o'simlik xom ashyolarni gidroliz usullari bilan qayta ishlash natijasida ahamiyati g'oyat katta xilma-xil organik moddalar ishlab chiqarish istiqboli porloq vazifalardandir.

### SELLULOZANI GIDROLIZLASH USULLARI

Sellulozani gidrolizlash usullari quyidagilardan iborat:

1. Sellulozani konsentrangan kislotalar ta'sirida gidrolizlash.
2. Sellulozani suyultirilgan kislotalar ta'sirida gidrolizlash.
3. Sellulozani suvsiz mineral kislotalar ta'sirida gidrolizlash.

Gidroliz jarayonini asosiy sharoitini, ya'ni kislotalar konsentratsiyasini haroratga, bosim hamda vaqt ni o'zgartirish natijasida, o'rtacha polimerlanish darajasi va ishqoriy eritmalarda eruvchanligi jihatidan sellulozadan farq qiladigan xilma-xil moddalar olish mumkin.

Yuqorida aytilganidek, sellulozani konsentrangan kislotalar ta'sirida va yuqori tezlikda gidrolizlab, bir necha xil moddalar hosil qilish mumkinligi aniqlangan. Biroq mineral kislotalar kichik molekulalarning o'zaro polikodensatlanylsh reaksiyalariga kirishuvida ham katalizatorlik rolini o'ynaydi. Shu sababli, selluloza konsentrangan mineral kislotalar ta'sirida gidrolizlanganda, reaksiya oxirida monozalarning yolg'iz o'zi hosil bo'lmaydi. Monozalardan boshqa moddalarni monozalarga parchalash uchun gidrolizatga suv qo'yib suyultirish kerak.

Kislotaning konsentratsiyasi 1-2 % gacha tushirilganda qo'shimcha gidroliz reaksiyalari avj olib, reaksiya oxirida faqat monozalar hosil bo'ladi. Suvsiz xlorid kislota ham sellulozagaga shu yo'sinda ta'sir etadi. Masalan, suyuq xlorid kislota aralashmasini hosil

bo‘lguncha parchalaydi. Mineral kislotalarning ichida sellulozaga eng faol ta’sir ko‘rsatadigan ftorid kislotadir.

Ftorid kislotasi sellulozani faqat gidroliz qilibgina qolmay, balki hosil bo‘lgan glukoza va oligosaxaridlarning polikondensatlanish reaksiyasiga kirishishda ham ishtirot etadi.

### **3- vazifa. Gidrosellulozaning 2 % li xlorid kislotasi ta’sirida hosil qilinishi**

Reaktiv va asboblar: tozalangan selluloza (5 g), 2 % li xlorid kislotasi (250 ml); 250 ml sig‘imli sovutgich bilan jihozlangan kolba (1 dona), Byuxner voronkasi (1 dona).

Tozalangan 5 g selluloza kolbagaga solinib, uning ustiga 2 % li xlorid kislotadan 250 ml quyiladi. So‘ngra kolba shtativga o‘rnatalib, elektr plitkasida 3 soat qaynatiladi. Kolba sovutilib, ichidagi selluloza Byuxner voronkasiga solinadi va distillangan suv bilan oz vaqt vakuum ostida yaxshilab yuviladi. Yuvish sellulozadagi xlorid kislotasi tamoman yo‘qolguncha (bu indikator qog‘oz bilan tekshirib turiladi) davom ettiriladi. Shundan keyin voronkadagi cho‘kma 70-80°C li termostatda quritiladi. Cho‘kma qurigach, hosil bo‘lgan gidroselluloza tortilib, uning miqdori aniqlanadi.

1-topshiriq. Hosil bo‘lgan sellulozaning mis soni aniqlansin.

2-topshiriq. Selluloza va gidrosellulozaning 3, 5, 10 % li ishqor eritmalarida eruvchanligi bir-biriga solishtirilsin.

### **4-vazifa. Sellulozani to‘la gidrolizlash**

Reaktiv va asboblar: selluloza (5 g), sulfat kislotaning 80 % li eritmasi (50 ml), sodaning 10 % li eritmasi (3 ml); 150 ml sig‘imli stakan (1 dona), 1 l sig‘imli qaytarma sovutgich bilan jihozlangan kolba (1 dona), suv hammomi (1 dona).


Stakanga 5 g selluloza solinib, stakan muzli kristallizatorga joylashtiriladi. Stakandagi selluloza aralashtirilib turilib, uning ustiga sulfat kislotaning 80 % li eritmasidan 50 ml asta-sekin quyiladi. Kislotasi quyib bo‘lingach, stakan muz ichidan olinib, uy haroratida 2 soat saqlanadi. Bu vaqt ichida stakandagi quyuq aralashmani vaqtiga qorishtrib qo‘yish kerak. Stakandagi qovushoq eritma kolbagaga solinadi. Stakan har gal 100 ml distillangan suv bilan 6 marta chayilib, yuvindi ham kolbagaga quyiladi. Kolba qaynab turgan suv hammomida 5 soat isitiladi-da, so‘ngra sovutilib, sodaning 10 % li eritmasi bilan neytrallanadi. Neytral holga kelgan eritma o‘chov kolbasida 1 l gacha

suyultiriladi. Hosil bo'lgan eritmadan 10 ml olinib, o'lchov kolbasining 100 ml li belgisigacha distillangan suv bilan suyultiriladi-da, 50 ml dan ikkiga bo'linib, yod soni aniqlanadi. Eritmaning yod soni aniqlangach, eritmadiagi glyukozaning miqdori hisoblab topiladi. Bunday hisobda 180 g glukozani titrlash uchun yodning 1 n li eritmasidan 20 l ketishi nazarga olinishi kerak.

1-topshiriq. Sellulozaning gidrolizi natijasida hosil bo'lgan glukoza eritmasining yod soni aniqlansin.

### **Yod sonini aniqlash**

Sellulozaning yod sonini aniqlash undagi aldegid guruhlarining ishqoriy muhitda yod eritmasi ta'sirida oksidlanib, karboksil guruhlarga o'tishiga asoslangan. Reaksiyaning sxemasini mana bunday ifodalash mumkin:



0,1 n li yod eritmasining 1 g selluloza bilan reaksiyaga kirishish uchun ketadigan miqdori yod soni deb ataladi va ml bilan ifodalanadi. Yod sonini aniqlab, selluloza namunasining polimerlanish darajasi haqida ham fikr yuritish mumkin. Yod soni quyidagicha aniqlanadi:

Zich berkitiladigan probkali kolbaga buraning 0,5 n li eritmasian 100 ml solinib, 25°C li termostatda 10-15 minut saqlanadi. So'ngra unga 0,1 n li yod eritmasidan 50 ml quyiladi (yod eritmasining harorati ham 25°C bo'lishi shart) va suyuqliklar aralashtirilib, kolbaga darhol 0,1 g selluloza solinadi. Kolbaning og'zi yopilgach, u 25°C li termostatda 6 soat saqlanadi. Har 20-25 minutda kolba chayqatib turiladi. Odatda, selluloza namunasi solinmagan kontrol tajriba ham qilinadi. 6 soatdan so'ng kolbaga 2 n li xlorid kislotadan 10 ml quyilib, kraxmal ishtirokida yod natriy giposulfitning 0,1 n li eritmasi bilan titrlanadi. Sellulozaning yod soni quyidagicha hisoblab topiladi:

$$J_2 = \frac{a - b}{s}$$

bu formulada:

a — giposulfit 0,1 n li eritmasining nazorat tajribada titrlashga sarflangan miqdori, ml hisobida.



v — giposulfit 0,1 n li eritmasi asosiy tajribada titrlashga sarflangan miqdori, ml hisobida.

s — namunaning og'irligi, g hisobida.


### Mis sonini aniqlash

Mis sonini aniqlash jarayonida selluloza tarkibidagi aldegid guruhlar karboksil guruhgacha oksidlanib, ikki valentli mis oksidi bir valentli oksidgacha qaytariladi.

Reaksiya sxemasini mana bunday ifodalash mumkin:



Reaksiya natijasida ajralib chiqqan mis (I)-oksid ( $\text{Si}_2\text{O}$ ) miqdoriga asoslanib, sellulozaning polimerlanish darajasini aniqlash mumkin. Bu reaksiya quyidagicha ifodalanadi:



100 g selluloza ikki valentli mis tuzi bilan ishqor eritmasi ishtirokida qaynatilganda, ajralib chiqqan mis (I) — oksidning miqdori mis soni, deb ataladi va gramm bilan ifodalanadi.

Sellulozaning mis sonini aniqlash uchun quyidagi eritmalar tayyorlanishi kerak.

Eritma № 1 — 69,3 g  $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$  tuzi 1 l distillangan suvda eritiladi.

Eritma № 2 — 346 g mis tuzi va 100 n natriy gidroksid 1 l distillangan suvda eritiladi.

Eritma № 3 — 50 g  $\text{Fe}_2(\text{SO}_4)_3$  tuzi va solishtirma og'irligi 1,84 ga teng bo'lgan 200 g sulfat kislota 1 l distillangan suvda eritiladi.

Tajriba quyidagicha bajariladi:

250 ml sig'imli konusimon kolbaga 1 g selluloza va 30 ml suv solinib, qaynaguncha isitiladi. 50 ml sig'imli ikki kolbaga № 1 va № 2 eritmalaridan (alohida-alohida) 20 ml dan solinib, qaynaguncha isitiladi-da, ularning ikkalasi aralashtiriladi. Natijada oksidlangan mis tuzining qaynoq to'q havo rang tusli ishqoriy eritmasi hosil bo'ladi. Bu eritma selluloza namunasi ustiga quyiladi. So'ngra kolba yana 3

minut qaynatiladi (eritma qaynayotgan vaqtda kolbaning og'zini soat oynasi bilan yopib qo'yish tavsija etiladi).

Qaynash tamom bo'lgach, selluloza chinni voronkada darhol filtrlanadi-da, yuvindi rangsizlanguncha issiq suv bilan yuviladi. Bu vaqtda selluloza mis (I)-oksidni yutib olgan bo'ladi.

Yutilgan mis (I) — oksid sellulozadan 3-eritma vositasida ajratib olinadi. Buning uchun cho'kma holidagi selluloza har gal 8-10 ml 3-eritma vositada 50 ml eritma olish kerak. So'ngra selluloza sulfat kislotaning 20 % li 30 ml eritmasida yuvilib, bu yuvindi ham filtratga qo'shiladi. Oxirida u distillangan 20 ml suv bilan chayiladi.

Hosil bo'lgan filtrat kaliy permanganatning 0,1 n li eritmasi bilan titrlanadi.

Sellulozaning mis soni (m.s.) quydagicha topiladi:

$$a \quad 0,006 \quad 100$$

$$m. s. = \text{_____}$$

$$g$$

bu formulada:

a — kaliy permanganat 0,1 n li eritmasining filtratni titrlashga sarflangan miqdori, ml hisobida;

g — sellulozaning mutlaqo suvsiz holdagi og'irligi, g hisobida;

0,0063 — kaliy permanganatning 0,1 n li eritmasidan 1 millilitriga ekvivalent misning og'irligi, g hisobida:

#### 5-vazifa. Oksisellulozaning 5 % li vodorod peroksid ta'sirida hosil qilinishi

Reaktiv va asboblar: paxta momig'i (5 g), 5 % li vodorod peroksid (50 ml); 250 ml sig'imli stakan (1 dona), Byuxner voronkasi (1 dona), suv hammomi (1 dona).

Stakanga tozalangan sellulozadan 5 g solinib, uning ustiga vodorod peroksidning 5 % li eritmasidan 50 ml quyiladi. So'ngra stakan suv hammomiga joylashtirib, ichidagi aralashma shisha tayoqcha bilan aralashtirilib turilgani holda, 50-60°C da 30 minut qizdiriladi. Shundan keyin stakandagi selluloza namunasi Byuxner voronkasiga solinib, distillangan suv bilan yaxshilab yuviladi. Hosil bo'lgan oksiselluloza shisha buksga solinib, 105°C haroratda og'irligi o'zgarmay qolguncha quritiladi-da, uning miqdori hisoblanadi.

1-topshiriq. Hosil qilingan oksisellulozadagi karboksil guruhlar soni aniqlansin.

2-topshiriq. Selluloza va oksitsellulozaning 5-10 % li ishqor eritmasidagi eruvchanliklari bir-biriga solishtirilsin.

#### **6-vazifa. Oksisellulozaning nitrat kislota ta'sirida hosil qilinishi**

Reaktiv va asboblar: paxta momig'i (5 g), solishtirma og'irligi 1,3 bo'lgan kislota (15 ml); 200 ml sig'imli, qaytarma sovutgich bilan jihozlangan kolba (1 dona), Byuxner voronkasi (1 dona), suv hammomi (1 dona).


Kolbaga tozalangan sellulozadan 5 g solinib, uning ustiga 15 ml nitrat kislota quyiladi-da, kolba sovuq suv yoki muz bilan sovutib turiladi, chunki reaksiya vaqtida azot oksidlari ajralib chiqadi. So'ngra aralashma suv hammomida 1 soat qaynatiladi-da, shundan keyin uy haroratigacha sovutiladi. Kolbada hosil bo'lgan oksiselluloza Byuxner voronkasida filtrlanib, suv bilan bir necha marta yuviladi. Oksisellulozadagi nitrat kislotaning hammasi yuvilib ketgandan keyin namuna buksga solinib, 105°C da quritiladi va uning miqdori aniqlanadi.

1-topshiriq. Oksisellulozaning mis soni aniqlansin.

2-topshiriq. Oksisellulozadagi karbonil guruhlar soni aniqlansin.

### **KARBOKSIL GURUHLARNI ANIQLASH USULLARI**

1. Bu usul karboksil guruhlar bilan natriy bikarbonat orasida bo'ladigan quyidagi reaksiyaga asoslangan:




Bu usulda tajriba tez bajariladi va yaxshi natijalar beradi. Tajriba uchun 43-rasmida ko'rsatilgan asbobdan foydalaniladi.

0,2-1 g og'irlikdagi selluloza suv bilan to'ldirilgan nay (2) ga solinadi. Tomchilatma voronka (1) ga esa xlorid kislotaning 0,1 n li eritmasidan 50 ml quyiladi va selluloza namunasi orqali 10 minut davomida o'tkaziladi. Kislotaning oqish tezligini jo'mraklar (5) vositasida o'zgartirish mumkin. Natijada, sellulozadagi barcha mineral tuzlar yuvilib ketadi. So'ngra sellulozadagi kislotani yo'qotish uchun uni distillangan 150-200 ml suv bilan yuvish kifoya.

Shundan keyin tomchilatma voronkaga osh tuzining 0,1 n li eritmasi bilan natriy bikarbonatning 0,005 n li eritmasi aralashmasi bo'lgan buferdan 25 ml quyiladi. Buferda rN=8,4 bo'lishi kerak, 25 ml bufer sellulozadan 5 minut davomida o'tkaziladi. Filtrat o'lchov kolbasiga yig'iladi; selluloza suv bilan yuvilib, yuvindi ham filtratga qo'shiladi. O'lchov kolbasidan 50 ml filtrat olinib, xlorid kislotaning 0,01 n li eritmasi bilan (metilen qizili ishtirokida) titrlanadi (eritmaning sariq rangi och qizil tus olganda titrlash tomomlanadi). Odatda, selluloza namunasi solinmagan nazorat tajriba ham qilish kerak. Bu tajribada osh tuzining 0,1 n li eritmasi bilan natriy bikarbonatning 0,005 n li eritmasidan iborat 25 ml aralashma olinadi. sellulozadagi karboksil guruuhlar miqdori quydagicha hisoblab topiladi:

(a-b) 2



**43-rasm.** Lunge nitrometri:  
a—o'lchash nayi;  
b—reaksion idish;  
c—simob rezervuari, a  
va m-jo'mraklar; D—  
baravarlashtirgich  
nay;  
g—voronka

bu formulada:

x—100 g sellulozadagi karboksil guruhlarning ekvivalent miqdori, mg hisobida.  
a—kontrol tajribada sarflangan 0,01 n li xlorid kislota miqdori ml hisobida.

b—0,01 n li xlorid kislotaning asosiy tajribada 50 ml eritmani titrlash uchun sarflangan miqdori, ml hisobida.

d—selluloza namunasining og'irligi, g hisobida.

Bu usulda birgina namuna ustida bir necha tekshirish o'tkazish mumkin. Buning uchun har qaysi tajriba oldidan namunani, xlorid kislotaning 0,1 n li 50 ml eritmasi va distillangan suv bilan yaxshilab yuvish kerak. Bunda namunadagi mineral tuzlar erib ketib, karboksil guruuhlar aktiv holga o'tadi.

2. 250 ml sig'imli konussimon kolbaga 0,5 g oksiselluloza tarkibida karbonat angidrid bo'lmagan 50 ml distillangan suv kalsiy asetatning 0,5 n li eritmasidan 30 ml solinib, uy haroratida 2 soat saqlanadi.

So'ngra selluloza birinchi raqamli shisha filtr orqali filtrlanadi. Reaksiya natijasida ajralib chiqqan sirka kislota miqdorini aniqlash uchun filtrat 70 ml gacha suyultiriladi va natriy gidroksidning 0,01 n li eritmasi bilan titrlanadi (indikator sifatida fenolftalein ishlataladi). Shu bilan bir vaqtida oksiselluloza solinmagan nazorat tajriba ham o'tkaziladi. Ishqor eritmasining nazorat tajriba ham o'tkaziladi. Ishqor eritmasining nazorat tajribaga sarflangan miqdori bilan oksisellulozalari eritmani titrashga sarflangan miqdori orasidagi farqdan oksisellulozadagi karboksil guruhi miqdori aniqlanadi.

Oksiselluloza tarkibidagi karboksil guruhi miqdori quyidagicha topiladi:

$$m_{COOH} = \frac{(a-b) \cdot 0,00045 \cdot 8}{7 \cdot g} \cdot 100$$

bu yerda:

a — natriy gidroksid 0,01 n li eritmasining asosiy tajribada sarflangan miqdori, ml hisobida.

b — natriy gidroksid 0,01 n li eritmasining nazorat tajribada sarflangan miqdori, ml hisobida.

g — selluloza namunasining mutlaqo suvsiz holidagi og'irligi, g hisobida.

0,00045 — karboksil guruhi natriy gidroksid 0,01 n li eritmasidan 1 millilitriga ekvivalent miqdori.

### KARBONIL GURUHLARNING UMUMIY SONINI ANIQLASH

Oksisellulozadagi karbonil (aldegid va keton) guruhlarning umumiyligi miqdori xlorid kislotali gidroksilamin vositasida aniqlanadi. Reaksiya natijasida karbonil guruhi va gidroksilamin kondensatlanadi. Reaksiya sxemasi mana bunday ifodalanadi:



Ajralib chiqayotgan xlorid kislota bromfenol ko'ki ishtirokida natriy gidroksid eritmasi bilan titrlanadi.

Gidroksilamin gidroxilid eritmasida rN=5 bo'lishi kerak. Eritma tayyorlash uchun 1 g sig'imli o'lchov kolbasiga qayta kristallangan xlorid kislotali gidroksilamindan 43 g, distillangan suvdan 700 ml va natriy gidroksidning 0,5 n li eritmasidan 207 ml

quyiladi. Eritma yaxshilab aralashtirilib, kolbaning belgisigacha suv qo'shiladi.

Karbonil guruhlarni aniqlash: 250 ml sig'imli konussimon kolbaga oksisellulozadan 0,1-0,2 g va xlorid kislotali yangi tayyorlangan gidroksilamin eritmasidan 25 ml quyiladi. Aralashma uy haroratida, qorong'i joyda 1,5 soat saqlanadi. Shu bilan bir vaqtda oksiselluloza solinmagan kontrol tajriba ham o'tkaziladi.

1,5 soat o'tgandan keyin oksiselluloza 2-raqamli shisha filtrda filtranib filtrat quruq kolbaga yig'iladi. So'ngra filtratdan 10 ml olib natriy gidroksidning 0,1 n li eritmasi bilan titrlanadi (indikator sifatida bromfenol ko'ki ishlataladi).

Kontrol tajribada 10 ml gidroksilamin eritmasi titrlanadi. Reaksiya natijasida ajralib chiqqan xlorid kislotaning miqdori nazorat va asosiy tajribalarda titrlash natijalari farqi aniqlanadi.

Oksiselluloza tarkibidagi karbonil guruhlar miqdori quyidagicha hisoblab chiqariladi:

$$x = \frac{28(a-b)}{10 \cdot 100 \cdot 10} \cdot 100$$

25  
g

bu formulada:

a — natriy gidroksid 0,1 n li eritmasining nazorat tajribada titrlashga sarflangan miqdori, ml hisobida.

b — natriy gidroksid 0,1 n li eritmasining asosiy tajribada titrlashga sarflangan miqdori, ml hisobida.

g — quruq namunaning og'irligi, g hisobida.

### 7-vazifa. Gomogen sharoitda asetillyuloza hosil qilish

Reaktiv va asboblar: paxta momig'i (5 g), suvsiz sirka kislota (60 ml), sirka angidrid (20 ml), solishtirma og'irligi 1,84 bo'lgan sulfat kislota (0,5 ml); 250 ml sig'imli, keng og'izli, zich berkitiladigan qopqoqli shisha idish (1 dona), 3 l sig'imli stakan (1 dona), suv hammomi (1 dona), Byuxner voronkasi (1 dona).

Shisha idishning harorati 15°C ga tushirilib, uning ichiga 5 g paxta momig'i, 20 ml suvsiz sirka kislota, 20 ml sirka angidrid va 0,5 ml sulfat kislota solinadi. Aralashma 40°C li suv hammomida 4-5 soat isitiladi. Bu vaqt ichida momiq triasellselluzaga aylanib, aralashmada erib ketadi. Hosil bo'lgan quyuq qiyomsimon (sarg'ish rangli) eritmaga

suvsiz sirka kislotadan yana 40 ml qo'shiladi. Bu vaqtida sellulozaning triasetat efiri pag'a-pag'a bo'lib cho'kadi. U suvda 24 soat saqlanadi, so'ngra Byuxner voronkasida sulfat ionlari yo'qolguncha yuviladi va quritiladi.

- 1-topshiriq. Hosil bo'lган asetilsellulozaning miqdori aniqlansin.
- 2-topshiriq. Asetilsellulozadagi asetil guruhlar miqdori aniqlansin.

#### **8-vazifa. Geterogen sharoitda asetilselluloza hosil qilish**

Reaktiv va asboblar: paxta momig'i (5 g), sulfat kislota (0,75 g), suvsiz sirka kislota (5 g), sirka angidrid (30 g), benzol (yoki toluol) (200 g), etil spirit (200 g); 250 ml sig'imli, qaytarma sovtgich bilan jihozlangan yumaloq tubli kolba (1 dona), suv hammomi (1 dona), Byuxner voronkasi (1 dona).

Yumaloq tubli kolbagaga paxta momig'idan 5 g va suvsiz sirka kislotadan 5 g solinib, uy haroratida 24 soat saqlanadi. So'ngra, 30 g sirka angidrid, 90 g benzol (yoki toluol) va 0,75 g sulfat kislota qo'shib, suv hammomida 40-50°C da isitiladi. 8 soat o'tgach, hosil bo'lган tola shaklidagi atsetillyuloza Byuxner voronkasida oldin benzol bilan, so'ngra spirit bilan yuviladi. Atsetillyuloza quritilib, keyin analiz qilinadi.

- 1-topshiriq. Hosil bo'lган asetillyuloza miqdori aniqlansin.
- 2-topshiriq. Asetillyulozaning eruvchanligi va nisbiy qovushoqligi aniqlansin.

#### **9-vazifa. Ikkilamchi asetilselluloza hosil qilish**

Reaktiv va asboblar: yangi hosil qilingan triasetilselluloza eritmasi (50 ml), suvsiz sirka kislota (100 g); 250 ml sig'imli konussimon kolba (1 dona), 21 sig'imli stakan (1 dona), Byuxner voronkasi (1 dona).

Konussimon kolbagaga gomogen sharoitda olingan triasetilselluloza eritmasidan 50 ml, suvsiz sirka kislotasidan 1,05 g, 0,9 g suv va 0,1 g sulfat kislota solinadi. Kolba uy haroratida (18-20°C da) 48 soat saqlanadi va unga suvsiz sirka kislotadan 100 g chamasini qo'shib suyultiriladi. Eritma 0°C li suv solingan stakanga quyiladi. Natijada ikkilamchi asetillyuloza hosil bo'lib, u pag'a-pag'a holda cho'kadi. U suvda 24 soat saqlanadi, Byuxner voronkasida neytrallanguncha suv bilan yuviladi va og'irligi o'zgarmay qo'lguncha quritiladi.

1-topshiriq. Triasetilsellulozadagi va ikkilamchi asetilsellulozalardagi asetil guruhlar miqdori aniqlansin.

2-topshiriq. Ikkilamchi atsetillyulozaning asetondagi eritmasini nisbiy qovushoqligi va molekular og'irligi aniqlansin.

### Birikkan sirka kislota miqdorini aniqlash

250 ml sig'imli, konussimon kolbaga asetilselluloza, 5 ml toza etil spirit va natriy gidroksidning 0,5 n li 20 ml eritmasi quyiladi. Kolbaning og'zi klapanli rezina probka bilan yopilib, 60°C li termostatga 2,5 soat quyiladi. Eritma sovutilib ,sulfat kislotaning 0,5 n li eritmasi bilan neytrallanguncha titrlanadi. Ikkinchisi kolbada asetillyuliza namunasi solinmagan kontrol tajriba o'tkaziladi.

Olingan asetilsellulozadagi sirka kislotaning miqdori quyidagicha hisoblab topiladi:

$$x = \frac{0,03(a-b)}{c} \cdot 100$$

bu formulada:

a — sulfat kislota 0,5 n li eritmasining nazorat tajribada eritmani neytrallashga sarflangan hajmi, ml hisobida.

b — sulfat kislota 0,5 n li eritmasining asosiy tajribada eritmani neytrallashga sarflangan hajmi, ml hisobida.

c — mutlaqo quruq asetilsellulozaning og'irligi, g hisobida.

### 10-vazifa. Ksantogenat selluloza va viskoza hosil qilish

Reaktiv va asboblar: toza selluloza (16 g), natriy gidroksidning 17,5 % eritmasi (278 ml), uglerod sulfid (15 ml), natriy sulfatning 4 % li eritmasi (12 ml); 500 ml sig'imli keng og'izli va zich yopiladigan shisha idish (1 dona), 500 ml sig'imli polietilen idish (1 dona), qisqich (2 dona).

Shisha idishga natriy gidroksidning 17,5 % li eritmasidan 278 ml va 16 g selluloza solinib, 20°C da 20 minut saqlanadi. So'ngra selluloza Byuxner voronkasiga solinib, 160 g qolguncha filtrlanadi. Hosil bo'lgan ishqoriy selluloza ikkita qisqich bilan titib maydalanadi va 500 ml sig'imli polietilen idishga solinadi. Idish chayqatib turilib, unga 15 ml uglerod sulfid 120 minut davomida quyiladi.

Natijada, sellulozaning qizg'ish-sariq rangli ksantogenat efiri hosil bo'ladi. Ksantogenat efirdan sun'iy ipak yoki sellofan olinadigan viskoza tayyorlash mumkin. Buning uchun selluloza ksantogenati solingan polietilen idishga natriy gidroksidning 4 % li eritmasidan 60

ml va natriy sulfatning 10 % li eritmasidan 12 ml quyiladi. Natijada juda qovushoq eritma — viskoza hosil bo'ldi.

1-topshiriq. Selluloza ksantogenatining hosil bo'lish reaksiyasining tenglamasi yozilsin.

2-topshiriq. Selluloza ksantogenatining efirlanish darajasi aniqlansin.

### Selluloza ksantogenatining efirlanish darajasi (g) ni aniqlash

200 ml sig'imli o'lchov kolbasiga 20 g chamasni viskoza solinib,

kolbaning belgisigacha suv qo'shib suyultiriladi. Eritmadan 10 ml olinib, u sirka kislotaning 0,1 n li eritmasi bilan titrlanadi. Eritmaning qizg'ish-sariq rangi yo'qolganda, titrlash tugallanadi. Shu usulda sirka kislotaning tiokarbonatlarni parchalash uchun zarur bo'lgan miqdori aniqlanadi.

250 ml sig'imli qopqog'iga tomchilatma voronka va jo'mrakli shisha nay o'rnatilgan ikkita idish (47-rasm) ning har biriga o'lchov kolbasidan 50 ml eritma quyiladi. So'ngra, tomchilatma voronka orqali idishning biriga sulfat kislotaning esa sirka kislotaning 0,1 n li eritmasidan tiokarbonatlarni parchalash uchun zarur miqdordagidan 0,5 ml ortiq hajmda quyiladi. Kislotalar tomchilatib quyiladi, viskoza eritmasi esa doimo chayqatib turiladi. Kislotalar quyib bo'lгandan keyin idishlar 5 minut saqlanadi, so'ngra har qaysi idishga yodning 0,1 n li eritmasidan 30 ml quyiladi. Bu eritma giposulfitning 0,1 n li eritmasi bilan titrlanadi.

47-rasm. Qaytarma sovtgich va tomchilatma voronka bilan jihozlangan kolba

Ksantogenat efirining efirlanish darajasi mana bunday hisoblab topiladi.

23(a-b)

$$Na = \frac{100}{10 \cdot 100 \cdot p} \cdot 100$$

bu formulada:

a — giposulfit 0,1 n li eritmasining sulfat kislota qo'shilgan viskozani titrlashga sarflangan miqdori, ml hisobida.

b — giposulfit 0,1 n li eritmasining sirka kislota qo'shilgan viskozani titrlashga sarflangan miqdori, ml hisobida.

p — viskozaning 50 ml eritmasidagi a — sellulozaning miqdori, g hisobida.

a — sellulozaning miqdori bunday hisoblab topiladi:

$$p = \frac{c \cdot a \cdot 50}{100 \cdot 200}$$

bu formulada:

s — viskozaning og'irligi, g hisobida.

a — viskozadagi a — sellulozaning miqdori, % hisobida.

Olingan natijalardan ksantogenat esirning efirlanish darajasi (g) quyidagi hisoblab chiqariladi:

$$g = \frac{162 \% Na}{2300-98 \% Na} \cdot 100$$

#### Viskozadagi sellulozaning miqdorini aniqlash

100 ml sig'imli 5 % li sulfat kislotadan 50 ml solinib, uning ustiga 5-6 g viskoza eritmasi sekin-asta quylidi. Stakanda selluloza cho'kma ajralib chiqadi.

U 4-raqamli shisha filtrda suv bilan yuviladi. Cho'kma og'irligi o'zgarmay qolguncha quritilib, so'ngra tortiladi va sellulozaning miqdori hisoblab topiladi:

$$x = \frac{a-b}{g} \cdot 100$$

bu formulada:

a — shisha filtrning cho'kma bilan birqalikdagi og'irligi, g hisobida.

b — bo'sh shisha filtrning og'irligi, g hisobida.

g — viskoza eritmasining og'irligi, g hisobida.

## NITROSELLULOZA HOSIL QILISH

Nitratlovchi aralashma tayyorlashda quyidagilarni nazarda tutish: barcha jarayonlarni ohistalik bilan olib borish va laboratoriyyada ishslash vaqtida xavfsizlik texnikasining barcha qoidalariga rioya qilish zarur.

Solishtirma og'irligi katta sulfat kislotani solishtirma og'irligi kichikroq nitrat kislotaga oz-ozdan quyib, doimo aralashtirib turish kerak.

Nitratlovchi aralashma og'zi shisha qopqoq bilan berkitiladigan idishda va sovuqda saqlanishi lozim. Yuqori darajada nitratlangan nitrosellulozani etil yoki metil spirtda oz miqdorda saqlash, alangadan uzoqroq tutish va unga zarba bermaslik kerak. Aks holda, nitroselluloza portlab ketadi. Nitrosellulozaning analizdan qolgan namunalarini talabalar o'qituvchiga ho'lligicha topshiri shart.

### 11-vazifa. Yuqori gammali nitroselluloza (piroksilin) hosil qilish

#### *I-usul*

Reaktiv va asboblar: paxta momig'i (5 g), nitratlovchi aralashma (73 %  $\text{N}_2\text{SO}_4$ , 25,77 %  $\text{NNO}_3$  va 1,23 %  $\text{N}_2\text{O}$ ) (375ml), 50 % li sirkva kislota (400 ml); 1 l sig'imli stakan (2 dona), Byuxner voronkasi (1 dona), qaytarma sovutgich bilan jihozlangan kolba (1 dona).

1 l sig'imli stakaniga nitratlovchi aralashmadan 375 ml quyiladi va uning ustiga 5 g paxta momig'i oz-ozdan solinib, shisha tayoqcha bilan aralashtirib turiladi.

Aralashma harorati 20°C dan yuqori bo'limgan termostatga 3-5 soat quyiladi.

So'ngra stakan muzli suvda sovuilib, hosil bo'lgan nitroselluloza Byuxner voronkasida suyuqlikdan ajratiladi. Shundan keyin, u sirkva kislotaning 50 % li eritmasiga solinadi. So'ngra, nitroselluloza stakandan olinib, sirkva kislotadan ajratiladi va qaytarma sovutgich bilan jihozlangan kolbaga solinib, sirkva kislotaning 50 % li eritmasi ishtirokida 1 soat qaynatiladi.

Nitroselluloza sirkva kislota yo'qolguncha, Byuxner voronkasida distillangan suv bilan yuviladi. Olingan toza nitroselluloza havoda yoki 50°C dan yuqori bo'lmagan haroratda quritiladi.

## 2- usul

Reaktiv va asboblar: paxta momig'i (5 g), nitratlovchi aralashma (50 %  $N_3RO_4$  va 50 %  $NNO_3$ ) (300 ml), sirkə kislotanıng 50 % li eritması (200 ml); 1 l sig'imli stakan (1 dona), qaytarma sovutgich bilan jihozlangan kolba (1 dona), shisha tayoqchalar, Byuxner voronkasi (1 dona).

1 l sig'imli stakanga nitratlovchi aralashmadan 300 ml quyilib, uning ustiga 5 g quruq paxta momig'i oz-ozdan solinadi-da, tez-tez aralashtirilib turiladi. Aralashma 20°C li termostatda 4 soat saqlanadi va Byuxner voronkasida ajratiladi. Nitroselluloza qaytarma sovutgich bilan jihozlangan kolbag'a solinib, uning ustiga sirkə kislotanıng 50 % li eritmasidan 200 ml quyiladi-da, 1 soat qaynatiladi, shundan keyin esa distillangan suv bilan yuviladi. Olingan nitroselluloza havoda yoki eksikatorda quritiladi.

I-topshiriq. Nitrosellulozadagi azot miqdori aniqlansin.

## 12-vazifa. Yumshoq sharoitda nitroselluloza hosil qilish

Reaktiv va asboblar: selluloza namunasi (1 g), nitratlovchi aralashma (konsentrangan nitrat kislotadan 6 hissa, kristall holatdag'i fosfat kislotadan 5 hissa va fosfat angidriddan 4 hissa) (50 ml), 50% li sirkə kislota (300 ml); 200 ml sig'imli, og'zi zich berkiladigan shisha idish (1 dona), 500 ml sig'imli stakan (1 dona), 2-raqamli filtr va Byuxner voronkasi (1 dona).

Selluloza namunasi maydalanim, 50°C li vakuum — shkafda yoki fosfat oksid solingen eksikatorda quritiladi. Nitratlovchi aralashma tayyorlash uchun solishtirma og'irligi 1,52 bo'lgan nitrat kislotadan 6 hissa, kristall holatdag'i fosfat kislota ( $N_3RO_4 \cdot \frac{1}{2}N_2O$ ) dan 5 hissa, va fosfat angidriddan 4 hissa, olib aralashtiriladi. Bunda oldin fosfat kislota fosfat angidrid bilan aralashtiriladi. Bu vaqtida aralashma qizib ketadi. U sovutilib nitrat kislota qo'shiladi. Hosil bo'lgan nitratlovchi aralashmani og'zi mahkam yopiladigan idishda 3 kungacha saqlash mumkin.

200 ml sig'imli, og'zi zich berkiladigan shisha idishga nitratlovchi aralashmadan 50 ml solinib, idish muzli kristalizatorga qo'yiladi. So'ngra, idishga quritilgan va sovutilgan sellulozadan 1 g solinadi va 0°C da 6 soat saqlanadi. Bu vaqt ichida idishdagi aralashmani vaqt-vaqt bilan chayqatib qo'yish kerak.

Reaksiya tamom bo'lgandan keyin nitrotselluloza 2-raqamli shisha filtrda aralashmadan ajratiladi. Nitroselluloza 500 ml sig'imli stakanga

solinib, unga 0°C gacha sovutilgan 50 % li sirkal kislotadan 300 ml qo'shiladi. 10 minut o'tgach, nitroselluloza Byuxner voronkasiga solinib, oldin 50 % li sirkal kislota bilan 2-3 marta, so'ngra suv bilan neytrallanguncha yuviladi.

Tozalangan nitroselluloza metil spirtda 5-6 soat saqlanadi. Bu vaqt ichida metil spirtni bir necha marta aralashtirish kerak. Nitroselluloza vakuum — eksikatorda fosfat oksid ustida og'irligi o'zgarmay qolguncha quritiladi.

1-topshiriq. Olingan nitrosellulozaning asetonda eruvchanligi aniqlansin.

2-topshiriq. Nitrosellulozadagi azot miqdori aniqlanib, efirlanish darajasi topilsin.

#### **O'rtacha gammali nitroselluloza (kolloksilin) hosil qilish**

Reaktiv va asboblar: paxta momig'i (5 g), nitratlovchi aralashma (62 %  $N_2SO_4$ , 18,7%  $NNO_3$  va 19,3%  $N_2O$ ) (300ml), 500 ml sig'imli stakan (1 dona), 3000 ml sig'imli stakan (1 dona), Byuxner voronkasi (1 dona), shisha tayoqchalar.


500 ml sig'imli stakaniga nitratlovchi aralashmadan 300 ml va quritilgan paxta momig'idan 5 g solinadi. Stakan harorati 35°C dan past termostatda 90 minut saqlanadi. So'ngra nitroselluloza Byuxner voronkasida filtrlanib, shamilgan suyuqlik chiqarib yuboriladi. 3 l sig'imli stakanagi 2,5 l sovuq suvgaga voronkadagi nitroselluloza solinadi. So'ngra nitroselluloza Byuxner voronkasida qaynoq suv bilan 10-12 marta yuviladi. Olingan modda oldin ikki varaq filtr qog'oz orasida keyin esa sulfat kislota yoki fosfat angidrid solingan eksikatorda quritiladi.

1-topshiriq. Paxta momig'i va nitrosellulozaning eruvchanliklari bir-biriga solishtirilsin.

2-topshiriq. Reaksiyaning tenglamasi yozilsin.

#### **Nitrosellulozadagi azot miqdorini aniqlash**

Nitrosellulozadagi azot Lunge nitrometrida aniqlanadi. Bu usul nitrat kislotaning hamda nitrat kislota birikmalarining xlorid kislota, temir (II)-xlorid yoki simob va sulfat kislota ishtirotkida azot oksidi hosil qilishiga asoslangan. Hosil bo'lgan azot oksidining hajmi o'lchanadi va shunga asoslanib, birikmalardagi azotning miqdori hisoblab topiladi. Sulfat kislota va simob ishtirotkida boradigan reaksiyaning sxemasi mana bunday:




Xlorid kislota va temir (II)-xlorid ishtirokida boradigan reaksiyaning sxemasi quyidagicha bo'ldi:



Reaksiya natijasida hosil bo'lgan azot oksidi Lunge usuli bilan o'lchanadi.

Lunge nitrometri ikki qismidan: reaksiyon idish va gaz o'lchash buretkalaridan iborat (44-rasm). Buretkalarning har birida tenglashtiruvchi naylar bor. Ular rezina naylar va gaz yo'lini berkitib qo'yuvchi jo'mraklar vositasida tutashtirilgan. Reaksiyon idishda moddalarni tushirish uchun voronka bor.

Asbobning ikkala qismi boshlashdan oldin simob bilan to'ldiriladi. Analiz uchun maydalangan va quruq nitrosellulozadan 0,3-0,5 g olinadi. Namuna zinch berkitiladigan qopqoqli stakanga solinadi va konsentrangan 10 ml sulfat kislotada eritiladi. Nitroselluloza uy haroratida ohistolik bilan aralashtirib turib eritiladi, hosil bo'lgan eritma voronka (g) ga quyiladi va jo'mrak (a) orqali



44-rasm. Alkoksil guruhlarni aniqlash asbobi:

1-kapillyar; 2, 3, 7 va 8-yuvgich idishlari; 4-yutтирish probirkasi;  
7-reaksion kolba; 6-Kipp apparati

reaksion idish (V) ga tushiriladi. Eritma quyishdan oldin tenglashtiruvchi nay yordamida idish (V) dagi havo chiqarib yuboriladi. Bu vaqtida simob jo'mrak naydagi kanallargacha kirishi kerak. Stakan hamda voronka 50 % li sulfat kislota bilan 3 marta (har gal 5 ml da) chayilib, chayindi reaksiyon idish (V) ga quyiladi (agar idishga havo kirib qolsa, uni simob yordamida chiqarib yuborish zarur). So'ngra idish (V) ni qiyshaytirib turib, bir necha marta qattiq chayqatish kerak. Idishni chayqatish, unga solingan eritmadan azot oksidi pufakchalarini chiqib tamomlanguncha davom ettiriladi. Idish (V) da hosil bo'lgan azot oksidi o'chash nayi (d) ga shunday o'tkaziladi. Buning uchun asbob (V) rezina nay yoki shrif yordamida nay (d) ga ulanadi. Idishdagi azot oksidi nay (d) ga shunday o'tkaziladi: tenglashtiruvchi nay (D) tushirilib, boshqa nay (S) ko'tariladi: va jo'mraklar (m va a) ochiladi. So'ngra, idishdagi gazning hammasi o'tib, jo'mrak (a) ning kapillyariga kislota kirishi bilan jo'mraklar tezda yopiladi. Naydagi gazning harorati uy haroratiga tenglashgandan keyin, ikkala tomondagi simobning balandligi tenglashtiriladi va naydagi azot oksidining hajmi o'chanadi.

Nitrosellulozadagi azotning % hisobidagi miqdori quyidagicha topiladi:

$$N_2 = \frac{0,0006287 \cdot v}{a} \cdot 100$$

bu formulada:

v — nayda yig'ilgan azot oksidining normal sharoitdagi ( $0^{\circ}\text{C}$  va  $760 \text{ mm bosimdagি}$ ) miqdori,  $\text{sm}^3$  hisobida.

a — nitrotselluloza namunasining og'irligi, g hisobida.

$0,0006287 \cdot 1 \text{ sm}^3$  azot oksididagi azotning miqdori.


### SELLULOZANING ODDIY EFIRLARI

Sellulozaning oddiy efirlarida ajoyib xossalar bor, jumladan: ular yordamida kimyoviy reagentlar suv nur issiqlik va sovuq ta'siriga chidamli bo'ladi.


Bu oddiy efirlar ko'pchilik erituvchilarida va ba'zilari suvda ham eriganligi uchun plyonka, lok, plastmassa va yelimlar tayyorlashda foydalaniлади.

Odatda, oddiy efirlar hosil qilish uchun sellulozaga ishqoriy muhitda galloidalkil yoki alkilsulfatlar ta'sir ettiriladi.

Selluloza va dimetilsulfat orasida bo'ladigan reaksiyalarni quyidagicha ifodalash mumkin:



Bu usulda metil va etil sellulozalargina olinishi mumkin. Selluloza bilan galloidalkillar orasida bo'ladigan reaksiya quyidagicha ifodalananadi:



bunda: R — alkil radikali;

X — galloid atomlari.

Bunday reaksiyalarda reagentlarning sarflanishi haroratga va ishqorning konsentratsiyasiga bog'liq.

Harorat ko'tarilgan sari ikkinchi darajali reaksiyalar kuchayib galloidalkil surʼi bo'ldi.

Sellulozaning oddiy efirlari kislota va ishqorlar ta'siriga juda chidamli bo'ldi, ulardagi efir guruhlarini gidroliz usuli bilan aniqlab bo'lmaydi. Sanoatda ahamiyati katta bo'lган efirlarning g qiymati 150-250 atrofidadir; g qiymati 280-300 bo'lган namunalar olish uchun ularni bir necha marta efirlash lozim.

Selluloza oddiy efirlarining xossalari alkil radikalining hajmiga bog'liq bo'ldi.

Alkil radikallarining kattalashuvi bilan makromolekulalararo ta'sir etuvchi kuchlar zaiflashadi. Bu usulda sellulozaning har qanday oddiy efirini hosil qilish mumkin. Reaksiya 80-100°C dan yuqori haroratda bosim ostida 8-10 soat davom etadi.

Barcha galloid alkillar orasida reaksiyaga eng aktivи brom alkillaridir.

Galloidalkilning molekular og'irligi ortgan sari reaksiyaga aktivligi kamayadi. Reaksiyada natriy hidroxid eritmasining ishtirok etishi sellulozani bo'ktirib, reagentlarning tolalar orasiga diffuziyalanishini osonlashtiradi va shu sababli reaksiyaning orasiga diffuziyalanishini osonlashtiradi va shu sababi reaksiyaning ezeligini oshiradi. Ba'zi efirlarni, jumladan, metiltsellulozani hosil qilishda ishqoriy eritmalar ishlatalmay, piridin yoki to'rtlamchi ammoniy guruhlari mavjud bo'lган moddalardan


foydalaniш mumkin. Biroq sanoatda asosan ishqoriy selluloza tayyorlashda foydalilanidi. Shu bilan birga efirning yumshash harorati suv yutish xossasi va mustahkamligi ancha pasayadi.

Selluloza oddiy efirlarning eruvchanligi radikalining tabiatiga namunaning polimerlanish va efirlanish darajalari hamda polidispersligi chambarchas bog'liqidir.

Efirlanish darajasi 40-70 atrofida bo'lgan etillyuloza ishqorining suyultirilgan eritmalarida efirlanish darajasi 100-150 bo'lgan etil sellulozalar esa suvda eriydi.

Efirlanish darajasi 150 dan ortiq bo'lgan etilselluloza va boshqa efirlar organik erituvchilardagina eriydi.

Selluloza oddiy efirlarining darajasini aniqlash uchun ularni konsentrangan yodid kislotasi ta'sirida parchalash lozim. Bu reaksiyaning sxemasini quyidagicha ifodalash mumkin:



Hosil bo'lgan yodalkil karbonat angidrid vositasida kumush nitratning spirtdagi eritmasiga o'tkaziladi. Ajralib chiqqan kumush yodidning miqdori aniqlanadi.

Quyidagi jadvalda= metil va etilsellulozalarning efirlanish darajalari va ulardagи alkoksil guruuhlar miqdori keltirilgan.

Efirlanish darajasi	Metilselluloza-OSN <sub>3</sub> , % hisobida	Etilselluloza-OSN <sub>2</sub> SN <sub>3</sub> , % hisobida
50	9,2	10,3
100	17,6	23,7
150	25,4	33,0
200	32,6	41,3
250	39,9	48,5
300	45,6	54,9

### 13-vazifa. Past gammali metilselluloza hosil qilish

Reaktiv va asboblar: paxta momig'i (10 g), natriy gidroksidning 17,5 % li eritmasi (100 ml), yangi haydalgan sulfat (10 ml), efir (70 ml); 150 ml sig'imli stakan (1 dona), 250 ml sig'imli, qaytarma sovtugich va qorgich bilan jihozlangan reaksiyaon kolba (1 dona). Byuxner voronkasi (1 dona).

150 ml sig'imli stakanga 10 g paxta momig'i, natriy gidroksidning 17,5 % li eritmasidan 100 ml solinib, uy haroratida 24 soat saqlanadi.

Bu vaqtida selluloza bo'kib, ishqoriy selluloza hosil bo'ladi. U 45 g qolguncha siqilib, eritmadan ajratiladi. So'ngra ishqoriy selluloza reaksiyon kolbaga solinib, uning ustiga 70 ml efir va 10 g yangi haydalgan dimetilsulfat quylidi (dimetilsulfat 40 mm bosimda 100°C haydaladi). Reaksiya 36 soat davom ettiriladi. Hosil bo'lgan metiltselluloza Byuxner voronkasiga solinib, oldin iliq so'ngra qaynoq suv bilan yuviladi. Shundan keyin metilselluloza natriy gidroksidning 17,5 % li eritmasi bilan chayilib, neytrallanguncha suv bilan yuviladi. Hosil qilingan past gammali selluloza og'irligi o'zgarmay qolguncha quritiladi (reaksiyani ventilyatsion shkaf ichida o'tkazish kerak, chunki dimetilsulfat zaharli moddadir).

1-topshiriq. Hosil bo'lgan selluloza efirining miqdori aniqlansin.

2-topshiriq. Metilsellulozadagi metoksil guruuhlar miqdori seyzel usulida aniqlansin.

#### **14-vazifa. Ikkilamchi asetilsellulozadan trimetilselluloza hosil qilish**

Reaktiv va asboblar: ikkilamchi asetiltselluloza 10 g, aseton (200 ml), dimetilsulfat (120 ml), natriy gidroksidning 30% li eritmasi (320 ml); uch og'izli, 1 l sig'imli, qaytarma sovutgich, tomchilatma voronka va qorgich bilan jihozlangan reaksiyon kolba (1 dona), 250 ml sig'imli zinch berkitiladigan probkali, konussimon kolba (1 dona), Byuxner voronkasi (1 dona), suv hammomi (1 dona).

250 ml sig'imli konussimon kolbaga 10 g ikkilamchi asetillyuloza va 200 ml aseton solinadi. Kolbaning og'zi berkitilib, 50-55°C li suv hammomida asetillyuloza erib ketguncha qizdiriladi.

So'ngra 1 l sig'imli reaksiyon kolbaga ikkilamchi asetilsellulozaning asetondagi eritmasi solinadi. Eritma yaxshilab aralashtirilgan holda tomchilatma voronka vositasida dimetilsulfatdan 12 ml va natriy gidroksidning 30 % li eritmasidan 32 ml solinadi. Eritma 10 minut davomida aralashtirilib, uning ustiga yana dimetilsulfatdan 12 ml va natriy gidroksidning 30 % li eritmasida 32 ml quylidi. Dimetilsulfat va natriy gidroksid qo'shib turiladi. Hammasi bo'lib, 120 ml dimetilsulfat va 320 ml natriy gidroksid eritmasi qo'shish kerak. Demak, bu reagentlarni asetilselluloza eritmasiga qo'shish uchun 100 minut vaqt kerak bo'ladi. Ishlatiladigan ishqor eritmasi asbest orqali filtrlanishi zarur. Reaksiya vaqtida kolbaning devorlari chetida cho'kma hosil

bo'ladi. Bu cho'kmani shisha tayoqcha yordamida eritmaga tushirish lozim. Reaksiya boshlangandan 30-40 minut o'tgach, kolbada bir jinsli esmulsiya hosil bo'ladi. Reaksiya tamom bo'lgandan keyin eritmadagi aseton haydab olinadi va aralashma qaynoq holda Byuxner voronkasida filtrlanadi. Filtrda qolgan mayda oq kukun — trimetilselluloza oldin aseton, so'ngra efir bilan chayiladi-da, havoda quritiladi. Odatda trimetilselluloza metoksil guruhlarning 45,6 % ini tashkil etadi.

1-topshiriq. Hosil bo'lgan trimetilsellulozaning miqdori aniqlansin.

2-topshiriq. Trimetilsellulozadagi metoksil guruuhlar miqdori aniqlansin.

3-topshiriq. Ikkilamchi asetilselluloza va dimetilsulfat orasida sodir bo'lgan reaksiyaning sxemasi yozilsin.

### 15-vazifa. Dietilsulfat yordamida etilselluloza hosil qilish

Reaktiv va asboblar: paxta momig'i (8 g), natriy gidroksidning 50 % li eritmasi (100 ml), benzol (100 ml), dietilsulfat (30 g), suvsiz natriy gidroksid (5 g); 250 ml sig'imli,sovutgich bilan jihozlangan distillatsion kolba (1 dona), ikki og'izli, 500 ml sig'imli, qaytarma sovutgich va tomchilatma voronka bilan jihozlangan kolba (1 dona), 150 ml sig'imli stakan (1 dona), suv hammomi (1 dona), Byuxner voronkasi (1 dona).






150 ml sig'imli stakanga paxta niomig'idan 8 g va natriy gidroksidning 50 % li eritmasidan 100 ml solinib, shisha tayyoqcha vositasida aralashtiriladi, so'ngra paxta momig'i 16 g ishqor eritmasi qolguncha siqib tashlanadi. Natijada 24 g paxta momig'i bilan ishqor eritmasining aralashmasi qoladi. Bu aralashma 250 ml sig'imli, disstillyatsion kolbaga solinib, uning ustiga 50 ml benzol quyiladi. So'ngra benzol suv hammomi vositasida haydab olinadi. 500 ml sig'imli kolbaga (49-rasm) ishqor va benzol bilan ishlov berilgan selluloza 1 ml suv va 50 ml benzol solinib, aralashma sovutiladi-da, 5 g suvsiz natriy gidroksid hamda 30 g dietilsulfat qo'shilib, suv hammomida 60-70°C da 4 soat saqlanadi. Byuxner voronkasiga solinib qaynoq suvda uzoq vaqt yuviladi. Yuvib bo'lingandan keyin voronkadagi etilselluloza vakuum — shkafda og'irligi o'zgarmay qolguncha quritiladi.

1-topshiriq. Hosil bo'lgan etilsellulozaning miqdori aniqlansin.

2-topshiriq. Selluloza efiridagi etoksil guruuhlar miqdori aniqlansin.

### Sellulozadagi metoksil va etoksil guruhlarni aniqlash

Metoksil guruhlarni aniqlash sellulozaning konsentrangan yodid kislota ta'sirida parchalanib, metil yodid hosil qilishiga asoslangan. Metil yodid brom ishtirokida yodat shakliga o'tadi, sulfat kislota ta'sirida esa yod ajralib chiqadi. Ajralib chiqqan miqdori natriy giposulfat vositasida titrlash yo'li bilan aniqlanadi. Bu reaksiyalarning sxemasi quyidagicha bo'ladi:



Sellulozadagi metoksil guruhlar miqdori 50-rasmda ko'rsatilgan asbobda aniqlanadi. Asbobdagи kapillyar (1)ning uchiga bir tomchi suv solinib, og'zi qopqoq bilan bekitiladi.

Bu suv yuttirish probirkasini mahkam bekitib turadi. Yuvish idishlari (2 va 3)ning 1/3 qismiga kadmiy sulfatning 10 % li va natriy giposulfitning 10 % li eritmaları aralashmasidan baravar miqdorlarda solinib, idishlar og'zi po'kak bilan bekitiladi. Bu eritmalar aralashmasi reaksiya vaqtida ajralib chiqqan yod hamda vodorod sulfidni yutib oladi. Singdiruvchi probirkaga (4)ga 10 g kaliy asetat 100 ml sirka kislota bilan 7-10 tomchi brom aralashmasidan 2-3 ml quyiladi.

Probirka (4)ning ichiga kapillyar (1)ning uchi tushiriladi va probirka og'zi chumoli kislota shimdirilgan paxta bilan yopib qo'yiladi. So'ngra, reaksiyon kolba (5)ga 0,1 g atrofida metiltselluloza bir necia bo'lak fenol, 3-4 tomchi sirka angidrid va solishtirma og'irligi 1,7 bo'lgan yodid kislotadan 25 ml solinadi. Kolba (5) asbobga shrif orqali ulanadi. Shundan keyin yig'ilgan asbobga karbonat angidrid o'tkazila boshlaydi. Karbonat angidrid Kipp apparati (6)da olinadi va yuvish idishlari (7 va 8) orqali tozalanadi. Yuvish idishlarining biri (7)da sodaning 10 % li eritmasi, ikkinchisi (8)da esa sulfat kislota bo'lishi kerak. Asbob orqali karbonat angidrid o'tkazish davom ettirilib, reaksiyon kolba (5) yog' hammomida qizdiriladi. Bu vaqtda temperatura 135-140°C ga ko'tarilib, kolbadagi aralashma qaynaydi. Aralashma 1 soat qaynatiladi, so'ngra, kolba (5) sovutilib, undan yana 30 minut davomida karbonat angidrid o'tkaziladi.

200 ml sig'imli, zici bekitadigan qopqoqli, konussimon kolbag'a 1 g natriy asetat solinib, uni eritish uchun juda oz miqdorda suv quyiladi.

Shu kolbaga yuttiresh probirkasiga eritma solinadi. Probirka distillangan suv bilan yuvilib, yuvindi ham konussimon kolbaga quyiladi. Kolbaga 3-5 tomchi chumoli kislota qo'shilsa, eritma rangsizlanadi. Shundan keyin kolbadagi eritmaga sulfat kislotaning 1,0 n li eritmasidan 10 ml va 0,5 g kaliy yodid solinib, kolba og'zi yopiladi-da, uy temperaturasida, qorong'i yerda 10 minut saqlanadi. Natijada eritma yoddan yod ajralib chiqadi. U kraxmal ishtirokida natriy giposulfidning 0,013 n li eritmasi bilan titrlanadi. Shu bilan bir vaqtida metilselluloza namunasi ishlatilmagan nazorat tajriba ham o'tkaziladi. Metilsellulozadagi metoksil guruhlari miqdori quyidagicha hisoblab topiladi:

$$OCH_3 = \frac{(a-b) \cdot 0,000672}{g} \cdot 100$$

bu formulada:

a — natriy giposulfit 0,013 n li eritmasining asosiy tajribada titrlashga sarflangan miqdori, ml hisobida.

b — natriy giposulfit 0,013 n li eritmasining nazorat tajribada titrlashga sarflangan miqdori, ml hisobida.

g — metilselluloza namunasining mutlaqo quruq holdagi og'irligi, g hisobida.

0,000672 — natriy giposulfitning 0,013 n li eritmasidan 1 millilitriga ekvivalent bo'lgan metoksil guruh miqdori.

Agar tajriba uchun etilselluloza olinsa, undagi etoksil guruhlarning miqdori ham yuqoridagicha aniqlanadi. Uning miqdorini hisoblashda formuladagi 0,000672 o'mniga 0,000975 ni qo'yish kerak, chunki natriy giposulfitning 0,013 n li eritmasidan 1 millilitrga 0,000975 g etoksil guruh ekvivalent bo'ladi.

### 16-vazifa. Karboksimetilselluloza hosil qilish

Reaktiv va asboblar: ishqoriy selluloza (10 g), natriymonoxlorasetat (8 g), metil spirt; 250 ml sig'imli, og'zi mahkam yopiladigan kolba (dona), chayqatish asbobi (1 dona), Byuxner voronkasi (1 dona), chinni kosacha (1 dona), sokslet asbobi (1 dona), 1 l sig'imli stakan 1 dona).

Tarkibida 30 % atrofida a — selluloza bo'lgan ishqoriy sellulozadan 10 g va natriymonoxlorasetatdan 8 g chinni kosachaga solinib, shisha tayoqcha bilan 20 minut davomida yaxshilab aralashtiriladi.

Aralashma 250 ml sig'imli, og'zi mahkam yopiladigan kolbaga solinib, chayqatish asbobi vositasida 1 soat chayqatiladi. Shundan keyin kolba oldin 45°C li termostatda 4 soat, so'ngra esa uy haroratida bir necha soat saqlanadi. Hosil bo'lgan modda 60 ml suvda eritilib, 1 l sig'imli stakanga quyiladi. Stakandagi eritmaga asta-sekin metil spirt quyilsa, karboksimetilselluloza cho'ka boshlaydi. Cho'kma Byuxner voronkasida filtrlab olinib, havonchada ozgina metil spirt bilan aralashtiriladi-da, yana filtrlanadi. Karboksimetilselluloza tarkibidagi osh tuzini yo'qotish uchun u sokslet asbobiciga solinib, metil spirt bilan 20-24 soat ekstraksiya qilinishi kerak.

1-topshiriq. Hosil bo'lgan karboksimetilsellulozaning miqdori aniqlansin.

2-topshiriq. Karboksimetilsellulozaning efirlanish darajasi aniqlansin.

#### **Karboksimetilsellulozaning (K.M.Ts.)ning efirlanish darajasi (g) ni aniqlash**

Bu usul karboksimetilsellulozaning misli tuzini hosil qilib, undagi mis miqdorini aniqlashga asoslangan.

Karboksimetilsellulozaning misli tuzi quyidagicha hosil qilinadi:  
karboksimetilsellulozaning natriyli tuzidan 8 g 1 l sig'imli stakanda 800 ml distillangan suvda eritiladi. Eritma sulfat kislotaning 0,1 n li eritmasi yordamida fenolftalein ishtrokida neytrallanadi.

Eritmada kuchsiz kislota muhitni hosil qilish uchun unga 0,1 n li sulfat kislotadan 5 ml qo'shiladi. Hosil bo'lgan tiniq eritma filtrlanib, uning ustiga mis sulfatning 0,25 n li eritmasidan buretka yordamida 150 ml quyiladi.

Karboksimetilsellulozaning misli tuzini to'la cho'ktirish uchun u uy haroratida 20 minut saqlanadi. So'ngra karboksimetilsellulozaning cho'ktirilgan misli tuzi chinni hovonchaga ohistalik bilan olinadi. Havonchadagi tuz ustiga 30 ml etil spirt solinib, ular aralashtiriladi va spirtning 20 % li eritmasi bilan bir necha marta dekantatsiya qilinadi.

So'ngra, tuzga yana 30 ml spirt qo'shilib, u yana 3-4 marta yuviladi. Natijada tuz tarkibidagi sulfat ionlari yuvilib ketadi.

Karboksimetilsellulozaning misli tozalab yuvilgan tuzini siqib, uning tarkibidagi suyuqlik chiqarib yuboriladi-da, tuzning o'zi soat oynasiga solinib, 40°C da 20 minut quritiladi. Karboksimetilsellulozaning hosil bo'lgan tuzi maydalaniib, undagi mis miqdori va namlik aniqlanadi.

Mis miqdorini aniqlash asosida karboksimetilsellulozaning esfirlanish darajasi topiladi.

Misning miqdori quyidagicha aniqlanadi:

250 ml sig'imli, konussimon kolbag'a karboksimetilsellulozaning misli tuzidan 0,5-0,6 g va distillangan suvdan 100 ml solinadi. Natijada tuzning suvdagi suspenziyasi hosil bo'ladi. Uning ustiga ammiakning 5 % li eritmasidan 5-8 ml tomiziladi. Agar suspenziya tinimasa, ammiak eritmasidan yana 2-3 tomchi qo'shiladi. Tinigan eritmaga sirka kislotaning 6 n li eritmasidan 2-3 ml quyiladi. Bunda eritma oqara boshlaydi. So'ngra eritma ustiga sirka kislotaning 6 n li eritmasidan 5 ml va 15 g kaliy yodid solinadi. Oradan 2 minut o'tgach, eritma natriy giposulfiting 0,1 n li eritmasi bilan titrlanadi.

Karboksimetilsellulozadagi mis miqdori quyidagi formulaga ko'ra topiladi:

$$Cu = \frac{a - 0,006357}{b} \cdot 100$$

bu formulada:

a — natriy giposulfit 0,1 n li eritmasining eritmani titrlashga sarflangan miqdori, ml hisobida;

b — karboksimetilselluloza namunasining mutlaqo suvsiz holdagi og'irligi, g hisobida;

0,006357 — natriy giposulfiting 0,1 n li eritmasidan 1 millilitriga ekvivalent mis miqdori, g hisobida.

So'ngra karboksimetilsellulozaning esfirlanish darajasi (g) quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$g = \frac{Cu \cdot 100}{12,67}$$

bu formulada:

Cu — misning miqdori, % hisobida;

12,67 — karboksimetilsellulozaning monoefiridagi misning miqdori.

## Ba'zi polimerlarning fizik-kimyoviy xossalari

Polymerning nomi Elementar bo'sg'ining tuzilishi	Molekular og'irligi	Solishitirma og'irligi, g/sm <sup>3</sup>	Yumshash harorati, °C	Shishalanish harorati, °C	Cho'zilish mustahkam- ligi, kg/sm <sup>2</sup>	Nisbiy cho'ziliv- chanligi, %	Yung moduli, kg/cm <sup>2</sup>	Solish- tirma hajmiy elektr qarsiligi, nm·sm
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>6</b>	<b>7</b>	<b>8</b>	<b>9</b>
Polietyljen [-CH <sub>2</sub> -CH <sub>2</sub> ] <sub>n</sub>	80000- 150000	0.92 0.94-0.96	108-110 120-134	70 60	210 400	500-600 800	(1.5- 2.2) 10 <sup>6</sup>	10 <sup>6</sup>
Polipropi- len [-CH <sub>2</sub> - CH <sub>3</sub> ] <sub>n</sub>	100000- 200000	0.90	164-168	-	350	500	7-9 10 <sup>5</sup>	8 10 <sup>5</sup>
Polizobu- tilen [-C <sub>2</sub> CH <sub>2</sub> ] <sub>n</sub>	100000- 200000	0.91	0	74	300	500	-	10 <sup>5</sup> -10 <sup>6</sup>
Polivinil- klorid [-CH-CH <sub>2</sub> ] <sub>n</sub> [Cl]	100000- 176000	1,6-1,75	130	75	280-490	10-5	4-10 <sup>3</sup>	10 <sup>4</sup> -10 <sup>6</sup>
Polivinil- idenklorid [-C-CH <sub>2</sub> ] <sub>n</sub> [Cl]	100000- 300000	1,875	185	17	150-500	15-25	0,35- 1,4-10 <sup>4</sup>	10 <sup>4</sup> -10 <sup>6</sup>
Polistirol [-CH-CH <sub>2</sub> ] <sub>n</sub> [C <sub>6</sub> H <sub>5</sub> ]	110000- 600000	1,05-1,07	70-100	81	350-650	2-5	0,33-10 <sup>5</sup>	10 <sup>7</sup> -10 <sup>8</sup>
Polytetra- floretilen [-CF <sub>2</sub> -CF <sub>2</sub> ] <sub>n</sub>	100000	2,1-2,3	327	-120	140-250	250-500	4700- 8500	1,9 10 <sup>8</sup>
Polivinil- smert [-CH-CH <sub>2</sub> ] <sub>n</sub> [OH]	70000- 100000	1,21-1,31	160°	73	700	1500	-	3,8 10 <sup>7</sup>
Polivinil- asetil [-CH-CH <sub>2</sub> ] <sub>n</sub> [OCOCH <sub>3</sub> ]	120000- 200000	1,2-1,6	40	28	600	400-500	-	3,1 10 <sup>4</sup>
Polimetil- metakrilat [-C <sub>2</sub> CH <sub>2</sub> ] <sub>n</sub> COOCH <sub>3</sub>	75000- 175000	1,18-1,3	100	57-68	420-700	1-15	0,20- 0,31	10 <sup>5</sup> -10 <sup>5</sup>

Poliakrilonitril	$[-\text{CH}(\text{CN})-\text{CH}_2-]_n$	125000-150000	1,14-1,15	220	100	2000	15-30	-	$10^{13}-10^{15}$
Polbutadiyen	$[-\text{CH}_2-\text{CH}=\text{CH}-\text{CH}_2-]_n$	100000-200000	0,89	-	-75	115	440	41-81	$10^{12}-10^{13}$
Poliizopren	$[\text{CH}_2-\text{C}(\text{CH}_3)=\text{CH}-\text{CH}_2]_n$	100000-200000	0,911	62	-72	77	1100	4	$3 \cdot 10^{14}$
Polixloropren-pren	$[\text{CH}_2\text{C}(\text{Cl})=\text{CH}-\text{CH}_2]_n$	100000-200000	1,229	158	-40	210-280	1100	30-45	$10^{10}-10^{12}$
Poliviniletilal	$[\text{CH}_2\text{CH}(\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CO})]_n$	80000-100000	1,35	88	-	500-600	15-25	40000	$8 \cdot 10^{16}$
Polivinilbutiral	$[\text{CH}_2\text{CH}(\text{CH}_2\text{CH}_2\text{O}-\text{CH}_2-\text{O}-\text{C}_2\text{H}_5)]_n$	80000-100000	1,10	65	-50	450-550	40-60	22000	$3 \cdot 10^{16}$
Polikapro-laktam	$[-\text{NH}-(\text{CH}_2)_5\text{CO}]_n$	25000-40000	1,14	214	45-50	500-800	150-200	$1,3 \cdot 10^{14}$	$2 \cdot 10^{14}$
Poligeksametilen-adipamid	$[-\text{NH}-(\text{CH}_2)_6-\text{NH}-\text{CO}-(\text{CH}_2)_4-\text{CO}-]_n$	15000-25000	1,14	251	47	800-1100	22-29	$12000-28000$	$10^{15}$
Polietilenterf-talat	$[-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{OOC}-\text{C}_6\text{H}_4-\text{COO}-]_n$	20000-40000	-	264	69	4500-50000	80-8	$(10-12) \cdot 10^3$	-
Mochevina-formaldegid	$\text{NHCH}_2\text{NCH}_2-\text{N}(\text{CO}\text{CO}-)\text{NCH}_2-\text{NCH}_2\text{NH}_2$	1000-3000	1,4-1,5	110	-	550-900	1-3	$0,6 \cdot 10^5$	$10^{12}-10^{13}$
Fenol-formaldegid smola	$\text{OH} \quad \text{OH}$ $[-\text{C}_6\text{H}_5\text{CH}_2\text{C}_6\text{H}_3\text{CH}_2]_n$	1000-2000	1,25-1,30	120-130	-	500-550	1-5	$0,5-0,6 \cdot 10^5$	$1-1,5 \cdot 10^{12}$
Poliform-aldegid	$[-\text{CH}_2-\text{O}-\text{CH}_2-\text{O}-]_n$	30000-80000	1,475	220-240	-	800	-	28700	-

7- jadval

*Erituvchilarining fizik-kimyoiy xossalari*

Nomi	Formulasi	Molekulayar og'irligi	Solishtirma og'irligi	Suyuqlanish harorati $T_s$ , °C	Oynash harorati $T_k$ , °C	Sindirish ko'sratkichi	Suvda eruvchanligi
1	2	3	4	5	6	7	8
Aseton	$\text{CH}_3\text{COCH}_3$	58,08	0,792	-95	56	1,3589	ke
Asetonitril	$\text{C}_2\text{H}_5\text{CH}_2\text{CN}$	41,05	0,7768 <sup>25</sup>	-45,7	81,6	1,3416 <sup>25</sup>	em
Benzol	$\text{C}_6\text{H}_6$	78,12	0,879	5,5	80,2	1,5017	em
n-Butanol	$\text{C}_4\text{H}_9\text{OH}$	74,12	0,8098	-80	117,7	1,3993	er
Butilasetat	$\text{CH}_3\text{COOC}_2\text{H}_5$	116,2	0,8813	-73,5	126,1	1,3941	ke
Butil kislotasi	$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{COOH}$	88,10	0,9587	-5,5	164,0	1,3991	er
n-Butilbromid	$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{Br}$	137,03	1,2685	-112,3	101,3	1,4398	em
n-Butilamin	$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{NH}_2$	73,14	0,7414	-50	76,2	1,4008	er
izo-Butanol	$\text{CH}_3-\text{CH}(\text{CH}_3)-\text{CH}_2-\text{OH}$	74,12	0,803	-108	108	1,3977 <sup>15</sup>	er
n-Geksan	$\text{C}_6\text{H}_{14}$	86,18	0,6603	-95	68,7	1,3751	em
n-Geptan	$\text{C}_7\text{H}_{16}$	100,21	0,6838	-91	98,4	1,3878	em
Dixloretan	$\text{ClCH}_2\text{CH}_2\text{Cl}$	98,97	1,256	-35,3	83,7	1,4443	em
Dioksan	$\text{O}-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{O}$ $\text{CH}_2-\text{CH}_2$	88,10	1,033	9,5-10,5	101,1	1,4224	er
Dimetilformamid	$\text{HCON}(\text{CH}_3)_2$	73,09	0,9445 <sup>25</sup>	-61	153,0	1,4269 <sup>25</sup>	ke
Dietil efiri	$\text{C}_2\text{H}_5\text{OC}_2\text{H}_5$	74,12	0,7135	-116,3	34,5	1,3542 <sup>17</sup>	ke
Dietilamin	$(\text{C}_2\text{H}_5)_2\text{NH}$	73,14	0,7056	-50	55,2	1,3864	er
Metiletilketon	$\text{CH}_3\text{COC}_2\text{H}_5$	72,10	0,805	-85,9	79,6	1,3814	er

1	2	3	4	5	6	7	8
Metanol	CH <sub>3</sub> OH	32,04	0,791	-97,8	64,7	1,3312 <sup>15</sup>	er
Metilenxlorid	CH <sub>2</sub> Cl <sub>2</sub>	84,94	1,326	-	40	1,4237	em
Metilasetat	CH <sub>3</sub> COOCH <sub>3</sub>	74,08	0,9390	-98	56,3	1,3619	ke
Nitrobenzol	C <sub>6</sub> H <sub>5</sub> NO <sub>2</sub>	123,12	1,2034	5,7	210,9	1,5530	em
0-Nitrofenol	HOCH <sub>3</sub> NO <sub>2</sub>	139,12	1,657	45	216		em
Nitroetan	C <sub>3</sub> H <sub>7</sub> NO <sub>2</sub>	75,08	1,0472 <sup>24</sup>	-90	114,8	1,3901	er
n-Oktan	C <sub>8</sub> H <sub>18</sub>	114,24	0,703	-57	125,6	1,3975	em
Propion kislotasi	CH <sub>3</sub> CH <sub>2</sub> COOH	74,08	0,992	-22	141,4	1,3874	er
n-Pentan	C <sub>5</sub> H <sub>12</sub>	72,15	0,6263	-130	36	1,3577	em
Piperidin		85,15	0,8606	-9	106	1,4530	er
Piridin		79,10	0,982	-41,8	115,6	1,5100	em
n-Pranol	C <sub>3</sub> H <sub>7</sub> OH	60,09	0,8035	-126	97,2	1,3850	er
izo-Propanol	(CH <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> -CH-OH	60,09	0,7855	-89,5	82,2	1,3776	er
Propilasetat	CH <sub>3</sub> COOC <sub>2</sub> H <sub>5</sub>	102,13	0,8867	-9,5	101,6	1,3844	ke
Propilformiat	HCOOC <sub>2</sub> H <sub>5</sub>	88,10	0,9006	-92,9	81,3	1,3769	ke
Propionitril	C <sub>3</sub> H <sub>7</sub> CN	55,08	0,7818	-91,9	97,2	1,3681 <sup>15</sup>	em
n-Propilbromid	C <sub>3</sub> H <sub>7</sub> Br	137,03	1,2686	112,3	101,3	1,4398	em
Sırka kislotası	CH <sub>3</sub> COOH	60,05	1,0492	16,6	118,1	1,3698 <sup>25</sup>	er
Toluol	C <sub>6</sub> H <sub>5</sub> CH <sub>3</sub>	92,14	0,866		110,6	1,4969	em

1	2	3	4	5	6	7	8
Trietilamin	(C <sub>2</sub> H <sub>5</sub> ) <sub>3</sub> N	101,2	0,7326 <sup>15</sup>	-114,7	89,4	1,4010	er
Tetrogidrofuran	CH <sub>2</sub> -CH <sub>2</sub> -CH <sub>2</sub> -O-CH <sub>2</sub>	72,10	0,888	-65	64-65	1,4076 <sup>21</sup>	er
Tetraeklorometan	SiCl <sub>4</sub>	153,84	1,595	-23,0	76,7	1,4631 <sup>15</sup>	em
Uglerodsulfid	CS <sub>2</sub>	76,14	1,263	-108,6	46,3	1,6315 <sup>15</sup>	em
Furan	C <sub>4</sub> H <sub>6</sub> O	68,07	0,9396	85,68	32	1,4216	em
Xlorbenzol	C <sub>6</sub> H <sub>5</sub> Cl	112,56	1,066	-45	132	1,5248	em
Xloroform	CHCl <sub>3</sub>	119,39	1,489	-63,5	61,2	1,4455	em
Tsiklogeksan	C <sub>6</sub> H <sub>12</sub>	84,17	0,7791	6,5	81	1,4290 <sup>15</sup>	em
Chumoli kislotası	HCOOH	46,03	1,220	8,4	100,7	1,3714	er
Etilbromid	CH <sub>3</sub> CH <sub>2</sub> Br	108,99	1,4555	-125,5	38,4	1,4239	em
Etanol	C <sub>2</sub> H <sub>5</sub> OH	46,07	0,7893	-117	78,3	1,3614	er
Etilasetat	CH <sub>3</sub> COOC <sub>2</sub> H <sub>5</sub>	88,104	0,9006	-83,97	77,11	1,3724	ke
Epixlorgidrin	CH <sub>2</sub> -CH(O)-CH <sub>2</sub> -Cl	92,5	1,1807	-57,2	116,1	1,4381	ke

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- А.Н. Григорьев, О.Я. Федотова.** Лабораторный практикум по технологии пластических масс. — М.: «Высшая школа», 1986.
- И.И.Исмаилов, А.Т.Джалилов, М.А. Аскаров.** Химически активные полимеры и олигомеры. — Т.: «ФАН», 1993.
- М.А. Асқаров, О.М. Яриев, Н. Едгоров.** Полимерлар химияси ва физикаси. — Т.: «Ўқитувчи», 1994.
- В.Н. Кулезнов, В.А. Щершнев.** Химия и физика полимеров. — М.: «Высшая школа», 1988.
- Химический энциклопедический словарь. — М.: 1983.
- М.А. Асқаров, Б.О. Ойходжайев, А.Б. Аловитдинов.** Полимерлар химияси. — Т.: «Ўқитувчи», 1982.
- И.И.Исмаилов, А.С. Рафиков.** Донорно-акцепторный механизм полимеризации. — Т.: «ТКТИ», 2003.
- А.С.Максумова, И.И.Исмаилов.** Полимерные соли: синтез, свойства, применение. — Т.: «Университет», 2002.
- M.A. Asqarov, R.Y.Ismailov, R.R.Ro'ziyev, I.A.Toshev.** Polimerlar fizikasi va kimyosi. — Т.: «Turon-iqbol», 2006.
- М.А.Асқаров, И.И. Исмоилов.** Полимерлар кимёси ва физикаси. — Т.: «Ўзбекистон», 2004

## MUNDARIJA

Kirish .....	4
--------------	---

### I BOB

Polimerlarning fizik-kimyoviy xossalari .....	10
Amorf polimerlarning uch fizik holati .....	12
Polimer eritmalari va plastifikatsiya .....	13
Polimerlarni tekshirish usullari .....	16
Polimerlarni tekshirishning fizik-kimyoviy usullari .....	17
Polimer xossalarni eritma holda o'rganish .....	18
Polimerlarning molekular massasini aniqlash .....	21
Qattiq holatdagi polimerni o'rganish .....	34
Polimerlarning mexanik xossalarni o'rganish .....	36
Polimerning shishalanish va qovushoq-oquvchanlik haroratlarini kargin tarozisida tekshirish .....	39
Konsistometr yordamida termomexanik grafikni chizish .....	41
Yumshash haroratini aniqlash .....	42
Polimerning kimyoviy analiz usullari .....	46
Polimerning miqdoriy analizi .....	47

### II BOB

Polimerlanish .....	62
Ionli va katalitik polimerlanish .....	71
Sopolimerlanish .....	77
Polimerlash usullari .....	79
1-vazifa. Metilmekrakrilatning fotopolimerlanishi .....	80
2-vazifa. Polimerlarning xossalari bilan monomerlarning tuzilishi orasidagi bog'lanishni aniqlash .....	81
3-vazifa. Polibutilmekrakrilatning molekular massasini initsiator miqdoriga bog'liqligini aniqlash .....	81
4-vazifa. Stirolning initsiator ishtirokida polimerlanishini tekshirish .....	82
5-vazifa. Stirolning initsiator va erituvchi ishtirokida polimerlanishini tekshirish .....	82
6-vazifa. Akrilonitrilning oksidlanish — qaytarilish polimerlanishi .....	83
7-vazifa. Stirolning oksidlanish — qaytarilish polimerlanishi .....	84
8-vazifa. Vinilasetatning emulsion polimerlanishi .....	84
9-vazifa. Metilmekrakrilatning suspenzion polimerlanishi .....	85
10-vazifa. Butilmekrakrilatning munchoqsimon polimerlanishi .....	85
11-vazifa. Butadiyening natriy metali ishtirokida polimerlanishi .....	86
12-vazifa. Akrilonitrilning natriyamid ishtirokida polimerlanishi .....	87
13-vazifa. Butadiyenning akrilonitril bilan emulsion sopolimerlanishi .....	88
14-vazifa. Metilmekrakrilatning stirol bilan sopolimerlanishi .....	88
15-vazifa. Kaprolaktamning tuz ishtirokida polimerlanishi .....	89
16-vazifa. Alifatik poliuretanlar sintezi .....	89

### III BOB

Polikondensatlanish .....	95
Polikondensatlanish reaksiyasa destruktiv jarayonlar .....	102
O'zaro aralashmaydigan suyuqliklar chegarasida boradigan polikondensatlanish .....	103
Fazoviy polikondensatlanish .....	105
1-vazifa. Adipin kislotaning etilenglikol bilan polikondensatlanishi .....	109
2-vazifa. Poligeksametilenadipinat (polefir)ning o'zaro aralashmas ikki suyuqlik chegarasida polikondensatlash yo'li bilan olinishi .....	110
3-vazifa. Ftal angidridning gliserin bilan polikondensatlanishi .....	111
4-vazifa. E — aminokapron kislotaning polikondensatlanishi .....	111
5-vazifa. E — geksametileniamininning adipin kislotasi bilan polikondensatlanishi .....	111
6- vazifa. O'zaro aralashmas ikki suyuqlik chegarasida polikondensatlanish yo'li bilan poligeksametilensebatsamid hosil qilish .....	113
7-vazifa. Metatoluilendiamininning adipin kislotasi bilan polikondensatlanishi .....	113
8-vazifa. Fenolning formaldegid bilan polikondensatlanishi (novolak hosil bo'lishi) .....	114
9-vazifa. Fenolning formaldegid bilan polikondensatlanishi (rezit hosil bo'lishi) ...	115
10-vazifa. Mochevinaning formaldegid bilan polikondensatlanishi .....	115
11-vazifa. Melaminning formaldegid bilan polikondensatlanishi .....	116

### VI BOB

Polimerlarda bo'ladigan kimyoviy o'zgarishlar .....	117
Polimeranaloyik o'zgarishlar .....	119
Makromolekular reaksiyalar .....	125
Polimerlar destruktasiyasi .....	130
Polieletkrolitlar .....	135
1-vazifa. Polietileni xlorlash .....	139
2-vazifa. Polivinilxloridni xlorlash .....	139
3-vazifa. Polivinilasetatdan gidrolizlash yo'li bilan polivinil spirt olish (ishqoriy usul) .....	140
4-vazifa. Polivinilasetatdan gidrolizlash yo'li bilan polivinil spirt olish (kislotali usul) .....	141
5-vazifa. Polivinil spirtini butilaldegid bilan asetallab polivinibutiral hosil qilish .	141
6-vazifa. Polivinil spirtini sirkaga aldegid bilan formaldegid aralashmasi yordamida asetallab, polivinilasetalformal hosil qilish .....	142
7-vazifa. Sirkaga angidrid yordamida polivinil spirtning efrinini hosil qilish ..	142
8-vazifa. Kauchuklarning monoxlorottingugurt ta'sirida vulqonlanishi .....	143
9-vazifa. Polistirol parchalab, stirol hosil qilish .....	143
10-vazifa. Polimetilmekatrilatni parchalab, metilmekatrilat hosil qilish .....	144
11 - vazifa. Novoloklardan foydalanib, kationit hosil qilish .....	144
12 - vazifa. Polistioldan foydalanib, kationit hosil qilish .....	145

V BOB

Selluloza va uning hosilalari .....	147
1-vazifa. Paxta momig'ini tozalash .....	153
2-vazifa. Qipiqdan selluloza olish .....	154
a) sellulozada uchraydigan yog', mum va smolalar miqdorini aniqlash .....	155
b) paxta momig'ining tozalik darajasini aniqlash .....	155
d) sellulozadagi pentozanlar miqdorini aniqlash .....	156
e) A — selluloza miqdorini aniqlash .....	158
f) gemitselluloza miqdorini aniqlash .....	159
g) selluloza viskozasi va selluloza mis-ammiak eritmalarining qovushoqligini aniqlash .....	159
Sellulozaning 1% li viskozali eritmasini tayyorlash .....	160
Sellulozaning mis-ammiak reaktividagi 1 % li eritmasini tayyorlash .....	161
Mis-ammiak reaktivi tayyorlash .....	161
Sellulozaning gidrolizlanish qonunlari .....	163
Sellulozani gidrolizlash usullari .....	165
3-vazifa. Gidrosellulozaning 2 % li xlorid kislota ta'sirida hosil qilinishi ...	166
4-vazifa. Sellulozani to'la gidrolizlash .....	166
Yod sonini aniqlash .....	167
Mis sonini aniqlash .....	168
5-vazifa. Oksisellulozaning 5 % li vodorod peroksid ta'sirida hosil qilinishi ...	169
6-vazifa. Oksisellulozaning nitrat kislota ta'sirida hosil qilinishi .....	170
Karboksil guruhlarni aniqlash usullari .....	170
Karbonil guruhlarning umumiy sonini aniqlash .....	172
7-vazifa. Gomogen sharoitda asetilselluloza hosil qilish .....	173
8-vazifa. Geterogen sharoitda asetilselluloza hosil qilish .....	174
9-vazifa. Ikkilamchi asetilselluloza hosil qilish .....	174
Birikkan sirkha kislota miqdorini aniqlash .....	175
10-vazifa. Ksantogenat selluloza va viskoza hosil qilish .....	175
Selluloza ksantogenatinning efirlanish darajasi (g) ni aniqlash .....	176
Viskozadagi sellulozaning miqdorini aniqlash .....	177
Nitroselluloza hosil qilish .....	178
11-vazifa. Yuqori gammali nitroselluloza (piroksilin) hosil qilish .....	178
12-Vazifa. Yumshoq sharoitda nitroselluloza hosil qilish .....	179
O'rtacha gammali nitroselluloza (kolloksilin) hosil qilish .....	180
Nitrosellulozadagi azot miqdorini aniqlash .....	180
Sellulozaning oddiy efirlari .....	182
13-vazifa. Past gammali metilselluloza hosil qilish .....	184
14-vazifa. Ikkilamchi atsetilsellulozadan trimetilselluloza hosil qilish .....	185
15-vazifa. Dietilsulfat yordamida etilselluloza hosil qilish .....	186
Sellulozadagi metoksil va etoksil guruhlarni aniqlash .....	187
16-vazifa. Karboksimetilselluloza hosil qilish .....	188
Karboksimetilsellulozaning (k.m.ts.)Ning efirlanish darajasi (g) ni aniqlash .....	189
Foydalilanilgan adabiyotlar .....	196

Ilmiy-uslubiy nashr

MIRXOJI ASQAROV, ISROIL ISMOILOV

**POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASIDAN AMALIY  
MASHG'ULOTLAR**

Muharrir Abduvali QUTBIDDIN

Badiiy muharrir Bahiddin BOZOROV

Tex. muharrir Yelena DEMCHENKO

Musahhih Alimurod TOJIYEV

Kompyuterda sahifalovchi Nodir RAHIMOV

IB № 41145

Bosishga 1.08.2006 y.da ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tobog'i 6,25. Shartli bosma tobog'i 10,50.

Adadi 1000 nusxa. Buyurtma № 176.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlod» nashriyot-matbaa markazida tayyorlandi.

«Yoshlar matbuoti» bosmaxonasida bosildi.

700113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

